

XALQ TA'LIMI

ISSN 2181-7839

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGINING
ILMIY-METODIK JURNALI

Muassis:

O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi

PUBLIC EDUCATION

SCIENTIFIC-METHODICAL JOURNAL
MINISTRY OF PUBLIC EDUCATION OF THE
REPUBLIC OF UZBEKISTAN


2016

1-son

(yanvar-fevral)

Jurnal 1918-yil dekabr oyidan chiqa boshlagan
O'zMAA tomonidan 2013-yil 4-martda qaytadan ro'yxatga olinib, 0104-raqamli guvohnoma berilgan.

TOSHKENT

	TAHRIRIYAT	
	4	Jismonan sog'lom farzandlar tarbiyalash ustuvor maqsadimizdir
	TA'LIM VA TARBIYA NAZARIYASI	
F.Yusupova	7	Hamkorlikdagi ta'limda muammoli vaziyatlardan foydalanish imkoniyatlari
	TA'LIM VA TARBIYA METODIKASI	
S.Shirmatov	11	Ingliz tilini o'rganish jarayonida talabalarda muloqot madaniyatini rivojlantirish
D.Shodmonqulova	16	Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ona tili darslarida badiiy asar matnidan foydalanish ko'nikmasini shakllantirish
S.Eshtemirov	21	O'quvchilarning fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishda qo'llaniladigan metodik tavsiyalarning o'rni
J.Mamatqosimov	26	Nomoddiy madaniy meros muhofazasi yuzasidan o'quvchilarning mustaqil ishini tashkil etish usullari
S.Abdurahmonov, S.Safayev	31	Talabalarga demografik jaraonlarni geografik axborot tizimlari yordamida kartalashtirishni o'rgatish
J.Usarov, M.O'sarova	36	Boshlang'ich sinflarda dars samaradorligini oshirish usullari
R.Jomonov	39	Ю, Я harfli so'zlarni o'zbek lotin alifbosiga o'girish masalalari
	ZAMONAVIY TA'LIM TEXNOLOGIYALARI	
S.Kulbayeva	43	O'quvchilarda nutqiy-intellektual salohiyatni shakllantirish yo'llari
	TA'LIMDA MENEJMENT	
M.Yuldashev	46	Ta'lim sifati va uni boshqarish
D.Raxmatullayev	50	Umumiy o'rta ta'lim muassasalarini boshqarishning metodologik jihatlar
	TA'LIMDA MONITORING	
A.Norboyev, M.Fayazova	55	Maktabda geografiya ta'limi: mavjud holat va muammolar
	KASB-HUNARGA YO'NALTIRISH	
B. Akbarov	59	O'quvchilarda kasbiy tafakkurni shakllantirish modeli
D. Raxmatullayeva	64	O'quvchilarni tadbirkorlik sohasidagi kasblarga yo'naltirish tamoyillari



HUQUQ VA HUQUQIY TARBIYA

B.Po'latov	71	Bola huquqlari himoyasiga oid xalqaro huquq normalarining milliy qonunchilikdagi ifodasi
Sh.Karimov, Z.Amirov	78	Yosh avlodni sog'lom va barkamol etib tarbiyalashda huquqiy hujjatlarning ahamiyati
R.Boymirzayeva, Z.Rasulova	83	Ta'lim muassasalarida huquqiy bilim berishning o'ziga xos xususiyatlari



MUSIQA VA SAN'AT TA'LIMI

F. Xalilov	87	Musiq davslarida o'quvchilarning musiqiy taassurotini kengaytirish xususiyatlari
A.Sulaymonov, Z.Sulaymonova	92	O'quvchilarda badiiy tahlil kompetensiyalarini shakllantirishda Sharq va G'arb tasviriy san'ati an'analaridan foydalanish



TA'LIMDA INNOVATSIYALAR

M.Qo'ldasheva	98	O'quvchilar bilimida aniqlangan bo'shliqlarni innovatsion usullar yordamida to'ldirishning o'ziga xos jihatlari
---------------	----	---



PSIXOLOGIYA

Sh.Rahimova	103	O'quvchilarning o'qimishlilik darajalarini tashxislash va nazorat qilishning didaktik xususiyatlari
Sh.Usmanova, A.Xaitov	108	Individ xulqi shakllanishida ijtimoiy va tabiiy omillarning ta'siri
O'.Shamsiyev	113	Oilaviy xolding – bola ijtimoiylashuvining psixologik mexanizmi



AXBOROT XAVFSIZLIGI

J.G'aniyev, O.Artikbayev	117	Globalashuv davrida milliy qadriyatlarining ta'lim-tarbiyadagi o'rni
--------------------------	-----	--



ТЕОРИЯ ОБРАЗОВАНИЯ И ВОСПИТАНИЯ

З.Сафарова	122	Педагогические подходы к развитию творческих способностей учащихся
------------	-----	--



СОВРЕМЕННЫЕ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫЕ ТЕХНОЛОГИИ

A.Садыкова	127	Педагогическая концепция использования информационных технологий в начальном образовании
------------	-----	--



ИННОВАЦИЯ В ОБРАЗОВАНИИ

M.Цой	134	Педагогическое проектирование электронного учебно-методического комплекса
-------	-----	---



МЕЖДУНАРОДНЫЙ ОПЫТ И ИНТЕГРАЦИЯ

Л.Горюнова, А.Пустошкина	138	Возможности образовательного пространства в становлении культурной идентичности школьников
--------------------------	-----	--

JISMONAN SOG'LOM FARZANDLAR TARBIYALASH USTUVOR MAQSADIMIZDIR

Mamlakatimizda mustaqillikning ilk yillaridanoq jismonan sog'lom va barkamol avlodni tarbiyalash borasidagi islohotlar tizimli va bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda. Bu borada jismoniy tarbiya va sport ta'lim tizimining uzviy qismi, farzandlar tarbiyasining muhim vositalaridan biriga aylandi. Sog'lom turmush tarzi kundalik hayotimizdan mustahkam o'rin olayotgani natijasida yosh avlod har tomonlama barkamol inson bo'lib voyaga yetmoqda.

O'quvchi-yoshlarni har tomonlama sog'lom va barkamol etib voyaga yetkazishda sportning o'rni beqiyos. O'tgan qisqa muddat ichida O'zbekistonning barcha hududida qurilib, foydalanishga topshirilgan zamonaviy sport majmualari, bolalar va o'smirlar sport maktablari, suzish havzalari, stadion va sport zallari ming-minglab yigit-qizlarga xizmat qilmoqda. Natijada yoshlar o'rtasida jismoniy tarbiya va sport ommalashmoqda, ularning salomatligi mustahkamlanib, o'z iqtidor va salohiyatini yuzaga chiqarayapti. Shu bilan birga xalqaro sport maydonlarida Vatanimiz sharafini munosib himoya qilishga qodir sportchilar voyaga yetdi va yetayapti.

Bugungi kunda o'quvchi-yoshlarni jismoniy tarbiya va sportga keng jalb etishga davlat siyosati darajasida e'tibor qaratilmoqda. Bunda, ayniqsa, mamlakatimizda an'anaviy tarzda tashkil etilayotgan uch bosqichli sport o'yinlari – "Umid nihollari", "Barkamol avlod" va "Universiada" musobaqalari jismoniy tarbiya va sport rivoji samaradorligini oshirib, sport turlarini ommalashtirish, yoshlarni sportga keng jalb etish, eng muhimi, sog'lom avlodni voyaga yetkazish, millat genofondining sofligini, salomatligini ta'minlash, komil insonni tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Prezidentimiz Islom Karimov 2016-yilni Sog'lom ona va bola yili deb e'lon qilar ekan, sog'lom va barkamol avlodni tarbiyalash vazifasi mustaqillikning ilk yillaridan e'tibor qaratib kelinayotgan muhim bir maqsad ekanligini ta'kidlab, sog'lom avlodni voyaga yetkazish borasida bolalarimiz o'rtasida jismoniy tarbiya va sportni yanada keng ommalashtirish, shu maqsadda yangi sport obyektlarini qurish, ularning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash kabi vazifalarga alohida e'tibor qaratdi.

Avvalo, sog'lom ona va sog'lom bola, deganda dastlab ko'z oldimizda ularning jismonan barkamolligi va yetukligi namoyon bo'ladi. Mazkur jihatlarni o'quvchi-yoshlar o'rtasida targ'ib etish maqsadida umumiy o'rta ta'lim maktablari, kollej va litseylar, oliy ta'lim muassasalari o'quvchi-talabalari o'rtasida jismoniy tarbiya va sportni yanada keng ommalashtirish, sport to'garaklari faoliyatini jonlantirish, turli sport tadbirlarini tashkil etish o'zining yuksak samarasini berishi, shubhasiz.

Hozirda xotin-qizlar sportini rivojlantirish, ularni sportga jalb etish borasida amalga oshirilayotgan keng ko'lamli ishlar ham o'z samarasini berib kelmoqda. Zero, buning zamirida oilalarimizda sog'lom ma'naviy muhitni tashkil qilishdek yuksak maqsad mujassamlashgani bugun hech kimga sir emas.

Xalqimizda "Sog'lom onadan sog'lom bola tug'iladi" degan naql bor. Shu bois xotin-qizlar jismoniy tarbiya va sportga keng jalb etilsa, bevosita ularning salomatliklari mustahkamlanadi, sport bilan shug'ullanish zaruratga aylanadi, eng muhimi, oilada jismoniy madaniyat shakllanadi.

Oilada ayolning jismoniy tarbiya bilan shug'ullanishi boshqa oila a'zolarini ham shunga jalb etadi. Bu odat farzandlar ruhiyatiga singadi. Kelajakda ushbu bolalar sportni o'zlarining uzluksiz hamrohiga aylantirishadi. Oilada jismoniy madaniyatning shakllanishi orqali sog'lom turmush tarzini targ'ib etilishi natijasida sog'lom onadan sog'lom farzand tug'ilishiga zamin bo'ladi. Chunki jismoniy madaniyati yuksak o'quvchi-yoshlarda sport bilan shug'ullanish, o'zining jismoniy barkamolligi va yetukligiga e'tibor qaratish va uni rivojlantirish ko'nikmasi bo'ladi. Ular sport va salomatlikning uzviy bog'liqligi, uning mohiyatini juda yaxshi tushunishadi.

Buning uchun, avvalo, xotin-qizlarimizning mas'uliyatini oshirib, ularning jismoniy bilimlarga ega bo'lish ko'nikmasini shakllantirish talab etiladi. Shunda ular farzandlarini sportga qiziqтира oladi, sog'lom turmush tarziga amal qilishga va unga e'tiborli bo'lishga unday oladi.

Yuqorida ta'kidlanganidek, sport va salomatlik bir-biri bilan uzviy bog'liq. Birini ikkinchisidan ajratishning iloji yo'q. Shu bois ustoz va murabbiylar quyidagilarga e'tibor berishsa, ko'zlangan maqsadga tezda erishadi:

- yoshlarning turmush tarzini sog'lomlashtirish, ya'ni jismoniy harakat, ratsional ovqatlanish, qulay kun tartibi, shaxsiy va umumiy gigiyena qoidalariga rioya qilish, chiniqtirish;

- "Boyligning boshi – sog'liq", "Bola sog'ligi – ona boyligi", "Pokliging – sog'liging", "Sog'lik – umrning garovi", "Chiniqqanga – gard yuqmas, tiniqqanga – dard" kabi hikmatli o'gitlar mazmun-mohiyatini yoshlar ongiga singdirish va ularga amal qilishga o'rgatish;

- jismoniy tarbiya va sport, salomatlik bilan bog'liq harakatli o'yinlar, bellashuvlar tashkil etish va uni yoshlar o'rtasida targ' qilish;

- qiz bolalarda sportga mehr uyg'otish bo'yicha tadbirlarni amalga oshirish;

- xonadonlarda sport jihozlari burchagini tashkil etish va h.k.

Mazkur chora-tadbirlar mamlakatimizda sog'lom va barkamol avlodni voyaga yetkazish borasidagi maqsadlarning bir bo'lagi, xolos. Ko'zlangan niyatni amalga oshirish uchun esa nafaqat oilaning, balki ta'lim muassasalari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarining o'zaro hamkorligini izchil va qat'iy tarzda yo'lga qo'yish kerak. Ularning sa'y-harakatlari tufayligina biz har bir oilada jismoniy va tibbiy madaniyatni shakllantira olamiz va sog'lom genofondga zamin yaratamiz.

Shu o'rinda yana bir masalaga e'tiborni qaratishni lozim deb topdik. Chunki bu masala ham bugun ustuvor qiymatga ega. Mamlakatimizda jismonan sog'lom va barkamol farzandlar tarbiyalashning kafolati sifatida bir qator qonun hujjatlari va dasturlar qabul qilingan. Jumladan, 2015-yil 5-sentyabrda matbuotda e'lon qilingan

O'zbekiston Respublikasining “Jismoniy tarbiya va sport to'g'risida”gi Qonunining yangi tahriri tom ma'noda mamlakatimizda jismoniy tarbiya va sport sohasini yangi bosqichga ko'tarishda muhim ahamiyatga ega. Qonunning 11-moddasi bevosita O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligining jismoniy tarbiya va sport sohasidagi vakolatlariga bag'ishlangan.

Ta'lim muassasalarida bolalar sportini rivojlantirish va ularning sport bazasini mustahkamlash, bolalar va o'quvchi-yoshlar o'rtasida jismoniy tarbiya-sog'lomlashtirish va sport tadbirlarini tashkil etish, jismoniy tarbiya va sport sohasidagi o'quv-uslubiy adabiyotlarni tayyorlash Xalq ta'limi vazirligi va uning tasarrufidagi barcha ta'lim muassasalarini yanada mas'uliyat bilan ishlashga undaydi.

Xususan, ta'lim maskanlarini yangi sport anjomlari bilan ta'minlash, mavjud sport zallari va maydonchalarini yaroqli holatga keltirish, maktabdan tashqari sport to'garaklari faoliyatini izchil tashkil etish, “Alpomish” va “Barchinoy” testlari bo'yicha o'quvchilarning jismoniy ko'rsatkichlarini muntazam nazorat qilish, turli sana va bayramlarga bag'ishlab sport musobaqalarini o'tkazish, jismoniy tarbiya darslarini yanada takomillashtirish ko'zlangan maqsadga erishishning samarali yo'li hisoblanadi.

Qonunning 29-moddasi ham ta'lim tizimida jismoniy tarbiya va sportni tashkil etishga oid chora-tadbirlarni o'z ichiga oladi. 30-modda esa, fuqarolarning ish joyi, yashash joyi hamda dam olish joyida jismoniy tarbiya va sportni tashkil etishga qaratilgan. Demak, qonunda jismoniy tarbiya va sport bilan shug'ullanish mamlakatimizda ommaviy tus olishi, u har bir xonadonga kirib borishi nazarda tutilgan bo'lib, bu har tomonlama barkamol va sog'lom avlodni voyaga yetkazish vazifasi istiqlolning dastlabki yillaridan beri ustuvor ahamiyat kasb etib kelayotganidan dalolat beradi.

Farzandlarimiz sport bilan shug'ullanar ekan, bundan faqat o'zining jismoniy quvvatini tiklash uchun emas, balki u orqali sog'lom turmush tarziga amal qilish, ma'naviy va jismoniy barkamollikka intilish, turli salbiy ta'sirlar va zararli odatlardan xalos bo'lish, kuchli xarakterni shakllantirish uchun shug'ullanishi lozim. Eng asosiysi, sport bilan muntazam shug'ullangan yigit-qizlarning tafakkuri tiniq bo'ladi, sog'lom fikrlay oladi. Bugungi kunda tobora avj olayotgan turli informatsion tahdidlarga qarshi turishni uddalaydi. Bu esa, tabiiyki, yoshlarimizning kelajakda yurt ravnaqiga xizmat qilishlari uchun fe'l-atvorini mustahkamlashning ishonchli kafolati bo'lib qoladi.

Feruzza YUSUPOVA,

T.N.Qori Niyoziy nomli O'zPFITI ilmiy xodimi

HAMKORLIKDAGI TA'LIMDA MUAMMOLI VAZIYATLARDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI

Annotatsiya

Maqolada o'quvchilar va o'qituvchilar o'rtasidagi pedagogik hamkorlik jarayonida zarur bo'ladigan vaziyatlar haqida ma'lumot berilgan. Pedagogik hamkorlik jarayonida amal qilish lozim bo'lgan muhim hodisalar, belgilar, muammoli vaziyatlarni hosil qilish, ziddiyatli topshiriqlarni bajarish masalalari batafsil yoritilgan.

Kalit so'zlar. Muammoli vaziyat, pedagogik hamkorlik, ziddiyatli topshiriq, muammoli ta'lim, ijodiy izlanish, tahlil.

Статья посвящена вопросу организации процесса педагогического сотрудничества на основе проблемных ситуаций. Автором определены условия и направления совместной деятельности учащихся в учебно-познавательном процессе, охарактеризованы приемы и методы создания проблемных ситуаций и деятельности учащихся, направленной на решение проблемных вопросов.

Ключевые слова. Проблемная ситуация, педагогическое сотрудничество, творческий поиск, проблемные задания, проблемное обучение, анализ.

This paper is devoted to organization of pedagogical collaboration based on cases. The author defines the conditions and directions of joint activities of students in teaching – the cognitive process of techniques and methods are characterized by the creation of problematic situations and activities of students, aimed at resolving problems.

Key words. Problem situation, research skills, independent thinking, joint activity, analysis, creativity, problem tasks, conflict, argument.

Oquv jarayonini o'quvchilar bilan o'qituvchi hamkorligi asosida tashkil etish natijasida ta'lim oluvchilarda bilish faolligi vujudga keladi, sinfda do'stona muhit qaror topadi. Ta'lim jarayoni subyektlari orasida o'zaro yaqinlik tarkib topadi.

Hamkorlik jarayonida o'quvchilar faoliyat subyekti sifatida jadal rivojlanish imkoniyatiga ega bo'ladi. Ularda faol hayotiy mavqe tarkib topadi.

O'quvchilar bilan o'qituvchining hamkorligi murakkab pedagogik hodisadir. Bu quyidagilarda namoyon bo'ladi:

– hamkorlik pedagogik munosabatlarning istiqbolli shakli sifatida o'qituvchi hamda o'quvchilarning o'zaro bir-birlarini tushinishlari, bir-birlariga ko'maklashishlariga asos bo'ladi;

– hamkorlikdagi faoliyatni tashkil etish usullari o'zaro tenglik asosida olib boriladi va mustaqillik, faollik, uyushganlik imkonini beradi;

– o‘qituvchi hamda o‘quvchilar orasidagi hamkorlik shakli ularning mehnati bir-birini qo‘llab-quvvatlash va ko‘maklashish asosida amalga oshirilganda o‘zaro ishlash ko‘nikmasi tarzida namoyon bo‘ladi. O‘quvchilar o‘qituvchi bilan kuchlarni birlashtirish hamda harakatlarni o‘zaro kelishish asosida hamkorlikka kirishadi.

Hamkorlik o‘qituvchi bilan o‘quvchilar nuqtayi nazarining yuqori darajada uyg‘unlashgan shaklidir. Bunday hamkorlik jarayonida subyekt-subyekt munosabatlari amalga oshadi.

Pedagogik hamkorlikning asosiy maqsadi – shaxsga yo‘naltirilgan ta‘lim jarayonida o‘quvchilarning bilimlar va harakat usullarini o‘zlashtirishlari, muloqot hamda ijtimoiy faollik ko‘nikmalariga ega bo‘lishlari uchun qulay pedagogik sharoit yaratishdan iborat. Pedagogik hamkorlik shuning uchun ham zarurki, bu jarayonda o‘quvchilar muayyan jamoada faoliyat ko‘rsatish, samarali mehnat qilish ko‘nikmasiga ega bo‘ladi. Shuningdek, o‘quvchilar kichik guruhlarda va yakka tarzda ishlash tajribasini ham o‘zlashtiradi.

Pedagogik hamkorlikning muhim belgilari sirasiga:

a) hamkorlik jarayonining umumiy maqsadini anglash, uning o‘qituvchi hamda o‘quvchilarni safarbar qilish imkoniyatini tushunib yetish;

b) hamkorlik jarayonida yutuqlarni qo‘lga kiritishga intilish, shu maqsadda hamkorlikka asoslangan manfaatdorlikka ega bo‘lish, faoliyatning ijobiy mayllarini hosil qilish;

d) o‘quv jarayoni subyektlari orasida birgalikdagi o‘quv mehnatini tashkil etish, buning uchun hamkorlik jarayoni subyektlarining quvvatlarini safarbar qilish;

e) faoliyat natijalari uchun o‘zaro birgalikda mas‘uliyatni his qilish;

f) o‘quv topshiriqlarini yechish jarayonida o‘quvchilar bilan o‘qituvchi orasida faolijobiy, nekinlikka asoslangan munosabat uslubini egallash;

g) o‘zaro ishonch, nekinlik, xushmuomalalik, qiyinchiliklarni va muvaffaqiyatsizliklarni bartaraf etishda hamkorlik qilish;

i) o‘qitish metodlari hamda o‘quvchilarning qiziqishlari, mustaqilliklari, ijodkorliklari, amaliy va intellektual tashabbuskorliklarini muayyan maqsadga yo‘naltirish;

ye) o‘quvchilar orasidagi o‘zaro hamkorlik ularning umumijamoa mehnati uchun mas‘uliyat ko‘rsatishlari, ishchan muloqotni amalga oshirishlarini ta‘minlash kabilar kiradi.

Hamkorlikdagi ta‘lim jarayonida muammoli vaziyatlarni hosil qilish alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki hamkorlikdagi o‘quv-biluv jarayonida o‘quvchilarning mustaqil fikrini uyg‘otish asosida ularning iqtidorlarini ro‘yobga chiqarish talab etiladi. Shundaygina o‘quvchini tabiiy voqelikni izlashga undovchi vaziyatlarni vujudga keltirish mumkin. O‘quvchilarning mustaqil fikrlari mahsuldor ta‘lim jarayonini vujudga keltirish uchun mustahkam asos yaratadi. Mazkur vaziyatning o‘ziga xos tarkibiy qismlari sifatida:

– muammoli vaziyatlarni vujudga keltirish va bilish topshiriqlarini aniqlash;
– o‘quvchilarning mustaqil fikriy faoliyatlarini vujudga keltirish;
– o‘quvchilarni topshiriqlarning yechimlarini izlashga va yangi bilimlarni o‘zlashtirishga yo‘naltirish;

– mashqlantiruvchi topshiriqlarni bajartirish jarayonida o‘quvchilarning yangi bilimlarini aniqlash, boyitish va chuqurlashtirish;

– izlanish xarakteridagi topshiriqlarni bajarish hamda mashqlantirish jarayonida o'quvchilar yangi bilimlarni o'zlashtirishlari uchun ularning mohiyatini anglash va egalashlariga sharoit yaratish kabilarni ko'rsatib o'tish mumkin.

Muammoli vaziyatlarda o'quvchilarni bilish faoliyatiga undovchi o'quv vaziyatlari ularning bilish faoliyatini faollashtirishga xizmat qiladi. Shu bilan bir qatorda mazkur o'quv vaziyatlari ularning moyilliklari va layoqatlarini ham ro'yobga chiqaradi.

Muammoli vaziyatlar o'zaro ziddiyatli topshiriqlar negizida vujudga keltiriladi. Agar o'quvchilarda muayyan topshiriqlarning tayyor javobi bo'lsa, ulardan fikriy zo'riqish talab etilmaydi. Shu bilan bir qatorda ushbu topshiriqlarni yechish jarayonida ular o'zlarida mavjud bo'lgan bilimlar zaxirasidan foydalanadilar. Masalan, 6-sinf "Botanika" darsligidan "Ildiz" mavzusi bo'yicha sinf o'quvchilari oldiga quyidagi muammoli savolni qo'yish mumkin: Qayerda o'sadigan o'simliklarning ildizlari yerga juda chuqur ketadi va nima uchun? Siz qanday fikrdasiz? Ularga misollar keltira olasizmi?

a) botqotda o'sadigan o'simliklar ildizlarimi?

b) o'tloqda o'sadigan o'simliklar ildizlarimi?

d) cho'lda o'sadigan o'simliklar ildizlarimi?

Muammoli vaziyatlarning o'ziga xos xususiyati shundaki, ular o'quvchilarni o'zlashtirgan bilimlari doirasida faollik ko'rsatishga undaydi, ularning yashirin imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishga ko'maklashadi. Shuning uchun ham bunday vaziyatlar o'quvchilarni izlanishga, fikriy faollikka undovchi muammolarni mujassamlashtirgan bo'ladi. Bilish topshiriqlarida muammoli vaziyatlarning xarakterli jihatlaridan biri ifodalangan bo'ladi. Chunki o'quvchilar oldiga qo'yiladigan bilish topshiriqlari ular o'zlashtirgan bilimlar doirasida shakllantiriladi. Muammoli vaziyatlarda o'quvchilar bilish topshiriqlarini yechishga jalb etiladi va qo'yilgan muammoni yechishga undalaydi. Bunday topshiriqlar tarkibida o'quvchi uchun ma'lum bo'lgan bilimlar, ma'lumotlar umumlashtirilib, shu asosda ular fikrlashga, ijodiy izlanishga yo'naltiriladi. O'quvchilarni mustaqil fikrlashga undovchi muammoli vaziyatlar o'zida psixologik holatlarni ham mujassamlashtirishi lozim. Bu xususiyatlar keltirilgan dalillarning yorqinligi, aniqligi, o'quvchini intellektual rivojlantirish xususiyatiga egaligi, bilish faolligiga unday olishi bilan ajralib turishi kerak. Shundagina ular o'quvchilarni bilish izlanishlariga undashi, ular uchun qiziqarli, jozibali bo'lib, ijodiy fikrlashga da'vat etadi. Bunday topshiriqlarni bajarish natijasida, birinchi navbatda, o'quvchilarning iqtidorlari va layoqatlari namoyon bo'ladi.

O'quv material mazmuni bilan bog'liq holda fan o'qituvchilari o'quvchilarning yosh xususiyatlariga tayanib, turli darajadagi muammoli topshiriqlarni ajratishlari maqsadga muvofiqdir. Ularni alohida-alohida tahlil etishga harakat qilamiz:

– o'xshatish usuli. Bu jarayonda o'quvchilar yangi topshiriqlarni yechish uchun o'zlashtirgan bilimlari yoki mavjud hayotiy tajribalaridan foydalanadi;

– onduksiyalash, tahliliy-umumlashtirish usuli. Mazkur jarayonda o'quvchilar ilmiy dalillar va hodisalarni mustaqil tahlil qilib, zarur xulosalar chiqaradi;

– o'quv materiallarini tahlil qilish tajribasiga tayangan holda o'rganilgan hodisalarga muvofiq keladigan sabablarni izlaydi;

– ouammoli masalalarni ilgari surish usuli. Mazkur usul yordamida o'quvchilar muayyan tamoyillar va qonuniyatlarga tayangan holda yangi muammolarni yechish, bilimlarni o'zlashtirish va mazkur bilimlarni ijodiy qo'llash tajribasiga ega bo'ladi;

– o'zaro qarama-qarshi dalillar, farazlar va taxminlarni ilgari surish usuli;

– olimlarning fikrlari asosida muammoli vaziyatlarni vujudga keltirish usuli;

– muayyan dalil atrofida qarama-qarshi nuqtayi nazarlarni ilgari surish usuli.

O'quvchilarni intellektual rivojlantirish, ularning iqtidorlarini ro'yobga chiqarish nuqtayi nazaridan yondashgan holda muammoli ta'lim jarayonida yuqoridagi usullardan unumli foydalanish mumkin.

O'qituvchi tomonidan bilish muammolariga bag'ishlab bayon etilgan o'quv materiallaridan o'quvchilarning o'zlariga xuddi shunday bilish muammolarini topish, ularni aniq shakllantirish vazifasi berilganda o'quvchilarda asosiy dalillarni asoslash, tahlil etish imkoniyatlari kengayadi.

Chunki muammoli ta'lim dars jarayonida o'quv ishini tashkil etishning alohida ko'rinishidir. Bu jarayon o'quvchilarning bilish faoliyatlarini faollashtirish, ulardan mantiqiy jihatdan asoslangan mustahkam bilimlarni talab qilish maqsadida tashkil etiladi.

Muammoli vaziyatlardan foydalanish o'z ko'lamini va chegarasiga ega. Darslarda muammolardan foydalanmaslik natijasida tavsiflovchi materiallarni o'rganishga keng o'rin ajratiladi. Buning natijasida o'quv jarayonining mahsuldorligini ta'minlash va innovatsion usullarni qo'llash imkoniyati cheklanadi. Ba'zi hollarda muammoli vaziyatlarni hosil qilishdan ko'ra, o'quv materiallarini ma'ruza usulida bayon etish tezkorlikni ta'minlashi mumkin. Muammoli ta'limni qo'llash ko'lamining chegaralanganligi aksariyat o'quv darsliklarida muammoli vaziyatlarni hosil qilishga e'tibor qaratilmaganligidadir.

Bunday darsliklarda bayon qilingan o'quv materiallari o'quvchilarning reproduktiv faoliyatiga tayanilgan holda tanlangan. Darslarda qo'llaniladigan uslubiy ishlanmalarda ham bunday yondashuv o'z ifodasini topgan. Ularda ko'proq daliliy materiallar bayon qilinib, o'qituvchi dars materiallarini bayon qilish jarayonida undan foydalanadi. Bu shundan dalolat beradiki, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim jarayonida muammoli vaziyatlarni vujudga keltirish uchun mazkur vaziyatlarni tashkil etishning nazariy asoslari va uslubi ustida puxta o'ylangan chuqur izlanishlarni amalga oshirish talab etiladi.

Muammoli vaziyatlardan foydalanish jarayonida amalga oshirgan kuzatishlarimiz natijasida shunga ishonch hosil qildikki, mazkur vaziyatlar o'quvchilar uchun ongli tarzda vujudga keltirilgan qiyinchiliklarni hosil qilib, uni bartaraf etish uchun ta'lim oluvchilar ijodiy faollik ko'rsatishlari talab etiladi. Natijada o'quvchilar fikrlash, yechimlar izlash, o'ylash, hukmlar chiqarish, to'g'ri yechimlardan qoniqish va quvonish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bu esa, o'z navbatida, o'quvchilarda o'quv predmetiga nisbatan faol bilish qiziqishlarini vujudga keltiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. *Safarova R. va boshqalar. O'quvchilarda o'zaro do'stona munosabatlarga asoslanib hamkorlikda faoliyat ko'rsatish ko'nikmalarini shakllantirish jarayonini tashkil etish tamoyillari va parametrlari. – T.: “Fan va texnologiya”, 2013. – 142 b.*

2. *Дьяченко В.К. Сотрудничество в обучении: О коллективном способе учебной работы: Кн. для учителя. – М.: Просвещение, 1991. С.192.*

3. *Игнатова В. А. Педагогические аспекты синергетики /В. А. Игнатова // Педагогика. 2001. № 8.С. 26-31.*

Sirojiddin SHIRMATOV,
O'zR DBQ Oliy harbiy bojxona instituti
katta o'qituvchisi

INGLIZ TILINI O'RGANISH JARAYONIDA TALABALARDA MULOQOT MADANIYATINI RIVOJLANTIRISH

Annotatsiya

Maqolada muloqotning ijtimoiy-axloqiy me'yorlar va muloqot madaniyati qoidalariga ko'ra tashkil etilishi muhim ekanligi ta'kidlangan. Shuningdek, muallif muloqot jarayonining samarali, foydali bo'lishi uchun ingliz tilida tashkil etilayotgan suhbatlarning ijtimoiy-axloqiy me'yorlar va muloqot madaniyati qoidalariga muvofiq bo'lishiga erishish zarurligiga e'tibor qaratgan.

Kalit so'zlar. Muloqot, muloqot madaniyati, ingliz tilidagi muloqot, ijtimoiy-axloqiy me'yorlar, muloqot madaniyati qoidalari.

В статье отмечено значение организации общения в соответствии социально-моральными нормами и правилами культуры общения. Для эффективности процесса общения обращено внимание на необходимость проведения бесед, организуемых на английском языке согласно социально-моральным нормам и правилам культуры. **Ключевые слова.** Общение, культура общения, общение на английском языке, социально-моральные нормы, правила культуры общения.

The article is devoted to the importance of organizational communication in its social and moral norms and rules of culture. For the effectiveness of the communication process highlighted the need for conversations organized in the English language according to the social and moral norms and rules of culture. Also set out views relating to the effective use of speech effects in greetings, parting, forgiveness for certain errors or status of the interlocutor in expressing sympathy with his attitude to negative situations.

Key words. Communication, culture of communication, communication in English, social and moral norms, rules of communication culture.

Zamonaviy sharoitda shaxslararo munosabatni samarali tashkil etishda muloqot madaniyati qoidalariga rioya qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki texnika va texnologiyalarning jadal rivojlanishi o'z-o'zidan insoniyatni jonli muloqotdan "uzoqlashtirmoqda". Shaxslararo muloqotni tashkil etish imkoniyati yuzaga kelganda esa dialogda ishtirok etayotgan subyektlar tomonidan bir-birlarini yetarli-cha anglay olmaslik, suhbatdoshning fikrini to'g'ri tushunmaslik, buning natijasida esa turli ziddiyatlarning kelib chiqishi ko'p kuzatilmoqda. Shu sababli respublika uzluksiz ta'lim tizimining barcha bosqichlarida shaxsni muloqot jarayoniga samarali tayyorlash, unda muloqot madaniyatini shakllantirish hamda rivojlantirish masalasi dolzarbdir. Mazkur masalaning ijobiy hal qilinishida ta'lim muassasalarida o'qitilayotgan barcha o'quv fanlarining imkoniyatlaridan o'rinli, maqsadli va izchil foydalanishga erishish o'zi-

ga xos ahamiyat kasb etadi. Bu jarayonda, ayniqsa, til o'rganish imkoniyatini yaratuvchi – o'zbek, rus hamda boshqa xorijiy tillar (ingliz, nemis, fransuz, xitoy, arab tili va h.k.) asoslarini o'rgatuvchi fanlar muhim o'rin tutadi. Binobarin, shaxs milliy va xorijiy tillarni o'rganish jarayonida tabiiy ravishda tegishli til yordamida muloqotning tashkil etilishida rioya etilishi zarur bo'lgan qoida, ko'rsatma, tavsiya va yo'l-yo'riqlar bilan ham tanishtiriladi. Bu esa unda nafaqat u yoki bu tilda so'zlashish, balki suhbatdoshga ijobiy ta'sir ko'rsata olish ko'nikma va malakalarini shakllantirishga imkon beradi.

Ingliz tilini o'rganish jarayonida talabalarda muloqot madaniyatini rivojlantirishga qanday erishish mumkin? Ushbu savolga to'g'ri javob topa olish uchun dastlab “muloqot”, “muloqot madaniyati” tushunchasining mohiyatini anglab olish talab etiladi.

N.Alauddinova tomonidan tayyorlangan “Muomala san'ati” nomli metodik-bibliografik qo'llanmada “muloqot” tushunchasi shunday ta'riflanadi: inson bilan atrof-muhim o'rtasidagi qayta aloqali munosabatni ifodalovchi ijtimoiy faoliyatning muhim shakllaridan biri, ushbu munosabat, avvalambor, maqsadlar va qadriyatlarga hamda ular yo'naltirilgan narsalarga bog'liq”. Muallifning yondashuvi mantiqan to'g'ri, biroq, ayrim tushunchalar terminologiya nuqtayi nazardan biroz g'aliz qo'llanilgan. Masalan: “inson” hamda “qayta aloqa”.

Birinchi, muloqot ikki va undan ortiq shaxslar o'rtasida tashkil etiladi. Ijtimoiy mavjudot sifatida muloqot jarayonining ishtirokchilari bo'lgan – subyektlar “shaxs” deya talqin etiladi. Shu sababli ta'rifda qo'llanilgan “inson” atamasi “shaxs” sifatida e'tirof etilsa, maqsadga muvofiq bo'lardi.

Ikkinchi, muloqot jarayonida uning ishtirokchilari bo'lgan shaxslar bir-birlarining fikrlarini tinglash, ularga nisbatan munosabat bildirish, o'z munosabatlarini verbal (nutqli) va nonverbal (nutqsiz) ifodalash kabi harakatlarni amalga oshiradi. Demak, ular o'rtasidagi o'zaro munosabat qayta aloqaga ega. Ayni o'rinda shuni qayd etib o'tish lozimki, o'zbek tili iste'molida “qaytarma aloqa” tushunchasi qo'llanilmaydi. Tushuncha “qaytar aloqa” (rus tilida “обратная связь”) tarzida qo'llaniladi.

X.G'.Sharafutdinova tomonidan tayyorlangan “Muloqot psixologiyasi” nomli ma'ruzalar matnida esa “muloqot” tushunchasi negizida “odamlar o'rtasida birgalikdagi faoliyat ehtiyojlaridan kelib chiqadigan bog'lanishlar rivojlanishining ko'p qirrali jarayoni” aks etishi ko'rsatiladi. Ta'rifda keltirilgan “odam” tushunchasiga nisbatan ham yuqoridagi kabi munosabat bildirish lozim. “Odam” tushunchasi biologik mavjudotni ifodalashga xizmat qilsa, “shaxs” atamasi orqali ijtimoiy mavjudot tushuniladi. Qolaversa, “bog'lanishlar rivojlanishining ko'p qirrali jarayoni” jumlasida ham g'alizliklar mavjud. Ya'ni, grammatik va mantiqiy jihatdan mazkur atamani “bog'lanishlar rivojini ifodalovchi jarayon” deya qo'llash o'rinli sanaladi. Aytish mumkinki, har ikki ta'rifda ham muloqot ijtimoiy faoliyatning muhim shakllaridan bir sifatida e'tirof etilgan.

Boshqa bir manbada muloqotning yanada keng qamrovga ega ekanligiga e'tibor qaratiladi. Xususan, muloqot:

– kishilarning o'zaro hamkorligi, ularning bir-birlariga ta'siri, kishilar o'rtasida aloqalarni o'rnatish va rivojlantirish jarayoni;

– bir-birlari bilan o'zaro harakatdagi kishilar o'rtasida ro'y beradigan axborot almashinuvi. Qolaversa, shaxslar o'rtasida o'zaro axborot almashish, munosabatlar jarayonida o'zaro ta'sir ko'rsatish, o'zaro bir-birini qo'llab-quvvatlash, o'zaro bir-birini tushunish, psixologik aloqa kabi holatlar ham muloqotga xos muhim jihatlar sanaladi.

Bildirilgan fikrdan shaxslararo muloqotning mavjud bo'lishi uchun:

– muayyan xarakterdagi ishlab chiqarish jarayoni;

– ikki yoki undan ortiq shaxslar oʻrtasidagi oʻzaro hamkorlik, axborot almashish, taʼsir koʻrsatish, bir-birini qoʻllab-quvvatlash va bir-birini tushunishga asoslanuvchi aloqa;

– ijtimoiy munosabatlar, ularga nisbatan yondashuv;

– boshqa shaxs yoki shaxslar guruhi bilan bevosita, bilvosita taʼsirlanish taqozo etiladi.

Demak, yuqorida bildirilgan fikrlarga tayangan holda “muloqot” tushunchasini nazariy jihatdan quyidagicha talqin etish mumkin: muloqot – ehtiyojlar, qadriyatlar asosida yuzaga kelib, koʻp qirrali, qayta aloqa xususiyatiga ega ijtimoiy hamkorlik hamda aloqalarning umumiy mohiyatini yorituvchi ijtimoiy faoliyat shakllaridan biri.

“Pedagogik texnologiya” nomli izohli lugʻatda esa mualliflar “muloqot” tushunchasini jarayon hamda shaxslar oʻrtasidagi axborot almashinuvi sifatida quyidagicha yoritganlar: muloqot – kishilarning oʻzaro aloqasi, bir-birlariga taʼsir koʻrsatishlari, kishilar oʻrtasidagi aloqani tiklash va rivojlantirish jarayoni;

– kishilarning bir-birlariga taʼsir koʻrsatishi asosida ular oʻrtasida roʻy beradigan axborot almashinuvi.

Darhaqiqat, muloqot muayyan maqsadga yoʻnaltirilgan (yoki aniq maqsadga tayanilgan holda tashkil etiladigan) jarayon boʻlib, unda shaxslarning bir-biriga taʼsir koʻrsatishi, oʻzaro axborot almashishi taʼminlanadi. Xuddi shu manbada mualliflar jamoasi pedagogning faoliyati misolida “muloqot madaniyati” tushunchasini ham yoritishga eʼtibor qaratishgan. Ularning yondashuvlariga koʻra, pedagogning muloqot madaniyati – pedagogning oʻquvchilar jamoasi, ota-onalar, hamkasblar, rahbariyat bilan pedagogik odob va muloqot talablariga muvofiq holda uyushtiradigan suhbat. Keltirilgan taʼrifdan anglanadiki, muloqot madaniyati asosini kasbiy odob va muloqot talablariga qatʼiy rioya qilish asosida tashkil etilgan amaliy harakat (faoliyat) tashkil etadi.

“Muloqot” va “muloqot madaniyati” tushunchalarining nazariy jihatdan yoritilishi borasidagi qarashlarga tayangan holda aytish mumkinki, talabalar ingliz tilini oʻrganish jarayonida til xususiyatini ifodalovchi qoidalar hamda muloqot talablaridan xabardor boʻlishlari, ularga rioya etish koʻnikma va malakalarini oʻzlashtira olishlari hamda ingliz tilida tashkil etilayotgan muloqot jarayonida ularga qatʼiy rioya etish asosida muloqot madaniyatini oʻzlashtirib borishlari zarur.

Talabalar ingliz tilida muloqotni tashkil etishda muloqot madaniyatining ustuvor tamoyillariga rioya qilish kerakligini unutmasliklari kerak. Muloqot madaniyatining ustuvor tamoyillari quyidagilardan iborat:

– nutqning mavjud ijtimoiy-axloqiy meʼyorlarga asoslanishi (nutqiy aloqa jarayonida ijtimoiy talablar, odob, axloq qoidalariga rioya etish);

– nutqning aniqligi (fikrni aniq, loʻnda bayon qila olish);

– nutqning tushunarlilik (fikrning tushunarli, oddiy boʻlishi);

– nutqning tozaligi (nutqning, gʻaliz soʻz va iboralardan xoli boʻlishi);

– nutqning ifodaviyligi (nutqning jonli, maʼnodor boʻlishi);

– nutqning oʻrinli boʻlishi (nutqning mavjud vaziyat hamda shaxslarning ruhiy holatiga mos, muvofiq boʻlishi).

Ingliz tilida muloqotni tashkil etishda ham yuqorida qayd etilgan tamoyillarga rioya qilinishi uning samarali kechishini taʼminlash bilan birga shaxs (ishtirokchi)lar oʻrtasida oʻzaro ijobiy taʼsirlanish roʻy berishini kafolatlaydi. Oʻzaro ijobiy taʼsirlanish esa har qanday muloqotni tashkil etishga boʻlgan ehtiyoj asosi hisoblanadi. Shu

sababli ta'lim jarayonida talabalar imkon qadar har qanday muloqotning shaxslar o'rtasidagi ijobiy ta'sirlanishni ta'minlay olishiga oid qoidalar bilan tanishtirilib bo'rishlari zarur. Bunda talabalar, eng avvalo, muloqotning ijobiy xarakter kasb etishida nihoyatda muhim bo'lgan xushmuomalalilik, uning shartlaridan xabardor bo'lishlariga e'tibor qaratiladi. Ayni o'rinda to'g'ri salomlashish va murojaat qilish qoidalariga oid ma'lumotlar keltiriladi.

Muloqotni to'g'ri, samarali bo'lishi uchun talabalar quyidagi qoidalardan xabardor bo'lishlari lozim:

- suhbat xushmuomalalikka va vazminlikka asoslanishi zarur;
- suhbat do'stona bo'lishi kerak;
- suhbatdoshlar yaxshi kayfiyatda bo'lishlari lozim;
- suhbat jarayonida suhbatdoshning ko'zlariga ochiq chehra va diqqat bilan qarash talab etiladi;
- suhbat chog'ida atrofga alanglash, betoqat bo'lish salbiy holat sanaladi;
- suhbat vaqtida aftni bujmaytirish, labni burishtirish, og'izni qiyshaytirish, peshonani tirishtirish mumkin emas.

Qolaversa, talabalar ingliz tilidagi muloqot jarayonida quyidagi tarzda muloqot qilish ko'nikma, malakalarini o'zlashtira olishlari zarur.

Ingliz tilida salomlashish va xayrlashishda suhbatdoshga "Hello", "How are you?" hamda "Goodbye" deya murojaat qilish mumkin. Biroq, salomlashish va xayrlashishda muloqotning yana ijobiy xarakter kasb etishini ta'minlovchi yondashuvlar ham mavjud. Ularni qo'llash suhbat, muloqotning do'stona bo'lishiga yordam beradi. Quyida ulardan ayrimlari keltiriladi.

<i>How is it going?</i>	<i>(Ishlar qanday ketyapti?)</i>
<i>How's life?</i>	<i>(Hayotingiz qanday kechyapti?)</i>
<i>Long time no see!</i>	<i>(Ko'pdan buyon ko'rishmadik?)</i>
<i>What are you up to?</i>	<i>(Hozirda nima bilan bandsiz?)</i>
<i>What have you been up to?</i>	<i>(O'tgan vaqt mobaynida nimalar bilan shug'ullandingiz?)</i>
<i>See you soon!</i>	<i>(Tez orada ko'rishguncha!)</i>
<i>See you later!</i>	<i>(Keyinroq ko'rishamiz!)</i>
<i>Till next time!</i>	<i>(Keyingi gal uchrashguncha!)</i>
<i>Good luck!</i>	<i>(Muvaffaqiyat yor bo'lsin!)</i>
<i>Take care!</i>	<i>(O'zingni ehtiyot qil!)</i>
<i>Talk to you later!</i>	<i>(Siz bilan keyin yana suhbatlashamiz!)</i>
<i>Until we meet again!</i>	<i>(Qayta ko'rishguncha!)</i>
<i>Have a nice day!</i>	<i>(Xayrli kun!)</i>
<i>Have a good weekend!</i>	<i>(Dam olish kunlaringiz omadli o'tsin!)</i>
<i>Have a safe trip!</i>	<i>(Safaringiz muvaffaqiyatli bo'lsin!)</i>
<i>Say hi to ...</i>	<i>(... ga salomimni yetkazing!)</i>
<i>Send my love to ...</i>	<i>(...ga kattadan-katta salom ayting!)</i>

Talabalar tomonidan salomlashish hamda xayrlashishda suhbatdoshga nisbatan yuqoridagi tarzda murojaat qilish ko'nikmalarining o'zlashtirishi ular tomonidan dialog chog'ida kutilgan natijalarni qo'lga kiritilishini ta'minlaydi.

Suhbat chogʻida muayyan xatoliklar uchun kechirim soʻrash yoki suhbatdoshning holati, undan eshitilgan salbiy vaziyatga nisbatan oʻz munosabati, hamdardligini bildirish, ularga nisbatan hamdardlikni ifodalashda xushmomala boʻlish ingliz tili muloqotida ham muhim ahamiyatga ega. Shu sababli talabalarni ular bilan tanishtirish foydadan xoli emas. Quyida soʻz yuritilgan vaziyatda nihoyatda samarali boʻlgan murojaatlardan namunalar keltiriladi:

<i>I'm so sorry!</i>	<i>(Juda afsusdaman!)</i>
<i>I beg your pardon!</i>	<i>(Iltimos, kechiring!)</i>
<i>I'm sorry, I can't.</i>	<i>(Uzr, biroq, hozir imkonim yoʻq.)</i>
<i>It's very kind of you!</i>	<i>(Siz nihoyatda iltifotlisiz!)</i>
<i>Thank you anyway!</i>	<i>(Har nima boʻlganda ham Sizga rahmat!)</i>
<i>Thank you in advance!</i>	<i>(Oldindan rahmat!)</i>
<i>Don't mention it!</i>	<i>(Minnatdorlik bildirishga arzimaydi!)</i>
<i>May I help you?</i>	<i>(Men Sizga yordam bera olamanmi?)</i>
<i>No problem / that's ok?</i>	<i>(Hammasi joyidami?)</i>
<i>Don't worry about it!</i>	<i>(Bu haqida qayg'urmang!)</i>
<i>This way, please!</i>	<i>(Marhamat, bu yoqqa o'ting!)</i>

Demak, darsning ijtimoiy-axloqiy meʼyor hamda xushmuomalalilik shartlariga muvofiq tashkil etilishi ingliz tiliga asoslangan muloqotning samarali, oʻzaro foydali va doʻstona boʻlishini taʼminlaydi. Shu sababli talabalarda ingliz tilidagi muloqotni ijtimoiy-axloqiy meʼyor va xushmuomalalilik shartlariga muvofiq tashkil etish, koʻnikma va malakalarini shakllantirish muhim pedagogik vazifalardan biri sanaladi. Talabalarning ingliz tilidagi muloqotni ijtimoiy-axloqiy meʼyor va xushmuomalalilik shartlaridan xabardor boʻlishlarida taʼlim jarayoni muhim oʻrin tutadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. *Pedagogik texnologiya. Izohli lugʻat / Oʻ. Asqarova, M. Usmonboyeva, X. Raxmatova, F. Rahimova.* – T.: “Navroʻz”, 2014. – 34 b.
2. *Muloqot psixologiyasi / Maʼruzalar matni. Tuzuvchi: X.Gʻ. Sharafutdinova.* – Termiz: Termiz DU, 2008. – 4 b.
3. *Muomala sanʼati / Metod.-bibliografik qoʻll. Tuzuvchi: N. Alauddinova.* – T.: A.Navoiy nomidagi Oʻzbekiston milliy kutubxonasi nashriyoti, 2009. – 4 b.
4. *Большая психологическая энциклопедия. Самое полное современное издание.* – М.: Эксмо, 2007. – С. 287.

Dilorom SHODMONQULOVA,
Nizomiy nomli TDPU professori

BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING ONA TILI DARSLARIDA BADIY ASAR MATNIDAN FOYDALANISH KO'NIKMASINI SHAKLLANTIRISH

Annotatsiya

Maqola boshlang'ich sinf o'quvchilariga ona tili darslarida til hodisalarini o'rgatishda badiiy asar matnidan foydalanish muammosiga bag'ishlangan. Shuningdek, muallif 4-sinflarda ot, sifat so'z turkumlarining leksik-grammatik xususiyatlarini o'rganishda o'quvchilarni badiiy asar matnidan foydalanish hamda o'rgatishning o'ziga xos jihatlari ko'rsatib bergan.

Kalit so'zlar. Til hodisalari, morfologiya, so'z turkumlari, predmet, ot, sifat, bog'lanishli nutq, matn, sinonim, antonim.

Данная статья посвящена проблеме использования литературного текста при изучении языковых явлений на уроках родного языка в начальных классах. Также автором освещены приёмы использования литературных текстов при изучении особенностей лексико-грамматической структуры частей речи (имен существительных, прилагательных) в четвертом классе.

Ключевые слова. Языковые явления, морфология, части речи, предмет, имя существительное, имя прилагательное, связная речь, текст, синоним, антоним.

This article is dedicated to the problem of using the text of literary texts to teach beginner classes linguistic phenomenon in mother tongue lessons. There written thoughts about integrating mother tongue together with reading lessons to learn complicative grammatical features of parts of speech. In the article clarified special sights of teaching pupils to learn lexical-grammatical features of nouns, adjectives in classes four.

Kew words. Language phenomena, morphology, parts of speech, object, noun, adjective, connected speech, text, synonym, antonym.

Kadrlar tayyorlash Milliy dasturining bosh g'oyasi har tomonlama shakllangan barkamol insonni va malakali kadrlarni voyaga yetkazishdan iborat. Bu borada Prezidentimiz: “Shuni unutmashimiz kerakki, kelajagimiz poydevori bilim dargohlarida yaratiladi, boshqacha aytganda, xalqimizning ertangi kuni qanday bo'lishi farzandlarimizning bugun qanday ta'lim va tarbiya olishiga bog'liq”, “Buning uchun har qaysi ota-ona, ustoz va murabbiy har bir bola timsolida, avvalo, shaxsni ko'rishi zarur. Ana shunday oddiy talabdan kelib chiqqan holda, farzandlarimizni mustaqil va keng fikrlash qobiliyatiga ega bo'lgan, ongli yashaydigan komil insonlar etib voyaga yetkazish – ta'lim-tarbiya sohasining asosiy maqsadi va vazifasi bo'lishi lozim, deb qabul qilishimiz kerak”¹, deb ta'kidlagan edi.

Haqiqatdan ham, xalqimiz tomonidan yaratilgan boy ilm-ma'rifatni, muayyan fan

¹ I.A.Karimov. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. –T.: “Ma'naviyat”. 2008. – 61 b.

asoslarini, nazariyalarni o'zlashtirib unga o'z faoliyatida amal qila oladigan avlodni tarbiyalab yetishtirish komillik, barkamollik sari intilishdir. Barkamol inson ilmiy bilimlar hamda har bir fanni puxta o'zlashtirishi lozim.

Boshlang'ich ta'lim tizimini modernizatsiyalashda axborot texnologiyalari yutuqlarini keng joriy etish ham muhim omil sanaladi. Axborot texnologiyalari yutuqlari ayni paytda o'quvchilarni zamonaviy madaniyatga jalb etish vositasi bo'lib xizmat qiladi. Ayniqsa, ona tili darslarida o'rganiladigan mavzularni o'rganishda axborot texnologiyalari qo'l keladi.

Darsning aniqligi va ichki mantiqiyliigi, uning maqsadga yo'naltirilganligi muhim. Yangi material o'rgatiladigan darsning mazmuni va mantig'i o'rganiladigan til hodisasi hamda uning lingvistik mohiyatining bir-biriga ta'sir qilishiga ma'lum darajada sabab bo'ladi. O'qituvchi bu o'zaro bog'lanishni bilishi va uni o'quvchilar bilan birga topshiriqlarni bajarish davomida asta ocha borishi muhimdir.

Dars grammatik bilimlarni mustahkamlash, orfografik ko'nikmalarni shakllantirish maqsadini o'z oldiga qo'ysa, darsning mantiqiy shartlari asta murakkablashtirib borilgan mashqlar tizimini aks ettiradi. Bolalar biror imlo qoidasini yaxshilab bilib, o'rganib olishlari uchun bir-ikki mashq jamoaviy ravishda bajariladi. O'quvchilar mustaqilligi oshgach, mashqni mustaqil ishlaydilar. Darsda bajarilgan mashqlar o'rtasidagi bog'lanishni shakllantiradigan ko'nikmaning xususiyati ham sabab bo'ladi. O'quv materialining mavzuga va darsning maqsadiga mos bo'lishi uning maqsadga yo'naltirilishini ta'minlaydi. Darsda foydalaniladigan barcha o'quv materiallari (shu jumladan, til dalillarini kuzatish, imlo va nutqqa oid mashqlarni bajarish uchun tanlanadigan materiallar ham) darsning maqsadiga mos bo'lishi zarur.

Boshlang'ich sinf ona tili ta'limida so'z turkumlarini o'rganish katta va salmoqli o'rin egallaydi. So'z turkumlarini o'rganish jarayonida o'quvchilarning lug'at boyligi oshiriladi. Ular adabiy-orfoepik talaffuz me'yorlarini egallaydi, imloviy savodxonlik shakllanadi. Og'zaki va yozma bog'lanishli nutqi o'sadi. O'zgalar fikrini anglay olish, o'qiganlarini o'zlashtirish, o'z fikrlarini boshqalarga, tinglovchiga erkin, tushunarli qilib yetkaza olish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bunda boshlang'ich sinflarda so'z turkumlarini o'rgatishning amaliy ahamiyati nazarda tutilgan bo'lsa, uni o'rgatishning samarador metod va vositalarini ishlab chiqish zarurligini anglash qiyin emas. Jumladan, ona tili darslarida o'quvchilarni mavzuni o'rganishga doir badiiy asar materiallaridan foydalanishga o'rgatish ham o'zining samarali natijalarini beradi. Shuni hisobga olgan holda, 4-sinflarda ot, sifat so'z turkumlarining murakkab grammatik xususiyatlarini o'rganishda ona tili darsi bilan o'qish darslarini integratsiyalash bo'yicha o'z tajribalarimizni bayon qilmoqchimiz.

“Ot” mavzusini o'rganish jarayonida uning barcha xususiyatlarini qamrab oladigan matnlardan unumli foydalanish lozim. Bunda soddadan murakkabga qarab borish tamoyiliga amal qilish talab etiladi. O'quvchilarga otning so'rog'i asosida asar matnidagi otlarni topish topshirig'i beriladi.

Bunda o'quvchilarga 4-sinf “O'qish kitobi”dagi Sh.Sa'dullaning “Laqma it” asari matnidan Kim? Nima? so'rog'iga javob bo'ladigan otlarni aniqlab, jadvalga joylash topshirig'i beriladi. Bunda o'quvchilar topshiriqni quyidagi ko'rinishda bajarishlari lozim:

Asar nomi	Kim?	Nima?
“Laqma it” asari	Sh.Sa'dulla	It, mushuk, Moshxon, echki, sigir, Govmush, Olaqashqa, xo'roz, tovuq, kurka, o'rdak

“Otlarning birlik va ko‘plikda qo‘llanishi” mavzusi yuzasidan ham 4-sinf o‘quvchilarining bilimini tekshirish uchun Nosir Fozilovning “Yaxshi bo‘ldi” hikoyasidan turdosh otlarni topib, ularni jadvalga joylashtirish topshirig‘ini berish mumkin. Topshiriqni o‘quvchilar quyidagi tartibda bajarishlari zarur:

Birlikdagi otlar	Ko‘plikdagi otlar
<p><i>uy</i> <i>narvon</i> <i>usta</i> <i>ko‘cha</i> <i>qishloq</i></p>	<p><i>ustalar</i> <i>hasharchilar</i> <i>o‘rtoqlar</i> <i>o‘g‘ilchalar</i></p>

Topshiriqning bunday bajarilishi o‘quvchilarni kuzatuvchanlikka, sermulohazalikka o‘rgatadi, lug‘atini yangi so‘zlar bilan boyitadi.

“Otlarning egalik qo‘shimchalari bilan qo‘llanishi” mavzusini o‘rganishda ham badiiy asar matnidan foydalanish mumkin. Bunda Farhod Musajonovning “Yomg‘ir” hikoyasi misol bo‘la oladi. Topshiriqni quyidagi holatda berish mumkin:

1. Hikoya matnidan egalik qo‘shimchalarini olgan otlarni aniqlang.
2. Ularni shaxsi va soniga ko‘ra guruhlang.

Shaxsi	Birlik	Ko‘plik
I shaxs	<i>boshim</i>	
II shaxs	<i>choying, oying, kasaling</i>	<i>o‘g‘lingiz</i>
III shaxs	<i>o‘g‘li, onasi, karovati, ko‘kragi, fortochkasi, ko‘zi</i>	<i>o‘rtoqlari, qo‘llari</i>

O‘quvchilar topshiriqni bajarib bo‘lishgach, matndagi egalik qo‘shimchalarini olgan so‘zlar ko‘proq qaysi shaxsga tegishli ekanligini tahlil qilishadi. Bundan so‘ng otlarda egalik qo‘shimchalarining unli tovushdan so‘ng va undosh tovushdan so‘ng qo‘llanishi yuzasidan asar matnidan topilgan so‘zlarni guruhlash topshirig‘i beriladi. O‘quvchilar quyidagi jadvalni to‘ldirishlari lozim bo‘ladi:

	Birlik		Ko‘plik	
	Unli tovushdan so‘ng	Undosh tovushdan so‘ng	Unli tovushdan so‘ng	Undosh tovushdan so‘ng
I shaxs		<i>boshim</i>	<i>o‘g‘lingiz</i>	
II shaxs		<i>choying, oying, kasaling</i>		
III shaxs	<i>onasi, fortochkasi,</i>	<i>o‘g‘li, karovati, ko‘kragi, ko‘zi</i>		<i>o‘rtoqlari, qo‘llari</i>

O‘quvchilar jadvalni to‘ldirib bo‘lishgach, javobi tekshiriladi va baholanadi.

“Otlarning kelishik qo‘shimchalari bilan turlanishi” mavzusi o‘rganib bo‘lingach, o‘quvchilarning mavzu yuzasidan olgan bilimlarini aniqlash maqsadida badiiy asar matnidan foydalanish samarali natijalar beradi. Bunda Rahim Bekniyozovning “Mo‘jiza” nomli asaridan foydalanish mumkin. Bu topshiriq o‘quvchilarning kelishik qo‘shimchalari yuzasidan olgan bilimlarini yaqqol namoyon qiladi. O‘qituvchi o‘quvchi-

larga daftarga oltita kelishik nomini yozish va asardagi kelishik qo'shimchasini olgan otlarni belgilab, qo'shimchalarning turini aniqlash vazifasini topshiradi. Bunda o'quvchilarni guruhga bo'lib, topshiriqni bajartirish mumkin.

1-guruh. Bosh kelishik.

Vaqt, quyonlar, kuz, dala, yil, paxta, qo'llar, jonivorlar, qamishzor, qovun, dasturxon, chol.

2-guruh. Qaratqich kelishik.

Miltiqning, quyonning, ovchining.

3-guruh. Tushum kelishik.

Quyonna, mo'jizani, vilosepedini, miltiqni, tepkisini, yerni, boshini, xaltani, xurjunni, pichog'ini.

4-guruh. Jo'nalish kelishik.

Ovga, kiftiga, ariqqa, miltiqqa, savolga, ko'zimga, itga, qo'limga, xaltamga, cholgga, quyonga.

5-guruh. O'rin-payt kelishigi.

Qo'rasida, maydonda, joyida, masofada, yerida, yoshligida, xaltada.

6-guruh. Chiqish kelishik.

G'o'zadan, quyondan, joyidan, ovchidan, xaltangizdan, arslondan, qo'lidan.

Topshiriqni qaysi guruh birinchi to'g'ri bajarsa, o'sha guruh rag'batlantiriladi. Topshiriqning mantiqiy davomi sifatida guruhlarga badiiy asar matnidan aniqlagan so'zlarga kelishik qo'shimchalari qo'shilganda tovush o'zgarishi bo'lgan so'zlarni aniqlash topshirig'i berilishi mumkin.

Shunday qilib, ot so'z turkumini o'rganishda badiiy asar matnlaridan unumli foydalanish mumkin.

Boshlang'ich sinflarda "sifat" tushunchasini shakllantirish o'quvchilarning "predmet belgisi" degan umumlashtirilgan kategoriyani o'zlashtirish darajasiga bevosita bog'liq. Shu maqsadda rang, maza, shakl-hajm, xil-xususiyat bildiradigan so'zlar aniqlanadi va shu so'zlarning xususiyatlari umumlashtiriladi. Sifatning lug'aviy ma'nosi bilan birga uning xarakterli grammatik xususiyatlari ham qayd etiladi.

Sifatni o'rganishda og'zaki va yozma ijodiy ishlarga katta o'rin beriladi. Sifatning nutqimizdagi, fikrni aniq va tushunarli ifodalashdagi rolini puxta o'zlashtirishga erishish uchun sinonim va antonim sifatlar ustida ishlash, o'qish darolarida esa sifatning o'z va ko'chma ma'noda ishlatilishini kuzatish maqsadga muvofiq.

4-sinf ona tili darolarida nazariy ma'lumotlarga asoslanib, matnda berilgan otlarning belgilarini ifodalaydigan sifatlarini tanlab qo'yish, gapda sifat bog'langan otni aniqlab yozish, otga mos sifatlar tanlab, predmetni tasvirlash, berilgan sifatlar yoki so'z birikmasi bilan gap tuzish kabi mashqlardan foydalaniladi. Bunda badiiy asar materiallaridan foydalanish yaxshi samara beradi. O'quvchilarda sifatning otga bog'lanishi haqidagi bilimlarini mustahkamlash uchun quyidagi topshiriqlardan foydalanish mumkin:

1-topshiriq. Muzayana Alaviyaning "Navroz – bahor bayrami" asaridan sifatlarini topib o'zi bog'langan so'z bilan ko'chirib yozing.

momiq g'unchalar, zo'r quvonch, katta tayyorgarlik, eng yaxshi odat, rang-barang kiyimlar, turli qandolatlar, xushbo'y narsalar

Sifatni o'rganishda topishmoq tarzidagi badiiy asarlardan foydalanish ham samarali natijalar beradi. Quyida ana shunday topshiriqlardan birini tavsiya etamiz:

2-topshiriq. G'afur G'ulomning "Buni toping, qizlarim" topishmoq she'ridan sifatlarini topib, quyidagi jadvalga joylashtiring:

Rang-tus bildiruvchi sifatlar	Maza-ta'm bildiruvchi sifatlar	Hajm bildiruvchi sifatlar	Shakl bildiruvchi sifatlar	Xil-xususiyat bildiruvchi sifatlar
<i>qizil, ko'k, qora, sariq, oq, malla</i>	<i>mazali, taxir, shirin, nordon</i>	<i>qalin, mayda</i>	<i>yumaloq</i>	<i>po'k</i>

O'quvchilarga shaxsning xususiyatlari va narsaning xususiyatini bildiruvchi sifat-larning farqiga borishni ham o'rgatish kerak. Bunda quyidagi topshiriqdan foydalanish maqsadga muvofiq.

3-topshiriq. Pirimqul Qodirovning “Ayiqni yenggan cho'pon” hikoyasi matnidan narsa va shaxsning xususiyatlarini bildiruvchi sifat-larni topib, guruhlanishi mumkin.

narsaning xususiyatini bildiruvchi sifatlar	shaxsning xususiyatini bildiruvchi sifatlar
<i>semiz qo'y, dumbalik qo'y, uzun qaychi, chuqur jig'a, eski ko'ylagim</i>	<i>qo'ng'ir soqolli, chaqqon yigit</i>

O'quvchilarga badiiy asar qahramonlarining xususiyatini bildiruvchi sifat-larni to-pishga o'rgatish ham ularning sifatning ma'no turlari haqidagi bilimlarini mustahkam-lashga yordam beradi.

4-topshiriq. G'afur G'ulomning “Ola buzoq” she'rining qahramonlari sigir va bu-zoqchanning belgilarini aniqlang.

Namuna:

Sigirning xususiyatlari: *qo'ng'ir*

Buzoqning xususiyatlari: *ola, qashqa, qora, gajak, quralay, cho'zinchoq, jaji, silliq.*

Sifat-larni o'rganishda badiiy asar materiallaridan unumli foydalanish o'quvchilarning lug'at boyligini oshiradi, nutqining ifodaliligini ta'minlaydi.

Ona tili darslarida bog'lanishli nutqni o'stirish o'quvchilarning fikrlash qobiliyatlarini yuksaltiradi, ularning tafakkurini kengaytiradi. Shuning uchun o'qituv-chi boshlang'ich sinflardan boshlab o'tilgan mavzu asosida o'quvchilarning og'za-ki va yozma nutqini o'stirishga alohida e'tibor berishi lozim. Bunda o'quvchilarga til hodisalari haqidagi bilimlarni tarkib toptirishda integratsiyalashgan dars turidan foyda-lanish muhim ahamiyat kasb etadi. Boshlang'ich sinf ona tili darslarida o'quvchilarga til hodisalarini o'rgatishda badiiy asar matnidan foydalanish – ularning matn haqidagi tushunchalarini kengaytiradi, bog'lanishli nutqning rivojlanishiga zamin yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov. I.A. “Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch”. – T.: “Ma'naviyat”, 2008.
2. Qosimova. K. va boshq. Ona tili o'qitish metodikasi. –T.: “Noshir”, 2009.
3. G'ulomova X., Yo'ldosheva Sh., Shermatova. U. 4-sinfda ona tili darslari. – T.: “O'qituvchi”, 2003.
4. Ikromova. R., G'ulomova X., Yo'ldosheva Sh., Shodmonqulova. D. Ona tili (4-sinf uchun darslik). – T.: “O'qituvchi”, 2014.

Sodiq ESHEMIROV,

Samarqand davlat universiteti dotsenti

O'QUVCHILARNING FIKRLASH QOBILİYATLARINI RIVOJLANTIRISHDA QO'LLANILADIGAN METODIK TAVSIYALARNING O'RNI

Annotatsiya

Maqolada o'quvchilarning berilgan mavzular bo'yicha fikrlash salohiyati va ma'naviy holati yuzasidan o'ziga bo'lgan ishonchini rivojlantirish usullari tahlil qilingan. Shuningdek, muallif o'quvchilarning har qanday mavzuda zarur moddiy o'zlashtirish algoritmini tashkil etishini ochib bergan.

Kalit so'zlar. Algoritm, salohiyat, ma'naviy holat, fikrlash, ma'ruza, o'zlashtirish, kasbga moyillik.

В статье проанализированы приемы развитие у учащихся уверенности в своих мыслительных способностях и духовном состоянии при усвоении заданных тем. Автором раскрыты возможности создания алгоритмов, необходимых для усвоения любой темы учащимися.

Ключевые слова. Алгоритм, потенциал, духовное состояние, мышление, доклад (лекция), склонность к профессии.

The paper analyzes the techniques for the development of pupils' confidence in their mental abilities and spiritual condition in the assimilation of set topics. The author reveals the possibility of creating the algorithms necessary for learning any topic by students.

Key words. The algorithm, potential, spiritual condition, thinking it a report (lecture), the propensity for the profession.

Jamiyatdagi o'zgarishlar, fan va texnika rivoji, insonlarning mehnatga bo'lgan munosabatlari, o'zaro munosabatlari, bugungi kunda qabul qilinayotgan har xil axborotlar ko'lamining kengayishi kabi bir qancha omillar yoshlar dunyo-qarashi, qiziqish va intilishlariga sezilarli darajada ta'sir qiladi va bu, o'z navbatida, ta'lim-tarbiya jarayonida ham yangidan-yangi muammolarni keltirib chiqaraveradi. Bu muammolarning bir qismi yillar davomida o'zini oqlagan, samaradorligi yuqori bo'lgan, an'anaviy pedagogik texnologiyalar bilan hal etilsa, ba'zilar yangi uslub va yondashuvlarni talab qiladi. Masalan, bizning nazarimizda, bugungi kun o'quvchisining fanlarni o'zlashtirishga qaratilgan faoliyatida ayrim kamchiliklar mavjud.

Bu borada dastlabki qadam o'quvchining o'z-o'zini anglash masalasi yoki fanni o'zlashtirishga ruhiy jihatdan tayyorligi darajasidan boshlanadi.

O'quvchining fanni o'rganayotganda o'z-o'zini anglashi masalasi deyilganda uning o'zini tanishi, ya'ni o'zining qanday qobiliyatga egaligi, nimalarga qodirligini bilishi masalasi tushuniladi. Bu masalani hal qilishda o'quvchi kattalar ko'magiga ehtiyoj sezadi. O'quvchi uchun ustozlarining, ota-onaning, hatto o'rtoqlarining fikr va xulosalari ham ahamiyatga ega. Qolaversa, bunday xulosalar katta yoshdagi odamlarni ham ba'zan ikkilantirib qo'yadi. Masalan, biror ishni juda katta ishtiyoq bilan boshlamoqchi

bo'lib turgan odamga duch kelishi mumkin bo'lgan qiyinchiliklardan bir nechtasini aytib, bu kabi ishlarni eplay olmasligi uqtirilsa, dastlabki bir-ikki kunda ikkilanib yurib, uchinchi kuni boshqa ishni rejalashtira boshlashi mumkin.

O'quvchi, hatto oliy o'quv yurti talabasi ham hayotiy tajribasi katta bo'lmagan, qarorlarini tez o'zgartirishi mumkin. Aksariyat hollarda ikki-uch kishining o'zi haqida bildirilgan bir xil fikrlari ularni ikkilantirib qo'yadi. Faraz qilaylik, o'qituvchi o'quvchiga bir necha bor uning qobiliyatsiz ekanligini uqtirsa va bu xabar ota-onasiga ham yetkazilsa, aksariyat hollarda o'quvchi ham, uning ota-onasi ham shunday xulosaga keladi. O'quvchi faoliyati sinchiklab tahlil qilinsa, u yaxshi qobiliyat egasi bo'lib chiqishi ham mumkin. Demak, o'quvchining biror fanni qay darajada o'zlashtirishi uning ruhiy holatiga, ya'ni o'zining qobiliyati, irodasi, mehnatga bo'lgan munosabati, fanlarni o'zlashtira olish bo'yicha imkoniyatlari haqidagi xulosalariga ham bog'liq.

O'tkazilgan ko'plab tajriba va kuzatishlar natijalariga asoslanib aytish mumkinki, agar to'g'ri ta'lim-tarbiya berilsa, 85-90 foiz o'quvchi ixtiyoriy tanlangan fanni yaxshi o'zlashtira oladi. Ba'zilar tezroq, ba'zilar esa sekinroq o'zlashirishi mumkin. Bu tezlik biror mavzu yoki tushunchani o'zlashtirishda kun yoki oylarga emas, balki soatlarga, ko'pincha daqiqalarga farq qilib qoladi. Umuman, bitta darsxonada o'tirgan o'quvchilardan aynan bir xil o'zlashtirishga erishadiganlari bo'lmaydi.

O'quvchining qaysi fan yoki kasbga moyilligi bu boshqa masala. Ya'ni qaysidir fan yoki fanlarni o'zlashtirishda alohida iqtidorga ega bo'lgan o'quvchilarning bo'lishini inkor qilmoqchi emasmiz. Lekin deyarli barcha o'quvchilar hamma fanlarni yaxshi o'zlashtirishi mumkinligi ham haqiqatdir. Bunda o'qituvchining asosiy vazifasi o'quvchisining ruhiy holatini to'g'rilab olishidir.

Ruhiy holat qayta-qayta ta'kidlayverish bilan to'g'ri bo'lmaydi. Buning uchun o'quvchida fanni o'zlashtirish bo'yicha o'ziga ishonch paydo bo'lishi kerak. Ishonch bo'lishi uchun esa har bir inson astoydil harakat qilsa, kutilgan natijaga erisha olishi isbotlab ko'rsatilishi kerak. Bunday faoliyat quyidagi tadbirlarni talab qiladi:

– buyuk insonlar, ayniqsa, buyuk ajdodlarimizning hayoti va ijodini qiziqarli va ibratli misollar orqali so'zlab berish. Ularning hayoti ham har xil sinov, qiyinchilik va muammolar girdobida kechganligini hamda ushbu to'siqlarni qanday yengib o'tishgani, eng muhimi, ular ham qachonlardir o'quvchi bo'lishgani, ular ham bilimni misqollab o'rganib, tinimsiz izlanish natijasida shunday darajaga ezishganlarini tushuntirish;

– buyuk olimlar, davlat arboblari yoki katta muvaffaqiyatlarga erishgan yoshlarning faoliyatini targ'ib qilib borish;

– odamning imkoniyatlari cheksiz bo'lib, faqat undan foydalana olmaydigan, to'g'ri yo'naltirilmaganlarga hayotda o'z o'rnini topa olmasliklarini aytib borishi;

– yoshlikda egallangan bilimlarning keyinchalik har qadamda asqotishini misollar yordamida qayd qilib borishi;

– topshiriqlarga ulgurish uchun emas, balki o'rganish uchun bajarish kerakligini uqtirib borishi;

– kun sayin o'zida yaxshi o'zgarishlar bo'layotganini sezib boruvchi va bu holatdan quvonch hissini hosil qila olgan o'quvchida albatta katta muvaffaqiyatlar bo'lishini ta'kidlab turishi;

– yaxshi o'zlashtira olmayotgan o'quvchilarning ozgina muvaffaqiyatlarini alohida ta'kidlash yo'li bilan rag'batlantirib borish. Bu holat o'quvchilarda o'ziga ishonch va dadil harakatlar boshlanishiga sabab bo'lishini kuzatdik. Ayniqsa, ko'pchilik o'qituvchilar norozi bo'lib yuradigan o'quvchilar qaysi fan o'qituvchisi tomonidan shunday rag'bat-

lantirilsa, o'sha fanga nisbatan munosabatida, o'zlashtirishida jiddiy ijobiy o'zgarishlar bo'lganligining guvohi bo'ldik;

– o'qituvchi tomonidan o'quvchiga “sendagi o'zgarishlar meni hayron qoldiryapti”, “senga ishonaman”, “sendan kelajakda yaxshi natijalar kutaman”, “sen albatta erishasan” kabi fikrlarni aytib borish, undagi ruhiy tetiklikni kuchaytirib, tez kunlarda yaxshi natijalarini beradi.

O'quvchiga biror mavzu yoki tushunchani o'rganish uchun topshiriq berib, natijasini nazorat qilish lozim. Faraz qilaylik, o'quvchi topshiriqni 40-50 foiz o'zlashtirdi. Ushbu natijaning o'zi katta muvaffaqiyat ekanligi uqtirilib, hech qachon kutilgan natijaga dastlabki urinishlardan oq erishib bo'lmashligi, olov ham uchqundan boshlanishi tushuntirib boriladi. Agar shu tarzda ish tutilsa, natija uzoq kuttirmaydi.

Keyingi bosqich o'quvchining kitobdan yoki ma'ruza tarzida yozilgan materiallarni mustaqil o'qib, o'zlashtirish masalasini hal qilishdir.

Odatda “darsni yaxshilab tayyorlash kerak”, “yaxshilab o'qish kerak”, “ko'proq harakat qilish kerak”, “ko'p o'qish kerak” kabi buyruq ohangidagi uqtirishlar o'quvchilarga ota-onalari tomonidan ham, o'qituvchilari tomonidan ham ko'p bor aytiladi. Lekin darsni yaxshilab tayyorlash, yaxshilab o'qish, ko'proq harakat qilish qanday bo'lishi o'quvchilarga tushuntiriladimi? Ayniqsa, ko'p o'qish kerak deganda biror mavzu yoki tushunchani necha marta o'qib chiqish tushuniladi? Bunda o'quvchining berilgan topshiriqni ko'p marta o'qishi yoki yod olguncha o'qishi tushunilmasligi kerak. Agar shunga majbur qilinsa, o'quvchi mehnat og'irligi tufayli tez kunda o'sha fandan bezib qoladi.

O'quvchilarga beriladigan bunday topshiriqlar mavhum bo'lib, qo'yilgan maqsadga o'qituvchi ham, o'quvchi ham erisha olmaydi. Natijada o'qituvchi o'quvchini ayblaydi va o'quvchida o'z qobiliyatiga ishonchsizlik paydo bo'ladi. Bu ta'lim-tarbiya jarayonidagi salbiy holatdir.

O'quvchilarga mavzuni qanday o'qishni o'rgatish lozim. Bunda matnni shunchaki o'qish emas, balki tushunib mushohada yuritish yo'li bilan o'qish nazarda tutilmoqda. Faraz qilaylik, o'quvchi biror mavzuni tez o'qib chiqdi. O'ylab qarasa, hech narsani tushunmagan. Yana bir-ikki o'qib chiqadi. Tabiiyki, natija bo'lmaydi. Shundan so'ng asosiy qoidalarni tushunmasdan yod oladi. Mavzu mazmuniga tushunmasdan yod olish, ayniqsa, aniq fanlarni o'rganish jarayonida samarasiz mehnatdan boshqa narsa emas.

Berilgan mavzuning nazariy qismini o'zlashtirishning quyidagicha usulini taklif qilamiz:

1. Gapdagi bitta fikr tugaguncha juda sekin, har bir so'ziga tushunib o'qiydi. Agar so'zlar oxiridagi “-dan” qo'shimchasini “-da” deb, “-ning” qo'shimchasini “-ni” deb, “-gan” qo'shimchasini “-ga” deb, noto'g'ri o'qisa ham, ma'no chiqmasdan qoladi.

2. O'qigan fikr, tushuncha, ta'rif yoki qoidani o'ylab mulohaza yuritadi va ovoz chiqarib o'ziga-o'zi gapiradi. Gapirish chog'ida aynan kitobdagi yozuvni so'zma-so'z qaytarishi shart emas. O'z tilida gapirish yetarli, faqat gapirgan gapi o'sha ma'noni berishi kerak. Masalan, 5-sinf o'quvchisi tub sonlar ta'rifini quyidagi ko'rinishlarda ayta olishi yetarli:

- faqat birga va o'ziga bo'linadigan natural sonlar tub sonlar deyiladi;
- bo'luvchisi faqat ikkita bo'lgan natural sonlar tub sonlar deyiladi;
- o'zidan boshqa bitta bo'luvchisi bo'lgan natural sonlar tub sonlar deyiladi;
- birdan boshqa bitta bo'luvchisi bo'lgan natural sonlar tub sonlar deyiladi;

Qolaversa, bitta fikrni bir necha ko'rinishlarda ayta olishi o'quvchining og'zaki nutq madaniyati shakllanishiga va fikrlash qobiliyatining rivojlanishiga jiddiy ta'sir qiladi.

3. Uch, to'rtta misollar keltiradi. Misollar keltirish nima uchun kerak? Agar misollar keltira olmasa, birinchidan, tushunmasdan yod olinganligi ma'lum bo'lib qoladi, ikkinchidan, nazariy va amaliy bilimlar o'rtasidagi bog'lanish yo'qoladi.

4. Tushungan fikrini talab qiluvchi savol tuzib, alohida daftarga, tushunmagan savollarini alohida daftarga yozib boradi.

Har bir ta'rif, tushuncha yoki qoidalar shu tarzda o'zlashtirib borilsa, o'quvchining berilgan topshiriqni juda qisqa vaqt ichida o'zlashtirib olishini tajribada bir necha marta sinab ko'rildi. Demak, sekin o'qish tez o'zlashtirishga olib keladi.

Bildirilgan fikrlar o'qituvchiga ham, o'quvchiga ham dastlabki urinishlarda ko'p vaqt oluvchi, qiyin mashg'ulotdek tuyulsa-da, sinab ko'rishga arziqli o'qish uslubidir. Dastlabki urinishlar darhol yaxshi natijalar bermasligi, ko'proq vaqt olishini inkor qilmaymiz. Ammo ko'pi bilan bir oy davomida astoydil harakat qilinsa, yaxshi natijalar kuzatiladi.

Demak, kitob yoki ma'ruzadagi mavzuni o'zlashtirish algoritmi quyidagicha:

Har bir so'zning ma'nosiga tushunib, sekin o'qish → o'zlashtirilgan materialni og'zaki bayon qilish → misollar keltirish → savolnoma yuritish.

Bu uslub boshlang'ich ta'limdan tashqari ixtiyoriy ta'lim bosqichlarida tajribadan o'tkazganimizda yuqori natijalar berdi.

Endi yuqorida keltirilgan algoritmnin har bir bandi ahamiyatini tahlil qilsak:

– bitta fikrni sekin, har bir so'zning ma'nosiga tushunib o'qish dastlabki urinishlarda bir martadan uch martagacha o'qishni, keyinchalik bir-ikki o'qishni, hafta-o'n kundan keyin esa ko'pincha bir marta o'qishni talab qilishining guvohi bo'ldik. Ya'ni kam o'qib ko'p o'zlashtirishga erishildi. Bu tarzda o'qishning yana bitta yaxshi jihati shundaki, o'quvchida butun fikri-zikrini, e'tiborini qo'yilgan maqsad sari yo'naltirish qobiliyatining sezilarli darajada rivojlanishiga olib kelar ekan;

– o'quvchi uchun o'rganilgan materialni ovoz chiqarib gapirib berish yengil ish emas. Tabiiyki, dastlabki urinishlar yaxshi natija bermaydi. Ko'cha tilida gapirish bilan fan tilida gapirish ancha farq qiladi. Bunday harakat, birinchidan, o'quvchilarda algoritmik fikrlash yo'li bilan o'z fikrlarini aniq va qisqa tarzda bayon qilish qobiliyatini shakllantirsa, ikkinchidan, aytilgan fikrlariga tayanib umumiy xulosalarga kelish ko'nikmalari shakllanishida juda katta samara berishini kuzatildi;

– o'zlashtirilgan bilimlarni misollar yordamida tushuntira olishi nazariy bilimlarni amalda qo'llash ko'nikmalarining shakllanishidir. Natijada nazariya bilan amaliyot o'rtasidagi jarlik yo'qolib, ularning uyg'unlashishiga erishiladi;

– savolnomani yuritish nima uchun kerak? Savolnomadagi savollar soni kun sayin ortib boradi va bundan hech ham tashvishga tushmaslik kerak. “Takrorlash bilimning onasi” degan naql bekorga aytilmagan. Haqiqatan ham, har qanday fanni o'rganish vaqti-vaqti bilan takrorlashni talab qiladi. Agar o'quvchi kitobni o'qish yo'li bilan takrorlamoqchi bo'lsa, hamma satrlari tanish bo'lganligi tufayli qayerlarini yaxshi o'zlashtirgan, qayerlarini bo'sh o'zlashtirganligini aniqlay olmaydi.

Takrorlash paytida savolnomadagi savollarga javob berishga harakat qiladi. Har safar javob bera olmagan savollariga belgi qo'yib ketadi. Ikki, uch urinishdan so'ng qaysi savollarda qo'yilgan belgilar soni ortib ketaversa, demak, o'sha savollar bilan bog'liq tushunchalar bo'sh o'zlashtirilganligi ma'lum bo'lib qoladi. Yoki boshqacha qilib aytganda, savolnoma o'quvchi bilimini o'zida aks ettiruvchi ko'zgu vazifasini o'taydi.

Agar o'quvchi bayon qilingan uslubga amal qilib tayyorlansa, tez kunlarda o'zida o'zgarishlar sezadi. Keltirilgan algoritmgga amal qilgan o'quvchilarda o'z qobiliyati va bilimiga qat'iy ishonch, ruhiy ko'tarinkilik paydo bo'la boshlaganini, har bir aytgan fikrini qat'iy asoslab, dadil harakatlar qila boshlaganini sezdik. Eng muhimi, o'quvchilar dars tayyorlash qandaydir majburiyat emas, balki kundalik ehtiyojga aylanganligini va bu ishda charchash nima ekanligini unutib qo'yayotganliklarini ta'kidlashdi.

Kezi kelganda aytish joizki, ko'p o'qituvchilar kam sonli o'quvchilar bilan yoki o'quvchi bilan yakka tarzda shug'ullanishni afzal deb bilishadi. Bayon qilingan uslub nafaqat kam sonli o'quvchilar bilan, balki 20-30 kishilik auditoriya bilan ishlashda ham katta natijalar beradi.

Agar o'quvchi bilan yakka tartibda yoki kam sonli o'quvchilar bilan shug'ullanilsa, o'qituvchi uchun ham, o'quvchi uchun ham o'zlashtirish ko'rsatkichini aniqlash qiyin bo'ladi. Chunki o'quvchining mavzularni qanday o'zlashtirayotgani, fikrlash qobiliyati, fikrlash tezligi, mustaqil ishlay olishi, muammoli holatlardan chiqib keta olishi kabi ko'rsatkichlarini aniqlash kim bilandir solishtirilganda yengil kechadi. Ayniqsa, bu hol o'quvchi uchun ahamiyatlidir. Chunki u o'z bilimini o'rtoqlarining o'zlashtirishiga qarab baholab boradi.

Umuman olganda, o'quvchiga faqat o'qituvchi o'rgatadi degan fikr ham to'g'ri emas. O'qituvchi o'quvchining diqqatini jalb qila olsa, o'quvchi o'rtoqlarining fikrlarini tinglash va tahlil qilish yo'li bilan quyidagilarni o'rganadi:

- agar biror tushunchani xato o'zlashtirgan bo'lsa, ularni aniqlab oladi;
- fikrini aniq, qisqa va hammaga tushunarli tarzda bayon qilishni o'rganadi;
- fikrlash tezligi oshadi. Chunki har bir o'quvchi birinchi bo'lib aniq javob berishga intiladi. Shuning uchun yaxshi o'zlashtiradigan o'quvchilar ko'pchilikni tashkil qiluvchi guruhlardagi o'zlashtirish boshqa guruhlardagi o'zlashtirishdan farq qiladi.

Uslubning asosiy maqsadi o'quvchilarda ixtiyoriy fan tushunchalarini kimningdir yordamisiz, mustaqil o'rgana olish qobiliyatlarini shakllantirishdir. O'qituvchining vazifasi darsni to'g'ri tashkil qilib, o'quvchilarda paydo bo'lgan savollar va muammolarni o'z vaqtida hal qilib borishdan iborat.

Xulosa qilib aytganda, ushbu uslub ta'limning yuqori bosqichlarida joriy qilish ham yaxshi samara beradi, ammo ko'p vaqt va mehnat talab qiladi. Agar to'g'ri ta'lim-tarbiya berilmasa, kuchli qobiliyat egalarining ham imkoniyatlari ochilmasdan qolib ketadi. Hech bir fan o'qituvchisining bunday yo'l tutishga haqqi yo'q. Har bir o'qituvchi o'zi dars berayotgan o'quvchilaridan kelajakda buyuk fan va davlat arboblari, o'z kasbining mohir ustasi bo'lgan mutaxassislar yetishib chiqishi mumkin ekanligini his qilishi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. *Eshtemirov S., Aminov I.B. Ilg'or pedagogik tajriba haqida. "Xalq ta'limi" ilmiy-metodik jurnali. 2010. 3-son. – 87-89-betlar.*
2. *Алферов А.Д. Психология развития школьников: Учебное пособие для вузов. – Ростов-на-Дону, 2010. – С. 384.*
3. *Обухова Л.Ф. Возрастная психология. – М.: Россия, 2011, С. 414.*

Jahongir MAMATQOSIMOV,

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti mustaqil izlanuvchisi

NOMODDIY MADANIY MEROS MUHOFAZASI YUZASIDAN O'QUVCHILARNING MUSTAQIL ISHINI TASHKIL ETISH USULLARI

Annotatsiya

Ushbu maqolada nomoddiy madaniy meros muhofazasi yuzasidan o'quvchilarning mustaqil ishini tashkil etish usullari, jarayonlari, shakllari haqida uslubiy tavsiyalar berilgan. Muallif mustaqil ishni tashkil etishning shakllariga ta'riflar va misollarni ilova etgan.

Kalit so'zlar. Nomoddiy madaniy meros, muhofaza, kasb-hunar ta'limi, mustaqil ish, mustaqil ishni tashkil etish jarayonlari, mustaqil ishni tashkil etish usullari, mustaqil ishni tashkil etish shakllari.

В данной статье представлены методические рекомендации по использованию приёмов и форм организации самостоятельной работы, связанной с защитой нематериального культурного наследия. Приведены примеры, иллюстрирующие рекомендуемые формы указанной работы.

Ключевые слова. Нематериальное культурное наследие, защита, профессиональное образование, самостоятельная работа, методы и формы организации самостоятельной работы.

Methodical recommendations about use of receptions and forms of the organization of the independent work connected with protection of non-material cultural heritage are presented in this article. The examples illustrating the recommended forms of the specified work are given.

Key words. Non-material cultural heritage, protection, professional education, independent work, methods and forms of independent work.

Respublikamizda kechayotgan izchil rivojlanish va taraqqiyot mezonlari, avvalo mustaqillik va u yaratgan ulkan imkoniyatlar va shart-sharoitlar, shuningdek, ta'lim jarayonida amalga oshirilayotgan tub islohotlar va ustuvor yo'nalishlarning muhimligi bilan belgilanadi. O'tgan qisqa vaqt ichida o'zbek xalqi ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy-ma'naviy va boshqa bir qator sohalarda katta yutuqlarga erishdi. O'z tarixiga yangicha tafakkur asosida yondashish, ulug' ajdodlar qoldirgan boy madaniy va ma'naviy merosni o'rganish sharafiga muyassar bo'ldi, milliy g'ururi qayta tiklanib, ilm-fan, ma'rifat jabhalari ham yangitdan taraqqiy etdi.

Bugungi kunda mustaqil taraqqiyot yo'lidan borayotgan mamlakatimizning uzluksiz ta'lim tizimini isloh qilish va takomillashtirish, yangi sifat bosqichiga olib o'tish, unga ilg'or pedagogik va axborot texnologiyalarini joriy qilish hamda ta'lim samaradorligini oshirish davlat siyosati darajasiga ko'tarildi, "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun va Kadrlar

tayyorlash Milliy dasturining qabul qilinishi bilan uzluksiz ta'lim tizimi orqali zamonaviy kadrlar tayyorlashning asosi yaratildi.

Muhtaram Prezidentimiz ta'kidlaganidek, "Tinchlik va barqarorlik bo'lmasa, ilm-fan sohasida hech qanday o'sish, taraqqiyot bo'lishi mumkin emas. Qayerda tinchlik va barqarorlik bo'lsagina ilm-fan markazlari, akademiyalar, oliy o'quv yurtlari paydo bo'ladi. Eng asosiysi, ta'lim-tarbiya ravnaq topib, unga qiziqish, e'tibor kuchayadi. Tinchlik-barqarorlik bo'lgan joydagina odamlar o'qib-o'rganishni, har tomonlama rivojlanishni istaydi".

Barkamol avlod tarbiyasida ko'pgina omillar qatori nomoddiy madaniy merosning ham ahamiyati katta bo'lib, "Nomoddiy madaniy meros" tushunchasi urf-odatlarini, o'ziga xoslikni ifodalash shakllari, bilimlar va ko'nikmalarni, shuningdek, ular bilan bog'liq jihozlar, predmetlar, artefaktlar va madaniy makonlarni aks ettiradi, ular esa o'z navbatida, hamjamiyatlar, guruhlar tomonidan, alohida holatlarda esa muayyan shaxs madaniy merosining bir qismi sifatida tan olinganligini anglatadi. Avloddan avlodga o'tib kelayotgan bunday nomoddiy madaniy meros (NMM) doimo muayyan hamjamiyatlar, guruhlar tomonidan ularning atrof-muhitga, tabiatga, o'z tarixiga bog'liq holda yaratiladi va bu ularda o'ziga xoslikni, vorislik tuyg'usini shakllantiradi hamda shu bilan insoniyat ijodini va madaniy turli-tumanlikning hurmat qilinishiga ko'maklashadi.

NMM va uning muhofazasi tizimini yaratish, targ'ib qilish bugungi kunning muhim vazifasi bo'lib, ta'lim tizimiga joriy qilish va ommalashtirish yuzasidan NMMni muhofaza qilish bo'yicha xalqaro Konvensiyaning 14-moddasida ta'lim, jamoatchilikning xabardorligini oshirib borish va salohiyatini mustahkamlash maqsadida har bir ishtirokchi-davlat o'z ixtiyorida bo'lgan vositalarni quyidagilarga yo'naltirish yuzasidan bandlar mavjud:


a) nomoddiy madaniy merosning jamiyatda keng tan olinishi, hurmat qilinishi va e'tirof etilishi jarayoniga, xususan, quyidagi vositalar orqali ko'maklashish: I) ta'lim dasturlari orqali jamoatchilikning, xususan, yoshlarning nomoddiy madaniy meros to'g'risidagi bilimlarini oshirish; II) ta'lim va kadrlar tayyorlash sohasida tegishli hamjamiyatlarga va guruhlariga mo'ljallangan aniq dasturlar ishlab chiqish; III) nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilish sohasida, xususan, boshqaruv va ilmiy-tadqiqot masalalari bilan bog'liq imkoniyatlarni oshirish bo'yicha tegishli chora-tadbirlarni ishlab chiqish; IV) bilimlarni tarqatishning norasmiy usullaridan foydalanish;

b) nomoddiy madaniy merosga xavf solayotgan tahdidlar, shuningdek, mazkur Konvensiyaning bajarilishi yuzasidan olib borilayotgan tadbirlar haqida jamoatchilikni xabardor qilib turish;

c) nomoddiy madaniy merosni namoyon etish uchun zarur bo'lgan tabiiy makonlar va tarixiy joylarning hududlarini muhofaza qilish sohasidagi ta'limga ko'maklashish.

Kasb-hunar kollejlari o'quvchilarida nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilish yuzasidan dars va darsdan tashqari mashg'ulotlarni NMM mazmuni bilan boyitish, bu boradagi mustaqil ishlarni tizimli yo'lga qo'yish bugungi tadqiqotning maqsadidir.

Ta'lim jarayonida o'quvchilarning mustaqil ishi o'quv-tarbiya jarayonini takomillashtirishning muhim vositasi hisoblanadi. Kollej o'quvchilari mustaqil ishining asosiy vazifasi shaxsiy izlanishlar asosida bilimlarni egallash ko'nikmalarini va yangi bilimlarni izlashga qiziqishni rivojlantirishdan iborat. NMMni muhofaza qilish jarayonida o'quvchilarning mustaqil ishlarini tashkil etishda 1-rasmda ifoda etilgan vazifalarga alohida e'tibor qaratiladi.



1-rasm. NMMni muhofaza qilish jarayonida o'quvchilarning mustaqil ishlarini tashkil etish vazifalari

O'quvchilar mustaqil ishini tashkil etishning asosiy maqsadi – o'qituvchi rahbarligi va nazorati ostida NMM muhofazasi mazmunidagi nazariy materiallarni mustaqil o'zlashtirish va amaliy ishlarni bajarish uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish. Mazkur mustaqil ishlarni o'quv fanlari orqali tashkil etish va ularni bajarish natijasida o'quvchilarda NMMni muhofaza qilish tizimi shakllanishiga sharoit yaratiladi.

NMM muhofazasi yuzasidan olib boriladigan mustaqil ishlarni 2-rasmda ifodalangan jarayonlarda amalga oshirilishini tavsifa etamiz:

Nazariy jarayon – bu jarayon mavzu yuzasidan o'quvchining intellektual salohiyatini, nazariy bilim va ko'nikmalarini shakllantirishga asos bo'lib, 3-rasmda qayd etilgan mustaqil ishlar shakllaridan iboratdir.



2-rasm. NMM muhofazasi yuzasidan mustaqil ishlarni tashkil etish jarayoni


Ilmiy-amaliy konferensiya. “Nomoddiy madaniy merosning yoshlar tarbiyasidagi ahamiyati”, “Nomoddiy madaniy meros muhofazasi va yoshlar” va shu mazmundagi

konferensiyada ishtiroki nazarda tutiladi. Bunda dastlab o'quvchiga kollej o'qituvchilaridan yoki soha mutaxassislaridan ilmiy rahbar tayinlanadi. Ilmiy rahbar bilan kelishilgan holda ilmiy ma'ruza mavzusi tanlanadi va mavzu doirasida o'quvchi mustaqil ta'lim jarayonida nafaqat fan o'quv darsliklari, balki monografik asarlarni, ilmiy risola va maqolalarni ham o'qiydilar hamda NMM muhofazasi mazmunidagi materiallarni topishlari uchun darslik va o'quv qo'llanmalarni o'rganish, ma'ruzalar matnini o'zlashtirish, maxsus adabiyotlardan foydalanish, badiiy asarlardagi NMMga oid tushunchalarni tahlil qilish, mustaqil ishlashni o'rganish va odat qilish, nazariy va amaliy mashg'ulotlarni mustaqil tahlil qilishlari kerak.

Viktorina. Bu jarayonda kollej rahbariyati tomonidan NMM mazmunidagi viktorina tanlovi e'lon qilinadi. O'quvchi mustaqil ravishda viktorina uchun mavzuga oid adabiyotlar, matbuot va internet ma'lumotlari, NMMning huquqiy asoslarini o'rganadi. NMMning mahalliy namunalari joylarda tahlil qilinadi.


Buklet. O'rganilayotgan NMM namunasiga oid buklet tayyorlanadi. Masalan, "Xalq ijodiyoti" mavzusi bo'yicha buklet tayyorlashda "Nutq madaniyati va davlat tilida ish yuritish", "Ona tili va adabiyot", "Tarix", "Ma'naviyat asoslari", "Estetika", "Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar" kabi ijtimoiy-gumanitar fanlarga tayaniladi. Mazkur mavzuning har bir fanda o'rganilish jihati ochib beriladi. Bukletning bir tomonida mavzuga oid izohlar, ikkinchi tomonida esa rasmlar beriladi.

Referat. Tanlangan mavzu bo'yicha referat yoziladi. Masalan, "O'zbekiston nomoddiy madaniy merosi" mavzusini o'rganishda ijtimoiy-gumanitar fanlardan "Ona tili va adabiyot", "Tarix", "O'zbekiston Konstitutsiyasi", "Shaxs va jamiyat", "Huquqshunoslik", "Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar", "Ma'naviyat asoslari", "Estetika" fanlariga asoslaniladi. "Ona tili va adabiyot" fanidan NMM mavzusidagi materiallar asosida mashqlar bajarilib, she'r, doston, maqol, topishmoqlar o'qilib, tahlil etiladi. "Tarix" va "Ma'naviyat asoslari" fanlaridan NMMning ijtimoiy-tarixiy asoslari o'rganilib, muhokama qilinadi. "Shaxs va jamiyat", "O'zbekiston Konstitutsiyasi", "Huquqshunoslik" va "Iqtisodiyot asoslari" fanlarini o'rganishda fan-texnika taraqqiyoti va ishlab chiqarishning NMMga, inson va jamiyatga ta'siri, NMM muhofazasi, qabul qilingan qarorlar haqida ma'lumotlar yoziladi va rasmiylashtiriladi.



3-rasm.

NMM muhofazasi yuzasidan mustaqil ishlarni nazariy tashkil etish jarayoni



4-rasm.

NMM muhofazasi yuzasidan mustaqil ishlarni ijodiy tashkil etish jarayoni

Krossvord. Misol tariqasida “Xazina” krossvordi tayyorlanadi. Unda NMMning tur va janrlari, muhofazasi asosida savollar tuziladi.

Kartochka. NMM muhofazasiga oid savollar tayyorlanadi. Kartochka savollari o‘quv fanlari soniga bog‘liq holda beriladi. Masalan, A4 bichimli qog‘ozdan 2 ta kartochka tayyorlanadi. Ular konvertga solinadi. Kartochkadagi savollarning mazmuni, mantiqligi bilan birgalikda kartochkaning estetik jihatdan tayyorlanishiga ham e‘tibor beriladi.

Ijodiy jarayon – bu jarayon mavzu yuzasidan o‘quvchining ijodiy mahoratini, badiiy didini, estetik tarbiyasini, individual mahoratini shakllantirishga asos bo‘lib, 4-rasmda qayd etilgan mustaqil ishlar shakllaridan iboratdir.

Mushoira. Kollej ma‘muriyati tomonidan “Navro‘z ilhomlari”, “Sumalak – o‘ttiz malak” mavzularida mushoira kechalarini tashkil etish tavsiya etiladi. Bunda o‘quvchi mavzuga oid she‘rlar bilan tanishadi va o‘zlashtiradi.

Tadbirlarda ishtirok etish. Kollej va kollejdanda tashqarida o‘tkaziladigan NMM mazmunidagi “Assalom, Navro‘z”, “Hosil bayrami” kabi tadbirlarda NMM yo‘nalishlaridan birini yoki bir nechtasini ijro qilish va ishtirok etish mumkin.

Tanlovlarda ishtirok etish. Kollej yoki kollejdanda tashqarida tashkil etiladigan “Balli qizlar!”, “Balli yigitlar!”, “Mahallamiz bolalari” kabi tadbirlarda NMM yo‘nalishlari ijrosi, uning targ‘iboti bilan ishtirok etish ko‘zda tutiladi.

Ssenariy yozish. NMMning eng ommalashgan namunalari tomosha san‘ati yoki urf-odatlar yig‘indisida aks ettirilgan bo‘lib, o‘quvchi ularni o‘rganishda mahalliy dailillarga asoslanib ssenariy tayyorlaydi. Masalan, “Barhayot an‘analar” tadbiri uchun mahalliy aholi tomonidan o‘tkaziladigan turli urf-odat va marosimlar ssenariysini asos qilib olish mumkin.

Albom. “Oltin meros” mavzusi misolida albom tayyorlanadi. Albomning har bir varag‘ida o‘quv fanlaridagi NMMga oid materiallar, tushunchalar, rasmlar beriladi.

Audio va video lavhalar. Mahalliy mutaxassislar ijodiy faoliyatiga oid audio va video lavhalar tayyorlanadi. Masalan, baxshichilik, laparchilik, o‘lan va yor-yorlar audio tasmasi, turli urf-odat va marosimlar hamda hunarmandlar ish jarayoniga oid video lavhalar to‘planadi.

NMM muhofazasiga oid tushuncha, bilim va ko‘nikmalar o‘quvchilarda milliy qadriyatlar, an‘ana va marosimlarni hurmat qilishga nisbatan fikrlashni shakllantiradi.

Kasb-hunar kollejlari o‘quvchilarining NMM muhofazasi yuzasidan mustaqil ishga tayyorgarlik ko‘rish jarayonida NMM muhofazasiga oid materiallarni topishlari uchun quyidagilarga amal qilishlarini tavsiya etamiz:

- darslik va o‘quv qo‘llanmalarni o‘rganish;
- ma‘ruzalar matnini o‘zlashtirish va maxsus adabiyotlardan foydalanish;
- badiiy asarlarning mavzuga oid jihatlarini tahlil qilish;
- mustaqil ishlashni o‘rganish va odat qilish;
- nazariy va amaliy mashg‘ulotlarni mustaqil tahlil qilish.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Prezident I.Karimovning 2014-yil 15-mayda Samarqand shahrida bo‘lib o‘tgan “O‘rta asrlar Sharq allomalari va mutafakkirlarining tarixiy merosi, uning zamonaviy sivilizatsiya rivojidadagi roli va ahamiyati” mavzusidagi xalqaro konferensiyasining ochilish marosimidagi nutqidan. Xalq so‘zi. 2014-yil 16-may.

2. Nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilish bo‘yicha xalqaro Konvensiya. – Parij. 2003-yil 17-oktyabr.

Sarvar ABDURAHMONOV,
TIMI “Geodeziya va yer kadastrı”
kafedrası o’qituvchisi,
Sanjar SAFAYEV,
TIMI talabasi

TALABALARGA DEMOGRAFIK JARAYONLARNI GEOGRAFIK AXBOROT TIZIMLARI YORDAMIDA KARTALASHTIRISHNI O’RGATISH

Annotatsiya

Maqolada aholi demografiyasining qishloq xo’jaligiga ta’siri bo’yicha so’nggi uch yillik ma’lumotlar tahlili yoritilgan. Shuningdek, mualliflar geografik axborot tizimlari yordamida kartalashtirishni o’rgatish bo’yicha fikr-mulohazalar berib o’tgan.

Kalit so’zlar. Markaziy Osiyo, karta, migratsiya, kategoriya, geodeziya, geografiya, axborot chizmalari, elektron raqamli kartalar.

В данной статье проанализированы данные о влиянии демографического состава населения на сельское хозяйство за последние три года, изложены мнения по этому вопросу.

Ключевые слова. Центральная Азия, миграция, категория, геодезия, география, информационные диаграммы, электронные цифровые карты.

This article analyzes data on the impact of the demographic composition of the population on agriculture for the last three years, presented views on this matter.

Key words. Central Asia, migration, category, geography, information charts, digital maps.

Avvalambor, mavzuni yoritishdan oldin mamlakatimiz demografik rivojlanish tarixiga nazar tashlasak. O’rta Osiyo hududida yashagan ibtidoiy odamlarning qadimiy manzilgohlari quyi paleolit davriga to’g’ri keladi. Jez davrida O’zbekiston hududida chorvador va qisman dehqonchilik bilan shug’ullangan qabilalar yashagan. Bu vaqtda ibtidoiy jamoa davri yemirilib, qabilalar o’rtasida mulkiy munosabatlar vujudga kelgan.

O’zbeklarning alohida elat bo’lib shakllanishi uzoq yillar davomida sodir bo’lgan etnik jarayonlar mahsulidir. Ular O’rta Osiyoning markaziy viloyatlari – Movarounnahr, Xorazm, Yettisuv, qisman Sharqiy Turkistonning g’arbiy mintaqalarida shakllangan. O’zbek xalqining asosini hozirgi Markaziy Osiyoning keng hududida yashagan bu etnoslar, asosan, turkiy va sharqiy eroniy tillarda so’zlashishgan. Amudaryo va Sirdaryo havzalari oralig’ining o’troq aholisi va chorvador

qabila va elatlarning etnik jihatdan dastlabki aralashuvi jarayoni natijasida o'troq hayotga moslashgan turkiy hududiy maydon, o'zbek xalqiga xos antropologik qi-yofa shakllangan.

Hozirgi kunda mamlakatimiz aholisini kartalashtirishda, albatta, aholining barcha sohalardagi dinamikalarini statistik ma'lumotlarga tayangan holda alohida-alohida kartaga tasvirlash taqozo etiladi. Avvalo, aholining soni e'tiborga olinadi. Jumladan, 2015-yil 1-yanvar holatiga ko'ra, O'zbekiston aholisi 31,025 million kishini tashkil etayotgan edi. Bundan 51 foizi shaharlarda, 49 foizi esa qishloq joy-larda istiqomat qiladi. Demak, karta orqali beriladigan ma'lumotlar aniqlikni talab etadi. Kartalarni o'quvchiga o'qishni osonlashtirishda kartalarning yangi avlodini yaratish uchun zamonaviy dasturlarlardan foydalangan holda ishlash muhim ahamiyatga ega.

Yer yuzidagi ellikdan ortiq mamlakatlar aholisining 15 foizi emigrantlardan ibo-rat. Haqiqatan ham, odamlar barcha davrlarda doimo yashash joylarini obyektiv yoki subyektiv omillar ta'sirida o'zgartirib kelgan. Bundan 5-10 ming yillar muqad-dam odamlarning migratsiya yo'nalishini asosan tabiiy-geografik muhit belgilab bergan. Tog'lar, cho'llar, daryolar, iqlim tafovutlari ma'lum etnik birlikni ikkinchisi-dan ajratib turgan.

Milliy Respublikalardagi migratsiya jarayonlarini ko'chadagi bir tomonlama harakatga o'xshatsa bo'ladi. Markaziy Osiyo respublikalari, shu jumladan, O'zbe-kiston qo'shni davlatlarga qaraganda o'tgan davr ichida kuchli migratsiya jarayonini boshidan kechirdi.

O'zbekistonda 1970-yilning ikkinchi yarmidan boshlab yangi yo'nalish, ya'ni aholining respublikadan ko'chib ketishi kuzatila boshlandi. Ushbu jarayon yildan-yilga ko'paya borib, 1990-yilda o'zining eng yuqori cho'qqisiga chiqdi. O'sha yili davlat organlari tomonidan rasmiy ravishda qayd qilingan migratsiyaning man-fiy qoldigi – 140 ming kishini tashkil qildi. Keyingi yillarda esa u asta-sekin grafik ravishda o'zgarib bordi.

Shu kabi ma'lumotlarni kartalarga kiritishda yig'ilgan statistik ma'lumotlarga asoslanib, shuni bashorat qilish mumkinki, O'zbekistonning mehnatga layoqatli aholisi soni 2030-yilga borib 20 foizga oshib, qariyb 22 million kishiga yetadi. Bu haqda Jahon banki va Germaniya xalqaro hamkorlik jamiyati tomonidan tayyorlan-gan ma'ruzada ma'lum qilingan. “Iqtisodiy faol aholi ulushi o'sishining sur'ati hozir-gi ko'rsatkichda saqlanib qolinadigan bo'lsa, 2030-yilga borib O'zbekiston mehnat kuchiga yana 3,9 million kishi qo'shiladi”, – deyiladi ma'ruzada.

Aholi kartalarining avtomatlashgan tizimini xalq xo'jaligiga tatbiq etish esa obyektarning ijtimoiy-iqtisodiy, xo'jalik, huquqiy, tabiiy ma'lumotlarini yig'ish, tahlil qilish, baholash, taqdim etish jarayonlarini tezlashtirib, iste'molchilarni tezkor va ishonchli axborotlar bilan ta'minlaydi. Bugun jahon aholisi tez ko'payib borayotgan-ligi ham hech kimga sir emas. 2015-yilda dunyo aholisi 7,3 milliard kishidan oshdi. Yer sharida yiliga aholi 90-100 million kishiga ko'paymoqda.

Tarixga nazar tashlasak, aholining 2 baravar ko'payishi uchun 1-marta 630 yil, 2-marta 250, 3-marta 40 yil, 4-marta esa 14 yil kerak bo'lgan. Yer sharida so'ng-

gi vaqtda yiliga 135-137 mln. nafar bola tug'ilmoqda, 53-55 mln. kishi esa vafot etmoqda. Tabiiy o'sish miqdori 82-84 mln. kishini tashkil qiladi.

Mamlakatimizda ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish va ularni yanada rivojlantirish, aholi bilan bog'liq muammolarni atroflicha ilmiy asosda tadqiq etish va shu o'rinda respublikamizning demografik rivojlanishida ham o'tish davri holatini o'rganib, uni kartalashtirishda Geografik axborot tizimlari (GAT)ning dolzarbligini alohida ta'kidlab o'tish lozim. GAT asosida aholini o'rganish ishlari muvaffaqiyatli amalga oshirilib kelinmoqda. GATda ishlangan karta va planlarning chegarasi yanada mukammallashib, sifati ham oshib bormoqda.

Hozirgi paytda foydalanish sohasining kengligi jihatidan GATning tengi yo'q. Undan navigatsiya, transport, qurilish, geologiya, harbiy ishlar, iqtisodiyot, ekologiya va boshqa sohalarda keng foydalanilmoqda. Geografik axborot tizimlari kartografiyada, geodeziyada ham samarali qo'llanilmoqda, chunki katta hajmdagi statistik va fazoviy matnli, grafikli va boshqa ko'rinishdagi ma'lumotlarni qayta ishlash va ularni tasvirlash GAT tizimisiz mumkin emas. Insoniyatlar hayotida karta yaratish va undan foydalanish muhim o'rin tutadi. 2000-yilgacha mamlakatimizda karta eski uslubda yaratilib kelingan. Bu ishlarni bajarishda butun boshli chizmachilar va hisobchilar guruhi karta yaratish bilan band bo'lib, bu ishlar ko'p vaqt va katta mablag' talab qilgan.

Elektron kartalar – kompyuter texnologiyalari yordamida yaratilgan bo'lib, maxsus dasturlar asosida aniqligi yuqori, sifatlil, vaqt borasida tez, iqtisodiy tejamkor kartografik mahsulotdir. Umuman, kartalar yaratilishida, bugungi kunda ilmiy tadqiqotlar va amaliy faoliyatda ko'plab GATlar ishlatilmoqda. Jumladan, Atlas Gis, Geo Draw, Geo Graph, Win Gis (AQSH), ArcInfo, MapInfo (AQSH) va boshqa dasturlarni keltirish mumkin.

Elektron raqamli xaritalarni yaratishning afzalligi quyidagilardan iborat:

- kadastr maqsadlari uchun yuqori aniqlikdagi xaritalarni ishlab chiqish;
- yer egalari, yerdan foydalanuvchilar va ijarachilarni turli miqyosdagi elektron raqamli xaritalar bilan ta'minlash;
- xarita yaratish jarayonining eski uslubga nisbatan tezkorligi;
- ma'lumotlarni solishtirish imkoniyatini mavjudligi.

Elektron raqamli xaritalardan xalq xo'jaligining turli sohaslaridagi korxonalar va tashkilotlari tematik masalalarini hal qilishda foydalanishlari mumkin. Jumladan:

- yerlarni ro'yxatdan o'tkazishda;
- tuproq xaritasini tuzishda;
- xo'jalik (massiv) yerlaridan foydalanuvchilar va kadastr xaritasini tuzishda;
- yer monitoringini o'tkazishda;

Xarita – tarxlarini yangi texnologiya asosida, ya'ni elektron raqamli uslubda tayyorlash jarayoni quyidagicha:

- Aero va kosmik uslubda xarita – tarxi tayyorlanishi lozim bo'lgan hudud suratga olinib, ushbu suratlardan foydalangan holda belgilangan texnologiya bo'yicha fototarxlar tayyorlanadi. Tayyorlanadigan fototarxlarning miqyosi zaruriyati bo'yicha

turlicha bo'lishi mumkin. Jumladan, sug'oriladigan hududlar bo'yicha 1:10000, lalmi hududlar bo'yicha (xo'jalik yer maydonining katta – kichikligiga qarab) 1:25000 yoki 1:50000 miqyoslarda tayyorlanadi..

Foydalanuvchiga ma'lumotni faqatgina 2 o'lchamli tasvirlar orqali oddiy qilib yetkazib berishning o'zi kifoya qilmaydi. Hozirgi paytda geografik ma'lumotga bo'lgan talab ortib bormoqda va ma'lumot ko'rinishida turlicha (video, 3 o'lchamli va h.k) bo'lishini taqozo etmoqda. Bu muammoni bartaraf etishga GAT va multimedia texnologiyalarini o'zaro birlashtirish orqali erishish mumkin. Rivojlanishga hissa qo'shayotgan yaroqli yuqori qiymatga ega bo'lgan aholi elektron kartalarini yaratishda kartaga tushirish uslubini takomillashtirish kerak. Jumladan, legendani ishlab chiqish, maxsus mazmunni takomillashtirish, generalizatsiya jarayonlarini olib borish, tasvirlash usullarini tanlash, jihozlashdagi ishlarni qayta ko'rib chiqish va h.k.

Umuman olganda, demografik kartalarni yaratishda GAT-texnologiyasini quyidagicha tasavvur qilsa bo'ladi:

1. Tayyorgarlik ishlari. Elektron taxeometrlar va GRS asboblardan; tasvirlarni qayta ishlash vositalaridan; izlanishlar raqamli ma'lumotlaridan; mualliflik originallardan; mavjud fond kartalari va hokazolardan dastlabki materiallarni to'plash. Kartografik va fond materiallarini skanerlab, rastrli tasvirlarni bir xil masshtabga keltirish, so'ngra ularni kompyuter xotirasiga joylash.

2. Yaratilayotgan aholi kartasining qatlamlarini va ularga tegishli jadvallarni tuzish, ularni tahlil qilish. Ma'lumotlar bazasini tuzish va kartaga tushirilishi kerak bo'lgan ma'lumotlarni ma'lumotlar bazasiga kiritish.

3. Aholi kartalarini yaratishda obyektlar tasnifi mavjud jadval (atributlar) va matn ma'lumotlarni EHM xotirasiga kiritish.

4. Shartli belgilar tizimini ishlab chiqish.

5. Kartaning mavzuli qatlamlarini joylashtirish, kartografik tasvirni hosil qilish va ularni tahrir qilish;

6. Kartaning komponovkasini ishlab chiqish va uni nashrga tayyorlash;

7. Kartani nashr qilish.

Xalq xo'jaligi uchun aholini ijtimoiy-iqtisodiy nuqtayi nazardan zarur bo'lgan sohalariga: mehnatga yaroqli aholi soni, aholining bandlik darajasi, aholini sohalar bo'yicha mutaxassisligi va ba'zi bir demografik ko'rsatkichlar kiradi. Qayd qilingan aholi xususiyatlarini o'rganish va uning kartasini tuzish aholi kartografiyasining predmeti desa bo'ladi.

Aholi joylashuvi va ish bilan ta'minlanganligi bilan bog'liq muammolarni hal etish maqsadida hayotiy muhim yo'nalishlar bo'yicha yuqori malakali kadrlarni tayyorlash katta ahamiyat kasb etadi.

Hozirgi kunda kosmik va aerosuratlardan keng foydalanilgan holda aniqlik darajasi yuqori bo'lgan elektron raqamli kartalarni yaratish texnologiyasi yo'lga qo'yilishi bu sohada ishlar takomillashtirilishiga keng ko'lamda yordam beradi. Ularni yaratishda zamonaviy GAT texnologiyalardan foydalanish kutilayotgan natijalarni samarali bo'lishiga ko'mak beradi, desak mubolag'a bo'lmaydi. Demak, elektron

raqamli aholi kartalari kompyuterlarda maxsus dasturlarda tuzilganligi tufayli kartalardagi axborotlarni qayta ishlash va taqdimot tezligini ta'minlaydi.

Xalq xo'jaligi uchun aholini ijtimoiy-iqtisodiy nuqtai nazardan zarur bo'lgan sohalariga – mehnatga yaroqli aholi soni, aholining bandlik darajasi, aholining sohalar bo'yicha mutaxassisligi va ba'zi bir demografik ko'rsatkichlar kiradi. Qayd qilingan aholi xususiyatlarini o'rganish va uning kartasini tuzish aholi kartografiyasining predmeti desa bo'ladi.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash mumkinki, aholi joylashuvi, ish bilan ta'minlanganlik darajasi va boshqa holatlari to'g'risidagi ma'lumotlar ko'p pog'onali tizimda jamlanganligi uchun kartografik tadqiqot usullaridan foydalanib, elektron raqamli karta va planlarni tuzish yaxshi samara beradi. Xalq xo'jaligida elektron raqamli kartalardan foydalanish keng imkoniyatlarni yaratib berishi bilan birga bir qator texnik va moliyaviy masalalarini hal qilish zaruriyatini vujudga keltiradi. Jumladan, viloyat va tumanlarni zamonaviy kompyuter, skaner va plotterlar bilan ta'minlash hamda ushbu texnikalar bilan ishlaydigan malakali kompyuter mutaxassislarini o'qitishga e'tibor qaratish maqsadga muvoqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. *O'zbekiston Respublikasi Yer kodeksi. O'zbekiston Respublikasining yangi qonunlari.* – T.: "Adolat", 1998.

2. *O'zbekiston Respublikasi yer resurslarining holati to'g'risida Milliy hisobot. 2011-2014 yy.*

3. *Abdurahmonov Q.X., Abdurahmanov X.X. Demografiya.* – T., 2010.

4. *Abdurahmonov Q.X., Imomov V. O'zbekistonda mehnat potensialidan samarali foydalanish va uni boshqarish.* – T.: "Akademiya", 2008.

5. *Mirzoyev. M. Elektron xaritalarni tuzish texnologiyasi. Diplom ishi.* – Samarqand, 2014.

6. *Safarov E.Yu., Abduraximov X.A., Oymatov R.Q. Geoinformatsion kartografiya.* – T.: "Universitet", 2012.

7. *Internet sayt. www.stat.uz*

Jabbor USAROV,

TDPU katta ilmiy xodim-izlanuvchisi,

Muqaddam O'SAROVA,

Yunusobod tumanidagi 240-umumiy o'rta ta'lim

maktabi o'qituvchisi

BOSHLANG'ICH SINFLARDA DARS SAMARADORLIGINI OSHIRISH USULLARI

Annotatsiya

Maqolada boshlang'ich ta'lim tizimida o'quvchilarning dars jarayonidagi faolligini, so'z boyligini oshirish va nutq ravonligini ta'minlashga qaratilgan usullar haqida fikr yuritiladi. Shuningdek, mualliflar o'quv predmetlarini o'zlashtirishda yordam beruvchi bir necha o'yin usullarini aytib o'tgan.

Kalit so'zlar. Boshlang'ich ta'lim, ta'lim konsepsiyasi, dars jarayoni, ta'lim texnologiyalari, ko'nikma.

В статье освещены методы обучения, направленные на повышении активности учащихся в системе начального образования, на обогащение их словарного запаса и развитие речи. Приведены некоторые игровые приемы, помогающие в усвоении учащимися учебных предметов.

Ключевые слова. Начальное образование, концепция обучения, процесс урока, образовательные технологии, навык.

The article highlights methods of training, aimed at enhancing the activity of students in primary education, for the enrichment of their vocabulary and language development. Lists some game techniques that help students in mastering academic subjects.

Key words. Primary education, learning concept, lesson, educational technology, skill.

Boshlang'ich ta'lim jarayoni davlatimizning ta'lim-tarbiya tizimida umumiy o'rta ta'limning dastlabki bosqichidir. Uning asosiy maqsadi bolalarda elementar tarzidagi o'qish, yozish, hisoblash ko'nikmalarini hosil qilishdan, obyektiv olam haqidagi tasavvurlarini rivojlantirish hamda boshlang'ich ta'lim jarayonining samaradorligini oshirish uchun uni takomillashtirish va yangi yondashuvlar bilan boyitishdan iborat. Prezidentimiz I.A.Karimov ta'kidlaganidek, “Toki hayot davom etar ekan, ta'lim ham tarbiya ham zamon o'rtaga qo'yayotgan yangi-yangi talablarga ko'ra muttasil ravishda o'zgarib yangilanib boraveradi”. Bu yangilanish bugungi kun boshlang'ich sinf o'qituvchilari oldiga bir qator vazifalarni qo'yimoqda. Xususan, boshlang'ich sinf o'quvchilarda o'qish, o'rganish, o'zlashtirgan bilimlarni qo'llash istagi va ko'nikmalarini shakllantirishda dars jarayonida o'qitishning samarali usullaridan, pedagogikadagi yangi o'qitish texnologiyalaridan foydalanish, o'quvchilarida bilish faoliyatiga intilishni kuchaytirish kabi masalalar hech qachon o'z dolzabligini yo'qotmaydi.

Bilish faoliyatiga bo'lgan ongli intilish shakllangandagina ta'lim jarayoni sifati va samaradorligi ortadi. Agar boshlang'ich ta'lim jarayoni o'quvchida bilishga bo'lgan

ishtiyoqni shakllantira olmasa, yuqori sinflarga borgani sari o'quvchilarning bilishga bo'lgan intilishi susayadi. Bu esa, o'z navbatida, boshlang'ich sinf bitiruvchilarining bilim, ko'nikma va malakalarining shakllanish darajasiga ham salbiy ta'sir ko'rsatadi.

O'quvchilar berilgan o'quv materiallari o'zlashtirishlari uchun mustaqil tasavvur qilishi, mohiyatni tushunib yetishlari, o'quvchilarda xayol qilish ko'nikmalari shakllangan bo'lishi lozim. Boshlang'ich sinflarda o'qishga, o'rganishga yo'naltirilgan faoliyat bilan birga, ularning rivojlanishlarida o'yin, sport bilan shug'ullanish, ijodiy faoliyat ham asosiy o'rin egallashi lozim. Jumladan, og'zaki va yozma nutq savodxonligini rivojlantirish, o'quvchilarning erkin fikr yurita olishga, berilayotgan savolga to'g'ri javob berish hamda to'g'ri savol tuzishga o'rgatish o'quvchining ongi, tafakkurini rivojlantirishga hamda uning shaxsiy taraqqiyotiga keng imkoniyat yaratadi.

Ta'lim tizimidagi rivojlanish jamiyat taraqqiyotining negizini tashkil etadi. Buning uchun muntazam tarzda boshlang'ich ta'lim tizimida qo'llaniladigan innovatsion texnologiyalarni o'zlashtirish, o'quvchilarning kompetensiyalarni egallash jarayonlarini jadallashtirish hamda ularni rivojlanayotgan jamiyat talablariga moslashtirish taqozo etiladi. Shu ma'noda, o'quvchilarning mustaqil fikrlashga o'rgatish, nutqini rivojlantirishda interfaol usullar, didaktik o'yinlar, metodlardan dars mobaynida unumli foydalanish samarali natija beradi. Quyida ana shunday dars jarayonida foydalanilgan o'qitish usullaridan namunalar keltiramiz.

“Kim ko'p so'z biladi?” o'yini

1-sinf o'quvchilari uchun mo'ljallangan ushbu o'yin o'g'il-qizlarning nafaqat fikrlashi, balki so'z boyligini oshirishga hamda nutqining ravonligiga ham yordam beradi.

O'yin qoidasiga ko'ra, o'quvchi bir so'z aytsa, keyingi ishtirokchi shu so'zning oxirgi harfi bilan boshlangan boshqa so'zni aytadi va shu tariqa o'yin davom etadi.

Masalan: lola, alla, anor, rubob va hokazo. Qaysi o'quvchi to'xtab qolsa, safdan chiqadi. O'quvchilarni guruhlariga bo'lib, alohida mavzular berilsa, yanada yaxshi samara beradi.

“Detektiv” o'yini

Topishmoq tarzidagi ushbu o'yin 1 – 4-sinf o'quvchilarining fikrlashini, mantiqiy tafakkurini boyitishga, u yoki bu predmetning sifati va xususiyatlarini sinflarga ajratishga, berilayotgan bir savolning pala-partish emas, maqsadli tarzda amalga oshirish ko'nikmasini shakllantirishga hamda jismlar, moddalar yoki hodisalarni ma'lum sinflarga ajratishlariga katta yordam beradi.

Bu o'yinni amalga oshirish sharti va texnologiyasi quyidagicha: Bir o'quvchi doskaga chiqib, o'qituvchi qulog'iga biror predmet nomini aytadi. Sinfda o'tirgan o'quvchilar tomonidan berilgan savollarga faqatgina “ha” yoki “yo'q” degan javob beriladi. Berilayotgan savollar sonini chegaralash mumkin. Misol uchun, “Olma” deyilgan bo'lsa, o'quvchilar buni bilish uchun quyidagi savollar bilan murojaat qilishadi:

- U yuradimi?
- Yo'q.
- Uni yesa bo'ladimi?
- Ha.
- Mevami?
- Ha.

– Daraxtda pishadimi? kabi savollar bilan o'quvchilar to'g'ri javobni topishadi. Bu o'yinni kichik guruhlarda o'tkazish va har bir guruh a'zosiga navbat bilan cheklangan savollarni berish shartini qo'yish, o'quvchilarda o'rtog'i bergan savolga e'tibor berish, uni to'ldirish hamda o'quvchilarning jamoaviy va fikriy jiplashishiga yordam beradi. Bosh-

lang'ich sinf o'quvchilarida bunday xislatlarni shakllantirish, bolalarga xos bo'lgan “chaqma-chaqar”likning oldini oluvchi asosiy vositalardan biri bo'lib xizmat qiladi.

“Gap tuz”

Ushbu o'yinni boshlang'ich 1- va 2-sinflarda qo'llash maqsadga muvofiq. Dastlab o'quvchilarni guruhlariga yoki qatorlarga bo'linishi talab qilinadi.

Birinchi qator bitta so'z aytadi.

Ikkinchi qator shu so'zdan gap tuzadi.

Uchinchi qator esa ana shu gapdan matn yoki hikoya yaratadi.

Masalan: birinchi qator “bog'bon” so'zini aytsa, ikkinchi qator “Mening bobom bog'bon” deb gap tuzadi. Uchinchi qator “Bobomning bog'ida mevali daraxtlar ko'p. Ularni parvarishlashda bobomga yordamlashaman” deya davom ettirishadi. So'ngra har bir aytilgan so'z, gap, matn va hikoya o'quvchilar tomonidan tahlil qilinadi:

So'z nechta harfdan tuzilgan?, Gapda nechta so'z bor?, Matnda nechta gap bor?

Bunda so'zni unli va undoshlarga ajratish, o'quvchilarning tovushlarni to'g'ri talaffuz qilishi, kichik matnli hikoyani o'qib, gapirib berish hamda ularning so'z boyligini oshirish, fikrlash doirasini o'stirish kabi bir qator muhim ko'nikma va malakalarini oshirish ko'zda tutiladi.

“Qadamba qadam” metodi

Ushbu metodni barcha fanlarda qo'llash mumkin. Ayniqsa, takrorlash va mustahkamlash darslarida qo'l keladi. Tezkor savollar tuzilib, yakka tartibda yoki guruhlar bilan o'yin o'tkaziladi. O'qituvchi savollarni o'qiydi. Birinchi bo'lib javob bergan o'quvchi bir qadam oldinga yuradi. Barcha savollarga to'g'ri javob bergan o'quvchi marraga birinchi bo'lib yetib boradi. O'yin so'ngida ishtirokchilarning vazifani “a'lo”, “yaxshi”, “o'rta” bajarгани aniqlanadi. Ushbu usul orqali o'quvchilarning nutqi, ziyraklik va chaqqonligi rivojlantiriladi.

“Kim birinchi uchadi?”

Bu usul o'quvchilarni tez fikrlashga, chaqqonlikka hamda vazifani to'g'ri bajarishga undaydi. Bu o'yinda raketa, oy va yulduzlar maketidan foydalaniladi. Osmon jismlari doskaga ilinadi. So'ngra guruhlariga orqa tomonida vazifalar yozilgan raketa maketi tarqatiladi. Vazifalarni bajarган guruh raketasi doskadagi oy va yulduzlar yoniga yopishtiriladi. Birinchi bo'lib vazifani bajarган guruh rag'batlantiriladi. Bu o'yinning foydali tomoni shundaki, unda har bir o'quvchi faol ishtirok etishga majbur bo'ladi. Chunki berilgan vazifalarni o'quvchilar ketma-ketlikda keyingi o'quvchiga uzatgan holda bajarishi talab etiladi.

Keltirilgan didaktik o'yinlar boshlang'ich sinf o'quvchilarining fanlarga qiziqishini oshirishga, aqliy qobiliyatini o'stirishda katta ahamiyat kasb etadi.

Eng asosiysi, pedagog ushbu usullarni qo'llash orqali sinfda o'quvchilar faolligini oshirib, darslarni passiv, bo'sh o'zlashtiruvchi o'quvchilar sonining kamayishiga erishiladi.

Xullas, yoshlarimizni erkin, mustaqil va mantiqiy fikrlovchi, o'z ustida tinimsiz mehnat qila oladigan, o'zgalar mehnatini qadrlaydigan va mehnatdan qo'rqmaydigan, o'z yurtini sevadigan, ma'naviy yetuk qilib tarbiyalash bizning sharfli burchimizdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov. I.A. *“Bizdan ozod va obod vatan qolsin”*. – T.: “O'zbekiston”, 1994.
2. Karimov. I. A. *“Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori”*. – T., 1997.
3. *Boshlang'ich ta'lim konsepsiyasi*. – T., 2014.
4. Burxonov S. va b. *Matematika. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 3-sinflari uchun darslik* – T.: “Sharq”, 2014.
5. *Internet materiallari: <http://go.mail.ru/search?>. “Ta'lim texnologiyalari”*

Ravshan JOMONOV,

Toshkent Davlat milliy raqs va xoreografiya
oliy maktabi dotsenti, f.f.n.

Ю, Я HARFLI SO‘ZLARNI O‘ZBEK LOTIN ALIFBOSIGA O‘GIRISH MASALALARI

Annotatsiya

Mazkur maqolada **Ю, Я** harfli so‘zlarni o‘zbek lotin alifbosida aks ettirishning o‘ziga xos xususiyatlari yoritilgan. Muallif bunday so‘zlarning **yu** yoki **u**; **ya** yoki **a** shaklida yozilishini aniq misollarda isbotlab bergan. Shuningdek, rus tili orqali o‘zlashtirilgan so‘zlar, atoqli otlarni yangi o‘zbek alifbosida to‘g‘ri yozish bo‘yicha zarur orfografik qoidalar tavsifiya qilingan.

Kalit so‘zlar. Alifbo, harf, orfografik muammo, imlo lug‘ati, qiyosiy tahlil, o‘zbek alifbosi.

В данной статье рассмотрены особенности передачи в узбекском языке на латинской графике заимствованных слов с буквами **Ю, Я**. Правописание **yu** или **u**; **ya** или **a** обосновано на примере конкретных слов. Рекомендованы необходимые орфографические правила по транслитерации на узбекской латинской графике заимствованных слов, а также имен собственных, вошедших через русский язык.

Ключевые слова. Алфавит, буква, орфографическая проблема, орфографический словарь, сопоставительный анализ, узбекский алфавит.

The present article is about the orthography of words with letters “Ю” and “Я” in Uzbek Latin alphabet. There are given exact examples whether they are written with “yu” or “u”; or with “ya” or “a”. Besides that some orthographic rules of spelling of borrowed words and proper names which were borrowed from the Russian language are recommended here.

Key words. Alphabet, letters, orthographic problem, orthographic dictionary, Uzbek alphabet.

“**YO** lashgan unlilar” orasida **Юю** harfi bilan yoziladigan so‘zlar ham salmoqli. Chunki rus tilida **ю** harfi ham ikki vazifada qo‘llanadi: 1. **И+у** kabi tovushlar birikmasini ifodalaydi: *июнь, июль, Юрий, Юпитер*; 2. O‘zidan oldingi undoshning yumshoqroq talaffuz etilishiga ishora qiladi: *жюри, этюд, плюс, люкс* va sh.k. O‘zbek kirill alifbosida ham ayni shu holat takrorlanadi. Ammo lotincha alifbomizda vaziyat boshqacha: o‘rniga qarab **yu** yoki **u** shaklida yozishga to‘g‘ri keladi. Xo‘sh, **ю** harfli so‘zlarni lotinchaga o‘g‘irishning ma‘lum qonun-qoidalar mavjudmi?

Nazarimizda, mazkur orfografik muammoni quyidagi tarzda hal etish mumkin: 1. **Ю** harfi o‘zlashtirilgan so‘zning boshida yoki so‘z o‘rtasida kelib, alohida bo‘g‘inni hosil qilsa, u holda lotinchada **yu** shaklida yoziladi: *iyun (июнь), iyul (июль), Yuriy (Юрий), Yupiter (Юпитер), Yurmala (Юрмала)* va sh.k. 2. Odatda, Yevropa tillaridan o‘zlashtirilgan so‘zlarda undoshdan keyin kelgan **ю** harfini **u** bilan o‘g‘irish maqsadga muvofiqdir: *juri (жюри), menu (меню), shluz (шлюз), etud (этюд), budjet (бюджет), plus (плюс), luks (люкс)* va h.k.

Shu o'rinda masalaning nozik bir jihatiga e'tibor qaratish lozim bo'ladi. Yevropa tillaridan o'zlashtirilgan so'zlardagi **ю** harfini lotinchada o'rinsiz ravishda **yu** tarzida berish bir qator noaniqliklarga sabab. Avvalo, manba tildagi shakldan va talaffuzdan butunlay uzoqlashib ketadi. Masalan, fransuz tilidagi *juri* so'zi o'zbek lotin alifbosida *iyuri* shaklida berilsa, [жйури] kabi talaffuz yuzaga keladi. Agarda *плюс* va *люкс* so'zlari *plyus* [пльус] va *lyuks* [льукс] shaklida beriladigan bo'lsa, juda o'ng'aysiz talaffuz hamda noto'g'ri bo'g'in tuzilishi yuzaga keladi: pl-yus, l-yuks. *Меню* va *этюд* so'zlari ham agar *menu* va *etyud* shaklida yoziladigan bo'lsa, bo'g'in tuzilishida chalkashlik sodir bo'ladi: *me-nu* emas *men-yu*, *e-tud* emas *et-yud* kabi g'ayritabiiy ko'rinishlar va aytilishlar paydo bo'ladi. Ayni shunday fikrni Гюстав, Стюарт kabi atoqli otlar haqida ham bildirish mumkin. Chunki Гюстав ismini *Gyustav*, Стюарт ismini *Styuart* shaklida o'giradigan bo'lsak, ham talaffuzda g'alizlik, ham bo'g'in tuzilishidagi noqulaylik yuzaga keladi. Shu sababli ham ularni *Gustav*, *Stuart* shaklida yozish lozim. Ayni mana shunday yondashuv tufayli talaffuzdagi ravonlik saqlab qolinadi hamda mazkur leksemalarning kirill va lotin yozuvlarida bir xil miqdordagi (ikki bo'g'inli so'z) bo'g'inlar paydo bo'ladi: Gus-tav, Stu-art.

Ko'rinadiki, **ю** harfli so'zlarni lotincha alifboga o'girish tashqi tomondan ancha oddiy ko'rinsa-da, ammo mazkur masala o'z-o'zidan hal bo'ladigan muammo emas. Bizningcha, avvalo, mazkur so'zlarning manba tildagi shaklini, keyin esa vosita tildagi o'zgarishlar sababini aniqlab olish lozim. Shundan keyingina o'zbek lotin alifbosida aks ettirish yo'llarini o'ylab ko'rish maqsadga muvofiqdir. Negaki, “Xorijiy atoqli otlar odatda o'zga bir til muhitida o'zgaradi, o'z talaffuzini o'zlashtirayotgan til fonetikasiga yaqinlashtirish tomon qayta quradi, chunki har bir tilning fonetik tizimi o'ziga xos bo'ladi va bir til vakillari boshqa tildagi nomlarni maxsus tayyorgarliksiz aniq talaffuz eta olmaydilar. Shu bois har bir nom o'zga bir til muhitiga tushgach, qandaydir o'zgarishlarga uchraydi: bunday o'zgarishlar juda sezilmas bo'lib, faqatgina ikkala til uchun umumiy bo'lgan tovushlarni maxsus tarzda talaffuz etishda namoyon bo'lishi mumkin, ba'zan esa bunday o'zgarishlar juda jiddiy bo'lib, nom (ot) ning umumiy qiyofasini qayta qurishga (bir tildagi orfogrammalarni boshqa til qoidalariga muvofiq o'qishda) yoki uning talaffuzini birmuncha aniq saqlagan holda nomning yozilishini o'zgartirishga olib borishi mumkin”.

Rus tili va Yevropa tillaridan o'zlashtirilgan so'zlarni o'zbek lotin alifbosida aks ettirishdagi muammolardan biri **Яя** harfi bilan bog'liq. Negaki, **я** harfi ham rus tilida ikki xil vazifada qo'llanadi: ushbu harfga **ў+a** tarzidagi tovushlar birikmasini ifodalash hamda o'zidan oldingi undoshning yumshoqligini ko'rsatish vazifalari yuklangan. Mana shunga bog'liq tarzda **я** harfli so'zlarni transliteratsiya qilish ma'lum bir lisoniy tayyorgarlikni, ma'lum bir orfografik qoidalar ishlab chiqishni taqozo etadi. Binobarin, har bir lisoniy hodisa ma'lum bir me'yorlar asosida hal etilishi, to'plangan material negizida tegishli tavsiyalar berishni davr talab qiladi. Negaki, “til normasi til tizimidan kollektiv foydalanish mahsulidir. Buni belgilash uchun o'zbek tilining butun tarixiy bosqichlari yoppasiga olib qaralmaydi, balki bu til rivojining muayyan bosqichidagi qo'llanishlar, ya'ni tildan foydalanish holatlari olinadi. Tildan foydalanuvchi jamoa mana shu muayyan davrda o'zbek tilidagi ma'lum vositalar tizimini to'g'ri va namunaviy deb hisoblaydi va undan foydalanadi. Mana shu til vositalari o'sha davr o'zbek tilining umumnormasini belgilaydi”.

Yuqorida keltirilgan nazariy xulosalar hamda mavjud faktik materiallar asosida **я** harfli so'zlarni o'zbek lotin alifbosiga o'girishda quyidagi usullarni qo'llash o'zini oqlaydi, deb hisoblaymiz. Avvalo, **ya** tarzida transliteratsiya qilish xususida to'xtalamiz.

Shuni ta'kidlash joizki, *январь, яшик, бояр, ярмарка, ячейка, ярус* tipidagi so'zlar hech ikkilanmasdan *ya* shaklida berilishi kerak. Chunki mazkur leksemalardagi **я** harfi alohida bo'g'inni yoki o'zidan keyingi tovush bilan birikkan holda bir bo'g'inni tashkil etadi. Shu sababdan ham ularni *yanvar, yashik, boyar, yarmarka, yacheyka, yarus* shaklida yozish o'rinlidir.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, **я** harfli so'zlarni transliteratsiya qilishda shaklga emas, balki mazmunga qarab ish yuritish lozim bo'ladi. Masalan, *заряд, наряд, снаряд, разряд, отряд* so'zlaridagi tugallanma bir xil: *яд*. Lekin ularni lotinchaga bir xilda o'girib bo'lmaydi. Chunki, yuqorida ta'kidlanganidek, **я** harfining bajaradigan vazifasi ikki xil. Nazarimizda, *заряд, наряд, снаряд* leksemalaridagi **я** harfi й+a tovushlar birikmasi o'rnida qo'llanib, mazkur so'zlar tarkibida alohida bo'g'inni tashkil etmoqda: [зар-йад], [нар-йад], [снар-йад]. Shu sababli ham bunday leksemalar o'zbek lotin alifbosida *zaryad, naryad, snaryad* shaklida yozilishi lozim. Ammo *разряд, отряд* so'zlari xususida bunday fikrni bildirib bo'lmaydi, chunki mazkur leksemalarda **я** harfi o'zidan oldingi undosh [r] tovushini yumshoqroq aytilishini ko'rsatmoqda. Shu bois ularni *razrad, otrad* shaklida yozish maqsadga muvofiq bo'ladi, aks holda *razryad [раз-рйад], otryad [от-рйад]* kabi noto'g'ri shakllar hamda o'zbekcha nutq uchun o'ng'aysiz talaffuz yuzaga keladi. Taassufki, ba'zi imlo lug'atlarida ayni mana shu shakllar tavsiya qilinmoqda.

Ayni shunday yondashuvni *пляж, дубляж, макияж* tipidagi so'zlar imlosida ham qo'llash mumkin. Ko'rsatib o'tilgan uchala so'z ham bir xil tugallanmaga ega: *яж*. Biroq ularning lotinchaga transliteratsiya qilishda yondashuv ikki xil bo'ladi. Chunki *макияж* dagi **я** harfi й+a tovushlar birikmasini ifodalab turgani ayon, shu sababli ham lotinchada *makiyaj* ko'rinishiga ega bo'ladi. Biroq *пляж* va *дубляж* so'zlaridagi **я** esa o'zidan oldingi undosh [л] ni [ль] tarzida aytilishga yo'naltirilgan. Mana shu xususiyati tufayli mazkur leksemalar *plaj, dublaj* shakllariga ega bo'ladi. Demak, transliteratsiyada so'zning shakliga emas, mazmuniga e'tibor qaratish hamda shu asosda obyektiv xulosa chiqarib, tegishli orfografik qoidani tavsiya etish maqsadga muvofiqdir.

To'g'ri, **ю, я** harflarining qo'llanishini aniq chegaralab olish qiyin. Buning uchun, avvalo, bunday tipdagi so'zlarni to'plash, ularni fonetik, leksikologik, grammatik jihatdan o'rganib chiqish hamda shundan keyingina ma'lum bir tavsiyalar berish mumkin. Aks holda o'zbek lotin alifbosining grafik imkoniyatlari haqida noto'g'ri tasavvurlar tug'ilishi, o'rganuvchilarda noto'g'ri taassurot paydo bo'lishi mumkin. Vaholanki, o'zlashtirilgan so'zlar imlosida lotincha imlomizning afzal jihatlari, milliy o'ziga xosligi namoyon bo'ladi. Masalan, *сентябрь* (sentabr), *октябрь* (oktabr) kabi oy nomlarining yozilishi bo'yicha qator mulohazalar bildirilgan, matbuotda chiqishlar qilingan.

Я harfli so'zlarni lotinchada aks ettirish masalasi ko'tarilganda yana bir nozik holatni hisobga olishga to'g'ri keladi. Ma'lumki, rus tilida yumshoqlik–qattqlik hodisasi muhim fonologik vazifa bajaradi. O'zbek adabiy tilida esa bunday xususiyat mavjud emas. Biz kirilcha alifbomizda ruscha so'zlarning shaklini buzmaslik maqsadida yumshatish belgisi (ь) va "yolashgan unlilar"ni qo'llaymiz, xolos. O'zbek lotin alifbosida esa **я** harfli so'zlar transliteratsiyasida ham ma'lum qoidalarga amal qilish mumkin. Masalan, **я** harfli so'zlar tahlili shuni ko'rsatadiki, ularning har biriga alohida yondashuv zarur bo'ladi. Olaylik, *скаляр, увуляр, фамиляр, футляр, циркуляр, юбиляр, лямбиоз, алвеоляр, аппелятив* kabi so'zlarda **я** harfi ўzidan олдинги [л] fonemasining [ль] tarzida aytilishini ko'rsatib turadi. Ammo mazkur leksemalarga nisbatan orfografik yondashuv ikki xil bo'ladi. Binobarin, *скаляр, увуляр, фамиляр, алвеоляр* so'zlarida **я** o'zidan keyingi tovush [p] bilan birikib, alohida bo'g'inni tash-

kil etadi: [скайлар], [увуллар], [фамиллар], [алвеоллар]. Shu sababli ham bunday leksemalar lotincha yozuvimizda *skalyar, uvulyar, familyar, alveolyar* ko'rinishiga ega bo'ladi. Biroq *футляр, циркуляр, юбиляр, регуляр, лямбиоз, аппелятив* so'zlarida esa **я** harfi o'zidan oldingi undosh [л] ni [ль] tarzida talaffuz etishga yo'nalgan. Shu boisdan ham ularni *futlar, sirkular, yubilar, regular, lambioz, appellativ* shaklida yozish kifoya. Aks holda *futlyar* shaklida yozadigan bo'lsak, [фут-лйар] tarzidagi no'ng'ay talaffuz yuzaga keladi. Shuningdek, Рябов, Рябушкин tipidagi familiyalarni o'g'irishda ham o'ziga xos yondashuvlar zarur bo'ladi. Mazkur leksemalarni Rabov [рабов], Rabushkin [рабушкин] shaklida berib bo'lmaydi, chunki u holda talaffuz butunlay o'zgarib ketadi. Shu sababli ham qayd etilgan familiyalar *Ryabov, Ryabushkin* shaklida yozilishi orfografik nuqtayi nazardan to'g'ri bo'ladi.

Я harfli so'zlarning transliteratsiyasiga yorqin misollardan biri – *Финляндия* so'zidir. Ko'rinib turibdiki, mazkur leksemada ikki o'rinda **я** harfi qo'llangan, ulardan biri yumshoqlikni anglatadi, ikkinchisi esa [йа] tarzidagi talaffuzni ko'rsatadi. Aslida, rus tili orfografiyasi qoidalarga muvofiq *Финляндия* shaklida ham yozish mumkin, ya'ni mazkur joy nomidagi birinchi **я** harfi o'zidan oldingi [л] tovushini yumshoq [ль] tarzida talaffuz etishga ishora qilmoqda. Shunday ekan, uning o'zbek lotin alifbosidagi shakli *Finlandiya* ko'rinishida bo'ladi. Bu bilan hozirga qadar erishilgan talaffuzga putur yetmaydi hamda manba tildagi shakl (Finlandia) deyarli saqlanib qoladi.

Yuqorida qayd etib o'tilganidek, ayrim manbalarda “yolashgan unlilar”ning lotincha shaklida chalkashliklarga yo'l qo'yilmoqda. Jumladan, **я** harfli so'zlar imlosida ham xatoliklar bor. Masalan, *князь* so'zining *knyaz* shaklida berilgani to'g'ri emas. Chunki mazkur leksemada ham **я** harfi o'zidan oldingi tovush [н] ni [нь] tarzida yumshoqroq talaffuz etilishini ko'rsatib turadi, ya'ni uni [кньаз] tarzida aytish lozim. Shu bois *князь* so'zi o'zbek lotin alifbosida *knaz* shaklida berilgani ma'qul. Chunki *knyaz* shaklidagi yozuv ushbu so'zni [кнйаз] tarzida o'qishga majbur qiladi. Oqibatda bo'g'in tuzilishi ham o'zgaradi: kn-yaz [кн-йаз]. Vaholanki, o'zbek tilida bunday bo'g'in tuzilishi mavjud emas.

Ko'rinadiki, “yolashgan unlilar” deb nomlanuvchi **е, ё, ю, я** harflarini o'zbek lotin alifbosida to'g'ri aks ettirish shunchaki oddiy mexanik jarayon emas. Chunki kirilcha alifbomizda yozilishi hech bir muammo tug'dirmaydigan ayrim so'zlar lotincha yozuvimizda qator murakkabliklar keltirib chiqaradi. Jumladan, **Ю, Я** harfli so'zlar lotin yozuvida: *у, уу, а, я* harflari bilan ifodalanishi mumkin. Rus tili va Yevropa tillaridan o'zlashtirilgan leksemalarni o'zbek lotin alifbosiga transliteratsiya qilishda ularning manba tildagi shakli, vosita tildagi ko'rinishi puxta o'rganib chiqilishi hamda o'zbek lotin alifbosining grafik imkoniyatlari to'liq hisobga olinishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Begmatov E, Mamatov A. *Adabiy norma nazariyasi. 2-qism. –T., 1998.*
2. *O'zbek tilining kirill va lotin alifbolaridagi imlo lug'ati. –T.: “SHARQ” nashriyot-matbaa konserni bosh tahririyati. 1999.*
3. *O'zbek tilining imlo lug'ati. “Akademnashr”, – T., 2013.*
4. Jomonov R. *Nega sentabr yoziladi? “Ma'rifat” gazetasi, 2012-yil 20-oktabr.*
5. Суперанская А.В. *Имена собственные в чужой языковой среде // Топономастика и транскрипция. – М.: Наука, 1964.*

Saodat KULBAYEVA,
Guliston davlat universiteti dotsenti

O'QUVCHILARDA NUTQIY-INTELLEKTUAL SALOHİYATNI SHAKLLANTIRISH YO'LLARI

Annotatsiya

Ushbu maqola ta'lim mundarijasini yangilash, ta'limga kompetensiyaviy yondashuv, dars jarayonida o'quvchilarda ijodiy tafakkur, mustaqil fikr ifodalash ko'nikmalarini shakllantirish masalalariga bag'ishlangan. Shuningdek, muallif zamonaviy texnologiyalar, og'zaki va yozma fikrlash, o'zaro muloqot jarayonini boshqarish, ta'limni modernizatsiyalashtirish, nutq madaniyatini egallash bo'yicha o'z fikrlarini berib o'tgan.

Kalit so'zlar. Ta'limni jadallashtirish, kompetensiyaviy yondashuv, ijodiy tafakkur, nutq madaniyati, zamonaviy texnologiyalar, til o'rganish darslari, og'zaki va yozma nutq, o'quvchi ruhiyati, fikrlash jarayoni, tizimli boshqaruv, ta'limni modernizatsiyalashtirish.

Данная статья посвящена вопросам обновления содержания образования компетентностного подхода к обучению, формирования у учащихся навыков творческого, самостоятельного мышления. Также отражены мнение автора о современных технологиях, управлении процессом взаимного общения, модернизации образования, овладении культурой речи.

Ключевые слова. Интенсификация обучения, компетентность, подход, творческое мышление, культура речи, современные технологии, уроки изучения языка, устная и письменная речь, настрой учащегося, процесс, система управления, модернизация образования.

The article is devoted to issues of renewing the content of education, development of creative skills and independent thinking abilities of students.

Key words. Communication competence, text making, integration, creative thinking, knowledge, habits and skills, methods, methodical approaches, making technology, speech development, text editing, speaking skills.

X^{alq} ta'limi muassasalarida innovatsion texnologiyalar tizimini joriy etish, barkamol avlod tarbiyasini kompetensiyaviy yondashuv asosida tashkil qilish vazifalari muhim ahamiyatga ega. Bu maqsadni amalga oshirishning zaruriyati quyidagilarda namoyon bo'ladi:

- ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning jadallashuvi;
- axborot hajmining globallashuvi;
- XXI asrda fan va texnikaning taraqqiyoti;
- XXI asr kompyuter asri ekanligi;
- tasavvur va tafakkur integratsiyasini yuksaltirish.

Demak, ushbu zaruriyatlarining ro'yobga chiqishi ta'lim jarayonini jadallashtirishni, o'quvchi sub'ektiga psixologiyaviy yondashuv usullarini ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etishni talab qiladi.

Ta'limga kompetensiyaviy yondashuvdan kutiladigan natija shundan iboratki, o'quvchida kompetensiyaviy (egallangan bilim, ko'nikma, malaka umumlashtiriladigan faoliyat) salohiyat shakllanadi. Bu, o'z navbatida, o'quvchi ijodiy izlanishlarining oxirgi natijasi bilan belgilanadi, ya'ni darsda egallangan bilimlarni vaziyat taqozosi va topshiriq shartiga asosan qo'llay bilish, olingan natijalarni o'zaro qiyoslash, tanlash, tahlil qilish o'z fikrini dalillash va himoya qilish fazilatlarini shakllanadi. Pirovardida, barkamol shaxs tarbiyasi uchun zamin yaratiladi.

Darsni kompetensiyaviy yondashuv asosida tashkil qilish loyahasini amalga oshirish uchun A.Q. G'ulomov¹, O.Ye. Lebedevning, izchillik va uzluksizlik tamoyillariga asoslangan quyidagi ish usullaridan foydalanish mumkin.

– o'quvchi mavzuni o'rganish nihoyasida nimani bilishi, nima qilishi va qanday ishni amalga oshirishi lozim degan savolga javob qidirishi;

– o'rganilayotgan mavzu mazmunini tahlil qilishi, o'qitishning zaruriy metodlari, innovatsion vosita va texnologiyalarni o'rinli tanlashi;

– o'quvchi ish faoliyatini to'g'ri va samarali tashkil qilishni yo'lga qo'yish va h.k.

Zamonaviy dars aniq rivojlanuvchi-dagnostik sifatga egaligi va kompetensiyaviy salohiyatni shakllantirishga yo'naltirilganligi bilan an'anaviy dars usullaridan keskin farq qiladi.

Taniqli metodist-texnolog G. Skvortsovaning fikricha, ta'limga kompetensiyaviy yondashuvning muhim belgisi – o'quvchi ko'rsatadigan natija, ya'ni fanga oid nazariy bilimlarni egallashgina emas, balki zarur vaziyatda mavjud bilimlardan foydalanish, maqsadli harakat qilish qobiliyatining shakllanishidir.

O'qituvchi bunday natijalarga erishish uchun darsni samarali tashkil qilishning turli usul va texnologiyalaridan xabardor bo'lishi, axborot kommunikatsiyasi texnologiyalaridan muntazam foydalanishi, konferensiyalar, debatlar, muhokama va musobaqa shaklidagi darslardan mavzu mazmuniga ko'ra o'rinli foydalana bilishi lozim. Quyida turli fanlarni o'rganishda nutqiy intellektual salohiyatni rivojlantirish, o'z fikri, dunyoqarashini fakt va dalillar asosida isbotlashga yo'naltiruvchi “Zakovot” musobaqa darsining mazmuni, uni ta'lim muassasalarida tashkil qilishning samarali usullari haqida fikr yuritiladi.

“Zakovat” – musobaqa darsi

Darsni tashkil qilish shartlari: “Zakovat” musobaqa darsida o'quvchilar ikki guruhga ajratiladi – “Zakovat” hamda “Kamolot” guruhlari. “Zakovat” guruhiga asosan a'lo bahoga o'qiydigan o'quvchilar jamlanadi va ularning soni 6 nafardan oshmasligi lozim. Mazkur guruh a'zolari vaqti-vaqti bilan “Kamolot” guruhidagi faol o'quvchilar bilan almashtirib turiladi. Maqsad bitta: “Zakovat”ga qarshi o'ynayotgan “Kamolot” guruhi a'zolari intellektual qobiliyatlari, egallagan (berilayotgan savollari orqali) bilim, ko'nikma va malakalarini ishga solishlari va raqiblarini umumiy hisobda yengib chiqishlari lozim. O'rganilayotgan fan mavzusi bo'yicha chuqur bilim talab qiladigan, mukammal savollar bilan “Zakovat” guruhi a'zolarini 3 marta mag'lubiyatga uchratgan “Kamolot” guruhi o'yinchisi, o'zining noto'g'ri javoblari bilan 3 ball yo'qotgan “Zakovat” guruhi a'zosi o'rniga o'yinga kiritiladi (ya'ni, har bir savol beruvchi o'quvchida “Zakovat” guruhiga a'zo bo'lish imkoniyati bor).

“Zakovat”ning doimiy a'zosi ham, mazkur guruh a'zolariga da'vogar o'quvchi ham o'z kompetensiyasini: bilimi, fikr ifodalash qobiliyatini rivojlantirishi, ijodiy tafakkur, mantiq, idrok va go'zal ifoda san'atini mukammal egallashi kerak. Natijada o'quvchi ongida o'zlikni anglash, o'z iqtidorini o'zgaralarga namoyish qilish istagi uyg'onadi. Mazkur o'yin-muloqot orqali o'quvchining ona tili ta'limi jarayonida egallagan bilim, ko'nikma va malakalari darajasini aniqlash va rivojlantirish, berilgan savolga to'g'ri, ilmiy tasdiqlangan javob matnlari yaratish ko'nikmalarini shakllantirish mumkin. Shu bois “Zakovat” quyidagi ta'limiy maqsadlarni ko'zda tutadi:

¹ G'ulomov A.Q., Ne'matov H. Ona tilidan ta'lim mazmunini yangilashning asosiy yo'nalishlari. –T.: “O'qituvchi”, 1992.

– “Zakovat” musobaqa darsida o‘quvchilar o‘rganilgan va o‘rganilayotgan mavzular bo‘yicha egallangan bilim, ko‘nikma va malakalarni amaliyotga tatbiq etadilar, o‘z intellektual qobiliyati, ilmiy matn tuzish mahoratlarini namoyish qiladilar.

– O‘yinda qatnashayotgan har ikki guruh umumiy bir maqsadni: O‘rganilayotgan mavzuni to‘liq o‘zlashtirish, egallangan bilim ko‘nikma va malakalarni amaliyotda qo‘llash, bajarilgan ishni qo‘shimcha ma‘lumotlar bilan boyitishga intiladilar.

Musobaqaga kamida bir hafta tayyorgarlik ko‘riladi. Berilgan vaqt ichida “Zakovat” guruhi a‘zolari tanlangan fan va mavzu bo‘yicha bilimlarni kengaytirib, atroflicha chuqur tayyorgarlik ko‘rsalar, “Kamolot” guruhi a‘zolari ana shu mavzu yuzasidan muammoli savol va topshiriqlar, nazorat testlari, muammoli masalalar tuzishlari, bunda lug‘at, darslik, qo‘shimcha o‘quv qo‘llanmalardan foydalanishlari mumkin.

“Zakovat” guruhi a‘zolari o‘z ish dasturlariga ega. Ular o‘qituvchi tavsiya qilgan fan mavzusi asosida mustaqil izlanishlari, o‘z bilimlarini kengaytirishlari, muammoli savollarga javob matnlari tuzish, fanga oid elektron slaydlardan foydalanib, test topshiriqlari tuzish, nazorat-sinov testlarini yechish, reklama matnlari tuzish bilan shug‘ullanishlari mumkin.

“Zakovat” va intellektual o‘yinini umumiy o‘rta ta‘lim maktablari (5–9-sinflar), akademik litsey va kasb-hunar kollejlari (1–2-kurs), oliy ta‘limning 1-kurslarida tashkil qilish mumkin. Ta‘lim muassasalarining “Zakovat” jamoasi ana shunday guruhlar o‘rtasida o‘tkazilgan o‘yin-musobaqa g‘oliblaridan tuzilgan bo‘lishi maqsadga muvofiq.

“Zakovat” maydon markaziga, “Kamolot”chilar esa ularning atrofiga joylashadi. Musobaqa o‘qituvchi yoki boshqaruvchi tomonidan olib boriladi. Mazkur intellektual dars shaklan xuddi “Zakovat” teleo‘yiniga o‘xshaydi, lekin tayyorlangan savol va topshiriqlar avval o‘rganilgan aniq bir mavzu doirasida cheklanishi bilan undan farqlanib turadi. “Zakovat”ga qaraganda “Kamolot” jamoasining imkoniyatlari ko‘p va xilma-xil. Ular savol berish uchun istagan ilmiy manba (albatta, mavzu doirasida): darslik, o‘quv qo‘llanma, muammoli savollardan foydalanishlari mumkin. Faqat boshlovchi tomonidan belgilangan mavzudan chetga chiqmaslik talab qilinadi. Bitta savol uchun maksimal baho 5 ball. Agar savol beruvchi guruh javob beruvchi guruhning bergan javobidan qanoatlanmasa, o‘zi javobni to‘ldirish huquqiga ega². Savol va javoblar natijasiga ko‘ra, ochkolar hisoblab boriladi va eng ko‘p ball to‘plagan guruh o‘yin g‘olibi, deb topiladi.

Ta‘limga kompetensiyaviy yondashuv asosida tashkil qilinadigan mazkur musobaqa darslari ishtirokchilar o‘rtasida haqiqiy nutqiy salohiyatning shakllanishiga, kompetensiyaviy-intellektual tanlanishning yuzaga kelishiga sabab bo‘ladi. Innovatsion texnologiyalar asosida o‘zaro musobaqa yo‘nalishida ishlash, natijasida o‘quvchilarda sog‘lom raqobat, o‘zaro ilmiy-ijodiy hamkorlik, kashfiyot muhiti hosil bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. G‘ulomov A.Q., Ne‘matov H. *Ona tilidan ta‘lim mazmunini yangilashning asosiy yo‘nalishlari*. – T.: “O‘qituvchi”, 1992.

2. Ziyadova T.U. *Matn yaratish texnologiyasi. Monografiya*. – T.: “FAN”, 2008.

3. Безукладников К. Э. *Профессиональный портфолио как средство формирования профессиональной компетенции будущего учителя*.

4. Субботин С.Н. *Организация целеполагающей деятельности обучающихся на уроках (электронный ресурс) // Режим доступа: http://imkraz, 68 tdu. ru/mer_kval. Htm*.

² Savol beruvchi tomonidan to‘g‘rilangan va to‘ldirilgan javob, mazkur guruhga foyda keltiradi. Javob berayotgan guruh uchun ajratilgan ball miqdori kamaytirilib, 4 yoki 3 ballga tushirilishi, javobni to‘ldirgan guruh hisobiga esa 1, 2 ball yozib qo‘yilishi mumkin)

Maqsudjon YULDASHEV,
T.N. Qori Niyoziy nomidagi
O'zPFITI mustaqil izlanuvchisi

TA'LIM SIFATI VA UNI BOSHQARISH

Annotatsiya

Maqola ta'lim sifati va uni boshqarish masalalariga bog'ishlangan. Shuningdek, muallif ta'lim sifatini boshqarish bo'yicha rivojlangan davlatlarning ta'lim tizimini tahlil qilib, qator tavsiyalarini berib o'tgan.

Kalit so'zlar. Sifat, boshqarish, ta'lim tizimi, tajriba, ijtimoiy o'zgarishlar, innovatsion yo'nalish, tahlil.

Статья посвящена вопросам управления качеством образования. Автором даны некоторые рекомендации по управлению качеством образования на основе анализа системы образования в развитых государствах.

Ключевые слова. Качество, управление, система образования, опыт, социальные изменения, инновационное направление, анализ.

The article is devoted to quality management education. The author gives some recommendations for quality management of education based on the analysis of the education system in razvitak States.

Key words. Quality, management, education, experience, social change, innovative direction, analysis.

O'zbekistonda amalga oshirilayotgan iqtisodiy va ijtimoiy o'zgarishlar, iqtisodiyotning innovatsion yo'nalishda shakllantirilishi, jahon iqtisodiyotiga integrallashuvi ta'lim tizimi oldiga dolzarb masalalaridan biri bo'lgan sifatli mutaxassislarni tayyorlash vazifasini qo'yadi. Sifatli mutaxassisni tayyorlash esa faqatgina sifatli ta'lim muhitida amalga oshirilishi mumkin.

Ta'lim sifati har qanday davlatning muvaffaqiyatli rivojlanishida hal qiluvchi ahamiyatga ega. Rivojlangan mamlakatlarda ta'lim sifati bilan belgilanuvchi intellektual salohiyat jamiyat farovonligining muhim omiliga aylanmoqda.

“Sifat” tushunchasi turlicha, ba'zan bir-biriga zid ma'noda talqin qilinadi. Pedagogika fanida u: bir predmet yoki hodisani boshqasidan farqlovchi muhim ahamiyatga ega bo'lgan belgilar, xususiyatlar, o'ziga xosliklar; shuningdek, u yoki bu xususiyat, qadr, yaroqlilik darajasi, ma'naviy-axloqiy kategoriya yoki sof iqtisodiy tushuncha kabi talqin etiladi. Ba'zi olim va amaliyotchilar uni ta'lim tizimining o'zlashtirish sifatiga erishishga intilishi; boshqalar o'qitish va tarbiyalashning sifati, uchinchilar, shaxs iqtidori rivojlanish darajasining oshishi; to'rtinchilar, oliy ta'lim muassasalariga qabul qilingan umumiy o'rta ta'lim va kasb-hunar kollejlari bitiruvchilari sonining ko'payishi; beshinchilar, oliy ta'lim muassasasi bitiruvchisining ijtimoiy hayotga tayyorgarligi darajasini tushunadilar.

Ta'lim sifati va uni ta'minlovchi omillar: ta'lim mazmunining fundamentalligi, ma'lum ehtiyojlarning qondirilishi, maqsad va natijalarning mutanosibliigi, ta'lim oluvchilarning mustaqil ishlashi, ta'lim jarayoni ishtirokchilarining ijodiy faoliyati, boshqarishga komp-

leks yondashuv, fanlararo integratsiya va boshqalar orasidagi bog'liqliklarni tavsiflashga nisbatan turli qarashlar mavjud.

Ta'lim sifati – bu nafaqat ta'lim oluvchilar bilimining davlat standartlariga mosligi, balki ta'lim muassasasining muvaffaqiyatli faoliyat ko'rsatishi, shuningdek, har bir pedagog va rahbarning ta'lim xizmatlari sifatini ta'minlashdagi faoliyati hamdir.

Zamonaviy ta'lim muassasasida ta'lim sifati erishilgan miqdoriy va sifat natijalarining darajasini, o'quv-tarbiyaviy jarayonni tashkil etish va amalga oshirish darajasini, u kechadigan sharoitlarni aks ettiruvchi tavsiflar to'plamida ifodalanadigan maqsad va natijalarning nisbati sifatida aniqlanadi.

Ta'lim sifatini boshqarish (ta'lim sifati menejmenti) ta'limni boshqarishning umumiy tuzilmasi tarkibiga kiradi. Bunda ta'lim sifati menejmenti rahbarning yakkaboshchiligi hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lgan va amalda o'z samaradorligini ko'rsatgan boshqarishning chiziqli tuzilmasini inkor etmaydi. O'z o'rnida, sifat menejmentining joriy etilishi umumiy boshqaruv samaradorligini sezilarli darajada oshiradi – ta'lim muassasasi rahbari, xodimlari va manfaatdor jamoat tashkilotlari vakillari o'rtasidagi munosabatlarni tartibga soladi. Vazifalarning bajarilish ketma-ketligi, vazifalarning o'zi, bajarish yo'llari, alohida usul va harakatlarning batafsil tartibi, ta'lim sifatini ta'minlovchi asos sifatida, qabul qilingan boshqaruv qarorlarining samarali ijrosini kafolatlaydi.

Demak, ta'lim sifatini boshqarish ta'lim tizimidagi boshqaruv faoliyatining mavjud nazariyasi va amaliyotini muhim elementlar bilan to'ldiradi, ya'ni u ta'limni boshqarish yaxlit tizimining tarkibiy qismi sifatida amalga oshiriladi.

Ta'lim sifati tashqi auditini jalb qilgan holda o'quv muassasasi faoliyatini tizimli va xolis baholashga tayanuvchi ta'lim sifatini ta'minlash tizimining rivojlanish mantiqi ta'lim muassasalarida ta'lim sifati menejmenti tizimini ishlab chiqish va joriy etishni taqozo qiladi.

Bundan tashqari, o'quv muassasalarida ta'lim sifati menejmenti tizimining mavjudligi kelajakda ta'lim jarayoni sifati va natijalarini baholashning tashqi nazorati tadbirlarini ichki nazorat va o'zini-o'zi baholash natijalaridan foydalanish bilan almashtirish imkoniyatini yaratadi, mazkur jarayonlarning jamoatchilik nazoratiga ochiqligi esa ta'lim muassasasiga bo'lgan ishonch darajasini oshiradi.

Sifatni boshqarish nazariyasining shiddat bilan rivojlanishi davri – o'tgan asrning 40-yillari oxiri va 50-yillariga to'g'ri keldi. Ushbu davrda Armand V. Feigenbaum sifatni ishlab chiqish, sifatni qo'llab-quvvatlash va sifatni yaxshilash bosqichlaridan iborat Sifatning Umumiy Nazorati (Total Quality Control, qisqacha – TQC) tushunchasini kiritdi.

1. Bugungi kunga kelib TQCning bir nechta asosiy (Yaponiya, Amerika, Yevropa) "maktab"lari mavjud. Shu bois TQC asosini belgilovchi tamoyillar miqdori haqida mutaxassislar o'rtasida yagona bir fikr yo'q. Asosiy sifati quyidagi sakkizta tamoyil tan olingan:

- tashkilotning iste'molchiga yuz tutganligi;
- rahbarlikning roli;
- xodimlarni jalb etish;
- jarayonli yondashuv;
- boshqarishga tizimli yondashuv;
- muntazam takomillashtirish;
- dalillarga asoslangan qarorlarni qabul qilish;
- ta'minlovchilar bilan o'zaro manfaatli munosabat.

Dunyoning ko'pgina mamlakatlarida mahsulot, xizmat, ish va jarayonlarning yuqori sifatini ta'minlashga yo'naltirilgan hukumat, firma va kompaniyalar rahbariyatining sa'y-harakatlari natijasida sifatni oshirish milliy g'oyaga aylandi.

Turli yondashuvlarning integratsiyasi natijasida Sifatning umumiy boshqaruvi (Total Quality Management – TQM) konsepsiyasi shakllandi.

Zamonaviy TQMning asosini oliy darajadagi rahbarlikning tashkilot, uning xodimlari, iste'molchilari va jamiyatning manfaatlarini ko'zlab sifat sohasidagi uzoq muddatga mo'ljallangan strategiyasini ishlab chiqish va barcha xodimlarning uni amalga oshirishdagi ishtiroki tashkil qiladi.

Ta'lim muassasasi rahbariyatining sifatni boshqarishdagi doimiy va muntazam shaxsiy ishtiroki – ta'lim muassasasining sifatni ta'minlash ishida muvaffaqiyat garovi hisoblanadi.

Sifatning umumiy boshqaruvini joriy etish uchun rahbar quyidagilarni amalga oshirishi lozim:

- sifat menejmentini joriy etish, raqobat sharoitida ta'lim muassasasining maqsadi, umumiy mafkurasi, rivojlanish tamoyillarini ishlab chiqish to'g'risida strategik qarorni qabul qilishi;
- tashkilot maqsadlari tarkibiga sifatni ta'minlashni kiritish, uni ham ma'naviy va ham moddiy jihatdan qo'llab-quvvatlash;
- tashkilot oliy boshqaruvi tarkibidan sifat uchun mas'ul vakilni tayinlash;
- jarayonlarni boshqarishning statistik usullari va sifat menejmenti sohalari bo'yicha xodimlarni (shu jumladan, yuqori pog'ona rahbarlar tarkibidan) tayyorlash;
- xodimlar bilan qayta aloqani tashkil qilish (ichki iste'molchilarning fikrlari va talablarini inobatga olish);
- ichki audit va tashkilotdagi kamchiliklar tahlilini muntazam o'tkazib turish.

TQM konsepsiyasida sifatni boshqarishga doir avvalgi konsepsiyalarga xos bo'lgan barcha ijobiy jihatlari o'z aksini topgan. U ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohasida ko'pgina zamonaviy menejment tizimlarining asosini tashkil qiladi.


Standartlarning ahamiyati shundaki, ular korxonalar menejmentiga tizimli va jarayonli yondashuvni joriy etish, menejmentning e'tiborini iste'molchilarga va barcha tomonlarning manfaatlarini hisobga olishga qaratadi. Xalqaro standartlashtirish tashkiloti (ISO) ning 9000 raqamli standartlari sifat tizimlarini loyihalashtirish va qo'llashning yagona, butun dunyoda tan olingan yondashuvini joriy qildi.

ISO 9000 standartlari turli soha tashkilotlari uchun universaldir. Ular ishlab chiqarish, aloqa, xizmatlar, sog'liqni saqlash, ta'lim kabi faoliyat sohaslarida faol qo'llanilmoqda va dunyoda eng mashhur standartlar sifatida Ginnesning, rekordlar kitobiga kiritilgan.

Rivojlangan mamlakatlarda ta'lim sifatini boshqarish tizimini joriy etish tajribasi sifatni boshqarishning quyidagi asosiy bosqichlarini ajratish imkoniyatini beradi:

1. Ta'lim muassasasining ta'lim sifatini boshqarish tizimini loyihalashtirish va ta'lim sifatini boshqarishni rejalashtirish (Rejalashtirish) – talab qilinayotgan sifatga erishish uchun amalga oshiriladigan faoliyatning me'yoriy, tashkiliy, uslubiy va vositaviy asoslarini shakllantirish.
2. Ta'lim sifatini boshqarish (Bajarish) – ta'lim xizmatlari buyurtmachilarining ehtiyojlarini o'rganish bo'yicha muntazam faoliyatlar ketma-ketligini aks ettiruvchi sifatni shakllantirish, asosiy va qo'shimcha ta'lim dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirish, resurslar bilan ta'minlash jarayonlari.
3. Jarayonlar monitoringi va o'zgarishlar kiritish (Nazorat va Harakat) – sifatning erishilgan darajasini belgilangan darajasi bilan solishtirish va baholash jarayoni, barcha manfaatdor tomonlar bilan qayta aloqani amalga oshirish, boshqarish tizimi va faoliyatiga o'zgarishlar kiritish.

Shunday qilib, ta'lim sifatini boshqarish bir-biri bilan bog'langan va o'zaro ta'sirda bo'luvchi elementlardan iborat uzluksiz va yopiq kechadigan jarayondir.



1-rasm. Sifatni boshqarish uchburchagi (sifat boshqaruvi modeli)

Ta'lim muassasasida ta'lim sifatini boshqarish tizimini yaratishdan maqsad iste'molchilar talablariga mos keluvchi sifatli ta'lim xizmatlarini taqdim etish uchun zarur sharoitlarni ta'minlashdir.

Bundan tashqari, zamonaviy ta'lim muassasasida ta'lim sifatini boshqarish tizimi quyidagilar uchun zarur:

- davlat ta'lim standartlari talablariga erishishda ta'lim jarayonlari samaradorligini oshirish;
- muassasada ijodiy va ishchan muhitni rivojlantirish, xodimlarning kasbiy faolligini oshirish;
- ta'lim muassasasida boshqarish tizimini yaxshilash;
- ta'lim jarayonining moliyaviy, moddiy va kadrlar ta'minotini optimallashtirish;
- ta'lim muassasasining raqobatbardoshligini oshirish;
- ta'lim faoliyati uchun zamonaviy xavfsizlik sharoitlarni yaratish;
- ta'lim muassasasini boshqarishda jamoatchilikning keng ishtirokini ta'minlash.

Ta'lim muassasasida ta'lim sifatini boshqarish tizimining vazifalari quyidagilar:

- ta'lim muassasasidagi ta'lim sifatining asosiy mezon ko'rsatkichlarini belgilash;
- ta'lim muassasasidagi ta'lim sifati to'g'risida tahliliy hisobotlar va ma'ruzalar tayyorlash;
- ta'lim sifatini ta'minlash va doimiy yaxshilash uchun ta'lim muassasasidagi innovatsion jarayonlarni rag'batlantirish;
- ta'lim muassasasining rivojlantirish yo'nalishlarini belgilash, pedagog xodimlar malakasini oshirish.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, quyidagi xulosalarni qayd etamiz:

– ta'lim muassasasida ta'lim sifati menejmenti – bu loyihalashtirish, ya'ni ta'lim maqsadlarini va ularga erishish yo'llarini belgilash; ta'lim jarayonini tashkil etish va uning ishtirokchilarini sifatli mehnatga qiziqishini uyg'otish; maqsadlardan chetlanishlarni aniqlash va rivojlanishdagi o'zgarishlarni kuzatish tizimi (monitoringi); natijalarni boshqarish va tahlil qilish jarayonlaridir;

– ta'lim sifati menejmenti – bu har qanday, tasodifiy, oldingisidan ko'ra yaxshiroq, o'z-o'zidan kelib chiqadigan maqsadlarga emas, balki ta'limning oldindan rejalashtirilgan natijalariga, ya'ni muayyan o'quvchining eng yuqori imkoniyatlarga erishishi uchun tashkil qilingan va yo'naltirilgan alohida boshqaruvdir;

– ta'lim sifati menejmenti – bu belgilangan ko'rsatkichlarga erishish uchun boshqaruvning barcha funksiyalarini amalga oshirish, ham tor, ham keng ma'noda kafolatlangan natijaga erishish demakdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Qurbonov SH., Seytxalilov E. *Ta'lim sifatini boshqarish*. – T.: "Turon-Iqbol", 2006..
2. *Total Quality Management – всеобщее управление качеством*. – Журнал "Директор-Иваново", № 1-2 (120-121), январь-февраль 2011г.

Dilmurod RAXMATULLAYEV,

Toshkent shahar XTXQTMOI ma'naviy, ma'rifiy va
ilmiy ishlar bo'yicha prorektori

UMUMIY O'RTA TA'LIM MUASSASALARINI BOSHQARISHNING METODOLOGIK JIHATLARI

Annotatsiya

Maqolada umumiy o'rta ta'lim muassasalarida strategik boshqarishning metodologik jihatlari, strategiyaning mazmun-mohiyati haqidagi masalalar yoritilgan.

Kalit so'zlar. Strategiya, menejment, boshqaruv, metodologiya, audit, missiya.

В статье освещены методологические особенности стратегического управления общеобразовательными школами, а также раскрыто содержание стратегии.

Ключевые слова. Стратегия, менежмент, управление, методология, аудит, миссия.

In this article, the problems about methodological features of strategic management, concepts of strategy in institutions of general education.

Key words. Strategy, management, methodology, audit, mission, general education.

Bugungi kunda respublikamizdagi umumiy o'rta ta'lim muassasalari o'zining rivojlanish maqsadi va unga erishish usullarini mustaqil aniqlash huquqiga ega. Jumladan, Xalq ta'limi vazirligining qaror va buyruqlari asosida umumiy o'rta ta'lim muassasalarida ta'lim xizmatlari sohasining keng yo'lga qo'yib borilishi har bir ta'lim muassasasi oldiga muhim vazifalarni qo'yimoqda. Ya'ni muassasaning rivojlanish holatini baholash hamda istiqbolli rivojlanishning muqobil variantlarini ishlab chiqish masalasi katta ahamiyatga ega. Shuningdek, ta'lim muassasalarida innovatsion boshqaruv jarayonida uning maqsadi va imkoniyatini pedagog xodimlarning manfaatlari bilan uyg'unlashtiruvchi uzoq muddatli strategik rejalar asosida ishlab chiqish va strategik boshqaruvni amaliyotga qo'llash kerak. Bu esa, ta'lim samaradorligini oshirishda dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Strategik boshqaruv deganda, ta'lim muassasasining strategik maqsadi yo'nalishida muassasa imkoniyatlarini pedagogik xodimlarning umumiy manfaatlari bilan muvofiqlashtirishni nazarda tutuvchi uzoq muddatga tuzilgan dastur, reja va loyihalar asosida boshqarish tushuniladi. Strategik boshqaruv odatda, mazkur tizim boshqaruv madaniyatining yuqori darajasini belgilovchi keng innovatsion dasturlarni amalga oshirish imkoniyatini yaratadi. Eng asosiysi, strategik menejment asosida boshqarish bozor iqtisodiyoti sharoitida ta'lim muassasalarining o'z oldiga qo'ygan maqsadlarini strategik boshqaruv guruhleri orqali muvaffaqiyatli amalga oshirishga imkon beradi. Shu sababli strategik menejment asosida umumiy o'rta ta'lim tizimini boshqarishning pedagogik shart-sharoitlarini ishlab chiqish o'zida muhim pedagogik muammoni aks ettiradi.

“Strategiya” soʻzi yunoncha “strategos” soʻzidan kelib chiqqan boʻlib, “generalning sanʼati” maʼnosini bildiradi. U hozir ham oʻz maʼnosini yoʻqotgan emas. Harbiy sohada – oliy harbiy boshliq, harbiy operatsiyalarni rejalashtirish sanʼati sifatida keng qoʻllanilib kelmoqda. Menejmentda strategik rejalashtirish ham harbiy boshqarish vazifalariga oʻxshash boʻlib, tashkilotni tashkil qiluvchi aʼzolarini boshqarish asosini taʼminlashdan iboratdir. Shu bois rahbariyatning harakatda boʻlgan qarorlari majmuasi tashkilot strategiyasini ishlab chiqarishga yoʻnaltirilganligi taʼlim muassasasining samarali taraqqiyot topishiga imkon yaratadi.

Strategiya soʻzi bugungi kunda biron-bir faoliyatga rahbarlik qilish, korxonalar yoki muassasalar faoliyatini boshqarishda istiqbolni avvaldan aniqlash, faoliyatni oldindan rejalashtirish, bajariladigan vazifalarning yoʻnalishini belgilash, shuningdek, maqsadga erishishda natijalarni oldindan aniqlash va nazorat qilishni anglatadi va bu amaliyotda keng qoʻllanilmoqda.

Strategiya – bu maqsadni amalga oshirishda rahbarlik qilish sanʼati, har bir jarayonga yechim qabul qilishda maʼlum harakatning taraqqiyotidagi eng muhim masalalar va yoʻnalishlarni ajratish hamda ularni amalga oshirish mexanizmini ishlab chiqishdir.

Strategiya tushunchasiga berilgan umummenejment tavsifiga asoslangan holda taʼlim muassasasini boshqarish bilan bogʻliqlikda quyidagi taʼriflarni hosil qilish mumkin:

- bu soʻnggi natijaga erishish vositasi;
- butun taʼlim tizimi, taʼlim muassasasi faoliyatining barcha asosiy jihatlarini oʻzida qamrab oladi;
- taʼlim tizimi, yaxlitlikda taʼlim muassasasidagi ish yoʻnalishlari va barcha tarkibiy qismlarini oʻzida birlashtiradi;
- bu taʼlim muassasasining uzoq muddatga moʻljallangan, kengaytirilgan ish rejasini;
- taʼlim muassasasining barcha ish rejalarini birlashtirishni taʼminlaydi;
- taʼlim muassasalariga oʻz resurslarini toʻgʻri taqsimlash va muvofiqlashtirish uchun zarur boʻlgan uzoq muddatli harakatlarning umumlashgan modeli;
- innovatsiyalar (pedagogik jarayon samaradorligini oshirish, taʼlimiy va boshqaruvga doir texnologiyalarni yaratish) uchun qobiq;
- istiqbolni tadqiq etish, rivojlanish yoʻnalishlarini tahlil etish sanʼati;
- istiqbolda raqobat kurashi uchun afzallik beruvchi gʻoya;
- taʼlim muassasasining umumfaoliyati (fondi, xarajati, foydasi va hokazo)ni nazorat qiluvchi keng qamrovli tizimdir.

Strategiyani aniqlash, eng avvalo, quyidagi uchta oddiy savolga javob izlashdan boshlanadi:

- Qaysi holatda ekanligingizni bilasizmi?
- Qayoqqa qarab ketayotganingizni bilasizmi?
- Qanday qilib mazkur holatga tushib qolganingizni bilasizmi?

Mazkur savollarga javob topish uchun esa, odatda, quyidagi qadamlar ketma-ketligi qabul qilinadi:

- muhitni oʻrganish;
- ichki audit;
- tashqi audit;
- missiya;

- strategik sohadagi siyosatni aniqlash;
- maqsadlar;
- harakatlar rejasi;
- tuzilishga doir va tashkiliy moslashuv;
- protseduralar va qoidalar;
- baho.

Strategiya ta'lim muassasasi mohiyatiga mos keluvchi quyidagi savollarga javob izlaydi:

- Ta'lim muassasasi va uning bugungi ish faoliyati o'zida nimani aks ettiradi?
- Bizda qanday xizmat ko'rsatish sohalari mavjud hamda bizning funktsiya va pozitsiyalarimiz qanday?
- 5-10 yildan keyin ular qanday ko'rinishga ega bo'lishi mumkin?

– Qo'yilgan maqsadlarga erishish uchun biz nimalarni amalga oshirishimiz zarur? Strategiyani amalga oshirish jarayonida quyidagi natijalarga ega bo'lishi kerak:

– shakllantirish va rivojlantirish: a) aniq va so'zsiz bajarish; b) ta'lim muassasasi-ning ijobiy imiji;

- ta'lim muassasasining xizmatlar sohasi va mahsullari.

Strategiya o'z tavsifiga ko'ra “o'zicha mavjud bo'lish” emas, balki ko'p darajali ko'rinishga ega bo'lishi kerak:

– Korporativ – yaxlitlikda ta'lim muassasasiga tegishli bo'lib, sifat va xarajat bilan bog'liq qiziqishlarni hisobga olish.

– Assortiment – xizmat ko'rsatish ko'rinishiga ega bo'lib, barcha toifadagi mijozlar uchun foydalidir.

– Funktsional – yanada yuqoriroq darajaga erishish maqsadida qo'yilgan vazifalarni hal etishni ta'minlashga doir xilma-xil faoliyat va kompleks harakatlarning amalga oshirilishi.

Strategiyani tanlab olish, o'z navbatida, quyidagi shartlarning bajarilishini talab etadi:

– ta'lim muassasasining byudjet va byudjetdan tashqari mablag'larni shakllantirish imkoniyatlari hamda yetakchi yo'nalishlarini hisobga olish;

– ta'lim muassasasining boshqa o'quv yurtlari bilan integratsiyasining muvaffaqiyatli yo'lga qo'yilganligi;

– ishlab chiqaruvchi, buyurtmachi va mijozlar bilan vertikal ta'lim integratsiyasi (to'g'ridan-to'g'ri va qayta aloqa)ning imkoniyatlari;

– ta'lim muassasasida rahbarlik va kadrlar salohiyatining mavjud holati va istiqbol-lari;

- rahbariyat va jamoaning orientatsiyasi.

Mazkur shart-sharoitlarning har jihatdan muvaffaqiyatli amalga oshishi quyidagi vazifalarning hal etilishiga bog'liq:

1) ta'lim muassasasidagi mavjud vaziyatni, muhit imkoniyatlari va ta'sirini tahlil etish;

2) missiya (bosh ishchi g'oya) va faoliyat tamoyillarini aniqlash;

3) maqsad va vazifalar tizimini belgilab olish;

4) qo'yilgan maqsadga qarama-qarshi kelmaydigan harakatlar majmui.

Shuningdek, strategiyani tanlab olish va amalga oshirish quyidagi tamoyillar birligini talab etadi:

1. Bosqichma-bosqich rivojlanish nazariyasi – ta'lim muassasasining tashqi ta'sirlariga bosqichma-bosqich javob qaytara olishi.

2. Moslashuvga doir yondashuv – mavjud shart-sharoitlar bilan bog'liqlikda faoliyatni rejalashtirish va tezda o'zgartirish.

3. Ijodiy yondashuv – joriy va kelgusida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan muammolarni hal etishga doir tadqiqotchilik faoliyati.

Strategik boshqarish boshqaruvning inson salohiyatiga suyanishi, ishlab chiqarish faoliyatini iste'molchi talabiga mo'ljallab ish ko'rish, tashkilotda tez moslashuv va o'zgarishlarni o'z vaqtida amalga oshirishi, uzoq istiqbolda tashkilot o'zining maqsadlarini saqlab qola olishi va pirovard natijada maqsadlariga erishishiga imkon beradi.

Ta'lim muassasasi strategiyasi – makro va mikroiqtisodiy shart-sharoitlarni hisobga olgan holda uning aniq joriy davrda rivojlanish maqsad va vazifalarini aniqlab beruvchi vosita. Boshqacha aytganda, ham qo'yilgan maqsaddan kelib chiqqan holda ta'lim muassasasining istiqbolli rivojlanishi aniqlanadigan, ham strategik rejalashtirish jarayoni. Mazkur jarayon ta'lim muassasasi faoliyatini tizimli tahlil qilish, uning kuchli va kuchsiz tomonlarini, tashqi muhit ta'sirlari va imkoniyatlarini baholashga asoslanadi hamda strategik chora-tadbirlarni ishlab chiqish bilan tugallanadi. Ta'lim muassasasining strategik rejalarini ishlab chiqishning qulay shakli, metod va texnologiyalarini ishlab chiqish ayni paytda ham tahlil va muhokamalar ob'ekti sifatida qolmoqda.

Bugungi kunda ta'lim muassasalarini zamonaviy boshqarishning muammoli jihatlari quyidagicha namoyon bo'lmoqda:

– o'zgaruvchan sharoitlarga boshqaruv tuzilmasining muvaffaqiyatli moslasha olmasligi;

– strategik vazifalarga qaraganda, operativ (tezkor) vazifalarning ustunligi;

– qisqa muddatga mo'ljallangan maqsad va vazifalarga erishishga yo'nalganlik;

– tashqi muhit o'zgarishlariga nisbatan ta'sirni kamaytirib, undan o'zib ketishga doir boshqaruv qarorlarini qabul qilish tizimining mavjud emasligi;

– boshqaruvni tashkil etish jarayonining aniq amalga oshirilmaligi;

– nazorat, uzoq muddatli rejalashtirish, motivatsiya kabi boshqaruv funksiyalarining ta'siriga tushib qolish;

– asosan ichki boshqaruvga doir vazifalarni hal etishga yo'nalganlik, ta'lim xizmatlari sohasi mijozlari bilan ularning ehtiyojlarini o'rganish bo'yicha o'zaro birgalikdagi harakatlarning sustligi.

Shu bilan birga hozirgi vaqtda ta'limda strategik rejalashtirishni amalga oshirish uchun quyidagi shart-sharoitlar mavjud:

– tadbirkorlik va biznes sohasida strategik rejalashtirishga doir tajribalar to'plangan;

– oliy ta'lim muassasalari boshqaruvida strategik rejalashtirish texnologiyalarini qo'llash namunalari yaratilgan.

To'plangan tajribalardan oqilona foydalanish, ta'lim muassasasining boshqaruvga doir strategiyalarini ishlab chiqish va amalga oshirish quyidagi uzoq muddatli istiqbollarga yo'l ochadi:

– ta'limiy muhitda aniq nuqtai nazarning vujudga kelishi;

– ta'lim muassasasi bilan aloqador faoliyat, turli subyektlar kuchini birlashtirish va muvofiqlashtirish;

– istiqbolni ko'ra olish va boshqalar.

Shuningdek, bugungi kunda strategik rejalashtirish texnologiyalari bilan shug'ullanuvchi boshqaruv guruhlari oldida qator qiyinchiliklarni bartaraf etish vazifasi turibdi:

– strategik boshqaruvga doir tushunchalarning yetarlicha o'zlashtirilmaganligi, jumladan, ko'pchilik ta'lim muassasalari rahbarlari uzoq muddatga mo'ljallab tuzilgan istalgan rejani strategik reja deb hisoblashadi;

– ta'lim muassasasini strategik rejalashtirishda yetarlicha tajribaning mavjud emasligi;

– strategik rejalashtirish, ayniqsa, pedagogik hamkorlikka jalb etish metodlari, tashqi va ichki muhitni tahlil etish sohasida boshqaruvga doir texnologiyalardan xabardor emaslik;

– strategik rejalashtirishda tizimli yondashuvning tatbiq etilmasligi. Jumladan, strategiya ishlab chiqiladi, biroq strategiyani amalga oshirish, uning monitoringini olib borish to'liq ta'minlanmaydi;

– rahbar-xodimlar – strategik rejalashtirish jarayoni ishtirokchilarida strategik nuqtai nazarning mavjud emasligi.

Mazkur muammolarni hal etish uchun ta'lim muassasalarida strategik menejmentning fundamental g'oyalariga hamda tizimli loyihalash va maqsadli yondashuv metodlariga asoslangan holda ish yuritish kerak. Chunki ilmiy-metodik sohada korporativ hamkorlikni yo'lga qo'yish strategik rejalashtirishning amaliy isbotini ta'minlashga ko'p jihatdan bog'liqdir.

Ta'lim muassasalarida strategik rejalashtirishga doir zamonaviy texnologiyalar va vositalarning qo'llanilishi ularning ta'lim xizmatlari bozorida raqobatbardoshligi hamda barqaror rivojlanishini ta'minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Djurayev R.X., Turg'unov S.T. *Umumiy o'rta ta'lim muassasalarini boshqarishda menejmentning asosiy tushunchalari*. – T.: “Fan”, 2006.
2. Qosimov G.M. *Menejment*. – T.: “O'zbekiston”, 2002.
3. G'ulomov S.S. *Menejment asoslari*. – T.: “Sharq”, 2002.
4. Stacey, R.D. *Strategic Management and Organizational Dynamics*, 5th edn. London: FT Prentice Hall.

Abduraxmon NORBOYEV,

T.N.Qori Niyoziy nomidagi O'zPFITI mustaqil izlanuvchisi,

Maftuna FAYAZOVA,

T.N.Qori Niyoziy nomidagi O'zPFITI

katta ilmiy xodim-izlanuvchisi

MAKTABDA GEOGRAFIYA TA'LIMI: MAVJUD HOLAT VA MUAMMOLAR

Annotatsiya

Maqolada umumiy o'rta ta'lim maktablari geografiya ta'limi jarayonidagi mavjud muammolar tahlil qilingan hamda ta'lim sifati va samaradorligini oshirish bo'yicha bir qator tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar. Geografiya ta'limi, ta'lim sifati va samaradorligi, tashkiliy-pedagogik jihatlari, geografiya ta'limining zamonaviy mazmuni, geografiya ta'limi metodikasi.

В статье проанализированы проблемы школьного географического образования в общем среднем образовании, а также предоставлен ряд рекомендаций по улучшению качества и эффективности образования.

Ключевые слова. Географическое образование, качество и эффективность образования, организационно-педагогические аспекты, современное содержание географического образования, методика географического образования.

In article analyzed existing problems in school geographical education of general secondary education, and also provided recommendations on improving the quality and efficiency of education.

Key words. General secondary education, geographical education, quality and efficiency education, organizational and pedagogical features, modern contents geographical education, technique of geographical education.

Dunyoni ilmiy anglashda geografiya fanining hissasi katta. O'tmishda geografiya asosan tasviriy fan sifatida shakllangan va rivojlangan bo'lsa, bugungi geografiya esa nima qilinsa mazkur geografik obyektдан yaxshiroq foydalanish mumkin, nima qilinsa tabiatga ozor yetmaydi, tabiatining boyligi, musaffoligi, go'zalligi saqlanadi, inson undan unumliroq foydalanadigan bo'ladi, degan savollarga javob beradigan fanga aylangan. Binobarin, hozirgi geografiya chuqur tabiiy, iqtisodiy va siyosiy, ekologik ma'lumotlar asosida ilmiy xulosalar chiqaruvchi, umumlashmalar yaratuvchi, tabiiy, iqtisodiy geografik jarayonlar haqidagi aniq ma'lumotlar asosida ilmiy bashoratlarni qiluvchi, tabiatdan oqilona foydalanish, ishlab chiqarishni hududiy to'g'ri tashkil etish tadbirlarini belgilovchi fanga aylangan.

Hozirgi vaqtda chuqur geografik bilimlar tabiatdan, uning boyliklaridan tejab-tergab to'g'ri foydalanishda, ishlab chiqarish kuchlarini hududiy to'g'ri joylashtirish va tashkil etishda, horijiy mamlakatlar bilan iqtisodiy, siyosiy va boshqa aloqalarni oqilona

yo'lga qo'yishda, demografik muammolarni to'g'ri hal qilishda, geosiyosatni to'g'ri belgilashda muhim ahamiyatga ega. Shunday ekan fan va texnika tez rivojlanayotgan, insonning tabiat bilan munosabatlari va o'zaro ta'siri kuchayib borayotgan bir vaqtda har bir mutaxassis, u qaysi kasb egasi bo'lishidan qat'i nazar, geografiyaning nazariy asoslarini, o'z Vatani geografiyasini, tabiatning rivojlanish qonuniyatlarini yaxshi bilishi zarur.

Bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidentining quyidagi fikrini keltirib o'tish maqsadga muvofiq: “Vatan tarixi va madaniyati, jug'rofiyasi va iqtisodini, qadimiy urf-odatlarimizni har tomonlama o'rganish dolzarb ahamiyatga ega. Bog'chalardan tortib oliy o'quv yurtlarigacha bo'lgan ta'lim-tarbiya tizimlarida mazkur fan va bilimlarni o'qitishga muhim siyosiy vazifa sifatida qaralmog'i lozim”.

Shunday bo'lsa-da, so'nggi vaqtlarda mamlakatimiz uzluksiz ta'lim tizimida geografiya ta'limining sifati, unga bo'lgan qiziqish va uning ijtimoiy nufuzining susayib ketayotganligi haqida turli xil fikrlar bildirilmoqda. Bu to'g'risida taniqli o'zbek geograf olimlaridan T.Mirzaliyev, A.Nig'matov, M.Mirakmalov, H.Vahobov, P.G'ulomovlar o'zlarining qator maqolalarida jonkuyarlik bilan so'z yuritgan, uning sabablariga e'tibor qaratgan edilar.

M.Islombekova va P.G'ulomov mamlakatimizda geografiyaning mavqei pasayib, geografik bilimlarga e'tibor kamayib ketayotganligini quyidagilar bilan izohlaydi: “Bunga ko'pchiligimiz, shu jumladan, ayrim ziyolilarimizning ham geografiyaning mazmun va mohiyati haqida chuqur tushunchaga ega emasligi sababga o'xshaydi. Ular geografiya qaysi tog', qaysi daryo, shahar yoki mamlakat va hokazolarning qayerda joylashganini o'rgatadi. Yer yuzida hamma joy kashf qilingan, endi kashf qiladigan joy qolmadi, geografiyaning nima keragi bor deb o'ylashsa kerak... Agar biz bu kamchilikni tezroq anglab, uni bartaraf etmasak, ya'ni xalqimizning geografik bilimi va madaniyatini zamon talabi darajasiga ko'tarmasak, mamlakatimizda tabiatdan, uning boyliklaridan foydalanishda, xalq xo'jaligi tarmoqlarini rivojlantirishda, xalqaro aloqa va munosabatlarda, tabiatni muhofaza qilishda, ekologik vaziyat holatini yaxshilashda xatolarga yo'l qo'yishimiz mumkin. Tabiat bizning xatoimizni kechirmaydi”.

Professor A.Nig'matovning fikricha, Geografiyani O'zbek tili va O'zbekiston tarixi kabi davlatning ta'lim sohasi siyosatidagi fanlar toifasiga olib chiqilmayotganligining ham obyektiv, ham subyektiv sabablari mavjud. Subyektiv sabab Geografiyani yagona fanlar tizimi sifatida qaralmayotganligi hamda uning fundamental nazariy asoslarini zamon talabiga moslab ishlab chiqilmayotganligida ko'rinadi. Huquq, iqtisod, tarix, fizika kabi fanlar tizimida bo'lganidek, Geografiyani “boshini qo'shuvchi”, geografik fanlarga zamin yaratuvchi “Umumiy geografiya”, “Geografiya nazariyasi va tarixi”ga oid ilmiy, o'quv, o'quv-metodik, tashkiliy-boshqaruv ishlarining olib borilmayotganligidadir.

Obyektiv sabablar bo'lib:

Birinchidan, O'zbekiston mustaqilligini e'tirof qiluvchi siyosiy, ijtimoiy, gumanitar, huquqiy, iqtisodiy fanlar jadal sur'atlarda rivojlanib, aniq va ayniqsa, tabiiy fanlarni ta'lim va ilm sohasidan “siqib chiqarishi”ga olib keldi.

Ikkinchidan, o'tish davri va bozor munosabatlarining shakllanishida serxarajatli, lekin bevosita ishlab chiqarish bilan bog'liq bo'lmagan fanlarning, xususan, geografiyaning moddiy va moliyaviy ta'minoti kamayib ketdi.

T.Mirzaliyev ta'lim muassasalarini o'quv kartalari va globuslar bilan ta'minlanish muammosiga e'tiborini qaratib, respublikamizdagi maktablar va o'quvchilarga kerakli karta va atlaslar bilan to'la ta'minlanmagan, degan xulosaga keladi va uning sabablarini ko'rsatib beradi.

Shu kabi tahlillardan ma'lum bo'ladiki, uzluksiz geografiya ta'limining sifat va samaradorligini oshirish muammosi turli tadqiqotchilar tomonidan turli aspektlarda olib qargalغان va har xil yechimlar ilgari surilgan.

Fikrimizcha, maktab geografiya ta'limining ijtimoiy nufuzi, uning sifat va samaradorligini oshirish uchun quyidagi ishlar qilinishi kerak:

1. Geografiya ta'limi sifat va samaradorligini oshirishning tashkiliy-pedagogik jihatlari, ya'ni o'quv muassasalarini umumgeografik va mavzuli devoriy xaritalar, topografik xaritalar, o'quv globuslari, atlaslar, yozuvsiz xaritalar va geografik asbob-uskunalar (kompas, barometr, anemometr, flyuger va boshq.) bilan ta'minlashni takomillashtirish zarur. Ma'lumki, xaritasiz geografiya ta'limi jarayonini tasavvur qilish qiyin. Ta'lim amaliyotida bugungi kunda asosan "Dunyo siyosiy", "O'zbekiston ma'muriy", "O'zbekiston tabiiy" xaritalaridan foydalaniladi. Bu ham o'qituvchining shaxsiy tashabbusi yoki moddiy holati bilan bog'liq. Amalda esa 5-9 sinf geografiya ta'limi uchun 40 dan ortiq mavzudagi devoriy geografik xaritalar talab qilinadi. Ushbu xaritalarni yaratish va uni nashr qilish uchun "Kartografiya" ilmiy-ishlab chiqarish davlat korxonasi ilmiy-texnik salohiyat yetarli. Lekin buning uchun yuqoridagi xaritalar Xalq ta'limi vazirligi yoki ushbu jarayonga mutasaddi bo'lgan tashkilotlar tomonidan buyurtma qilinishi va ular umumiy o'rta ta'lim maktablariga tarqatilishi lozim.

Maktablar geografiya ta'limi amaliyotida Yer sharining siyosiy-ma'muriy globusi mavjud va undan foydalanib kelinmoqda. Lekin tabiiy globus mavjud emas. Ushbu globusni yaratish va u bilan ta'lim muassasalarini ta'minlash zarur.

O'rganishlar shuni ko'rsatadiki, geografiya ta'limi jarayonida o'quv atlaslari va yozuvsiz xaritalar bilan ta'minlanish va undan foydalanishda ham muammolar mavjud. Fikrimizcha, o'quv atlaslari darsliklarga qo'shimcha majburiy manba sifatida umumiy o'rta ta'lim maktablariga yetkazib berilishi lozim.

O'qituvchilar, ayniqsa, yosh o'qituvchilarning dars jarayonida umumgeografik va mavzuli xaritalardan, o'quv atlaslari va yozuvsiz xaritalardan, globuslardan samarali foydalanish ko'nikma va malakalarini rivojlantirish zarur. Buning uchun joylardagi XTX-QTMollari o'quv dasturlariga tegishli o'zgartirishlar kiritish va xaritalardan samarali foydalanishga yo'naltirilgan o'quv va metodik qo'llanmalarni yaratish talab qilinadi.

2. Geografiya ta'limi mazmuni hozirgi zamon talablari asosida yangilanishi zarur. Geografiya fani doimiy rivojlanishda ekan geografiya ta'limi ham uning talablari asosida rivojlanib borishi lozim. Ya'ni, bugungi geografiya o'tmishdagi tasviriy fundan tobora amaliy xarakterdagi fanga aylanib bormoqda. Shunday ekan, geografiya ta'limi mazmuni ham fanning amaliy yo'nalishlarini o'zida ko'proq ifodalashi zarur. O'quvchilarning mustaqil fikrlashlarini rivojlantirishga xizmat qiluvchi amaliy topshiriqlar hajmini ko'paytirish vaqti keldi. Bu birinchidan.

Ikkinchidan, majburiy o'n ikki yillik ta'lim (9+3)da geografiya ta'limi mazmuni o'zaro bir-birini to'ldirishi va rivojlantirishi hamda yakunda bir butun kompleks geografik bilim, ko'nikma va malakalarni o'quvchida shakllantirishi, ya'ni ta'limning uzviylik va uzluksizlik printsiplarini ta'minlashi lozim.

Uchinchidan, o'quv dasturlaridan o'rin olgan ba'zi mavzularni o'quvchilar yosh va psixologik xususiyatlariga mos holda soddalashtirish (7, 9-sinf) yoki murakkablashtirish (8-sinf) yoxud mavzuni o'rganishga ko'proq soatlar ajratishning muqobil variantlarini ko'rib chiqish kerak. Bugungi kunda ta'lim amaliyotidagi mavjud darsliklar (6-7-8 sinf darsliklari) hajmi (sahifalar soni bir xil – 160 betdan va hajmi – bosma taboq ham deyarli bir-biriga teng) masalasini o'rganib chiqish zarur. Ma'lumki, egallanishi zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalar hajmi darslik hajmi bilan bevosita bog'liq. Shunday ekan,

yuqori sinflarga tomon darsliklar hajmini ko'paytirib borish maqsadga muvofiq. Bu yerda masalaning moliyaviy tomoni ikkinchi o'rinda turishi shart.

To'rtinchidan, o'quvchilar geografiyadan egallashi shart bo'lgan ko'nikma va malakalarga geografik baholash ham kiritilishi va bu ta'lim mazmunida o'z aksini topishi zarur. Chunki umumiy o'rta ta'limda tabiiy sharoit, tabiiy resurslar yoki ishlab chiqarishni geografik joylashtirish faqat qayd qilish yo'sinida o'rganilmasdan tabiiy yoki iqtisodiy geografik jihatdan baholanishi va bashorat qilinishi va o'quvchilarda atrof-olamga nisbatan ongli munosabatni shakllantirish kerak. Uzviylashtirilgan Davlat ta'lim standarti (2010)da o'quvchilar geografiyadan egallashi shart bo'lgan ko'nikma va malakalar toifasida bashorat qila olish ko'rsatkichi mavjud. Biroq darsliklar mazmunida o'quvchining geografik bashorat qila olishiga yo'naltirilgan ko'nikma va malakalar uchramaydi. Ular to'la-to'kis o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi geografiya dasturiga o'tkazib yuborilgan. Umu-miy o'rta ta'limda ham geografik baholash va bashoratlashga oid elementar tushuncha, ko'nikma va malakalarni shakllantirish maqsadga muvofiq.

Beshinchidan, darslik, o'quv atlaslari mazmunidagi geografik raqamlar bir xillikka keltirilishi, o'zaro chalkash va bir-birini inkor qiluvchi holatlar bartaraf etilishi zarur. Bu borada darslik va o'quv atlaslarining yangi avlodlarini yaratish jarayonida bir qator ijobiy ishlar amalga oshirildi. Biroq hali ham ba'zi qilinadigan ishlar mavjud.

Ushbu vazifalarning amalga oshirilishi natijasida geografiya fanidan DTS va o'quv dasturlariga tegishli o'zgartirishlar kiritish lozim.

3. Zamonaviy pedagogikada innovatsion pedagogik texnologiyalarga muhim e'tibor qaratilayotgan bir paytda geografiya o'qitish metodikasi sohasida hali bu borada juda ko'p qilinadigan ishlar mavjud. Mustaqillik yillarida U.X.Safarov, K.X.Baxromov, M.Abduraxmanov, R.T.Gaypova, S.X.Matsaidova, H.L.Nikadambayeva va boshqalar tomonidan geografiya o'qitish metodikasining turli jihatlari tadqiq etilgan. Ushbu ishlarga tayangan va ularni bir tizimga keltirgan holda innovatsion pedagogik texnologiyalarning geografiya ta'limiga tatbiqi (zamonaviy xususiy metodika)ni ishlab chiqish, nashr holatida umumiy o'rta ta'lim maktablari o'qituvchilariga yetkazish kerak.

Bunday muammolarning ijobiy hal etilishi ta'lim sifati va samaradorligining oshishini ta'minlab, o'quvchilarning geografik madaniyat va dunyoqarashlarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Ushbu maqolada biz, albatta, ong-tafakkurimizning quvvati yetganicha fikr yuritib, ta'lim amaliyotidagi mavjud holat va muammolarni ko'rsatib berishga harakat qildik. Inkor qilmaymizki, bu borada hali juda keng miqyosda ilmiy tadqiqot ishlarini olib borish zarur va shart.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov I.A. *“Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir”*. – T.: *“O'zbekiston”*, 1995. – 55 b.
2. Islombekova M., G'ulomov P. *Geografik bilimlar – zamon talabi // Ko'hna va navqiron geografiya: Iqtidorli talabalar, yosh olimlar va professor-o'qituvchilarning 2008-yil ITI natijalariga bag'ishlangan ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari..* – T., 2009. 27-28 mart – 3-5 b.
3. Nig'matov A.N. *Yagona geografiya – zamon talabi // Hozirgi zamon geografiyasi: nazariya va amaliyot: Xalqaro ilmiy-amaliy konferentsiya materiallari.*– T., 2006. 30-31 yanvar, – 72-73 b.,
4. Mirzaliyev T. *Respublikamiz maktablarini geografiya va tarix fanlari bo'yicha o'quv kartografik materiallar bilan ta'minlanishi haqida // Geografiya fanining dolzarb nazariya va amaliy masalalari: Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari.*– T., 2008. 21-22 noyabr –182-183-betlar.

Baxodir AKBAROV,

T.N. Qori Niyoziy nomidagi O'zPFITI ilmiy xodimi

O'QUVCHILARDA KASBIY TAFAKKURNI SHAKLLANTIRISH MODELI

Annotatsiya

Maqolada o'quvchilarni kasbiy tafakkur asosida kasb tanlashga yo'naltirishning pedagogik ahamiyati tahlil qilingan. Shuningdek, muallif kasbiy tafakkurni shakllantirish jarayonining modelini ishlab chiqqan.

Kalit so'zlar. Kasb, kasbiy tafakkur, kasb turlari, mehnat bozori, shaxsiy ehtiyoj, motiv, qiziqish, baholash.

В статье раскрыто педагогическое значение профессиональной ориентации в формировании профессионального мышления учащихся, представлена разработанная автором модель процесса формирования профессионального мышления.

Ключевые слова. Профессия, профессиональное мышление, виды профессий, рынок труда, личные потребности, мотив, интерес, оценивание.

The article explores the pedagogical significance of professional orientation in the formation of professional thinking of the students; the author presents a model of the process of formation of professional thinking.

Key words. Profession, professional thinking, the professions, the labour market, personal needs, motive, interest, evaluation.

O'quvchi umumiy o'rta ta'lim maktabini bitirar ekan, uning oldida ta'limning keyingi bosqichiga o'tish va bu jarayonda o'zining maqsad mudaoalariga muvofiq bo'lgan kasbni tanlash muammosi turadi. Bugungi kundagi ta'lim amaliyotidan ma'lumki, o'quvchi ushbu jarayonda turli omillar ta'sirida kasb tanlaydi va bu har doim ham o'zi va jamiyat uchun foydali bo'lavermaydi. Ushbu jarayonning eng samarali yechimi o'quvchilarda kasbiy tafakkur asosida mustaqil kasb tanlash ko'nikma va malakalarini shakllantirishdir.


Kasbiy tafakkur o'quvchi-yoshlarning "Kim bo'lsam ekan?" degan savolga ijtimoiy-hududiy sharoitlardan kelib chiqqan va kasblar professiogrammasidagi mavjud kasblar to'g'risida to'la ma'lumotga ega bo'lgan holda o'z qiziqishi va layoqati, aqliy va jismoniy imkoniyatlarini to'g'ri baholashi, shu asosda o'zi mustaqil ravishda Vatan kelajagi uchun foydasi tegadigan malakali mutaxassis bo'la oladigan kasb-hunarni tanlashiga aytiladi. Buning uchun o'quvchi avvalambor shu sohaga oid bilim va ko'nikmalarga, mavjud kasb-hunarlar to'g'risida tushuncha va tasavvurga ega bo'lishi, bu xususda mustaqil fikr yurita olishi lozim.

Kasbiy tafakkur inson o'zining sezgisi, idroki va tasavvurlari orqali anglay olmagani kasb-hunarlar, ularning o'ziga xos xususiyatlari, rivojlanish istiqbollari, o'zaro mu-

nosabat va xossalarini bilib olishga xizmat qiladi. Demak, kasbiy tafakkur o'quvchida uning aqliy va fiziologik taraqqiyoti bilan bilish faoliyatining bevosita ta'siri ostidagina vujudga kelishi mumkin. Shunday qilib, kasb haqidagi tushunchalarning sezgi organlarida, idrok va tasavvurda aks etishi va xotirada mustahkamlanishi natijasida kasbiy tafakkur hosil bo'ladi.

O'quvchi kasblarning belgi va xususiyatlarini, ularning turlarini, ijtimoiy nufuzini va o'zining qobiliyat, qiziqishlarini bilish, baholash faoliyatida va ta'lim jarayonida tushuna boradi. Demak, kasbiy tafakkur o'quvchi oldiga qo'yilgan kasb tanlash muammosi xususida mustaqil fikr yuritishi, uning yechimini topishga harakat qilishidan iborat jarayon bo'lib, unga bee'tiborlik bilan yondashish turli xil anglashilmovchiliklarni keltirib chiqaradi. Shunday ekan, umumiy o'rta ta'lim maktablari o'quvchilarida kasbiy tafakkurni shakllantirish dolzarb pedagogik ahamiyat kasb etadi.

Olib borilgan ilmiy izlanishlar shuni ko'rsatdiki, umumiy o'rta ta'lim maktablari o'quvchilarida kasbiy tafakkurning shakllanish jarayoni quyidagi komponentlardan iborat bo'lishi lozim (1-rasm).



1-rasm. Kasbiy tafakkur jarayonining shakllanish modeli

1. Kasbni to'g'ri tanlashning ahamiyati va zaruratining o'quvchi tomonidan anglanishi. Umumiy o'rta ta'lim maktablari o'quvchilari tomonidan kasbni to'g'ri tanlashning ahamiyati va zaruratining ongli ravishda idrok qilinishi kasbiy tafakkurni shakllantirish jarayonida o'quvchi tomonidan o'z qiziqishi va qobiliyatiga mos kasbning tanlanishi va shu orqali yetuk malakali kadrlarni tarbiyalashda muhim o'rin tutadi.

Kasb insonning hayotiy ehtiyojlarini ta'minlaydigan manba bo'lib, u kelgusidagi turmush tarzini belgilab beradi. Kasbni tanlash, ayniqsa, qiziqish va qobiliyatga mos kasbni tanlash atrofdegilar ko'zi o'ngida o'zini ifoda etishni va hayotda o'z o'rni,

qadr-qimmatini topishni xohlagan, farovon hayotga erishishga intilgan har bir shaxs uchun asosiy mayoq bo'lib xizmat qiladi. Shuning uchun o'quvchilar tomonidan uning tanloviga jiddiy yondashish talab etiladi.

Kasbni to'g'ri tanlash inson turmushidagi muhim qadam bo'lib, yosh avlodning butun hayotidagi muvaffaqiyat ko'p jihatdan ushbu omilga bog'liq. Inson tanlagan kasbiga zo'r qiziqish bilan qarasa, bajarayotgan ishlariga ijodiy munosabatda bo'lib, o'z kasbiy ko'nikma va malakalarini doimo rivojlantirib borsa, o'z ishining ijtimoiy ahamiyatini tushunsa, uning qobiliyatlari mehnatda takomillashib borsa, o'shanda-gina u kasbi va mehnatidan qoniqish hosil qiladi va tashabbus bilan faoliyat ko'rsatadi.

Mana shu keltirilgan fikrlardan ko'rinib turibdiki, maktab o'quvchilarining kasb tanlashi ongli zaruriyat bo'lishi va ayni vaqtda jamiyat manfaatlariga mosligi, yigit va qizlarning kamolot yo'lidagi shaxsiy muddaolarini qondirishi lozim.

2. O'quvchining kasb turlari va mehnat bozoriga oid ma'lumotlarga egaligi. Kasb muvaffaqiyatli tanlanishi uchun o'quvchi mavjud kasb-hunar turlari, uning ijtimoiy nufuzi va yashovchanligi, mehnat bozoriga oid ma'lumotlarga ega bo'lishi, ular tizimlashtirilib, olinayotgan axborotlar tahlil qilinishi, boshqa dalillar bilan solishtirilishi, umumlashtirilishi va ular asosida yangi fikrlar shakllantirilishi lozim.

Kasb sohasida tanlovni amalga oshirmoqchi bo'lgan o'quvchilar bir nechta kasblarni bilishlari asosida o'z tanlovini amalga oshiradilar. Agar 10 ta kasb haqida tushunchaga ega bo'lsalar, aynan shu 10 ta kasbning birini tanlaydilar. 1000 ta kasbning ta'rifi, tavsifini bilganlarida esa o'zining qiziqishi va qobiliyatiga javob beradigan kasbni tanlash imkoniyati bir necha marta yuqori bo'ladi. Kasb tanlovi inson talablariga to'liq javob berishi uchun kasblar haqida ko'proq bilimga ega bo'lish lozim. Kasb turlari, kasb talab qiladigan aniq faoliyat va amallar, kasbning foydaliligi va uning ijtimoiy nufuzi, ish o'rinlarining mavjudligi kabi parametrlar haqida tushunchalar shakllangan bo'lishi talab etiladi¹.

Kasblar sohasi dinamik tizim hisoblanib, unda doimiy o'zgarishlar yuz berib turadi. Kasbning yashovchanligi, unga bo'lgan talabning ortishi yoki pasayishi davrlar o'tishi bilan o'zgarib turadi. Shuning uchun o'quvchi regional, global miqyosdagi mehnat bozori haqida ham ma'lumotlarga ega bo'lishi zarur. Misol uchun, O'zbekiston Respublikasida keyingi yillarda Navoiy erkin, Jizzax va Angren maxsus industrial zonalarini tashkil etishga kirishildi. Ushbu industrial zonalarini rivojlantirishga qaratilgan davlat dasturlari va rivojlantirishning iqtisodiy tendentsiyalariga muvofiq shu hududlarda yangi kasblar paydo bo'lishi yoki ayrim kasblarga talab nihoyatda oshishi mumkin. Ta'kidlab o'tish zarurki, kasblar va ularning ijtimoiy nufuzi haqida yaqin va uzoq kelajakka mo'ljallangan prognozlarini ishlab chiqish va ular bilan o'quvchilarni tanishtirish zarur.

3. Shaxsiy ehtiyoj, motiv va qiziqishlar. Shaxsiy ehtiyoj va motivlar asosida biron-bir kasbga nisbatan qiziqish kelib chiqadi.

Psixologik adabiyotlarda motiv deb insonni ma'lum xatti-harakatlarni amalga oshirishga undaydigan, qo'zg'atadigan kuchga, quvvatga aytiladi².

Ye.P.Il'inning fikriga ko'ra, motiv – insonni muayyan xatti-harakatlarga undaydigan bosh sabab. Odamni faoliyatga undovchi asosiy sabab uning ehtiyojlaridir³.

¹ Jalolov A. Kasb qanday tanlanadi. – T.: "Yangi asr avlodi", 2010. – 68 b.

² Haydarov F.I. O'quv faoliyati motivatsiyasi: Monografiya. – T.: "Fan", 2005. – 4 b.

³ Ильин Е.П. Мотивация и мотивы. – Питер: СПб., 2000. – С. 512.

Demak, insonning o'z shaxsiy xususiyatlarini ko'rsatish yoki farovon hayotga, obro'-e'tiborga erishishi kabi xilma-xil ehtiyojlari kasb tanlash uchun motiv bo'lib xizmat qiladi.

Inson xarakterida o'zini-o'zi namoyon qilish xususiyati mavjud. Bu esa, o'z navbatida, har bir shaxsning yagonaligini va noyobligini yuzaga chiqaradi. O'z noyobligini ko'rsatish insonning eng katta ehtiyojlaridan biri – o'zini-o'zi namoyon qilishga bo'lgan ehtiyojini qondiradi. Kasb tanlash shaxsiy ish hisoblanganligi bois, ushbu sohada insonning o'z-o'zini namoyon qilishga bo'lgan ehtiyoji qondirilmaganligi uning o'zida ichki ziddiyatni vujudga keltiradi. Bunday ziddiyatlar o'z navbatida insonda hayotdan qoniqish hosil qilmaslik, loqaydlik, ruhsizlik, hech narsaga qiziqishning bo'lmasligi holatlarini keltirib chiqarishi mumkin.

O'quvchilarni kasb faoliyatining har xil turlariga bo'lgan qiziqishini rivojlantirish kasbiy tafakkurni shakllantirish jarayonining muhim tarkibiy qismidir. Qiziqish – insonning alohida insonlar, predmetlar yoki voqea-hodisalarga nisbatan muhim munosabatiga aytiladi. Agar o'quvchida qiziqish bo'lmasa, uni kasbni to'g'ri tanlashga tayyorlash mumkin emas. Hech narsaga qiziqishi yo'q o'quvchi bo'lmaydi. Qiziqishlar va qobiliyatlar soni ham kimdadir ko'proq, kimdadir ozroq bo'ladi. Ularning qaysidir biri ravshan ko'rinib turadi, ba'zilarining mavjudligini esa o'quvchining o'zi ham bilmaydi.

Kasbga nisbatan qiziqishni vujudga keltirish o'qituvchining pedagogik faoliyati bilan bevosita bog'liq. Ta'limni hayotiy jarayonlar bilan bog'lash, uyg'unlashtirish, o'quvchilarning individual-tipologik, yosh davrlari xususiyatlari, qobiliyatlari va imkoniyatlarini hisobga olish ijobiy samara beradi. Chunki har bir kasb-hunar shaxsdan mustahkam irodani, aqliy jiddiylikni, chidam va sabr-toqatni talab qiladi.

4. Muammo shartlari va subyektning oldiga qo'yiladigan shartlar: kasbga va o'quvchiga qo'yiladigan shartlar.

Umumiy o'rta ta'lim maktablari o'quvchilarida kasbiy tafakkurni shakllantirish jarayonida kasbning bo'lajak mutaxassisga qo'yadigan talablarini o'rganish muhim ahamiyatga ega. Kasblar o'z xususiyatlaridan kelib chiqqan holda insonga o'z talablarini qo'yadi. Shaxsning jismoniy kuch va imkoniyatlariga tayangan holda yo'lga qo'yiluvchi kasbiy faoliyat mutaxassisdan jismonan baquvvat, mustahkam xarakter, kuchli iroda egasi bo'lishini talab etadi. Shuningdek, barqaror diqqat, uzoq muddatli e'tibor, umumiy jarayonni birdek nazorat qila olish, harakatlarni o'ta darajada aniqlik bilan bajarish, yuzaga kelgan vaziyatlarga to'g'ri baho bera olish, ushbu vaziyatlardan chiqib keta olish yuzasidan oqilona qaror qabul qilish, shaxsiy xatti-harakat mohiyatini tanqidiy baholash kabi layoqatlarning mavjud bo'lishi jismoniy faoliyatni olib boruvchi mutaxassisga mazkur jarayonda vaqtni tejash, yutuqlarga erishish, shuningdek, olib borayotgan faoliyatidan moddiy va ma'naviy manfaat ko'rish imkoniyatini yaratadi.

Keng dunyoqarash va tafakkurga, boy tasavvurga, kuchli xotira, ijodiy layoqat hamda yuksak hissiyotlarga ega bo'lish bo'lajak mutaxassis tomonidan aqliy kuch-quvvatni taqozo etuvchi kasb-hunarlar bo'yicha muvaffaqiyatli faoliyat yurita olish imkonini beradi. Ushbu holatlardan ko'rinib turibdiki, o'quvchi tanlamoqchi bo'layotgan kasbining unga qo'yadigan talablaridan boxabar bo'lishi lozim.

5. O'quvchi tomonidan o'zining aqliy qobiliyatlari va jismoniy imkoniyatlarini tekshirish, baholash, qayta aloqa va yakuniy qaror qabul qilish.

Insonning biror sohada qobiliyati yuqori bo'lsa, boshqasida past bo'lishi mumkin. O'quvchilarning kasb tanlashdagi muhim vazifalaridan biri – har kim o'zining qobiliyatini qaysi sohada eng yuqori ekanligini tekshirish va baholashdir.

O'quvchilarning qobiliyati har xil bo'lishi munosabati bilan har kim o'zining eng kam vaqt sarf qilib egallashi va eng yuqori samaradorlikka erishishi mumkin bo'lgan kasbini tanlashi kerak.

O'quvchi kasb turlari, mehnat bozoriga oid ma'lumotlar va o'zining shaxsiy ehtiyoj, motiv va qiziqishlari va kasbning o'quvchiga qo'yadigan shartlari asosida kasb tanlar ekan, o'zining aqliy qobiliyat va jismoniy imkoniyatlarini tanlangan kasb xususiyatlariga to'g'ri kelishini obyektiv holatda tekshirib ko'rishi, baholashi, agar ushbu kasb to'g'ri kelmaydigan bo'lsa, qayta aloqa o'rnatishi va yakuniy qarorga kelishi lozim. Ushbu jarayon ham inson ehtiyoj va qiziqishlarining o'zgaruvchanligi ta'sirida dinamik xususiyat kasb etadi.

Insonning shaxs sifatida kamol topishida jamiyat va undagi ijtimoiy muhit, voqea va hodisalar har tomonlama ta'sir o'tkazadi. Ushbu holat o'quvchida kasbiy tafakkurning shakllanish jarayoni uchun ham o'rinli bo'lib, ota-ona, o'rtoqlar, pedagog, psixolog mutaxassislar, tanishlar, ommaviy axborot vositalari ham ushbu jarayonda ishtirok etadi. Biroq, xulosa o'rnida shuni ta'kidlab o'tish lozimki, o'quvchini kasb-hunarga yo'naltirishda so'nggi hal qiluvchi qaror aksariyat hollarda o'quvchining o'zi tomonidan qabul qilinadi va bu uning kelajakdagi hayot yo'lini belgilab beradi. Shunday ekan, ushbu jarayonning muvaffaqiyatli kechishi o'quvchining o'z mustaqil fikriga asoslangan kasbiy tafakkurining shakllanganlik darajasiga bog'liq. Demak, ta'lim muassasalaridagi ta'lim-tarbiya jarayoni ma'lum ma'noda o'quvchilarda kasbiy tafakkurni shakllantirishga yo'naltirilgan bo'lishi va bunda yuqorida sanab o'tilgan jihatlarga asosiy e'tibor qaratilishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. *Jalolov A. Kasb qanday tanlanadi.* – T.: “Yangi asr avlodi”, 2010. – 68 b.
2. *Haydarov F.I. O'quv faoliyati motivatsiyasi: “Monografiya”.* – T.: “Fan”, 2005. – 4 b.
3. *Ильин Е.П. Мотивация и мотивы.* – Питер: СПб., 2000. – С. 512.

Durdona RAXMATULLAYEVA,

O'MKHTTKMO va UQTI katta ilmiy xodim-izlanuvchisi

O'QUVCHILARNI TADBIRKORLIK SOHASIDAGI KASBLARGA YO'NALTIRISH TAMOYILLARI

Annotatsiya

Ushbu maqolada umumiy o'rta ta'lim maktablarida va kasb-hunar kollejlarda kasbga yo'naltirish ishlarini faollashtirish masalalari yoritilgan. Shuningdek, muallif yoshlarni tadbirkorlik faoliyatiga tayyorlashda amalga oshiriladigan tamoyillar hamda tadbirkorlik sohasida kasbga yo'naltirilgan faoliyatning tarkibiy turlari haqida so'z yuritgan.

Kalit so'zlar. Kasb, kasbga yo'naltirish, ixtisoslik, tadbirkorlik, tamoyil, mehnat, maxsus fan.

В статье рассматриваются вопросы активизации профориентационной работы в общеобразовательных школах и профессиональных колледжах, определены принципы повышения уровня практической подготовки молодёжи к предпринимательской деятельности, а также виды деятельности в сфере предпринимательства.

Ключевые слова. Профессия, профориентация, специальность, предпринимательство, принцип, труд, специальные дисциплины.

The article discusses the ways to enhance career guidance in general education schools and vocational colleges, given the necessary guidelines in preparing young people for the implementation of entrepreneurship, as well as are highlighted compound types of career-oriented activities in the field of entrepreneurship.

Key words. Profession, career guidance, choice of profession, specialty, the principles of preparation for the activity, business activity.

Kasbga yo'naltirish va o'qitishning hozirgi zamon konsepsiyasi shaxsiy moyilliklarga mos holda faqat kasb tanlash bilangina cheklanib qolmasdan, balki u bilan birgalikda tadbirkorlik faoliyatining xususiyatiga yo'naltirishni ham nazarda tutadi. Bu, ayniqsa, mehnat faoliyatiga birinchi marta kirib kelayotgan yoshlar va kasbni o'zlashtirishga majbur bo'lgan ishsiz fuqarolar uchun ham muhimdir.

Ish bilan ta'minlanmagan ayrim yoshlar kasb faoliyatida odatdagi sohani o'zgartirishga, o'ziga mos ishni izlab topishga, o'z bandligini ta'minlashga psixologik va amaliy jihatdan tayyor emas. Shu munosabat bilan kasbga yo'naltirish oldida mehnat bozori va kasblar dinamikasi, aholining shaxsiy sifatlarini hisobga olgan holda kasbiy va ijtimoiy moslashuvi zarurligi bilan bog'liq yangi vazifalar turadi.

Kasbni to'g'ri tanlash, tanlayotgan shaxsning qiziqishlari, layoqati, salomatligi, qobiliyatlarini va jamiyatning kadrlarga ehtiyojini asosli tarzda hisobga olishni anglatadi. Bu jihatlarning mos kelishi maqbul kasbni tanlash sohasini aniqlashga imkon beradi.

Mavjud tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, kasb to'g'ri tanlaganda mehnat unumdorligi:

– agar kasb to'g'ri tanlangan bo'lsa va ishlash ishtiyoqi mavjud bo'lsa, mehnat unumdorligi 100 foizga teng bo'ladi;

– agar kasb to'g'ri tanlangan bo'lib, lekin ishlash istagi bo'lmasa, mehnat unumdorligi 65 foizga teng bo'ladi;

– agar kasb noto'g'ri tanlangan, kasbning foydasi bo'lmasa, biroq inson ishlashni xohlasa, mehnat unumdorligi 50 foizga teng bo'ladi;

– agar kasb noto'g'ri tanlangan va ishlash istagi ham bo'lmasa, mehnat unumdorligi bor-yo'g'i 30 foizga teng bo'ladi.

Faoliyat sohasining eng maqbulini tanlashni yaxshiroq tushunish uchun “kasb” tushunchasining ma'nosini aniqlab olish zarur. Bu tushuncha ikkita lotin so'zlaridan: “profession” – rasman ko'rsatilgan mashg'ulot, ixtisoslik va “profiteor” – o'z ishim deb e'lon qilamandan kelib chiqqan. Bu so'z boshqa atamalar singari ko'p qiymatlidir. Ba'zida mazkur bir mehnat turi bilan band bo'lgan barcha kishilar jamiyati “kasb” deb yuritiladi. “Kasb” so'zining boshqa bir ma'nosi – ma'lum bir kishiga xos bo'lgan bilimlar, ko'nikmalar va malakalarning tizimi. Faoliyatning turlari ham (xuddi shu kasbi) “kasb” deb ataladi. Nihoyat, jamiyat uchun zarur bo'lgan va insonning jismoniy va ma'naviy kuchlarini sarflovchi uning yashash va rivojlanishiga imkon beruvchi cheklangan (mehnat taqsimoti oqibatida) sohasini ham “kasb” deb atash mumkin.

Har bir holda ham kasb haqidagi tushunchadan “kasb” so'zining qanday ma'nosi to'g'risida so'z borayotgani ravshan ko'rinib turadi. Kasb tanlayotganda mehnat kuchi amalga oshiriladigan soha tanlanadi, shu bilan birga tegishli ish ham, insonlar jamoasi ham tanlanadi. Bunda kasbni tanlash – bu bilimlar va amaliy malakalarning ma'lum tizimini o'zlashtirish yo'lini, ma'lum bir shaxsiy, shu jumladan, tadbirkorlik sifatlarini shakllantirish yo'lini tanlash, deb nazarda tutiladi.

Masalan, “Kasb va ixtisoslik” tushunchalari orasiga tenglik alomatini qo'yish to'g'ri bo'lmaydi. Kasb ancha umumiy tushuncha hisoblanadi va mehnat faoliyatining asosiy turini anglatadi. “Ixtisoslik” so'zi lotincha “speciales” – xususiy, alohida ma'nosini anglatib, mehnat faoliyatining mazmunini aks ettiradi. Masalan, ishchi kasbi bo'yicha chilangar – yig'uvchi yoki chilangar – asbobsoz bo'lishi mumkin yoki shifokor va tokarlik kasblari orasidagi farq faqat ular faoliyatining mazmunidagina iborat emas. Shifokor kasbi ancha chuqur nazariy bilimlarni egallashni, uzoq muddatli maxsus tayyorgarlikni obyektiv talab etadi.

Kasblarning umume'tirof etilgan tasniflari akademik Ye.A.Klimov tomonidan ishlab chiqilgan. Uning tasnifi barcha kasblarni u yoki bu kasb vakilining mehnat predmeti qandayligiga bog'liq holda, ya'ni inson fikran yoki amaliy holda bajaradigan belgilar majmui narsalarning, jarayonlarning xossalari bo'yicha beshta asosiy turga bo'linadi:

Birinchi tur: “Inson-tabiat”. Bu guruhga amaliy mehnatning shunday turlari kiritilganki, bunda uning obyekti bo'lib, biror tabiiy tizimi (ya'ni, jonli va jonsiz tabiatning barcha obyektlari, hodisalari va jarayonlari: hayvonlar va o'simliklar, tuproq, suv va havo muhiti) hisoblanadi.

Tabiiy tizimlarning xususiyati ish sharoitlarining va mehnat obyektlarining ko'p o'zgaruvchanligi, betakrorligi hisoblanadi. Bunda xodimlarning aqliy faoliyati o'ziga xos talablarga mos kelishi hamda aniq mehnat vazifalarini hal etishda tashabbus kerak bo'ladi.

Ikkinchi tur: “Inson-texnika”. Bunda turli xil texnik qurilmalarni yaratish, foydalanish, xizmat ko'rsatish bilan bog'liq kasblar taqdim etilgan bo'lib, ular mehnat buyumlari hisoblanadi. Bu guruhda turli xil kasblar boshqa istalgan guruhdagidan ko'pdir.

Uchinchi tur: “Inson-inson”. Mutaxassis uchun mehnat predmeti bo'lib, boshqa inson, insonlar guruhi xizmat qiladi, faoliyatning o'ziga xos xususiyati esa boshqa insonlarga bevosita ta'sir ko'rsatish zarurligi hisoblanadi. Bu o'qitish, tarbiyalash, xizmat ko'rsatish, rahbarlik qilish bilan bog'liq kasblar, xizmat ko'rsatish sohasi, madaniy ishlar ixtisosligi hisoblanadi.

Bu turdagi kasblarning xususiyati shundan iboratki, ulardan har biri go'yoki ikki karra tayyorgarlikni talab etadi:

a) insonlar bilan aloqa o'rnatishga o'rgatishni, uddasidan chiqish va qo'llab-quvvatlash, insonlarni tushunish, ularning xususiyatlarini yaxshi bilish kerak;

b) ishlab chiqarish, fan, texnika, san'atning u yoki bu sohasida tayyorgarlik ko'rgan bo'lish kerak.

To'rtinchi tur: “Inson-belgilar tizimi”. Bu yerda mehnat predmeti bo'lib moddiy hodisalarning o'zlari xizmat qilmay, balki ular to'g'risida obrazli, tilli, mavhum-mantiqiy, matematik grafik yo'nalishlaridagi axborotlar xizmat qiladi. Bu turdagi kasb vakili harakat qilishni bilishi kerak bo'lgan asosiy material belgilanayotgan (aytib o'tilayotgan) predmet bilan tasviriy o'xshashlikka ega bo'lmagan mavhum tushunchalar, belgilar tizimi (so'zlarga gap berayotgan predmetlarga o'xshamaydi, pullar tovarlarga o'xshamaydi va h.k).

Mazkur turdagi kasblardan birortasida muvaffaqiyatli ishlash uchun quruq belgilar dunyosiga fikran kirishga, atrof-dunyoda, xususan, predmetli xossalardan qochishga va u yoki bu belgilarni o'zi bilan eltuvchi ma'lumotlarga diqqatni to'plashga alohida moyillik kerak, kuzatilayotgan holatlarda umumiy tushunchalarni, qoidalarni, qonunlarni ajrata olishni bilish va ular bilan ongda amallar bajarish, harakat qilish, barqaror so'z mantiqiy xotiraga ega bo'lish kerak.

Beshinchi tur: “Inson badiiy obraz”. Bu turga mehnat badiiy obyektlarga yoki ularni yaratish sharoitlariga qaratilgan kasblar kiradi. Bu san'at bilan (musiqqa, tasviriy san'at, teatr, adabiyot va h.k) bog'liq barcha kasblargina emas, balki faoliyatning tatbiqiy (amaliy) turlari hamdir. Masalan, bu turdagi kasblarga quyidagilar kiradi: rassom-zargar, rasmiylashtiruvchi (bezovchi), bo'yoqchi-alfryetchi, san'at yodgorliklarini tiklovchi mutaxassis, badiiy hunar ustasi, rassom-modelyer va h.k.

“Inson badiiy obraz” turidagi kasb ularda jonli tasavvurning, obrazli fikrlashning, badiiy fantaziyaning, iste'dodning bo'lishi bilan ajralib turadi.

Zamonaviy kasblar, iqtisodiyot ehtiyojlarining ulkan xilma-xilligida shaxsning o'zi bir kasbni tanlashi amaliy jihatdan qiyin, deb ta'kidlash mumkin. Hayot kasbga yo'naltirish ishini ilmiy tizimini, umumta'lim maktablarining, kasb-hunar ta'limi muassasalarining va ish beruvchilarning bu ishdagi aniq o'rnini va rolini ishlab chiqishni va yaratishni talab etadi.

Kasbga yo'naltirish, kasbni tanlashning aniq bir tor doiralari bilan cheklanmaydi, balki yoshlarni faol mehnat faoliyatiga tayyorlashning uzoq muddatli va tashkillashtirilgan siklini o'z ichiga qamrab oluvchi majmuaviy xususiyatga ega. Shuning uchun olim T.Afanasyevaning ta'kidlashicha, “Kasbga yo'naltirish – bu ishni tanlashning uslubi ham emas, usuli ham emas, vositasi ham emas, kasbga yo'naltirish – bu shaxsni ijtimoiy foydali mehnatga tayyorlash jarayoni, kasbni ongli ravishda tanlash bilan yakunlovchi jarayondir”.

Kasb-hunarga yo'naltirishning asosiy maqsadi – yosh avlodni ongli va mustaqil ravishda kelgusi ta'lim yo'nalishini (akademik litsey yoki kasb-hunar kolleji) tanlashiga yoki shaxsning psixofiziologik xususiyatlari qiziqishi, qobiliyati, moyilliklari va jamiyat-

ning kadrlarga bo'lgan ehtiyojidan kelib chiqqan holda mehnat qilish sohasini tanlashga tayyorlashdan iborat.

Ma'lumki, kasb-hunar kollejarida umumta'lim fanlarini umumkasbiy va maxsus fanlar bilan muayyan uyg'unlikda o'qitish – o'quvchilarning tanlagan kasbga bo'lgan qiziqishini orttirish, umumta'lim fanlarining, ko'rgazmaliligini oshirish, kasbning asosini tashkil qiluvchi, unga bevosita aloqador bo'lgan maxsus fan elementlarini yanada chuqurroq va to'laroq o'rganishga imkoniyat yaratadi.

Bu, o'z navbatida, kasb-hunar kollejarida ta'lim berayotgan pedagog kadrlar va ishlab chiqarish ta'limi ustalari oldiga katta vazifalarni qo'yadi. Integratsiya asosida dars o'tish pedagogdan katta ilmiy-uslubiy salohiyatni, ijodiy izlanishni va bunday darslarni o'tishda katta hajmdagi tayyorgarlik ishlarini amalga oshirishni talab qiladi.

Kasbga yo'naltirishning eng ma'suliyatli qismi kasbiy tanlab olishdir. Uning yordamida o'smiring u yoki bu kasbga loyqligi (yaroqliligi)ni uning umumiy rivojlanishini, kasbiy tayyorgarligini, psixologik va fiziologik ma'lumotini hisobga olgan holdagina aniqlash mumkin.

Yuqori sinf o'quvchilariga har yili qaysi kasb-hunar kollejiga yoki akademik litseyga kirishi uchun ularning kelajakdagi rejalari haqidagi savollar berilgan so'rovnomalarni to'ldirishni taklif etadigan bir qator umumiy o'rta ta'lim maktablarining ish tajribasi foydali hisoblanadi. Bu o'qituvchilarga o'quvchilarning aniq qiziqishlarini, ularning kasbiy moyilliklarini aniqlashga, o'quvchilarning o'zlari uchun esa o'zini tahlil qilishning samarali uslubi hisoblanib, ular o'rtasida turli kasblar to'g'risida jonli munozaralarni, fikrlar almashinuvini vujudga keltiradi.

Buning uchun kasb va ixtisoslik kabi tushunchalarning mohiyatini, faoliyatning mazmuni va xususiyatini diqqat bilan tushunib yetish, yoshlar mehnatining kasbiy belgisini haqiqatan baholashlari kerak.

Yoshlarga bir tomondan shifokor, fizik, geolog kasblarini, ikkinchi tomondan, tokar, frezalovchi, suvoqchi kasblarini tavsiya etib, biz ularning ishlab chiqarish faoliyatining faqat mazmunini emas, balki mehnatning xususiyatini ham tushuntirish bilan birga, ijtimoiy guruhni tanlash imkonini beramiz va kasb-hunar kollejarida ikki va undan ortiq ixtisoslikga ega bo'lishi mumkinligini ham ta'kidlaymiz.

Oliy o'quv yurtida o'qishni xohlovchi kasb-hunar kolleji bitiruvchilarining yarmi bu bilan faqat oliy ma'lumot olish imkonini bog'lashadi. Ular oliy o'quv yurtiga birinchi muvaffaqiyatsiz urinishdan keyin ko'pincha birinchi oliy o'quv yurtidagi ixtisoslikka umuman yaqin bo'lmagan boshqa oliy o'quv yurtiga kirishga harakat qilishadi. Mazkur holda mo'ljal kasb va hatto bilimlar sohasi emas, balki o'quv muassasasi turi, diplomga ega bo'lish istagi hisoblanadi.

Umumta'lim maktablarida va kasb-hunar kollejarida kasbga yo'naltirish ishlarini faollashtirishning yo'llarini jadal izlash ishlari 90-yillarda boshlandi. Bunday ishning eng sezilarli shakllari quyidagilardan iborat:

– avvalo, o'quvchi yoshlar bilan kasbga yo'naltirish markazlarini yaratish, ularning ishini tashkil etish;

– kasbga oid maslahat beruvchilarni, kasbga yo'naltirish bo'yicha mutaxassislarni tayyorlash, o'qituvchilarni, ishlab chiqarish ta'limi ustalarini, murabbiylarni kasbga yo'naltirish ishlari bilan tanishtirish;

– hayotga qadam qo'yayotgan o'smirlar va yoshlar bilan kasbga yo'naltirishning yakka tartibdagi va guruhliy shakllari uchun ilmiy metodik ta'minotni ishlab chiqish va tahlil qilish;

– kasbga yo'naltirish ishlarida ishtirok etuvchi ijtimoiy institutlarning faoliyatini muvofiqlashtirishni va rahbarlik qilishini ta'minlovchi idoralararo kengashlarni tashkil etish.

Tadbirkorlik sohasida kasb tanlash ehtiyojlarini tadqiq qilish davomida biz o'z oldimizga quyidagi vazifalarni qo'ydik:

– yoshlar bilan kasbga yo'naltirish ishlari tajribasini kasb-hunar ta'limi muassasalari o'quvchilari o'rtasida so'rovnomasida asosida o'rganish va tahlil qilish;

– sinovdan o'tgan va o'zi ijobiy tavsiya olgan yoshlar bilan dastavval umumta'lim muassasalarining yuqori sinf o'quvchilari bilan kasbga yo'naltirish ishining turli jihatlarning ilmiy-metodik ta'minotini aniqlash va umumlashtirish.

Kelajakda tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanishni istovchilarning eng katta ulushi tijoratchi, zargar, amalda naqsh bosuvchi rassom ixtisosligini olgan o'rta maxsus kasb-hunar kolleji bitiruvchilariga to'g'ri keladi (63%) va mustaqil faoliyat bilan bog'liq kasb olgan – tikuvchi, EHM operatori, bichuvchi, buxgalter va h.k. (26%) ga to'g'ri keladi.

So'rov natijalari qat'iy xulosalar chiqarishga imkon bermaydi, biroq yoshlarning tadbirkorlik faoliyatiga hayotiy rejalari va niyatlari yo'naltirilganligini ta'kidlashi mumkin.

So'rov natijalari tahlili va umumlashtirish yoshlarni tadbirkorlik faoliyatiga tayyorlashda amalga oshiriladigan bir qator tamoyillarni ajratishga imkon beradi, ya'ni keng ixtisoslikka egaligi, uzluksizligi, aniqligi, integratsiya, tabaqalashtirilgan yondashuv, integratsiya tamoyili, muqobillik, talablarning birligi.

Keng ixtisoslik tamoyili yoshlarning mehnat bozori talablariga, istagan mulk shaklidagi korxonalarda mehnatga tayyor turishga moslashuvchan individual aks ta'siri imkonini ta'minlashni nazarda tutadi.

Uzluksiz tamoyili tadbirkorlik mutaxassislari bo'yicha tayyorgarlikni amalga oshiruvchi ta'lim muassasalari ta'limining barcha bosqichlari o'rtasidagi maqsadli, tashkiliy va mazmunli aloqalarning mavjudligini anglatadi.

Aniqlik tamoyili yoshlarni tadbirkorlik faoliyatining aniq masalalarini hal qilishga tayyorlashga yo'naltirilgan bo'lib, ularning xarakteri hududdagi korxonalarining turli faoliyatiga hamda xodimlar soniga bog'liq.

Integratsiya tamoyili mamlakatni iqtisodiy rivojlantirishning sharti sifatidagi ishlab chiqarish tadbirkorligini birinchi navbatda rivojlantirishga imkon beruvchi, faoliyatning ishlab chiqarish va tadbirkorlik sohalari kasblarining birlashtirishni nazarda tutadi.

Tabaqalashtirilgan yondashuv tamoyili kasb-hunar ta'limining turli bosqichlarida va turli o'quv muassasalarida yoshlarning turli guruhlarini tadbirkorlik mutaxassisliklari bo'yicha o'quv jarayonini tashkil etishda moslashuvchanlikka yo'naltiradi.

Muqobillik tamoyili yoshlarni tadbirkorlik faoliyatiga tayyorlashni tashkil etish va mablag' bilan ta'minlash shakllarini tanlash variantlarining mavjudligini ta'minlaydi.

O'quvchilarning **birligi tamoyili** barcha ijtimoiy sheriklar (davlat boshqaruvi organlari va kasb-hunar ta'limi muassasalari, tadbirkorlar tashkilotlari, kasaba uyushmalari) bilan kelishilgan talablarning yoshlarni tayyorlash natijalarining birligidan iborat.

Bizning tahlilimiz shuni ko'rsatdiki, zamonaviy ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish sharoitlarida aholining kasbga yo'naltirish konsepsiyasini ishlab chiqish, kasbga yo'naltirishni markazlari faoliyatining yagona texnologiyasini yaratish hamda barcha kasbga yo'naltirish xizmatlarini muvofiqlashtirishni talab etadi.

Kasbga yo'naltirishdan asosiy maqsad – yoshlarga ularning shaxsiy qiziqishlari va mehnat bozori ehtiyojlariga muvofiq ish o'rni olishda ko'maklashishdir. Bundan maqsad kasbga yo'naltirishning insonparvarlik xususiyatini aks ettirish, shaxsning

hayotda va mehnatda o'zini rivojlantirish va o'zini namoyon qilishga yordam beradi. Ko'rsatib o'tilgan maqsadga erishishda shaxsning erkin ijtimoiy-kasbiy o'zini belgilash va o'zini namoyon qilish uchun huquqiy, iqtisodiy, tashkiliy kafolatlarni yaratgandagina, uning bozor munosabatlari sharoitida mehnatga moslashishi mumkin.

Kasbga yo'naltirish uzluksiz jarayondan iborat bo'lib, u maktabda o'qitishning ilk bosqichlarida boshlanadi va butun ta'lim jarayoni hamda shaxsning qaror topish mobaynida davom etadi, keyin esa uning butun mehnat faoliyatiga tarqaladi. Shu ma'noda shaxsning qaror topishining turli bosqichlarida mazmun, shakllar va metodlar orqali amalga oshiriladigan kasbga yo'naltirish jarayonining izchilligi to'g'risida gapirish qonuniy bo'ladi.

Bunday tizimli yondashuvning amalga oshirilishi bandlik markazi tomonidan xizmatlarning keng turlarini ko'rsatishni nazarda tutadi: kasbga oid axborot berish, tashxis qo'yish, ruhan qo'llab-quvvatlash, zamonaviy ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatni hisobga olgan holda maslahat berish va tiklab olish mehnat bozoridagi dinamika va yo'nalishlardan iborat.

Hozirgi paytda kasbga yo'naltirishni tashkil etishning mazmuni va uslublarini tahlil qilish uning faoliyatini takomillashtirishning strategik yo'nalishlarini aniqlashda hisobga olish zarur bo'lgan kamchiliklarni bartafar etishga imkon beradi.

Kasbga yo'naltirish va bandlik xizmati faoliyatining asoslarini belgilab beruvchi, hozirgi foydalaniladigan konseptual yondashuvlar uning insonparvarlik mohiyatini yetarli darajada hisobga olmaydi va shu tufayli kasbga yo'naltirish, kasblar asoslariga o'rgatish va ishga joylashishning o'zaro aloqasini nazarda tutuvchi kasbiy o'zini belgilash jarayonining uzluksizligini ta'minlaydi.

Hozirgi bozor iqtisodiyoti sharoitida jamiyatning ijtimoiy buyurtmasi yoshlarni zamonaviy mutaxassisga, uning shaxsiy sifatlariga bo'lgan talablarni qanoatlantirish uchun shaxsning o'zini aktuallashtirishga, o'zini rivojlantirishga, o'zini namoyon qilishga yo'naltirishdan iborat. Avvalo, bu mustaqillik, tashabbuskorlik, kompetentlik, tadbirkorlik, kasbiy harakatchanlikdir. Bu kasbiy ahamiyatga ega sifatlarning yanada jadal rivojlanishi yoshlarning kasbiy o'zini-o'zi belgilash jarayonida yuz beradi, chunki kasbiy tanlash shaxsning rivojlanishini o'quvchilarning qiziqishlarini, moyilliklarini va qobiliyatlarini aniqlash hamda shakllantirish, ularni tadbirkorlik faoliyatining turli sohalarga kiritish yo'li bilan faollashtiradi.

Bugungi yoshlar yangi ijtimoiy-iqtisodiy talablarga yetarli darajada tayyorlanmagan. Bu masalani umumiy o'rta ta'lim muassasasining yolg'iz o'zi hal qila olmaydi. U boshqa ijtimoiy institutlar: oila, jamoatchilik, ta'lim muassasalari, korxonalar va tashkilotlar, tadbirkorlar va boshqalarning yordamiga muhtoj. O'quvchilar kasbiy o'zini belgilashda maktabga ko'mak berish, mehnat, bandlik xizmati organlari uchun ham dolzarbdir. Maktab o'quvchilarini tadbirkorlik sohasida kasb tanlashga tayyorlash, ularning kasbiy o'zini belgilash va ish bilan ta'minlash bo'yicha birgalikdagi faoliyati ilmiy metodik va kadrlar bilan ta'minlash, zamonaviy axborot texnologiyalaridan va kasbiy tashxislashning vositalaridan foydalanishda yaqin o'zaro munosabatda bo'lishini talab etadi.

Tadqiqot davomida o'smirlar, yoshlar, katta yoshdagi aholi bilan o'tkazilgan kasbga yo'naltirish ishining mazmunini, shakllarini va uslublarini tahlil qilish bandlik siyosatining bu muhim sohasini rivojlantirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqishga imkon beradi. Kasbga yo'naltirishning avvalgi tajribasiga asoslanib va uni bandlikning zamonaviy siyosatiga hamda shakllanayotgan mehnat bozoriga tanqidiy qo'llanib,

tadbirkorlik sohasiga kasbga yo'naltirilgan faoliyatning quyidagi tarkibiy turlarini ajratish mumkin:

– kasbga oid axborot aholining turli guruhlarini mehnat bozorining hozirgi holati, ishlab chiqarish, faoliyat, tadbirkorlik turlari (shu jumladan, o'zi band bo'lish), kasblar bozorining rivojlanish istiqbollari, ularni o'zlashtirish imkoniyatlari, kasblarning insonga qo'yadigan talablari, mehnat faoliyati jarayonida kasbiy-malakali o'sish va o'zini mukammallashtirish imkoniyatlari bilan tanishtirish usuli;

– kasbga oid maslahat insonning tadbirkorlik faoliyatiga uning psixologik va fiziologik qobiliyatlarini, shuningdek, mehnat yo'lini tanlash to'g'risida ongli va mustaqil qaror qabul qilish maqsadida haqiqiy ishlab chiqarish ehtiyojlarini hisobga olib, kasbiy o'zini belgilashda ko'mak berish;

– kasbga oid tanlov aniq bir ish o'rnida me'yoriy talablar, mehnatning xususiyati va mazmuniga muvofiq insonning u tanlagan tadbirkorlik faoliyati turiga kasbiy yaroqliligi darajasini aniqlash;

– kasbiy va ijtimoiy moslashish yangi xodimlarga uning kasbiy qaror topishida, unda mazkur tadbirkorlik faoliyati turi uchun zarur bo'lgan ijtimoiy va kasbiy sifatlarning shakllantirishda kasbning yuqori darajasiga erishish maqsadida malakani oshirish bo'yicha tavsiyalarda yordam ko'rsatish.

Bunday yondashuvni hisobga olgan holda tadbirkorlik sohasiga kasbga yo'naltirishni biz shaxsning samarali kasbiy o'zini belgilashi bo'yicha vositalar tizimi sifatida qaraymiz, u esa, o'z navbatida, bilimlar, kasbiy o'sish, kasbni almashtirish, ishchi kuchi malakasi va mehnat bozorining o'zgaruvchan talablariga moslashishni ta'minlovchi bilimlar, ko'nikmalar, malakalar, ega bo'lgan shaxsning o'ziga kasb faoliyati subyekti kabi munosabatini shakllantirish jarayoni sifatida taqdim etilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. *O'zbekiston Respublikasi mashg'ulotlar milliy standart tasniflagichi.* – T., 2000.
2. *Гасыков В.М. Управление профессиональным обучением и подготовкой.* – Женева-Москва, 2000.
3. *Афанасьева Т. Ранняя ориентация или поздний самоанализ?* – М., 1992.
4. *Климов Е.А. Человек и профессия.* – Л., 1984.

Baxtiyor PO‘LATOV,

O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasining

OO‘K katta o‘qituvchisi, yu.f.d., professor

BOLA HUQUQLARI HIMOYASIGA OID XALQARO HUQUQ NORMALARINING MILLIY QONUNCHILIKDAGI IFODASI

Annotatsiya

Ushbu maqolada respublikamizda bola huquqlarini himoya qilishning tamoyillari, shu jumladan, “Ijtimoiy himoyaga muhtoj bolalar” tushunchasi davlat va jamiyat tomonidan himoyalinishi xususida aytib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar. Tarbiya, bola huquqlari, himoya qilish, farzand tarbiyasi, davlat muhofazasi, qonun hujjatlari.

В статье раскрыты принципы защиты детей в нашей республике, в частности определено понятие “Дети, нуждающиеся в социальной защите” и указаны меры, принимаемые со стороны государства и общества.

Ключевые слова. Воспитание, мир ребенка, защита, воспитание детей, государственная опека, законодательные акты.

In the article principles of defense of children are exposed in our republic, the concept “Children needing social defense” and measures, accepted from the state and society, are certain in particular.

Key words. Education, world of child, defense, education of children, state guardianship, act.

Republikamizda bolaning ijtimoiy himoyaga doir huquqlari davlat tomonidan kafolatlangan. Aholini, shu jumladan, bolalarni ijtimoiy himoya qilish davlatning eng asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi. Bunday imkoniyatlar avvalom bor, O‘zbekiston Respublikasining asosiy qonuni – Konstitutsiyada kafolatlangan: voyaga yetmaganlar, mehnatga layoqatsizlar va yolg‘iz keksalarning huquqlari davlat himoyasidadir (45-modda). Konstitutsiyaning 64-moddasida davlat va jamiyat yetim bolalarni va ota-onalarining vasiyigidan mahrum bo‘lgan bolalarni boqish, tarbiyalash va o‘qitishni ta‘minlaydi, bolalarga bag‘ishlangan xayriya faoliyatlarini rag‘batlantiradi, 65-moddasida esa, farzandlar ota-onalarning nasl-nasabidan va fuqarolik holatidan qat‘i nazar, qonun oldida tengdirlar. Onalik va bolalik davlat tomonidan muhofaza qilinadi, deyilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining yuqorida ta‘kidlangan qoidalarida bola huquqlarini himoya qilishning asosiy tamoyillari, shu jumladan, ijtimoiy himoyaga doir huquqlari ham belgilangan. Bugungi kunda mamlakatimizda bola huquqlarini

amalga oshirish va ularni ta'minlashga oid 100 dan ortiq qonunlar va normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilingan.

Bunda 2008-yil 7-yanvarda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining “Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida”gi Qonunining hissasi katta. Mazkur qonunning 3-moddasida “ijtimoiy himoyaga muhtoj bolalar” tushunchasi e'tirof etilgan. Ijtimoiy himoyaga muhtoj bolalar, ya'ni, nogiron, jismoniy va (yoki) ruhiy rivojlanishida nuqsonlari bo'lgan, yetim, ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan, ixtisoslashtirilgan bolalar muassasalarida tarbiyalanayotgan, muayyan yashash joyiga ega bo'lmagan, kam ta'minlangan oilalardagi, jinoiy javobgarlikka tortilgan va jazoni ijro etish muassasalaridagi, zo'ravonlik va ekspluatatsiya, qurolli mojarolar va tabiiy ofatlar natijasida jabrlangan bolalar – yuzaga kelgan holatlar sababli og'ir turmush sharoitida qolgan, davlat va jamiyat tomonidan alohida himoyalashga hamda qo'llab-quvvatlanishga muhtoj bolalar hisoblanadilar.

Mazkur qonunning 5-moddasiga muvofiq ijtimoiy himoyaga muhtoj bolalarni qo'llab-quvvatlash masalalarini hal etish davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining bola huquqlarini ta'minlash bo'yicha faoliyatlarining asosiy yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

2007-yilning 23-yanvarida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori bilan aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlariga ijtimoiy yordam ko'rsatish bo'yicha davlat va jamiyat faoliyatining yo'nalishlari belgilandi. Shu yilning o'zida Hukumat tomonidan, 2011-yilgacha amalga oshiriladigan O'zbekiston Respublikasi aholisining farovonligini oshirish Strategiyasi qabul qilindi. Uning asosida aholining zaif guruhlarini ijtimoiy himoyalash bo'yicha ham choralar amalga oshirildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007-yil 19-martdagi “Aholini ijtimoiy himoya qilish tizimini yanada takomillashtirish va mustahkamlashga oid chora-tadbirlar to'g'risida”gi Farmonida oilalarga ko'rsatilayotgan moddiy yordamning aniq yo'naltirilishini ta'minlash, boqimandalikka yo'l qo'ymaslik va ajratilgan mablag'lardan maqsadli foydalanishni monitoring qilishga e'tibor qaratildi.

Hozirgi kunda Respublikamizda qonunchilik asosida fuqarolarni ijtimoiy ta'minlashning turlari aniq belgilangan:

- kasalligi bo'yicha nafaqalar;
- homiladorlik va tug'ish bo'yicha nafaqalar;
- ishlamaydigan onalarga bola ikki yoshga yetgunga qadar uni parvarish qilganligi uchun oylik nafaqa;
- yoshga doir pensiya, nogironlik, boquvchisini yo'qotganlik pensiyalari;
- ishlab chiqarishda jarohatlanganda yoki kasb kasalligiga uchraganda zararni qoplash;

- ishsizlik bo'yicha nafaqalar;
- bolali oilalarga nafaqalar va kam ta'minlangan oilalarga moddiy yordam.

Ta'kidlab o'tish joizki, fuqarolarning ijtimoiy ta'minot olish huquqlarini kafolatlashni kuchaytirish maqsadida O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksida (175-2-modda) byudjetdan moliyalanadigan muassasalar va tashkilotlarga ish haqi, nafaqalar, stipendiyalar va ularga tenglashtirilgan boshqa xarajatlar to'lovi uchun pul mablag'lari berish banklarning rahbarlari va boshqa mansabdor shaxslari tomonidan asossiz ravishda kechiktirilganligi uchun javobgarlik belgilangan.

“Fuqarolarning davlat pensiya ta’minoti to’g’risida”gi Qonunga muvofiq bolalarga boquvchisini yo’qotganlik pensiyasini to’lash tizimi shakllangan bo’lib, unga ko’ra, farzandlarga pensiya, ular boquvchisining qaramog’ida turgan-turmaganidan qat’i nazar tayinlanadi. Bunda, boquvchisini yo’qotganlik pensiyasini olish huquqini farzandlikka olingan bolalar bilan, o’gay o’g’il va o’gay qizlar ham saqlab qoladilar.

O’zbekiston Respublikasi tomonidan 2009-yil 27-fevral imzolangan “Nogironlar huquqlari to’g’risidagi Konvensiya” qoidalari talablariga muvofiq ravishda “O’zbekiston Respublikasida nogironlarni ijtimoiy himoya qilish to’g’risida”gi Qonunga ko’ra:

– nogiron bolalar kattalar kabi texnika vositalari va boshqa vositalar, tibbiy, kasbiy, ijtimoiy reabilitatsiya va maishiy xizmat ko’rsatish, transport xizmati ko’rsatish, dori-darmonlar bilan ta’minlanadi;

– nogironlarga va oila a’zolaridan biri nogiron bo’lgan oilalarga uy-joy berish, uy-joy sotib olish, qurish va ulardan foydalanish yuzasidan yengilliklar O’zbekiston Respublikasining Uy-joy to’g’risidagi kodeksida belgilab berilgan. Ota-onasi yo’q nogiron bolalar voyaga yetganlaridan so’ng mustaqil hayot kechirishlari uchun navbatdan tashqari turar-joy bilan ta’minlanadilar;

– bola ikki yoshga yetgunga qadar haqiqatda uni parvarish qilgan shaxslarga bolani parvarish qilish nafaqasi tayinlanadi va fuqarolarning o’zini o’zi boshqarish organlari tomonidan to’lanadi;

– ota-onasining qarovsiz qolgan va to’liq davlat ta’minotida bo’lgan bolalar uchun bolalar shoxobchalari, oilaviy bolalar uylari, bolalar internatlari, bolalar tibbiy muassasalalarining ta’minoti va moddiy-texnika ta’minlanishi davlat byudjeti mablag’lari hisobidan amalga oshiriladi.

Mehribonlik uyi to’g’risidagi Nizomga binoan, mehribonlik uylari tarbiyalanuvchilarining ta’limi va ta’minoti to’liq davlat ta’minoti asosida amalga oshiriladi. Mehribonlik uylari tarbiyalanuvchilari oziq-ovqat, kiyim-bosh, poyabzal, yumshoq jihozlar bilan ta’minlanadilar. Bundan tashqari, Mehribonlik uylari tarbiyalanuvchilari kinoteatr, ko’rgazma, muzey, sport inshootlariga bepul kirishga hamda jamoat transportlaridan, shu jumladan metropolitendan (taksilardan tashqari) bepul foydalanishga haqli.

Shuningdek, qonunchilik hujjatlari o’rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalarida ta’lim olayotgan yetim bolalar va ota-ona qarovsiz qolgan bolalarning ta’minotini ko’zda tutgan. Ularning shaxsiy xarajatlari uchun hamda oziq-ovqat, kiyim-bosh, poyabzal va shaxsiy gigiyena vositalari uchun pul mablag’lari to’lanishi belgilangan.

Bolalarning ijtimoiy himoyaga doir huquqlariga zamonaviy vaziyat bilan tanishish ijtimoiy himoyaga muhtoj bolalarni ijtimoiy qo’llab-quvvatlash bo’yicha davlat va jamiyat tomonidan kompleks chora-tadbirlar qabul qilinayotganini, bu masalani tartibga soluvchi bir qator normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilinayotganini ko’rsatmoqda.

Shular jumlasidan, O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2004-yil 7-sentyabridagi 419-sonli qarori bilan Respublika bolalar ijtimoiy moslashuv markazi tashkil etilib, uning vazifasi himoyaga muhtoj bolalarga ijtimoiy yordamni ta’minlashda milliy institutlar faoliyatini uyg’unlashtirishdan iborat bo’lib, markaz faoliyatining asosiy yo’nalishlari sifatida:

– ijtimoiy himoyaga muhtoj guruhdagi bolalar (nogironlar, psixologik-jismoniy rivojlanishida nuqsoni bo’lgan bolalar, og’ir surunkali kasalliklar bilan azoblanadigan, yetim bolalar va ota-ona yoki ularning o’rnini bosuvchi shaxslar qaramog’isiz qolgan

bolalar, notinch oilalar bolalari, tarbiya koloniyalari va ixtisoslashtirilgan o'quv-tarbiya muassasalarida bo'lgan ijtimoiy-huquqiy xatar guruhidagi bolalar) muammosini chuqur o'rganish;

– aniqlangan muammolarni hal qilish yuzasidan maqsadli majmuaviy dasturlarni ishlab chiqish va ularning yuzaga kelish xavfini pasaytirish;

– davlat dasturlari va maqsadli guruhlariga taalluqli jamoatchilik loyihalarini bajarish monitoringi, shuningdek, bu tadbirlarni amalga oshirish samaradorligini ko'tarish bo'yicha takliflarni ishlab chiqish;

– bolalarning alohida nochor guruhlarini qo'llab-quvvatlash va ijtimoiy moslashtirish sohasida mahalliy va rivojlangan xorijiy davlatlar tajribasini o'rganish hamda umumlashtirish, bolalarning ijtimoiy moslashuvi masalalari bilan shug'ullanuvchi davlat va nodavlat muassasalarining amaliy faoliyatida ulardan foydalanish yuzasidan takliflar ishlab chiqish;

– maqsadli guruhdagi bolalar bilan ishlovchi mutaxassislarni tayyorlash va qayta tayyorlash tizimini o'rganish, zamonaviy talablar va standartlarni hisobga olgan holda ularning samaradorligini oshirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish;

– bolalarning ijtimoiy moslashuvi masalalari bo'yicha o'quv-uslubiy qo'llanmalar sifatini tahlil qilish va ularni takomillashtirish yuzasidan takliflar ishlab chiqish belgilangan¹.

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida “Oila” bobi alohida ajratilgan bo'lib (63-66-moddalar), unda oila davlat muhofazasida bo'lgan jamiyatning asosiy bo'g'ini, deb e'tirof etilgan.

Uning muhimligini inobatga olib “Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida”gi Qonunining 12-moddasi farzand tarbiyalayotgan oilalarni qo'llab-quvvatlash majburiyatini yuklagan.

Unda shunday deyilgan: “Davlat bolalarni tarbiyalayotgan oilalarni qo'llab-quvvatlashni kafolatlaydi, shuningdek qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ularga ijimoiy yordam ko'rsatilishini ta'minlaydi”.

Davlatning ijtimoiy vazifasini huquqiy jihatdan ta'minlashda Mehnat, Oila, Uy-joy kodeklari, O'zbekiston Respublikasining “Fuqarolar sog'lig'ini saqlash to'g'risida”gi, “O'zbekiston Respublikasida nogironlarni ijtimoiy himoya qilish to'g'risida”gi, “Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida”gi, “Mehnatni muhofaza qilish to'g'risida”gi, “Ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalar va kasb kasalliklaridan majburiy davlat ijtimoiy sug'urtasi to'g'risida”gi va boshqa qonunlari xizmat qiladi.

2010-yil 2-avgustda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 164-sonli “Yetim bolalar va ota-onalar qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni tura rjolar bilan ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida”gi Qarori qabul qilindi. Ushbu Qaror bilan tasdiqlangan Nizomda yetim bolalar va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni turarjoy bilan ta'minlashda viloyat va shahar ma'muriyati majburiyati batafsil ko'rsatilgan. Bu hujjatda, xususan, o'zlariga biriktirilgan turarjoyga ega bo'lmagan va turarjoyga muhtojlar sifatida hisobda turgan yetim bolalar, ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalar, ular toifasiga kiradigan 18 yoshdan 23 yoshgacha bo'lgan

¹ Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi milliy markazi. Bola huquqlari monitoringi. O'quv-uslubiy qo'llanma, 2011-yil, 97-99 betlar.

shaxslar turarjoy olish huquqiga egaligi e'tirof etilgan. Yetim bolalarga va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarga turarjoylar Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari tomonidan maqsadli kommunal uy-joy fondidagi uylardan yoki vaqtincha foydalanilmayotgan, davlat mulki bo'lgan yotoq-xonalardagi, uy-joylardagi hamda ko'p qavatli uylardagi bo'sh turgan xonadon beriladi.

Tumanlar (shaharlar) hokimliklari bo'sh turarjoy bo'lmaganda yetim bolalar va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarga ijtimoiy normadan kam bo'lmagan uy-joy maydoni bo'lgan turarjoyni sotib olish uchun O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjetidan ajratiladigan mablag'lar yoki tegishli hokimliklarning byudjetdan tashqari mablag'lari hisobidan qonun hujjatlarida belgilangan tartibda maqsadli byudjet transferti beradilar. Ushbu Nizomga muvofiq beriladigan, shu jumladan, maqsadli byudjet transfertlari hisobiga sotib olinadigan turarjoylar xususiyashtirilmaydi. Yetim bolalar va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarga turarjoy olish huquqi bir marta beriladi.

O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2009-yil 5-fevralda 1898-son bilan ro'yxatga olingan Xalq ta'limi vazirligi va Moliya vazirligining 2008-yil 31-dekabrda 46, 121-sonli qarori bilan tasdiqlangan "Ota-onalar tomonidan bolalarning musiqa va san'at maktablarida o'qishi uchun haq to'lash va undan foydalanish tartibi to'g'risida"gi Nizomga ko'ra, ushbu muassasalarga qatnayotgan yetim bolalar va ota-ona qarovisiz qolgan bolalardan to'lov olinmaydi.

Jismoniy tarbiya-sog'lomlashtirish va sport inshootlariga nisbatan ham xuddi shunday vaziyat mavjud. Yetim bolalar tomonidan ushbu muassasalarga bepul qatnash O'zbekiston Respublikasi Madaniyat va sport ishlari vazirining 2006-yil 10-fevraldagi 84-son buyrug'i bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasining jismoniy tarbiya-sog'lomlashtirish va sport inshootlari to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi Nizomda kafolatlangan.

Harbiy akademik litseylarga o'qishga topshirayotgan yetim bolalar ustunlikka egadirlar. Umumiy reyting o'tish ballari teng bo'lib qolgan taqdirda yetim bolalar harbiy akademik litseyga imtiyozli kirish huquqiga ega bo'ladi².

Yetim bolalar tibbiy xizmat olishda ham imtiyozlarga ega. Xususan, "Viloyat ko'p tarmoqli tibbiyot markazi to'g'risida"gi Nizomga ko'ra davlat byudjeti mablag'lari hisobidan tibbiy yordam ko'rsatiladigan imtiyozga ega bo'lgan shaxslar qatorida yetim bolalar ham ko'rsatilgan³.

Vazirlar Makamasining 2007-yil 29-noyabrdagi 247-sonli Qarorida o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarida o'qiyotgan hamda to'liq davlat ta'minotida bo'lgan yetim va ota-onasining qarovisiz qolgan bolalarni moddiy ta'minlash normalari tasdiqlangan. Ushbu hujjatda ovqat, kiyim-bosh, poyabzal va boshqa buyumlar, shuningdek shaxsiy gigiyena buyumlari bilan ta'minlash normalari batafsil tartibga solingan. Shuningdek, ushbu hujjatda to'liq davlat ta'minotida bo'lgan yetim va ota-onasining qarovisiz qolgan bolalarga ularning shaxsiy xarajatlari uchun har oyda eng kam oylik ish haqining ikki baravari miqdorida pul mablag'lari to'lovi belgilangan.

² O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2004-yil 7-sentabridagi 419-sonli qarori.

³ O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2010-yil 1- fevraldagi 21-sonli qaroriga 1-ilova, "Harbiy akademik litsey to'g'risida" Nizom.

Respublikada bolalarning ijtimoiy huquqlari himoyasiga doir ulkan ishlar amalga oshirilayotgan bo'lsa-da, amaliyot bu borada bir qator huquqiy, tashkiliy va iqtisodiy muammolar ham mavjudligini ko'rsatmoqda. Ularning sabab va sharoitlarini o'rganish dolzarb masala hisoblanadi.

Qonunchilik hujjatlarida e'tirof etilgan bolalarni ijtimoiy himoya qilishning turli shakllari haqida ota-ona va bolalarning xabardorlik darajasi past, ushbu masala bo'yicha normativ-huquqiy hujjatlardan yetarli darajada foydalanish imkoni birmuncha cheklangan, ayniqsa, qishloq joylarda. Joylarda nashrli matbuot materiallarini aholiga yetkazish, ularni mamlakatimizda aholini, shu jumladan, bolalarni ijtimoiy himoya qilishga doir davlat siyosatidan xabardor qilish masalalariga e'tibor kuchaytirilishi lozim. Bolalarga ijtimoiy yordam ko'rsatish masalalari bilan shug'ullanuvchi mansabdor shaxslarning huquqiy madaniyatini oshirish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi.

Bolalarni ijtimoiy himoya qilish tizimida faoliyat olib borayotgan davlat organlari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, korxonalar, muassasalar va tashkilotlarning faoliyatini nazorat va monitoring qilish mutassaddi tashkilotlar tomonidan muntazam ravishda olib borilishi lozim.

Qonunchilik hujjatlarini tahlil qilayotganda bolaning ijtimoiy himoyaga doir huquqlarini ta'minlash bilan bog'liq davlat organlari va mansabdor shaxslarning majburiyatlariga ham e'tibor kuchaytirilishi lozim.

2014-yil “Sog'lom bola yili” deb e'lon qilinishi va shu munosabat bilan Davlat dasturining, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2014-yil 6-fevraldagi qarori bilan O'zbekiston Respublikasida 2014-yilda yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirishga qaratilgan qo'shimcha chora-tadbirlar dasturining tasdiqlanishi bu borada amalga oshirilayotgan islohotlarning davomi bo'lib, demokratik davlat qurish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish jarayonlarida yoshlarning faolligini oshirish, yuksak ma'naviyatli, mustaqil fikrlovchi, keng dunyoqarash va chuqur bilimlarga ega bo'lgan vatanparvar yoshlarni tarbiyalash, ularni qo'llab-quvvatlash, bolalarning sog'lig'ini saqlash, ijtimoiy himoyalash, yoshlarni ish bilan ta'minlash, ular o'rtasida sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish jinoyatchilik hamda huquqbuzarliklarning oldini olish borasida samarali ishlar amalga oshirilib kelinmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 23 yilligiga bag'ishlangan tantanali majlisda I.A.Karimov tomonidan 2016-yilni mamlakatimizda Sog'lom ona va bola yili, deb e'lon qilinishi va shu munosabat bilan davlat dasturini ishlab chiqishda, avvalo, yurtimizda oila, onalik va bolalikni himoya qilish bo'yicha shakllangan huquqiy-me'yoriy bazani takomillashtirish, ijtimoiy, maishiy, tibbiy nuqtayi nazardan zarur sharoitlarni yaratish, sog'lom avlodni voyaga yetkazish borasida bolalarimiz o'rtasida jismoniy tarbiya va sportni yanada keng ommalashtirish, yurtimizda qiz bolalarning – bo'lg'usi onalarning ham jismoniy, ham ma'naviy sog'lom bo'lib voyaga yetishi, ularning o'rta maktabdan so'ng litsey va kollejlarda albatta ta'lim olishini ta'minlash, zamonaviy bilim va kasb-hunarlarni egallashi bugungi kunda davlat siyosati darajasiga ko'tarilgani, kollej bitiruvchilarini, birinchi navbatda, qizlarimizni ish bilan ta'minlash, aholi o'rtasida tibbiy madaniyatni oshirish, sanitariya-gigiyena sohasidagi ishlarni yanada kuchaytirish, homilador ayollarni asrab-avaylash, yosh onalar va bolalarni talab darajasida parvarish qilish, ularning ovqat ratsioni, uning sifati va kaloriya-

sig'a jiddiy e'tibor berish masalalari qayd qilindi^{4,5}. Davlat dasturi va uning bajarilishi bola huquqlari kafolati, shu jumladan, imkoniyati cheklangan bolalarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish borasida ijobiy samara beradi.

Mamlakatimiz Prezidenti "Farzandlarimiz, kelajak avlodlar bizdan bu o'lkani, shu muqaddas zaminni yana ham boy, kuchli va qudratli holatda qabul qilib olishlari uchun, biz buyuk ajdodlarimizga nisbatan qanday minnatdorchilik tuyg'ularini his etayotgan bo'lsak, o'g'il-qizlarimiz, kelajak avlodlar ham bizga nisbatan shunday minnatdorchilik tuyg'ularini his etishlari uchun lozim bo'lgan hamma ishni qilish – bizning fuqarolik burchimizdir⁵" degan fikrlari yuqoridagi masalalarni hal qilishda hammamizga dasturil-amal bo'lib xizmat qilishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Kadrlar tayyorlash Milliy Dasturi. – T., 2001, "Oliy ta'lim vazirligi me'yoriy hujjatlar to'plami", –20 b.

2. Qodirov R.X. O'zbekiston Respublikasi prokuratura organlari faoliyatini tashkil qilishga oid normativ-huquqiy hujjatlar va Bosh prokurorning buyruqlari to'plami. So'z boshi. – T., 2006, – 3-bet.

3. Karimov I.A. O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining 15 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqi. – T., "Xalq so'zi" gazetasi, 2006, 2-sentabr.

4. Qodirov R.X. Konstitutsiya va qonunlar ustunligi – taraqqiyot kafolati. – T., / Qonun himoyasida, 2004, 12(108), – 1 b.

5. Karimov I.A. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi. – T.: "O'zbekiston", 2010. 15-15, 27-betlar.

6. Astonov S. Voyaga yetmaganlar huquqlari doimiy nazoratda. – T., / "HUQUQ" gazetasi, 2015-yil 12-fevral, 6 (943)-son.

7. Qodirov R.X. Konstitutsiya – inson manfaatlari, huquq va erkinliklarini himoya qilishning huquqiy asosi. – T., / "HUQUQ" gazetasi, 2015-yil 8-yanvar, 1 (938)-son.

8. Karimov I.A. Asosiy maqsadimiz – yurtimizda erkin va obod, farovon hayot barpo etish yo'lini qat'iyat bilan davom ettirishdir. O'zR Prezidenti I.A.Karimovning O'zR Konstitutsiyasi qabul qilinganining 15-yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruzasi. – T.: "O'zbekiston", – 2007. – 44 b.

9. Karimov I.A. Xavfsizlik va barqaror taraqqiyot yo'lida. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari, – T.: "O'zbekiston", 1997.

⁴ O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2008-yil 18-martdagi 48-son qaroriga ilova.

⁵ Karimov I.A. Asosiy vazifamiz – jamiyatimizni isloh etish va demokratlashtirish, mamlakatimizni modernizatsiya qilish jarayonlarini yangi bosqichga ko'tarishdan iborat. – T.: "Inson va qonun", 2015-yil 6-dekabr, 48(992)-son.

Sherzod KARIMOV,

A.Avloniy nomidagi XTXQTMOMI instituti katta o'qituvchisi,

Zafar AMIROV,

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi

Davlat boshqaruvi akademiyasi katta ilmiy xodim-izlanuvchisi

YOSH AVLODNI SOG'LOM VA BARKAMOL ETIB TARBIYALASHDA HUQUQIY HUJJATLARNING AHAMIYATI

Annotatsiya

Maqolada mamlakatimizda har tomonlama yetuk, sog'lom va barkamol avlod tarbiyalash borasida amalga oshirilgan ishlar, bu borada qonunlar va qonunosti hujjatlarining ahamiyati to'g'risida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar. Sog'lom bola, sog'lom avlod, konvensiya, qonunlar, qonunosti hujjatlar, bola huquqi, dispanser kuzatuv.

В статье освещены работы, проводимые в нашей республики по воспитанию гармонично развитого, здорового поколения, раскрыто значение законов и правительственных постановлений по данному вопросу.

Ключевые слова. Здоровый ребёнок, здоровое поколение, конвенция, законы, правительственное постановление, право ребёнка, диспансеризация.

The article highlights the work carried out in our Republic on education of harmoniously developed and healthy generation; reveal the importance of laws and government decisions on this issue.

Key words. Healthy child, a healthy generation, the Convention, the right of the child, medical examinations.

Har qaysi inson farzandining baxtini, kamolini o'ylab, hamisha ezgu orzu-intilishlar bilan yashaydi, o'z zurriyodining har tomonlama sog'lom va barkamol bo'lishini istaydi. Sog'lom bola, sog'lom avlod orzusi ajdodlarimizdan bizga o'tib kelayotgan, qon-qonimizga singib ketgan azaliy intilishdir. Agar ota-bobolarimizning turmush va tafakkur tarziga nazar solsak, ular insonning nasl-nasabiga, yetti pushtining tozaligi, avlodning sog'lig'iga juda katta e'tibor berganini ko'ramiz.

Farzand inson hayotining mazmuni, nasl-nasabini davom ettiruvchisi, oilaning mustahkam zanjiridir. Prezidentimiz Islom Karimov ta'kidlaganlaridek, “Odamzod dunyoda juda ko'p kasbu hunarning egasi bo'lishi mumkin. Quruvchi, dehqon, bog'bon, shoir, olim bo'lib nom qozonish, mol-mulk, boylik orttirish mumkin. Lekin Alloh taolo insonga ato etgan eng katta boylik, eng ulug' burch borki, uni dunyodagi hech bir narsa bilan qiyoslab bo'lmaydi. Bu – farzand ko'rib, ota bo'lish, ona bo'lish baxtidir”¹.

¹ Karimov I.A. Bizdan ozod va obod vatan qolsin. – T.: “O'zbekiston”, 1993. – 208 b.

Ota-onaning vazifasi farzandini dunyoga keltirishdangina iborat degan fikrga borish to'g'ri emas. Ular o'z farzandini aqlli, esli-hushli, jismonan sog'lom, diyonatli, e'tiqodli, jamiyat va millatga foydasi tegadigan insonlar qilib tarbiyalash haqida qayg'urishlari ham farz, ham qarz.

Muhammad ibn Muhammad Jomiy aytadi: "Har bir ota-onaning farzand oldida burchi bor. Avvalo bolaga yaxshi va chiroyli ism qo'ysin. Unga ilmu ma'rifat o'rgatsin". Buning naqadar to'g'ri ekanligini biz o'z misolimizda ko'rib kelayapmiz.

Yevropaga nur aynan Sharq zaminidan, ajdodlarimiz yaratgan ma'rifiy javohirlardan taralganligi bugun ko'pchilikka ma'lum. Bugun biz Ibn Sino, Amir Temur, Alisher Navoiy, Mirzo Ulug'bek, Jaloliddin Manguberdi, Zahiriddin Muhammad Bobur singari buyuk ajdodlarimizning bebaho ma'naviy meroslaridan haqli ravishda faxrlanamiz va o'z navbatida, ularga munosib vorislar bo'lishga intilamiz. Ularning navqironlik chog'laridagi hayotlari biz uchun ibrat ekanligi muhim ahamiyat kasb etadi.

Yosh avlodga nisbatan e'tibor va g'amxo'rlik mustaqillikning ilk kunlaridan boshlab mamlakatimizda davlat siyosatining eng muhim, ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib kelmoqda. Buning sababi, yosh avlod – kelajagimiz poydevori, xalqimiz boshlagan ulug' ishlarning, vatan taraqqiyoti, yurt tinchligi, el faravonligi, demokratik jamiyat qurish kabi yuksak orzu-maqсадlarning davomchisidir. Shu jihatdan ham Prezidentimiz tashabbusi bilan 1998-yil Oila yili, 1999-yil Ayollar yili, 2000-yil Sog'lom avlod yili, 2001-yil Onalar va bolalar yili, 2005-yil Sihat salomatlik yili, 2008-yil Yoshlar yili, 2010-yil Barkamol avlod yili va 2014-yil Sog'lom bola yili hamda 2016-yil Sog'lom ona va bola yili deb nomlanishining o'zi O'zbekistonda onalarga va yosh avlodga nisbatan e'tiborning doimo yuqori darajada bo'lganligidan dalolat beradi.

Mamlakatimizda jismoniy sog'lom, ma'naviy yetuk, har tomonlama uyg'un va barkamol rivojlangan, mustaqil fikrlaydigan, intellektual salohiyatga, chuqur bilim va zamonaviy dunyoqarashga ega yosh avlodni tarbiyalab voyaga yetkazishning kafolati sifatida bir qator normativ-huquqiy hujjatlar va davlat dasturlari qabul qilingan bo'lib, ularda bola huquqlarini ta'minlashda davlat organlari va nodavlat notijorat tashkilotlari hamkorligini, bola huquqlarini himoya qilish sohasida faoliyatni amalga oshiruvchi xalqaro tashkilotlar hamkorligini, bola huquqlarini ta'minlashda fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari va nodavlat notijorat tashkilotlarining ishtirokini rivojlantirish va bola huquqlarini ta'minlash bo'yicha davlat organlari faoliyatini muvofiqlashtirish va nazorat qilish kabi masalalarga ham alohida e'tibor qaratilgan.

Xususan, "Bola huquqlari to'g'risida"gi Konvensiya (O'zbekiston mazkur Konvensiyaga O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining 1992-yil 9-dekabrda Qaroriga muvofiq qo'shilgan, O'zbekiston Respublikasi uchun 1994-yil 29-iyuldan kuchga kirgan) talablaridan kelib chiqib, yurtimizda bola huquqlarini himoyalashga qaratilgan islohotlar quyidagi yo'nalishlarda olib borilmoqda:

- bola huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta'minlash;
- bola hayoti va sog'lig'ini muhofaza qilish;
- bolaning kamsitilishiga yo'l qo'ymaslik;
- bolaning sha'ni va qadr-qimmatini himoya qilish;
- bolalar huquqlari va imkoniyatlarining tengligini ta'minlash.

Konvensiyada ta'kidlanishicha, g'amxo'rlik va himoya bu – muruvvat masalasi emas, balki huquqdir. Konvensiya kuchga kirishi bilan, u bolalar uchun asosiy ijtimoiy va huquqiy mezonlar, tartib va qoidalar qat'iy belgilangan majmuaga aylandi.

Konvensiyada ilk bor bola tushunchasi ochib berildi, bolaning huquq va erkinlik doirasi kengaytirildi. Hujjatda shafqatsiz qiynoq va qurolli to'qnashuvlar qurboni bo'lgan, shuningdek, qonunni buzgan va muomalaga layoqatsiz bolalarning yuridik himoyasi ham nazarda tutilgan. Bundan tashqari, unda bolalarni ba'zi bir salbiy hodisalar (giyohvandlik va ruhiy ta'sir etuvchi moddalarni noqonuniy iste'mol qilish, bolalarni sotish va g'ayriqonuniy maqsadlarga jalb etib, ulardan foydalanish)dan himoya qilish masalalari ham alohida qayd qilingan. Bola yoki o'smir huquqlarini himoya qilishda kamsitmaslik tamoyili e'tirof etilgan.

Mazkur xalqaro hujjat 54 moddani o'z ichiga olgan. Bola huquqlari to'g'risidagi Konvensiyani ratifikatsiya qilgan yoki unga qo'shilgan har bir mamlakat o'z milliy qonunchiligini uning qoidalariga muvofiq qayta ko'rib chiqishi lozimligi belgilangan. Shuning uchun O'zbekistonda ham bola huquqlarini himoya qilish tizimi bir qancha yo'nalishlarda amalga oshirilmogda. Jumladan, mamlakatimizda bola huquqlariga oid milliy qonunchilikni takomillashtirish, uni huquqiy tartibga solish bo'yicha 2008-yil 7-yanvarda qabul qilingan «Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida»gi Qonun bu borada tarixiy hujjat bo'ldi.

Mazkur Qonunning 8-moddasida: “Yashash huquqi har bir bolaning uzviy huquqidir. Bola hayotiga suiqasd qilish eng og'ir jinoyatdir”, deb belgilangan.

Qolaversa, Qonunning 22-moddasida sog'lom bolaning tug'ilishi va rivojlantirishini ta'minlash uchun davlat tomonidan barcha sharoit yaratilishi, qonun hujjatlariga muvofiq hajmda ularga bepul tibbiy yordam kafolatlanishi ko'rsatilgan. Bundan tashqari, bolaning sog'lig'ini saqlash huquqi davlat tomonidan quyidagi yo'llar bilan ta'minlanishi belgilangan:

- malakali tibbiy xizmat ko'rsatishni tashkil qilish;
- bolaning, uning ota-onasining salomatligini nazorat qilish va bolalar kasalliklari profilaktikasini amalga oshirish;
- bolalar va o'smirlarni davolash-profilaktika muassasalarida dispanser kuzatuvini olib borish hamda davolash;
- talab darajasidagi sifatga ega bo'lgan oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishi va sotilishini nazorat qilish;
- bolaning fiziologik xususiyatlari va sog'lig'i holatiga javob beradigan ta'lim olish hamda mehnat qilish sharoitlarini yaratish;
- kasbga yaroqlilikni aniqlashda O'zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti mablag'lari hisobidan bepul tibbiy maslahat berish;
- sanitariya-gigiena ta'limini berish, sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish va rag'batlantirish;
- sog'lig'ining holati to'g'risida bola uchun qulay bo'lgan tarzda zarur axborotni taqdim etish.

O'n to'rt yoshdan katta yoshdagi bola ma'lumotlarni bilgan holda tibbiy aralashuvga ixtiyoriy ravishda rozilik berish yoki uni rad etish huquqiga ega.

Bola bilan uning hayotiga, sog'lig'i va normal rivojlanishiga ziyon yetkazuvchi har qanday ilmiy tajriba yoki boshqa tajribalar o'tkazish taqiqlanadi.

Davlat maxsus cheklovlarni joriy etish va maxsus profilaktika dasturlarini amalga oshirish orqali bolani alkogolga moyillikdan, chekishdan, giyohvandlik vositalarini, psixotrop moddalar va intellektual-irodaviy faoliyatga ta'sir ko'rsatadigan boshqa moddalarni iste'mol qilishdan himoya qilish bo'yicha zarur choralarni ko'radi deb, qat'iy belgilab qo'yilgan.

Bundan tashqari, 2011-yil 5-oktyabrda O'zbekiston Respublikasining "Alkogol va tamaki mahsulotlarining tarqatilishi hamda iste'mol qilinishini cheklash to'g'risida"gi Qonunining qabul qilinishi sog'lom avlodni shakllantirishda, ularni bolalik davridan boshlab salomatlikka putur yetkazadigan zararli odatlardan himoya qilishda muhim omil bo'ldi. Mazkur qonunning 13-moddasida Alkogol va tamaki mahsulotlarini realizatsiya qilishga doir cheklashlar belgilab qo'yilgan bo'lib, unga ko'ra, alkogol va tamaki mahsulotlarini yigirma yoshga to'lmagan shaxslarga, ta'lim, sport muassasalari va diniy muassasalardan besh yuz metrdan kam radiusda joylashgan savdo ob'ektlari tomonidan ular texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlariga, qonun hujjatlarida belgilangan boshqa talablarga muvofiq bo'lmasa, realizatsiya qilish mumkin emas.

Sog'lom bolani voyaga yetkazishda ta'lim-tarbiya va sportning o'rni muhim ahamiyat kasb etadi. Respublikamizda Bolalar sportini rivojlantirish jamg'armasi tomonidan 2015-yil davomida 226 ta umumta'lim muassasalarining sport zallari, musiqa va san'at maktablari hamda bolalar va o'smirlar sport maktablari obyektlari yangidan qurildi, rekonstruksiya qilindi va kapital ta'mirlandi.

Shu bilan birga, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2014-yil 19-fevraldagi "Sog'lom bola yili Davlat dasturi to'g'risida"gi PQ-2133-son qarorida ham sog'lom bolaning dunyoga kelishi masalasiga sog'lom va ahil oilaning mevasi sifatida qaralib, oilada o'zaro hurmat va mehr-muhabbat, yuksak axloqiy va ma'naviy qadriyatlar muhitini shakllantirish, yosh oilalarning oyoqqa turib olishi uchun moddiy yordam ko'rsatish, onalik va bolalik himoyasini ta'minlash, ona va bolaning salomatligini mustahkamlash, ayollarning o'z qobiliyat va imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishi, ularning ro'zg'or tashvishlarini yengillashtirish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish, sog'lom bolani voyaga yetkazishda, patologiyalarsiz bolalar tug'ilishida sog'liqni saqlash tizimi va tibbiyot xodimlarining roli va mas'uliyatini oshirish, sog'liqni saqlash tizimining moddiy-texnika bazasini va kadrlar salohiyatini yanada mustahkamlash, aholining tibbiy madaniyatini oshirish bo'yicha keng ko'lamli axborot-tushuntirish ishlarini muntazam olib borish kabi vazifalar amalga oshirilishi belgilangan bo'lib, mazkur dastur ijrosi yuzasidan respublikamizning barcha hududlarida qizg'in ishlar olib borildi.

Darhaqiqat, "Bugun O'zbekistonning deyarli barcha viloyatlarida ona va bola perinatal hamda skrining markazlari faoliyat ko'rsatmoqda. Qishloq joylarda barcha homilador ayollar davlat byudjeti mablag'lari hisobidan sog'lom naslni shakllantirish uchun zarur polivitaminlar bilan ta'minlanmoqda. 2000-yildan buyon mamlakatimiz irsiy va tug'ma nuqsonli bolalar tug'ilishi 1,7 barobardan ziyod kamaydi"².

O'zbekiston 2011-yilda "Bolalarni asraylik" xalqaro tashkiloti tomonidan tuzilgan 161 mamlakatdan iborat jahon reytingida o'sib kelayotgan yosh avlod sa-

² Karimov I.A. Bizning yo'limiz – demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va modernizatsiya jarayonlarini izchil davom ettirish yo'lidir. – T.: "O'zbekiston", 2012. – 30-31-b.

lomatligi haqida eng ko'p g'amxo'rlik ko'rsatilayotgan davlatlar orasida 9-o'rinni egallagan.

Bundan tashqari, 12news.uz saytida keltirilishicha, Gallup World tadqiqot tashkiloti tomonidan tayyorlangan ma'lumotga ko'ra, O'zbekiston dunyoning baxtli mamlakatlari orasida birinchi 30 talikda bo'lib, ushbu tashkilot tomonidan o'tkazilgan Ijobiy taassurot indeksida esa 138 ta mamlakat orasida 29-o'rinni egallagan hamda bu ko'rsatkich O'zbekistonning MDH mamlakatlari o'rtasida birinchi o'rinda, qolaversa, Frantsiya, Finlyandiya, Italiya, Buyuk Britaniya va Yaponiya kabi dunyoning rivojlangan mamlakatlardan yuqoriroq o'rinni egallab turishi ko'rsatilgan.

Qolaversa, mamlakatimizda onalar o'limi darajasi 2 baravardan ko'proq, bolalar o'limi 3 baravar kamayganligi fikrimizning yaqqol isbotidir.

Muxtasar aytganda, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan barcha islohotlar zamirida inson salomatligini asrash, unga munosib sharoit yaratish va g'amxo'rlik ko'rsatish, inson hayoti va uning qadr-qimmatini ulug'lash yotganligi namoyon bo'ladi. Yoshlarimiz esa bunday imkoniyatlardan foydalangan holda intellektual salohiyatini namoyon etib, jismoniy barkamolligini oshkor etib, jahon sport maydonlarida, xalqaro fan olimpiadalarida hamda madaniyat va san'at olamida chinakam olamshumul yutuqlarga erishishlari lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov I.A. *“Bizdan ozod va obod vatan qolsin”*. – T.: “O'zbekiston”, 1993. – 208 b.
2. Karimov I.A. *“Bizning yo'limiz – demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va modernizatsiya jarayonlarini izchil davom ettirish yo'lidir”*. – T.: “O'zbekiston”, 2012. – 30-31-b
3. Karimov I.A. *“Demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini shakllantirish – mamlakatimiz taraqqiyotining asosiy mezonidir”*. – T.: “O'zbekiston”, 2011. – 18 b.

Raximaxon BOYMIRZAYEVA,
Namangan VXTXQTMOI o'qituvchisi
Zamira RASULOVA,
Namangan VXTXQTMOI katta o'qituvchisi

TA'LIM MUASSASALARIDA HUQUQIY BILIM BERISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Annotatsiya

Ushbu maqolada huquqiy bilim berishning maktabgacha ta'lim, umumiy o'rta ta'lim va malaka oshirish tizimidagi o'rni ochib berilgan. Shuningdek, ushbu ta'lim turlarida tinglovchiga huquqiy bilim berishdan ko'zlangan maqsad va e'tibor qaratish lozim bo'lgan jihatlar ko'rsatib o'tilgan.

Kalit so'zlar. Huquqiy bilim, huquqiy ta'lim, huquqiy tarbiya, huquqiy ong, huquqiy madaniyat, maktabgacha ta'lim, umumiy o'rta ta'lim maktabi va malaka oshirish tizimi.

В статье рассматривается место и роль обучения правовым знаниям в системе дошкольного, общего среднего образования, а также в системе повышения квалификации. Подчёркнута необходимость обучения правовым знаниям во всех типах образовательных учреждений.

Ключевые слова. Правовое обучение, правовое образование, правовое воспитание, правовое сознание, правовая культура, общеобразовательная школа, система повышения квалификации.

The article is focused on legal training in the pre-school and secondary education systems as well as in teacher training.

Key words. Legal training, legal education, legal training, legal intellect, legal culture, pre-school education, secondary school, training system.

Huquqiy demokratik davlat qurish va jamiyat taraqqiyotining rivoji o'sib kelayotgan avlodning ta'lim va tarbiya darajasiga bog'liq. Bunga erishish uchun esa, avvalo, jamiyat a'zolarining siyosiy, ijtimoiy, huquqiy saviyasini yuksaltirish, qolaversa, har bir fuqaro o'z haq-huquqlarini yaxshi bilishi zarur. Shu bois fuqarolarning huquqiy madaniyati, ongi va bilimlarini yanada oshirish davlatimizning asosiy vazifalardan biri bo'lib kelmoqda.

Bugungi kunda bu borada yoshlar bilan ishlash masalasi alohida e'tiborni talab qiladi. Binobarin, asosiy maqsad – yoshlarning huquq, erkinliklari va manfaatlarini himoya qilish ularning zamonaviy bilim va kasbga ega bo'lishlari, bugungi tahlikali zamonda mavjud bo'lgan har qanday xatarlarga, zararli ta'sir va oqimlarga nisbatan ogoh, sergak va hushyor bo'lib yashashi, jamiyat hayotida munosib o'rin egallashini ta'minlashdan iborat.

Huquqiy davlat qurishning asosiy sharti jamiyatdagi har bir kishining huquqiy jihatdan bilimi, tarbiyasi, ongi, huquqiy madaniyatini shakllantirishni ko'zda tutadi. Qonunlarga itoat etadigan, huquqiy tartibotni qo'llab-quvvatlaydigan insonlarni jamiyatga yetishtirib berishda huquqiy ta'lim-tarbiyaning roli katta. Ushbu fan yoshlarning huquqiy bilimini oshirishga va olgan bilimlarni kasbiy faoliyatlarida qo'llash yo'llarini o'rgatishga qaratilgan.

Har bir huquqiy bilim beruvchi ustoz o'z oldiga aniq maqsad qo'yishi lozim. Huquqiy bilimning asosiy maqsadi shaxsda, guruh shaxslarida huquqiy tushunchani shakllantirish va shu asosda huquqiy tarbiyaga erishishdir.

O'qituvchi huquqiy bilim berishda boshqa fanlar bilan bog'lanish, ayniqsa, huquqiy tarbiyaga e'tibor berishga qaratilgan manbalardan, qo'llanmalardan, ko'rgazmali qurollardan, qonunlar va boshqa huquqiy hujjatlardan foydalanish uslublarini bilishi va amalda qo'llay olishi lozim. Bu quyidagilarda o'z ifodasini topadi:

- huquqni o'qitish bo'yicha uzoq yillik tajriba, huquqshunos olimlarning fikr-mulohazalarini inobatga olish;

- qonunchilikka rioya qilish, inson huquqlari va erkinliklarini hurmat qilish, jamiyatda huquqiy tartibotni saqlash, axloq-odob qoidalariga bo'ysunish kabi muhim masalalarni bilishi;

- muqaddas qadriyatlarining jamiyatda qaror topishida huquq fanlarini o'qitishning ahamiyati alohidaligini bilishi;

- huquqiy bilim olish jarayonida tinglovchilar qonunlarni bilishga, ulardan foydalanishga, hayotga tatbiq etishga erishishlari, o'z huquq va erkinliklarini mukammal bilib, qonunga rioya qilish majburiyatini o'rganish yuzasidan ko'nikmalarga ega bo'lishi kerak.

Huquqiy bilim bilan bog'liq tarbiyada shaxslar huquqbuzarlik sodir etmasliklari, qonun doirasida ish tutishlari, o'zlarini va boshqa shaxslarni hurmat qilishlari, davlat, jamiyat va oilada o'rnatilgan tartib-qoidalarni buzmasliklari lozim. Bu maqsadni amalga oshirishda eng birinchi o'rinni huquqiy bilim beruvchi shaxs egallaydi. Fanning va o'qituvchining vazifasi ham shundadir.

Huquqiy bilim mukammal holatda maxsus o'quv muassasalarida beriladi, u yerda mutaxassis huquqshunoslar tayyorlanadi. Boshqa ta'limda esa, umumiy huquqiy bilim beriladi. Masalan, maktab o'quvchisiga jinoiy ish yuritish asoslarini o'rgatish shart emas. Lekin u mehnat huquqidan, oila huquqidan va boshqa huquq sohaslaridan o'ziga tegishli huquqiy ma'lumotlarni olishi mumkin.

Huquqiy bilim olgan shaxs o'z bilimini hayotda amaliyotda ishlata bilishi, tatbiq eta olishi kerak. Masalan, bunday shaxs inson va fuqarolarning huquq va erkinliklari, burchlari bo'yicha o'rganganlaridan hayotda foydalana olishi, qonun asosida o'zini himoya qila olishi lozim.

Shaxs mehnat huquqidan olgan bilimi asosida o'z mehnat faoliyatini huquqiy tartib doirasida bajaradi va o'zgalardan, ish beruvchidan o'zining huquqlarini himoya qiladi. Ariza, dalolatnoma, talabnoma va boshqa ma'lumotlarni yozishni o'rgangani tufayli hayotda qiynalmasdan ish tutadi.

Fikrimizcha, xalq ta'limi xodimlarini malakasini oshirish tizimida huquqiy bilim berish uchun tinglovchilarga quyidagilar o'rgatilishi lozim:

- birinchidan, bilim berilish jarayoni davlat va huquq asoslari bilan bog'langan bo'lishi kerak;

- ikkinchidan, olingan bilimni hayotga tatbiq etish mahorati o'rgatiladi;

- uchinchidan, shaxs doim o'z ustida ishlashi, izlanishi, biror natijaga ega bo'lishga harakat qilishi kerak;

- to'rtinchidan, davlat va jamiyat hayotiga o'zini daxldor deb bilish xislatini shakllantirish;

- beshinchidan, tinglovchi amaldagi qonunlar va qonunosti hujjatlari haqida bilimga ega bo'lishi;

- oltinchidan, tinglovchi olgan huquqiy bilimlariga rioya qilgan holda jamiyatda huquqiy madaniyatni rivojlantirish hissa qo'shishi kerak.

Shuningdek, dars jarayonida tinglovchilar: davlat, uning boshqarilishini; huquqiy munosabatlar va ularning kelib chiqish asoslarini; huquqbuzarlik turlarini; huquqiy

javobgarlik va boshqa bir qancha huquqiy ma'lumotlarni o'zlashtirishlari lozim.

Olingan huquqiy bilimlar shaxsga o'z ilmiy yoki ijodiy izlanishlarida ham yordam beradi. Buning uchun tinglovchi o'z ustida ishlashi, qo'shimcha manbalar, adabiyotlardan foydalanishi kerak.

Tinglovchilar orasidan davlat, jamiyat hayoti bilan qiziquvchilar, rahbarlik fazilatiga ega shaxslar ham aniqlanadi. Ular davlat va huquq nazariyasi, mavjud qonunlar, ularning yaratilishi bilan alohida qiziqadi. Ularni to'g'ri yo'lga solish uchun o'qituvchilarning avvalambor o'zi yaxshi huquqiy bilimga ega, qonun yangiliklari bilan tanishgan bo'lishi kerak. Agar o'qituvchining ma'lumoti u yoki bu huquq sohasi bo'yicha to'liq bo'lmasa, tinglovchiga maxsus manbalardan foydalanish yoki mutaxassislar bilan uchrashuviga yordam berishi lozim. Ana shundaygina jamiyatimizda haqiqiy bilimdon, o'z kasbini sevadigan, uning huquqiy asoslarini biladigan mutaxassislar malakalarini oshiradilar.

Huquqiy tarbiya o'z mazmuni va mohiyatiga ko'ra, keng va tor ma'nodagi shakllarga bo'linadi. Keng ma'nodagi tarbiya deganda butun jamoaga, ko'pchilikka ta'sir ko'rsatishga qaratilgan tarbiya tushuniladi. Tor ma'nodagi tarbiya alohida shaxsga, uning ongiga ta'sir etish yo'lidir. Huquqiy tarbiya natijasida keng xalq ommasi va shaxs o'z xatti-harakatlari ahamiyatini tushunsa va huquq me'yorlariga ongli ravishda rioya etsa, maqsadga erishgan hisoblanadi.

Huquqiy tarbiya muntazam olib boriladigan va aniq maqsadni ko'zlangan hamda shaxsga ta'sir eta oladigan huquqiy ong, bilim va qonunlarga rioya etish xislatlari yoki fazilatlarini to'plamidir. Fuqarolarda huquqiy ong va madaniyatning shakllanishi natijasida qonunchilikni mustahkamlash, huquq me'yorlarini hurmat qilish, ularni bilishga imkoniyat bo'ladi. Ma'lumki, qonunga rioya qilish uchun, eng avvalo, uni bilish talab etiladi. Fuqarolar orasida o'z xatti-harakatlarini noqonuniyligini o'ylamaslik va bunday harakatni jazoga loyiq emas deb tushunish holatlari uchrab turadi. Bunga yo'l qo'yimaslik uchun avvalo ularda, qonun me'yorlariga itoat etish hissini uyg'otib, intizomiy, ma'muriy va hatto jinoiy jazo kelib chiqishi sabablari tushuntirilishi shart.

Ayniqsa, bu masalani yoshlar o'rtasida keng targ'ib etish zarur. Chunki jamiyatimizdagi har bir bola o'zining inson – eng ulug' zot ekanligini, boshqa tirik mavjudodlardan nima bilan ajralib turishini bolaligidan his qilishi kerak.

Xususan, maktabgacha ta'lim muassasalarida huquqiy ta'lim-tarbiyani amalga oshirish jarayonida bolalarning yosh xususiyatlari hisobga olinadi. Huquqiy qoidalarni bayon qilib berishda o'yin usullaridan foydalaniladi. Bolalarga ilk huquqiy tushunchalarni berish natijasida ularning yoshiga mos qonun-qoidalarga rioya qilish ko'nikmasi shakllanadi va mashg'ulotlar tufayli ijobiy natijalarga erishiladi. Huquqiy ta'lim mashg'ulot tarzida o'tkazilsa, ya'ni tevarak-atrof, tabiat bilan tanishish, badiiy adabiyot, odobnoma mashg'ulotlari mujassamlashtirilib, har bir yo'nalishni bir-biriga moslab, uzviy ravishda olib borilsa, ijobiy samara beradi.

Maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalarning huquqiy ongini shakllantirish va rivojlantirishda bir qator huquqiy hujjatlardan unumli foydalanish zarur. Birlashgan Millatlar Tashkilotining 1989-yil 20-noyabrda qabul qilingan "Bola huquqlari to'g'risida"gi Konvensiyasi, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, 2008-yil 7-yanvarda qabul qilingan "Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining mazmunini bolalarga mos ravishda turli animatsion, rasmiy va tasvirli ko'rinishlarda tayyorlash, ularning yoshlarini inobatga olgan holda ma'lumot berish orqali ko'zlangan maqsadga erishish mumkin.

Boshlang'ich ta'limda bolaning yoshi e'tiborga olingan holda huquqiy ta'lim-tarbiya fanlar tarkibida olib boriladi. Har bir sinfda 10 soatdan vaqt ajratilib, o'qituvchi "Ona tili", "Atrofimizdagi olam", "Odobnoma", "O'qish", "Tabiatshunoslik" darslarida o'tiladigan

mavzular bilan bog'lab, huquqiy tushunchalar berib boradi. Bola ilk huquqiy atamalarining ma'nosini anglay boshlaydi.

Beshinchi sinfdan boshlab yettinchi sinfgacha har bir sinfdan 17 soatdan dars soati ajratilib, bolaning qabul qilish layoqati, yoshi, fanlarning murakkablashib borishi hisobga olingan holda huquqiy bilim ham chuqurroq o'rgatiladi. Masalan, bu sinflardagi o'quvchilar: huquq tushunchasini; inson va fuqarolarning huquqiy holati asoslarini; mustaqillik, davlat ramzlari tushunchasini; mulk huquqi, fuqarolik huquqiy munosabatlar asoslarini; inson huquqi, bola huquqi; qonun va o'smir; huquqbuzarlik tushunchalarini va boshqa huquqiy bilimlarni o'rganadi.

Yuqori sinflarda huquqiy ma'lumotlar berilganda har bir mavzu bo'yicha o'qituvchi darslik, o'quv qo'llanmalardan tashqari, qo'shimcha huquqiy hujjatlardan foydalanib, ma'ruza matnini yangiliklar bilan to'ldirib borishi lozim. Maxsus dasturga binoan 5-7 sinflarda 17 soatdan, 8-9 sinflarda 34 soatdan bir o'quv yiliga dars ajratilib, haftasiga bir soat dars o'tiladi.

O'qituvchi “Huquqshunoslik” darslarini huquqiy tarbiya bilan bog'lab olib borishi kerak. Masalan, birinchi darsda huquqshunoslik fanining maqsad, vazifasi bayon etiladi. Shuningdek, mustaqillik, mustaqil davlat tushunchasini, unda shaxsning o'rni, mustaqillik ulug' ne'mat deganda nima tushunilishini ham aytib o'tishi maqsadga muvofiqdir.

Yuqorida ko'rsatilgan masalalardan kelib chiqqan holda o'qituvchi darsga kirishdan oldin mavzu bo'yicha maxsus huquqiy hujjatlar bilan tanishib, dars matnini tayyorlab, tinglovchilardan tushgan savollarga javob berish darajasida tayyorgarlik ko'rish lozim. Agar u yoki bu savolga javob berishga qiynalsa, o'qituvchi tinglovchilarga kelgusi darsda bu savolga javob berishini aytishi mumkin. Tegishli qonun hujjatlar yoki adabiyotlardan foydalanib, har bir javobsiz qolgan savol kelgusi darsda tushuntiriladi.

Huquqiy bilimlarni olgan shaxsning oldidagi muhim vazifa – olingan bilimlarni hayotga tatbiq etishdir. Bu shaxsning hayotida uchragan huquqiy muammolarning yechimini topishi demakdir. Huquqiy bilimga, ma'lumotlarga ega bo'lgan shaxs huquqiy munosabatlarga kirishganda harakatlarini qonun asosida amalga oshirishga o'rganadi va maqsadiga erishadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov I.A. *“Biz kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz”*. – T., 1999.
2. Karimov I. A. *“Kamolot” yoshlarimizning chinakam suyanchi va tayanchi bo'lsin*. 2006.
3. Karimov I.A. *“Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch”*. – T.: 2008.
4. Karimov I.A. *“O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida”*. – T.: “O'zbekiston”, 2011.
5. *O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi*. –T.: “O'zbekiston”, 2014.
6. *“Bola huquqlari to'g'risida” gi Konvensiya.1989-yil 20-noyabr*.
7. *“Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni. 2008-yil 7-yanvar*.
8. *Uzviylashtirilgan Davlat ta'lim standarti va o'quv dasturi. Tarix. Davlat va huquq asoslari. Iqtisodiy bilim asoslari. “Milliy istiqloq g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar” (1-9 sinflar) – T., 2012*.
9. *Davlat va huquq asoslari. 8-sinflar uchun darslik*, – T., 2014.
10. Islomov Z.M. *Davlat va huquqning umumnazariy muammolari: huquqni tushunish, huquqiy ong va huquq ijodkorligi*. – T.: TDYuI, 2005. –187 b.

Faxriddin XALILOV,

Nizomiy nomidagi TDPU, professori, p.f.d.

MUSIQA DARSLARIDA O'QUVCHILARNING MUSIQIY TAASSUROTINI KENGAYTIRISH XUSUSIYATLARI

Annotatsiya

Maqolada musiqa ta'limining o'ziga xos xususiyatlari haqida malumotlar berilgan. Shuningdek, muallif musiqa tinglash – o'quvchilarning musiqiy taassurotini boyitish, tasavvurini kengaytirish, tinglash qobiliyatini o'stirish va musiqiy didini tarbiyalash bo'yicha o'z tavsiyalarini berib o'tgan.

Kalit so'zlar. Ijodkorlik, musiqa san'ati, badiiy vositalar, musiqa madaniyati, musiqa asarlari, qadriyat.

В статье приведены сведения об особенностях музыкального образования. Автором даны рекомендации по обогащению музыкальных представлений слушателей, развитию их способностей и музыкального вкуса.

Ключевые слова. Творчество, искусство музыки. художественные средства, музыкальная культура, музыкальные произведения, ценности искусства.

This article is dedicated to the issue of Uzbek music education, which gives them historical characteristics which are actual nowadays.

Key words. Creative, artistic media, ideology, music culture, music pieces, musical instruments, culture values.

Musiqa darsi boshqa darslardan o'zining badiiyligi, qiziqarliligi va bolalarga ko'proq ijodiy zavq, emotsional tuyg'ular va obrazli kechinmalar uyg'otishi bilan ajralib turadi. Musiqa darslari quyidagi spetsifik xususiyatlari bilan boshqa darslardan farq qiladi:

1. Musiqa nazariyasi va ijrochiligiga doir turli faoliyatlardan: vokal-xor mashg'ulotlari, musiqa savodi, musiqa tinglash, bolalar cholg'u asbobida chalish, ritmik harakatlar bajarish elementlaridan iboratdir.

2. Musiqa boshqa san'at turlaridan o'zining ifoda vositalari, ya'ni "tili" bilan farq qiladi. Agar badiiy adabiyot so'zi bilan, tasviriy san'at ranglar bilan, raqs san'ati harakat bilan ifodalansa, musiqa esa musiqiy tovushlarda vujudga kelgan ohang vositasida ifodalanadi. Yuqoridagi san'at turlarini ko'rish va eshitish orqali idrok etilsa, musiqani faqatgina diqqat bilan tinglabgina ifoda etiladi. Ko'zi ojiz kishilardan ham yetuk musiqachilar yetishib chiqqani buning isbotidir.

3. Musiqa aniq vaqt o'lchovi bilan bog'langan san'atdir. Shuning uchun ijro etilayotgan musiqa tempiga sozlanib, uning har bir elementini diqqat bilan tinglamasa, asarni

mukammal idrok etib bo'lmaydi. Mumtoz asarni qayta-qayta tinglanganda uning yangi-yangi badiiy qirralari his etiladi.

4. Musiqa bolalarga faol emotsional ta'sir ko'rsatib, ularni quvontiradi hamda ijodiy kechinmalar uyg'otadi. Yaxshi, mazmunli, qiziqarli musiqa darsidan bolalar hordiq chiqarib, badiiy ozuqa oladilar. Xullas, musiqa darsi o'zining psixologik ta'siri bilan boshqa fanlardan farq qiladi. Shuningdek, musiqa darsi boshqa fanlar bilan ham chambarchas bog'liq bo'lib, tasviriy san'at, adabiyot, ona tili, matematika, tarix, pedagogika, psixologiya, vokal, ritmika bilan hamkorlik qiladi. Bular musiqa darsini hayot bilan bog'lashga, mazmunli, qiziqarli qilib olib borishga yordam beradi. Musiqa darsi o'zining aralash dars tipi bilan ham boshqa fanlardan farq qiladi.

Musiqa darsining 3 asosiy faoliyat turi quyidagilar:

- musiqa tinglash;
- musiqa savodi;
- xor bo'lib qo'shiq kuylash.

O'rta sinflarda musiqa darsi 3 ta asosiy yo'nalishda tuziladi:

- xor bo'lib kuylash;
- musiqa savodi;
- musiqa tinglash.

Boshlang'ich sinflarda esa dars faoliyat 5 ta bo'ladi:

1. Xor bo'lib kuylash.
2. Musiqa savodi.
3. Musiqa tinglash.
4. Musiqaga mos harakatlarni bajarish.
5. Bolalar cholg'u asboblariida jo'r bo'lish.

Xorda kuylash – musiqaviy tarbiyaning jamoa faoliyati sifatida o'qituvchining bevosita ishtiroki bilan amalga oshiriladi. Xorda kuylash murakkab psixologik va fiziologik jarayon bo'lib, bunda bosh miyadagi asab hujayralari ham faol ishga tushadi. Qo'shiq kuylash davomida o'quvchilarda ijobiy his tuyg'ularning faolligini ta'minlaydi hamda o'quvchilarning samarali ishlashiga sharoit yaratadi.

O'qituvchi sinf imkoniyatlarini hisobga olgan holda yil davomida o'rgatish uchun 10-12 ta qo'shiq tanlaydi va ularning vokal-ijrochilik darajasi va badiiy mazmuni maktab hayotiga mosligini inobatga olib, ularni ma'lum bir tartibga soladi.

O'quvchilarning quyi sinflarda olgan vokal-xor malakalari takomillashadi, bu malakalar ashulaning to'g'ri va ta'sirli aytilishini taminlaydi. Bolalar ovoziining yaxshilanishiga va parvarish qilinishiga yordam beradi.

Ashula aytish malakalari, ovoziining asosiy elementlari: nafasni rejaga solish, tovush hosil qilish, diktsiya, soz, ansambl dasturida har qaysi o'quv yili uchun alohida beriladi.

Ta'lim jarayonida bu elementlarning hammasi bir-biriga uzviy bog'lanib boradi.

Umumiy o'rta ta'lim maktabi musiqa darslari tarkibidagi musiqa savodi o'zining musiqa haqidagi kompleks bilimlar doirasidan iboratligi bilan farq qiladi. Ashula aytish jarayonida o'rganiladigan nota savodi elementlari bilan birga musiqa savodi turkumiga musiqa janrlari, ularning shakl va tuzilishlari, ifoda vositalari, xalq va kompozitorlik musiqasining mohiyati haqidagi tushunchalar, ijrochilik turlari, cholg'u asboblari va ularning tovush tembrlari va boshqalar kiradi. Musiqa ta'lim va tarbiya jarayonida mazkur bilimlar majmuasi asosida o'quvchilarning musiqa savodxonligi tarkib topishi lozim. Bu musiqa madaniyatining asosiy tarkibiy qismi hisoblanadi.

Musiqaning tinglash – o‘quvchilarning musiqiy taassurotini boyitish, tasavvurini kengaytirish, tinglash qobiliyatini o‘stirish va musiqiy didini tarbiyalashda katta rol o‘ynaydi. Darsning bu faoliyat turida o‘quvchilar musiqaga o‘qituvchisi ijrosida, elektrofon, magnitofon yordamida eng nodir musiqaga asarlarining namunali ijrosini tinglaydilar. Xor, orkestr, ansambl va yakkanavozlar ijrosida turli janrdagi klassik asarlar bilan tanishadilar. Musiqaning san‘at sifatida tasvirlash qudratini, tabiat va hayot go‘zalligini voqelik va xatti-harakatlardagi betakror, ko‘z ilg‘amas qirralarini musiqiy ohangdagi rang-barang bo‘yoqlarda idrok etadilar. Kuylar o‘quvchilarning xotirasida chuqur o‘rnashib qolishi uchun bu kuylarning ohanglarini o‘quvchilar bilan kuylab ko‘rish tavsiya etiladi. Ayniqsa, asar musiqaga asbobi ijrosida tinglanib, so‘ng kuylab ko‘rish orqali qayta mustahkamlanadi. Asarlarni yaxshi esda qoldirish uchun kamida 2-3 marta eshittirish, har gal kuyning yangi-yangi dinamik qirralari bilan o‘quvchilarni tanishtirib borish lozim. Kuylarni tinglash bilan o‘quvchilar musiqaning turli janrlari marsh, qo‘shiq va raqs haqida batafsil tushunchaga ega bo‘ladilar. Darsning har uch asosiy qismi alohida ajralib qolmasligi, aksincha, ular bir-biri bilan uzviy bog‘liq holda darsning mazmuni bir butun bo‘lishini ta‘minlashi lozim. O‘quvchilarning ijrochilik mahoratini takomillashtirish va ularning o‘zaro uyg‘un kuylashini mustahkamlashda ba‘zan ularni sinf sahnasiga chiqarib kuylatish samara beradi. Qo‘shiq o‘rganib bo‘linganch, haftada yoki chorak oxirida o‘quvchilar “Sinf kontserti” beradilar. Sahnaga chiqish, sinfdoshlari orasida o‘z o‘rnini topib turish, kuylaganda bir-birlarini his qilish va o‘z joyiga borib o‘tirish kabi sahna madaniyatiga qat‘iy amal qila borish o‘quvchilarning o‘zaro munosabatlariga va xulqiga ham ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi. “Sahnada” kuylash o‘quvchilarning qo‘shiqni qay darajada o‘rganib olganligini aniqlash, asarning ayrim jumlarini “Pishitib” olish va qo‘shiqni tantanali sharoitda namoyish qilish imkoniyatini beradi. “Sinf kontserti” o‘quvchilar uchun cheksiz quvonch baxsh etuvchi mashg‘ulotga aylanadi.

Musiqaga ta‘lim-tarbiyasining maqsadi yosh avlodni milliy musiqaga merosimizga kira oladigan hamda umumbashariy musiqiy qadriyatlarni idrok eta oladigan madaniyatli inson darajasida voyaga yetkazishdan iboratdir. Buning uchun har bir o‘quvchining musiqiy iqtidorini rivojlantirib, musiqaga san‘atiga mehr-ishtiyoqini oshirish, musiqadan bilim va amaliy malakalar doiralarini tarkib toptirish, iqtidorli o‘quvchilarni musiqiy rivojlanishlari uchun zaruriy shart-sharoitlar yaratib berish, maktabning musiqaga ta‘lim-tarbiyasining asosiy vazifasidir. Mazkur oliy maqsad va vazifalarni amalga oshirishda musiqaga faniga jamiyatni madaniy-axloqiy rivojlantiruvchi omil sifatida qarash, predmet muammolarini hal etishda keng o‘qituvchilar ijodkorligiga tayanish, musiqaga o‘qitish uslubiyotini ilg‘or tajribalar va kompleks ilmiy-metodik izlanishlar natijasi asosida takomillashtirish talab etiladi.

Musiqiy ta‘lim jarayoni dars va sinfdan tashqari musiqiy mashg‘ulotlar tarzida amalga oshiriladi. O‘qitishning asosiy va barcha o‘quvchilar uchun zaruriy shakli musiqaga darslaridir. Shu bois dars tuzilishlari va o‘qitish usullarining xilma-xil shakl va turini qo‘llash hamda tajriba jarayonida darsning yangi usul va tuzilmalarini kashf etish dolzarb masala bo‘lib turadi. Bundan ko‘proq Sharq va milliy musiqaga ta‘limshunosligini o‘rganishi va undan unumli foydalanish muhimdir.

Hozirda musiqiy ta‘limning ilmiylik prinsipi, o‘quvchilar imkoniyatlari va yosh xususiyatlarini hisobga olish prinsipi, ko‘rgazmalilik, ta‘limda muntazamlilik va davomiylik, ta‘limning hayot bilan bog‘liqligi, ta‘lim jarayonida o‘quvchilarning faolligi va ongliligi, ta‘lim va tarbiyaning tarbiyaviy xarakteri kabi ko‘pgina prinsiplari mavjud. Musiqaga

darslari pedagogikaning didaktik nazariyasi va prinsiplari, ta'lim amaliyotining umumlashma nazariyasi asosida tuziladi.

Mazkur prinsiplar asosan, o'quv materialini qo'llash, musiqa darsi mazmunini va dars tizimidagi asosiy talablar va uning yo'nalishlarini belgilab beradi va bir necha turga bo'linadi:

- musiqa darslarida bilim va malakalarining mustahkamligi;
- ta'lim va tarbiyaning ilmiylik tizimlilik va davomiyligi;
- darsda o'quvchilarning ongliligi va faolligi;
- musiqa darslarida ko'rgazmalilik usullaridan foydalanish.

O'quv materiallarining bolalar bilim-malakalariga va yosh xususiyatlariga mosligi dars rejasini tuzish jarayonida qo'llanadi. Ta'lim mazmunini o'quvchilarni haqqoniy ilmiy dalillar, tushunchalar, qonuniyatlar, nazariyalar bilan tanishtirishni nazarda tutadi. Buning uchun o'quv mazmuniga faqat ilmiy asoslangan, tajribada tasdiqlangan, o'quv musiqa fani va musiqa fanining mazmuni orasidagi qonuniy aloqalarga asoslangan ilmiylik prinsipini qo'llash lozim. Nazariy bilimlarning amaldagi qo'llanilishi, amaliy bilimlar bilan bog'liqligi har bir o'qituvchining axborotida sezilib turishi kerak. Musiqa fani bo'yicha yangiliklar doimo izohlanib borilishi lozim. Bevosita dars davomida ilmiylik prinsipi faqat ilmiy axborotni berish bilan chegaralanmaydi. Axborot, ilmiy qaydnomalarning qayerdan kelib chiqqanligi, sabab, natijalarning tahliliiy, tarixiylik prinsipini qo'llash ham ilmiylik prinsipini ta'minlaydi. Dars jarayonida o'quv materiallarining bolalarning bilim tajribasiga mosligi, bolalar ovozining rivojlanish qonuniyatlarini hisobga olish, nota qonuniyatlarini to'g'ri o'rgatish, asarlarni bolalarning fikriy qobiliyatiga mos ravishda tahlil etish darsning ilmiylik prinsiplarini tashkil etadi. Boshlang'ich sinflarda kichik bolalar tafakkuriga xos va ko'proq o'yin bilan bog'liq bo'lgan kichik qo'shiqlar, kuy va pyesalarni o'rgatadilar. O'rta sinflarda esa o'quvchilar hayotiy tajribalari bo'yigan, aniq fanlarni o'rganish jarayonida ilmiy dunyoqarashlari tarkib topayotgan davr bilan farq qiladi. Shunga muvofiq o'rganiladigan asarlar ham janr, hajm va badiiy mazmun jihatidan tobora jiddiylashib borishi tizimlilik prinsipi deyiladi.

Musiqa darslari xorda kuylash, musiqa savodi, musiqa tinglash kabi asosiy musiqiy faoliyatlarni o'z ichiga oladi. Darsning asosiy faoliyat turlarini darsning mantiqiy yaxlitligidan ajratmagan holda quyidagilarga e'tibor beriladi. Bu esa darsdagi barcha musiqiy faoliyatlar jarayonida uzluksiz amalga oshirilib, darsning har bir faoliyati o'z navbatida borishi davomiylik prinsipidir.

Musiqiy ta'limda onglilik va faollik prinsipini amalga oshirish ham bilish jarayonining psixologik asoslariga to'la-to'kis tayanadi. Tartib va qoidalar yaxshi o'zlashtirilsada, ayrim hollarda shu bilimlarni bevosita qo'llash jarayonida o'quvchilar qiynalishi mumkin. Ba'zan ular oddiy masalalarni yecha olmay qolishadi. O'quvchilar olgan bilimlarini amaliy hayotda foydalana olishlari uchun ta'lim berish jarayonini fikrlash jarayoniga aylantirish kerak. Buning uchun bolaning o'quv materiallarini ongli ravishda bilib o'zlashtirishi bilish jarayonini faolligini vujudga keltirishi lozim. Ma'lum musiqa asarini kuylab yoki tinglab o'zlashtirish va undan badiiy estetik, zavqlanib, idrok etishda, bolaning eng avvalo, diqqat, e'tiborini jalb eta bilish-unda qiziqish uyg'ota bilish onglilik va faollikni, vujudga keltiradi. Musiqani onglik idrok etish, o'z navbatida, badiiy ohang va mantiqiy jihatdan xotirada turg'un saqlanishni talab etadi. Musiqa darsida onglilik va faollik, ayniqsa, vokal-xor malakalarini shakllantirilishi uchun zarurdir. Xor bo'lib qo'shiq kuylash, musiqa tinglash, musiqa savodi faoliyatlarida ham onglili va faollik musiqani nazariy va amaliy jihatlarini to'g'ri bilish va o'zlashtirishni osonlashtiradi.

Musiqiy ta'limda, ko'rgazmalilik prinsipiga amal qilish o'quv-tarbiya jarayoni-ning asosini tashkil etadi. Ta'lim va tarbiyada ko'rgazmalilikdan foydalanish haqida Abu Nasr Forobiy ko'pgina ibratli so'zlarni aytib qoldirgan. Forobiyning fikriga ko'ra, o'quvchilarni, shogirdlarni uch toifaga bo'lish mumkin:

Birinchi toifa – o'quv materialini o'zlari mustaqil o'rgana olishadi.

Ikkinchi toifadagilarni majburlab, zo'rlab o'qitish kerak, deydi.

Uchinchi toifadagi talabalarga ta'lim berishda ko'rgazmalilikdan foydalanib, o'quv mehnatini jadallashtirish va bir qancha osonlashtirish imkoniyati tug'iladi. Ko'rgazmalilik prinsipiga amal qilinganida eshitish organlari bilan bir qatorda ko'rish organlaridan ham foydalaniladi.

Musiqā tarbiyasida musiqaning o'zi ko'rgazmali vositadir. Chunki u qo'li bilan emas, balki quloq bilan idrok etiladi. Musiqā tinglashda ham, asar tahlilida ham ohang ko'rgazma sifatida chalib ko'rsatiladi. O'qituvchining o'zi, nutqi, ijrosi ham asosiy ko'rgazma bo'lib xizmat qiladi. Bundan tashqari, texnik vositalar, ko'rgazmali karto-chkalar, grafik yozuvlar, rasmlar, nota yozuvlari ham, musiqā darsida ko'rgazma sifatida muhim rol o'ynaydi. Mazkur prinsiplar, asosan, o'quv materiallarini qo'llash musiqā darsi mazmunini va rejasini tuzish jarayonida qo'llanadi.

Xulosa qilib aytganda, pedagogikaning umumdidaktik prinsiplari, musiqā madaniyati darslarida muhim ahamiyatga ega bo'lib, musiqani hayot bilan bog'lashda katta ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov I.A. *“Yangicha fikrlash va ishlash – davr talabi”*. – T., 1997.
2. Raximov Sh.N., Nurmatov X.N. *Cholg'u ijrochiligi tarixi. O'quv qo'llanma*. – T., 2009
3. Xalilov F.N. *Cholg'u ijrochilik mahoratini oshirishning didaktik asoslari. O'quv qo'llanma*. – T., 2002.
4. Аннамуратова С.К. *Художественно-эстетическое воспитание школьников Узбекистана*. – Т.: “Фан”, 1991.

Asqarali SULAYMONOV,

T.N.Qori Niyoziy nomidagi O'zPFITI laboratoriya mudiri,

Zilola SULAYMONOVA,

Respublika rassomlik kolleji kafedra mudiri

O'QUVCHILARDA BADIY TAHLIL KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISHDA SHARQ VA G'ARB TASVIRIY SAN'ATI AN'ANALARIDAN FOYDALANISH

Annotatsiya

Maqolada "Tasviriy san'at" o'quv fanidan Davlat ta'lim standarti va o'quv dasturida belgilangan umumiy o'rta ta'lim maktablarining 5–7-sinf o'quvchilarida badiiy tahlil kompetensiyalarini shakllantirishning didaktik talablari hamda bu jarayonda Sharq va G'arb tasviriy san'ati an'alaridan foydalanishning mazmuni va metodikasiga oid ilmiy g'oyalar bayon etilgan.

Kalit so'zlar. Tasviriy san'at ta'limi, Davlat ta'lim standarti, o'quv dasturi, badiiy an'ana, foydalanish, estetik tasavvur, badiiy tahlil, kompetensiya, o'quvchi, shakllantirish, miniatyura san'ati.

В статье изложены дидактические требования, определенные Государственным образовательным стандартом и учебной программой для 5-7 классов общеобразовательных школ по формированию у учащихся компетенций художественного анализа. Также приведены научные идеи по методике использования содержания традиций изобразительного искусства Востока и Запада в данном процессе.

Ключевые слова. Обучение изобразительному искусству, Государственный стандарт образования, учебная программа, художественные традиции, использование, эстетическое представление, художественный анализ, компетенция, ученик, формирование, искусство миниатюры.

This article is about didactic requirements of the formation art analyzed competences of the 5th-7th form students in the secondary schools which signed in the State Educational Standards that belong to the subject "Fine art" discussed about scientific ideas when using the content and the methodology of the Western and the Eastern fine art traditions theoretical ideas.

Key words. Art education, The State Education System, Curriculum, art traditions, to use, esthetic imagination, art analyze, competence, student, formation, miniature art.

O'zbekistonning ilm va fani, madaniyati va san'ati tarixida barcha zamonlar uchun o'zining badiiy-estetik qiymatini yo'qotmaydigan, aksincha, yillar va asrlar osha o'zining ma'naviy nufuzini oshirib boruvchi manbalar mavjud. Shunday manbalar ichida, shubhasiz, milliy tasviriy san'atimizning tarixiy zamini – Sharq miniatyura san'atining ta'limiy va tarbiyaviy imkoniyatlaridan oqilona foydalanish zamonaviy badiiy ta'limning, shu jumladan,

umumiy o'рта ta'lim tizimida o'qitiladigan "Tasviriy san'at" o'quv fanining dolzarb masalalari sirasiga kiradi. Zero, Sharq miniatyura san'ati uzoq tarixiy taraqqiyot davomida yaratilgan hamda umuminsoniy va milliy qadriyat sifatida e'tirof etilgan, asrlar davomida insoniyat tamadduniga xizmat qilib kelayotgan ham moddiy, ham ma'naviy meros sifatida e'tiborga molikdir. Shu ma'noda nafaqat Sharq mamlakatlari, balki dunyo miqyosida dovrug' qozongan buyuk musavvir Kamoliddin Behzodning badiiy-estetik merosini zamonaviy badiiy ta'lim tizimida o'rganish alohida ahamiyat kasb etadi.

Umumiy o'рта ta'lim tizimidagi "Tasviriy san'at" o'quv fani misolida Kamoliddin Behzodning ijodiy merosini o'rganishda bir qator ta'limiy va tarbiyaviy samaraga erishish mumkin.

Ta'limiy samara shundan iboratki, sohaning Davlat ta'lim standarti va o'quv dasturida belgilanganidek, 5–7-sinflarda dasturning "San'atshunoslik asoslari" blokida:

- o'quvchilarni nazariy jihatdan tasviriy san'at asarlarining mazmuni, kompozitsion yechimlari, badiiy obrazlari va boshqa parametrlarini idrok etish, anglash, baholash va sharhlashga oid tayanch o'quv kompetensiyalarini shakllantirish;

- tarixiy va zamonaviy tasviriy san'atning sintezi negizida o'quvchilarda badiiy tasavvur, estetik did va tafakkurni tarbiyalash;

- milliy va umumbashariy san'at namunalari, xususan, Sharq miniatyura san'ati va Yevropa rangtasviri asarlarini qiyosiy tahlil qila bilishga oid kompetensiyalarni tarkib toptirish;

- tasviriy san'at asarlarining badiiy-ifodaviy vositalari va qonuniyatlarini o'rganish asosida hosil bo'lgan tasavvurlarni shaxsiy tasviriy-ijodiy faoliyatga tatbiq etishga oid uquv va malakalarni tarkib toptirish nazarda tutilgan. Ta'kidlash joizki, qiyosiy tahlil o'quvchilarda badiiy idrok mexanizmlarini shakllantirish va rivojlantirishning samarali omillaridan biridir. Shu ma'noda ham Sharq miniatyura san'ati, xususan, Kamoliddin Behzod ijodiga mansub asarlar "Tasviriy san'at" o'quv fanida belgilangan o'quv kompetensiyalarini shakllantirishda muhim o'quv material, tarixiy manba vazifasini o'taydi.

Kamoliddin Behzod ijodi misolida Sharq miniatyura san'ati asarlarini o'rganishning tarbiyaviy ahamiyatini quyidagi omillarda ko'rish mumkin.

Birinchi, Behzod va uning maktabiga oid miniatyura asarlari dunyoning eng nufuzli muzey, galereya, kutubxona va shaxsiy kolleksiyalarida saqlanishi hamda nafaqat Shaq xalqlarining, balki jahon san'at ahlining madaniyati va ma'naviyatini yuksaltirishga xizmat qilib kelayotganligi bois, birinchi navbatda, o'quvchilarda milliy g'urur, vatanparvarlik tuyg'ularini tarbiyalashga xizmat qiladi. Sharq miniatyura san'ati asarlari namunalari saqlanadigan muzey, galereya, kutubxona va shaxsiy kolleksiyalarni sanab o'tishning o'zi fikrimizning dalili bo'ladi: Nyu-Yorkdagi Metropolitan, Parijdagi Luvr, Londondagi Britaniya muzeylari, shuningdek, Sankt-Peterburg, Berlin, Boltimor, Boston, Vashington, Dublin, Jeneva, Istanbul, Kembridj, Oksford, Qohira, hattoki Lixtenshteydek mitti davlatdagi kutubxonalar shular jumlasidandir. Bu manabalarda saqlanayotgan miniatyuralar tarix va zamonaviylik o'rtasidagi o'ziga xos ma'naviy-madaniy ko'priq vazifasini o'tash vositasida kattalar bilan bir qatorda o'quvchilarda tarixiy-badiiy tafakkurni tarkib toptirishdek muhim tarbiyaviy ishda samarali qo'llanib kelinmoqda.

Ikkinchidan, turli yillarda Sharq miniatyura san'atiga, ayniqsa, Kamoliddin Behzod hayoti va ijodiga oid tadqiqotlar Sharq mamlakatlari olimlari bilan bir qatorda, Yevropa va amerikalik olimlar tomonidan ham olib borilgan. Musavvirning ijodiga oid dastlabki tavsiflar uning zamondoshlari – Mahmud Zayniddin Vosifiy, Qozi Ahmad, Xondamir, Alisher Navoiy kabi allomalarga tegishli bo'lsa, 19-20-asrlarga kelib uning hayoti va ayniqsa, ijodiy fenomenini o'rganish xalqaro ahamiyat kasb eta boshladi. Bunday tadqiqotchilar sirasiga yurtimiz olimlardan N. Ahmedova, E.Gul, O.Ibrohimov, E.Ismoilova, A.Madrimov, N.Norqulov, K.Oqilova, Z.Rahimova, H.Sulaymonov, A.Xakimov, O.Usmonov; xorijlik olimlardan O.F.Akimushin, T.Arnold, M.Ashrafiy, Ye.Bahoriy, O.M.Galerkina, B.Grey, L.T.Gyuzalyan, N.V.Dyakonova, A.A.Ivanov, K.Kerimov, M.K.Lukens, F.Martin, Ye.A.Polyakova, V.Robinson, I.Toporov, I.Shchukin kabi mashhur tarixchi va san'atshunoslar kirishi Sharq miniatyura san'atini, xususan, Kamoliddin Behzod hayoti va ijodi umumbashariy ahamiyatga molikligidan dalolat beradi. Shuningdek, O'zbekistonlik pedagog olimlar tomonidan Sharq miniatyura san'atining tarbiyaviy ahamiyati, uning jahon tasviriy san'ati ravnaqiga ta'sirining pedagogik ahamiyatini ochib berishga doir bir qator ilmiy-metodik ishlar amalga oshirilgan.

Yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek, o'quvchilarda badiiy tahlilga oid o'quv kompetensiyalarini tarkib toptirishda san'atdagi sintez prinsiplarini Sharq va G'arb tasviriy san'ati ana'analari misolida o'rganish muhim didaktik ahamiyat kasb etadi. Zero, san'at tarixida badiiy ta'lim uchun muhim manba, samarali o'quv material bo'la oladigan hamda an'analar haqida tasavvur hosil qiluvchi namunalar mavjud.

San'atshunoslar va tarixchilarning tadqiqotlarida qayd etilishicha, Kamoliddin Behzodning ijodiy fenomeni Yevropa rassomlarida katta qiziqish uyg'otgan. M.Abdullaevning ta'kidlashicha, 1903 va 1910-yillarda Myunxen shahrida o'tkazilgan Musulmon san'ati ko'rgazmalari nafaqat Myunxen shahrining, balki undan tashqarida ham yilning eng ahamiyatli voqealaridan biri sifatida baholangan. Mazkur ko'rgazmani ko'rish uchun yer sharining turli burchaklaridan san'at ixlosmandlari, san'atshunoslar, professional rassomlar tashrif buyurganligi Kamoliddin Behzod ijodi, Sharq miniatyura san'atini jahon tasviriy san'at tarixidagi o'rni va nufuzini anglatadi. Ayniqsa, mashhur rassomlarning Sharq miniatyura san'atiga munosabatiga oid ma'lumotlar o'quvchilarda tasviriy san'atga qiziqishni oshirishi natijasida badiiy ta'lim sifati va samaradorligini oshirish uchun qulay muhit yuzaga keladi. Shu ma'noda Yevropa rassomlarining Sharq miniatyura san'atiga munosabatlari haqidagi ma'lumotlar o'quv material sifatida diqqatga sazovordir.

O'z vaqtida Rembrandt kabi Yevropa Uyg'onish davrining yorqin namoyandasi, Matiss kabi Yevropa impressionizmining taniqli vakili Kamoliddin Behzod ijodi namunalarini o'zgacha qiziqish bilan o'rgangan, uning ijodidan ilhomlanib qator kompozitsiyalar yaratgan. O'zbekiston tasviriy san'atining tarixiy tajribasida Sharq miniatyura san'atiga xos an'analarga murojaat etgan rassomlardan A.Volkov, N.Karaxan avangard yo'nalish bilan an'anaviy merosni sintetik tatbiqi misolida milliy tasviriy san'atning o'ziga xos milliy etalonini yaratishga intilganlar (2). O'zining nafaqat ijodi, balki hayotini ham O'zbekiston bilan bog'lagan A.Nikolayev (Usto-Mo'min) “miniatyura san'atini nafaqat ilhomlanish va taqlid qilish manbai, balki milliy o'ziga xos xazina, laboratoriya sifatida qaradi”. Shuningdek, O'zbekiston

tasviriy san'atida Sharq minatyura san'atining an'alarini sintetik tarzda qo'llash amaliyoti Chingiz Ahmarov, Javlon Umarbekov, Akmal Nur kabi rassomlar ijodida ham kuzatiladiki, o'quvchilarni rassomlar va ularning asarlarini bilish haqidagi me'yoriy talablarni bajarishda, shubhasiz, qiziqarli o'quv materiali sifatida foydalanish maqsadga muvofiq. Zero, tasviriy san'atda Sharq va G'arb an'alarini va uning sintetik tatbiqiga oid materillar o'quvchilarda badiiy tahlil malakalarini oshirishda alohida ahamiyat kasb etadi.

Darhaqiqat, Kamoliddin Behzod ijodini o'rganish rassom uchun kutilmagan, original impulslarni, tasviriy san'atning yangi imkoniyatlarini ochib berishi mumkin. Bu omillar nafaqat professional rassomlar uchun, balki maktab o'quvchilari uchun ham estetik did, badiiy tafakkur, tasviriy malaka va mahoratni oshirish omili vazifasini o'taydi.

Sharq va G'arb san'atining sintezi (F.Sulaymonova, A.Hakimov) ko'pgina tarixchilar, filologlar, san'atshunoslarning tadqiqotlarida turlicha talqin etilgan. Bu talqinlarning aksariyat qismida tadqiqotchilar Sharqning G'arbgacha ta'sirini birlamchi omil sifatida e'tirof etadilar. Xususan, Behzod fenomenini G'arb san'atiga ta'sirini tadqiq etar ekan, Akbar Hakimov Behzodning jahon tasviriy san'atiga ta'siri genezisini XV – XVI asrlarga borib taqalishini aniq dalillar bilan sharhlaydi. Ayniqsa, biz yuqorida ta'kidlaganimizdek, Matisssdan tashqari Behzod ijodini Leonardo da Vinchi, Pablo Pikasso, G.Klimt kabilarning ijodiga ta'sirini ularning asarlari misolida isbotlab bergan. Buni Behzodning "So'fiylar raqsi" (1440) va Matisning "Raq" (1910), "Darvish portreti" (1500) bilan Leonardo da Vinchining "Jakonda"si (1506 – 1507), "Gullayotgan shoxlar ichidagi qiz" (1480) asari bilan G.Klimtning "Uch avlod" (1908) asarlarini qiyosiy tahlili asosida ochib bergan.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 5 – 7-sinflarida o'qitiladigan "Tasviriy san'at" o'quv fanining didaktik vazifalari tizimida o'quvchilarning tasviriy savodxonligining asosiy komponentlari – tasvirlash texnikasi va texnologiyasi, badiiy-ifodaviy vositalar va qonuniyatlar haqidagi nazariy bilim va amaliy-tasviriy malakalarini tarkib toptirish nazarda tutiladi. Shu yo'nalishda ham miniatyura san'atining ta'limiy imkoniyatlaridan oqilona foydalanish lozim. Bu borada ham bevosita Sharq va G'arb rassomlarining ijodiga murojaat etish o'rinlidir.

Miniatyura san'ati misolida Sharqning yangi plastik konsepsiyasini topishga intilgan birinchi rassomlar qatorida A.Isupov, P.Kuznetsov, K.Petrov-Vodkin kabi tanikli ijodkorlar bo'lgan. Bu dalillar Kamoliddin Behzodning badiiy-estetik merosi umuminsoniy qadriyat sifatida asrlar davomida e'zozlanib kelayotganligidan dalolat beradi. Demak, bundan xulosa qilish mumkinki, Kamoliddin Behzodning umumjahon madaniyati va san'atida tutgan o'rni uzoq tarixga ega va bu boradagi ma'lumotlar o'quvchilarda nafaqat tasviriy san'atga qiziqishni oshiradi, balki ularda badiiy mushohada, tarixiy tafakkur borasidagi kompetensiyalarini rivojlantiradi.

Kamoliddin Behzod o'z ijodiy izlanishlari bilan nafaqat miniatyura san'atini mustaqil san'at turi sifatida shakllanish va rivojlanish tendentsiyalarini belgilab berdi, balki tasviriy san'atning alohida janri – portret janriga asos soldi. Uning Sharq tasviriy san'atining portret janri rivojiga qo'shgan hissasini ikki omilda ko'rish mumkin. Birinchidan, u jamoaviy portret ishlash amaliyotini joriy qilgan bo'lsa, ikkinchidan, ustoz musavvirning tasviriy san'at maktabidan ko'plab uning shogirdlari va izdosh-

lari yetishib chiqdi va uning ijodiy maktabini munosib davom ettirdilar (7). Kamoliddin Behzod ijodida jamoaviy portretlarning uchrashi miniatyura tarixining taniqli tadqiqotchisi Abdumajid Madraimovning tadqiqotlarida ham ko'rish mumkin. Uning fikricha, Kamoliddin Behzod ijodiga mansub “ayrim miniatyuralarda qo'shaloq portretlarni ko'rish mumkin” (5, 27). Shuningdek, “Shahzoda-shoir G'arib Mirzo – Sulton Husayn Mirzo o'g'li”, “Mo'g'il asiri”, “Darvish va ot”, “Amir portreti” kabi asarlarda ham Kamoliddin Behzodning portretchi musavvir sifatidagi iqtidorini ko'rish mumkin. Akademik G.A.Pugachenkovaning ta'kidlashicha, Behzodning dastlabki portretlari poetik motivlar asosida yaratilgan bo'lsa, 15-asrning oxiri va 16-asrning boshlarida aniq shaxslar tasviriga oid portretlar yuzaga keldi. Shunday asarlar turkumiga “Shayboniyxon portreti” (1507), “Shoir Abdulla Xotifiy portreti” (1511–1521), “Sulton Husayn Boyqaro portreti” (16-asr boshlari), “Malika portreti” (15-asr oxiri) kabi aniq tarixiy shaxslar siymosi tasvirlangan miniatyuralarni kiritish mumkin. Bunday materiallar 5-sinfning to'laligicha portret janriga bag'ishlangan va “Insonga razm solish” deb nomlangan to'rtinchi choragidagi “Tasviriy san'atda portret janri” (13-mavzu), haykaltaroshlikda, grafikada, rangtasvirda (mos ravishda 14,15,16-mavzular), ayniqsa, “Sharq miniatyura san'ati” (6-sinf, 6-mavzu) hamda 7-sinfning “San'atda oqim va yo'nalishlar: umuminsoniy va milliy xususiyatlar” deb nomlangan birinchi choragida nazarda tutilgan o'quv materiallarini o'tishda qo'llanishi tasviriy san'at ta'limi sifati va samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Zero, Sharq miniatyura san'atidan, avvalo, Kamoliddin Behzod dahosidan ilhomlangan jahon tasviriy san'at namoyandalari, ayniqsa, Yevropa Uyg'onish davri rassomlari, impressionistlar va fovizm vakillarining ijodi misolida Sharq va G'arbning badiiy an'alarining sintetik tatbiqini kuzatish mumkin.

Behzod miniatyuralaridagi kompozitsion mukammallik, mantiqiy aloqadorlik barcha zamonlarda dunyo rassomlarini ta'sirlantirib, ilhomlantirib kelgan. Behzodning hayoti va ijodini tadqiq etgan olim Muqaddima Ashrafiy musavvirning ijodiy fenomenini shunday ta'riflaydi: “Behzod o'zigacha bo'lgan miniatyura san'atining eng yaxshi tomonlarini umumlashtirdi. O'zining rangtasvir ishlarida yaratgan kompozitsion sxemalarida ifodaviylikning yangi va ajoyib imkoniyatlarini ochib berdi. Asosiysi – noyob iqtidor sohibi Behzod keyingi avlod uchun namuna bo'ladigan original va mukammal miniatyuralar yaratdi” (3,7). Bunday tarixiy dalillar o'quvchilarda kompozitsion mushohada yuritish kompetensiyalarini rivojlantirishda ham muhim rol o'ynaydi.

Kamoliddin Behzod nafaqat tasviriy san'at qonuniyatlarini mukammal egallagan usta tasvirchi, realistik rangtasvir va qalamtasvirning akademik usul va an'alarini mukammal egallagan, Sharq va G'arb tasviriy san'atining ibratli jihatlarini sintetik tarzda qo'llagan, yaratgan asarlariga yuksak darajadagi mazmun va mohiyat kasb etuvchi vositalarni o'ziga xos mahorat bilan tatbiq etuvchi ijodkor sifatida, balki “...ruhiyat rassomi ekanligi, borliqning mohiyati haqidagi teran falsafiy mushohadalarni ifodalashda tengsiz mahorat egasi bo'lgani, moddiy hayotdan ma'naviy hayotni ustun qo'ygani aniq namoyon bo'lishi” uning asarlarida o'zining yorqin ifodasini topganligi bilan ham e'tiborlidir (4,7). Shuning uchun ham Kamoliddin Behzod ijodi misolida o'quvchilarning badiiy-estetik saviyasi, tasviriy-ijodiy saviyasini oshirish mumkin.

Yuqorida bayon etilgan mulohazalardan xulosa qilish mumkinki, Kamoliddin Behzodning badiiy-estetik merosi, shubhasiz, milliy qadriyat sifatida e'zozlanadi. Zero, Kamoliddin Behzod asos solgan badiiy ta'lim maktabi asrlar davomida takomillashib, zamonaviy tasviriy va amaliy san'at ta'limi tizimida samarali qo'llanib kelinmoqda. Shu bois keyingi yillarida uning badiiy-tasviriy fenomenini keng qamrovli o'rganishga hukumat miqyosida alohida e'tibor qaratila boshlandi. Shuningdek, YuNESKOning qaroriga asosan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlariga binoan buyuk musavvirning tavalludiga bag'ishlangan ilmiy-amaliy anjumanlar, shu jumladan, Kamoliddin Behzodning hayoti va ijodini o'rganishning pedagogik ahamiyatiga oid konferensiyalar o'tkazildiki, ular Sharq miniatyura san'atini zamonaviy talqinda, jahon tasviriy san'atining rivojiga ta'siri kontekstida o'rganish o'quvchilarda badiiy-estetik saviyani oshirishning muhim omili sifatida e'tiborlidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. *Abdullayev M. Behzod va Matiss. O'zbekiston adabiyoti va san'ati. Haftalik gazeta. 1990. №8.*
2. *Kamoliddin Behzod. Albom. Tuzuvchilar: E.Ismoilova, Z. Rahimova. – T.: "San'at", 2000. – 40 b.*
3. *Madraimov A. O'zbekiston miniatyura san'atini o'rganish muammolari. "San'at". 2015, 2-son. – 25-27 b.*
4. *Sulaymonova Z. Kamoliddin Behzodning badiiy-estetik merosi umumbashariy va milliy qadriyat sifatida / Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. – T.: Kamoliddin Behzod nomidagi memorial bog'-muzeyi, 2015. – 33-37 b.*
5. *Пугаченкова Г. А. Бехзад – портретист и портрет в миниатюрной живописи Среднего Востока / "Санъат". 2000, №2. – С.10-15.*
6. *Арапова С.В. Обучение изобразительному искусству. Интеграция художественного и логического. – СПб,,: КАРО, 2004. – С.176.: ил. – (Модернизация общего образования).*
7. *Ахмедова Н. Р. Духовное пространство Бехзада в искусстве XX века. "Санъат". 2000, №2. – С.34-37.*
8. *Ашрафи М.М. От Бехзада до Риза-йи Аббаси. Развитие миниатюры начало века. – Т.: SMI-ASIA, МИЦАИ, 2011. – С.176.*
9. *Хакимов А. Бехзад – западно-восточный контекст (парадокс исторических ассоциаций) / "Санъат". 2000, №4. – С.22-25.*

Mahmuda QO'LDASHEVA,
Navoiy viloyati XTXQTMOI o'qituvchisi

O'QUVCHILAR BILIMIDA ANIQLANGAN BO'SHLIQLARNI INNOVATSION USULLAR YORDAMIDA TO'LDIRISHNING O'ZIGA XOS JIHATLARI

Annotatsiya

Maqolada geografiya fani bo'yicha aniqlangan bo'shliqlarni to'ldirish va uni bartaraf etish, o'quvchilarni bilim olishga bo'lgan qiziqishlarini orttirish usullari tahlil qilingan. Shuningdek, muallif mavzular bo'yicha aniqlangan bo'shliqlarni to'ldirishda fan o'qituvchilari dars mashg'ulotlarini innovatsion texnologiyalar asosida tashkil etish bo'yicha o'z tavsiyalarini berib o'tgan.

Kalit so'zlar. Innovatsion ta'lim texnologiyalari, maqsad, o'quv faoliyati, ta'lim modeli, samaradorlik, tizimli yondashuv, didaktik o'yinlar.

В статье анализируются пробелы в знаниях учащихся при изучении географии и пути их устранения. Также автором даны рекомендации по использованию инновационных технологий, способствующих повышению интереса учащихся к изучению конкретных тем.

Ключевые слова. Инновационные образовательные технологии, цель, учебная деятельность, модель образования, эффективность, дидактические игры.

In this article is spoken about new approaches of teaching geography. There are mentioned how to conduct the lesson in innovative way it's effectiveness and advantages, conducting Olympiads and knowledge competitions, assimilating the State educational standards according results of monitoring.

It's important for the teachers to be able to design materials for students according to their needs, levels of learning, capability, creative thinking and intellectual skills.

Key words. Innovative teaching technology, purpose, learning process, educational model, terms, effectiveness, systematic approach, deductive games.

Prezidentimiz ta'lim tushunchasiga milliy didaktik nuqtayi nazaridan yondashib, quyidagicha ta'riflaydi: "Ta'lim O'zbekiston xalqi ma'naviyatiga yaratuvchilik faoliyatini baxsh etadi, o'sib kelayotgan avlodning barcha eng yaxshi imkoniyatlari unda namoyon bo'ladi, kasb-kori mahorati uzluksiz takomillashadi, katta avlodlarning dono tajribasi anglab olinadi va yosh avlodga o'tadi".

Ushbu maqsadni amalga oshirish uchun ta'limning yangi modeli yaratildi. Modelni amaliyotga tatbiq etish, o'quv jarayonini texnologiyalashtirish hamda ta'lim sifati samaradorligini aniqlash va shu asosda tadbirlar ishlab chiqish maqsadida Xalq ta'limi

vazirligining 2014-yil 22-oktabrdagi “Xalq ta’limi tizimida 2014-2015 o’quv yilida ta’lim sifati monitoringini o’tkazish to’g’risida”gi 296-sonli, Navoiy viloyat xalq ta’limi boshqarmasining shu haqdagi 2014-yil 1-noyabrdagi 177-sonli buyruqlari asosida umumiy o’rta ta’lim maktablarida 15 ta fanlar bo’yicha ta’lim sifati monitoringi amalga oshirildi hamda fanlar kesimida aniqlangan bo’shliqlar yuzasidan chora-tadbirlar ishlab chiqildi. O’quvchilarning o’zlashtirish samaradorligini tahlil etib borish, ma’lum ma’noda ular egalaydigan bilimlardagi bo’shliqlarni aniqlash, shu asosda yangi rejalar bilan ish ko’rishga imkoniyat yaratadi.

Har yili o’tkazib boriladigan fan olimpiadalari, bilimlar bellashuvi hamda o’quvchilarning Davlat ta’lim standartlarini o’zlashtirish bo’yicha, birinchi yarim yillikda o’tkaziladigan monitoring natijalari asosida geografiya fani yo’nalishida quyidagi sinflar kesimida mavzular bo’yicha bo’shliqlar aniqlangan bo’lib, ular: 6-sinflarda “Afrika materigi, 7- sinflarda “O’rta Osiyoning rel’efi”, “O’rta Osiyoning va O’zbekistonning suv omborlari”, “Geologik vaqt hisobi” hamda geografik atamalar va ularning izohi bilan ishlash kabilardir.

Geografiya fani bo’yicha aniqlangan bo’shliqlarni to’ldirish va uni bartaraf etish maqsadida, o’quvchilarni bilishga bo’lgan qiziqishlarini orttirish bizning asosiy vazifalarimizdan biri bo’lb hisoblanadi. Shu bois yuqorida keltirilgan mavzular bo’yicha aniqlangan bo’shliqlarni to’ldirishda fan o’qituvchilari dars mashg’ulotlarini innovatsion texnologiyalar asosida tashkil etishlari muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, noan’anaviy usublarda tashkil etilgan darslar an’anaviy dars mashg’ulotlaridan keskin farq qiladi. Xususan, o’qituvchi darsning maqsadiga vaqtdan oqilona va unumli foydalana olishiga erishadi. Innovatsion usublarni ijobiy va samarali bo’lishi uchun, birinchidan, o’qituvchi noan’anaviy va innovatsion usullarni hamda ta’lim prinsiplarini to’liq, mazmunan chuqur, mukammal bilishi, uzviy holda tashkillashtira olishi lozim. Pedagog uchun mashg’ulotga tayyorgarlik ko’rish asosiy vazifa hisoblanadi. Innovatsion usullarni qo’llashda kamchiliklar yuzaga kelishi pedagogning mashg’ulotga tayyorgarlik ko’rmaganligi natijasidir.

Odatda dars jarayonida tanlanayotgan har qanday usul xoh u an’anaviy usul, xoh innovatsion usul bo’lsin ta’lim oluvchilarning yoshi, ehtiyoji, qabul qilish darajasiga asoslangan holda muayyan maqsadga erishishga qaratilgan faoliyatni tashkil etishning tartibga solingan, tizimlashtirilgan yo’llari yig’indisi tushuniladi. Bu esa o’quvchilar tomonidan mavzuni to’liq o’zlashtirish imkonini beradi.

Mashg’ulotni innovatsion usullar orqali tashkil etish quyidagilarni o’z ichiga oladi:

- mavzu va uning hajmini aniqlash;
- mavzuga mos mashg’ulot shaklini aniqlash;
- mavzuning manbalari, adabiyotlar bilan tanishib chiqish;
- o’quvchilar uchun tushunish qiyinroq bo’ladigan tushunchalarni izohlash metodini ishlab chiqish;
- mashg’ulot rejasini tuzish;
- mashg’ulotni o’tkazish metodi va texnologiyasini tanlash;
- mashg’ulot jihozini tayyorlash;
- mavzuni yoritish usulini aniqlash;
- mashg’ulotning oldingi va keyingi mavzular bilan bog’liqligini ishlab chiqish;
- o’quvchilarni baholash metodlarini ishlab chiqish;
- o’quvchilarga beriladigan test materiallarini tayyorlash;
- mashg’ulotda qo’llaniladigan multimedia vositalarini tayyorlab qo’yish;
- mashg’ulotga mos qiziqarli , muammoli topshiriqlarni tayyorlash;

– uy vazifasini belgilab qo'yish.

DTS talablari asosida, “Afrika materigi” mavzusi bo'yicha o'quvchilar materikning joylashishi va uning o'ziga xos xususiyatlari, tabiiy resurslari va ulardan oqilona foydalanish, aholisi, materikning tabiiy – geografik o'lkalari bo'yicha bilimga ega bo'lishi kerak. Shu bilan birga xaritadan materikning iqlim o'zgarishlarini, o'simlik va hayvonot dunyosining o'ziga xos xususiyatlarini, materikda yuz berayotgan xavfli tabiat hodisalarini va ularning hududlar bo'yicha tarqalishini, inson faoliyati natijasida tabiatning o'zgarishini aytib bera olish ko'nikmasiga ega bo'lmog'i lozim. Materikni xaritadan ko'rsatib, geografik koordinatalarini aniqlashi, eng baland cho'qqilari va botiqlarini xaritadan ko'rsatishi, materikning iqlim mintaqalarini yoddan aytishi va xaritadan ko'rsatish malakasiga ega bo'lishi kerak .


“Afrika materigi” mavzusi yuzasidan aniqlangan bo'shliqlarni to'ldirish borasida o'quvchilar bilan dars davomida xarita va o'quv atlaslari asosida amaliy mashg'ulotlar va masalalar yechish, interfaol usullarni qo'llash yaxshi samara beradi.

Masalan, Afrikaning geografik o'rnini o'rganishda (kontur karta orqali materikning chegaralari va chekka nuqtalarini belgilash, geografik koordinatalarini aniqlash, xarita orqali ko'rsatish) amaliy mashg'ulot va xarita usulidan foydalanish asosida, rel'efi va foydali qazilmalarini “Charxpalak”, “Strelka” , “Venn diagrammasi” metodlari asosida, o'rganilish tarixini “Sirli sandiq” metodi, ichki suvlarini “Klaster”, “Idrok xaritasi” metodlari orqali, tuproqlari, o'simlik va hayvonot dunyosi ma'lumotlari o'qitishda AKT orqali, iqlimi va ichki suvlarini o'qitishda “Piramida” usulidan foydalanilsa, o'quvchilar bilimida mavzu yuzasidan bo'shliqlar yuzaga kelish imkoniyati kamayadi.

“Afrika materigi rel'efi ” mavzusi asosida “Strelka ” metodi

Cho'kma		Efiopiya
Cho'kma		Drakon
Tog'		Axaggar
Plato		Assal
Cho'qqi		Air (Azbin)
Plato		Tibesti
Plato		Kattara
Tog'		Kardofan
Cho'qqi		Kap
To'g massivi		Tubkal
Tog' massivi		Margerta

Olimpiada natijalari asosida ko'rib chiqiladigan bo'lsa, geografik atamalarni biliishi va ular bilan ishlash bo'yicha bo'shliqlarni to'ldirishda “Tushunchalar tahlili” interfaol metodi, “To'g'ri joylashtir” o'yini, shuningdek, “O'rta Osiyoning suv omborlari” mavzusi bo'yicha aniqlangan bo'shliqlarni to'ldirishda AKT dan foydalanish, xarita usuli va kontur kartalar bilan ishlash, “Beshinchisi ortiqcha” o'yinidan foydalanish mumkin.



“Beshinchisi ortiqcha” o‘yining qoidasi: Berilganlardan Amudaryo daryo-sida qurilgan suv omborlariga tegishli bo‘lmagan obyektни har bir o‘quvchi chekkada joylashgan uchburchak ichiga yozishi va izohlab berishi kerak.

“Tushunchalar tahlili” metodi orqali geografik atamalar hamda ular bilan ishlash borasidagi mavjud bo‘shliqlarni to‘ldirishdagi ta‘lim maqsadlarini amalga oshirishga omil bo‘lib xizmat qiladi.

Ushbu uslubning amalga oshirish jarayoni quyidagicha bo‘ladi:

Uslubning mohiyati. Ushbu uslub o‘tilgan (chorak, semestr yoki o‘quv yilida tugagan) o‘quv predmeti yoki bo‘lim barcha mavzularini o‘quvchilar tomonidan yodga olish, biron-bir mavzu bo‘yicha o‘qituvchi tomonidan berilgan tushunchalarga mustaqil ravishda o‘z izohlarini berish, shu orqali o‘z bilimlarini tekshirib baholashga imkoniyat yaratish va o‘qituvchi tomonidan qisqa vaqt ichida barcha o‘quvchilarni baholay olishga yo‘naltirilgan.

Uslubning maqsadi. O‘quvchilarni mashg‘ulotda o‘tilgan mavzuni egallaganlik va mavzu bo‘yicha tayanch tushunchalarni o‘zlashtirib olinganlik darajalarini aniqlash, o‘z bilimlarini mustaqil ravishda erkin bayon eta olish, o‘zlarining bilim darajalarini baholay olish, yakka va guruhlarda ishlay olish, safdoshlarining fikriga hurmat bilan qarash, shuningdek, o‘z bilimlarini bir tizimga solishga o‘rgatish.

Uslubning qo‘llanishi. O‘quv mashg‘ulotlarining barcha turlarida (dars boshlanishi yoki dars oxirida, yoki o‘quv predmetining biron-bir bo‘limi tugallanganda) o‘tilgan mavzuni o‘zlashtirilganlik darajasini baholash, takrorlash, mustahkamlash yoki oraliq va yakuniy nazorat o‘tkazish uchun, shuningdek, yangi mavzuni boshlashdan oldin o‘quvchilarning bilimlarini tekshirib olish uchun mo‘ljallangan. Ushbu uslubni mashg‘ulot jarayonida yoki mashg‘ulotning bir qismida yakka, kichik guruh hamda jamoa shaklida tashkil etish mumkin. Ushbu uslubdan uyga vazifa berishda ham foydalalansa bo‘ladi.

Mashg‘ulotda foydalaniladigan vositalar: tarqatma materiallar, tayanch tushunchalar ro‘yxati, qalam (yoki ruchka), slayd.

Izoh: reja bo‘yicha belgilangan mavzu asosida hamda o‘qituvchining qo‘ygan maqsadi (tekshirish, mustahkamlash, baholash)ga mos tayyorlangan tarqatma materiallar (agar yakka tartibda o‘tkazish mo‘ljallangan bo‘lsa, guruh o‘quvchilari soniga, agar kichik guruhlarda o‘tkazish belgilangan bo‘lsa, u holda guruhlar soniga qarab, tarqatma materialalar tayyorlanadi).

Mashg‘ulotni o‘tkazish tartibi:

1. O‘quvchilar guruhlariga (sharoitga qarab) ajratiladi.
2. O‘quvchilar mashg‘ulotni o‘tkazishga qo‘yilgan talab va qoidalar bilan tanishtiriladi.
3. Tarqatma materiallar guruh a‘zolariga tarqatiladi.
4. O‘quvchilar yakka tartibda o‘tilgan mavzu yoki yangi mavzu bo‘yicha tarqatma materialda berilgan tushunchalar bilan tanishadilar.
5. O‘quvchilar tarqatma materialda mavzu bo‘yicha berilgan tushunchalar yoniga egallagan (yoki o‘zlarining) bilimlari asosida (berilgan tushunchalarni qanday tushungan bo‘lsalar shunday) izoh yozadilar (yakka tartibda).
6. O‘qituvchi tarqatma materialda mavzu bo‘yicha berilgan tushunchalarni o‘qiydi va jamoa bilan birgalikda har bir tushunchaga to‘g‘ri izohni belgilaydi yoki ekranda har bir tushunchaning izohi berilgan slayd orqali (imkoni bo‘lsa) tanishtiriladi.
7. Har bir o‘quvchi to‘g‘ri javob bilan belgilangan javoblarning farqlarini aniqlaydilar, kerakli tushunchaga ega bo‘ladilar, o‘z-o‘zlarini tekshiradilar, baholaydilar, bilimlarni yana bir bor mustahkamlaydilar.

Izoh: “Tushunchalar tahlili” uslubini “Chaynvord”, “Uzluksiz zanjir”, “ Klaster”, “Blits-zanjir” shaklida ham tashkil etish mumkin.

**“Xalqaro iqtisodiy aloqalar” mavzusi asosida
“Tushunchalar tahlili” metodi**

T/R	Tushuncha	Mazmuni
1	Valyuta kursi	Mamlakat pulini chet el puliga almashtirish narxi
2	Revalvatsiya	Xalqaro bozorda mamlakat pul birligi rasmiy kursining chet el valyutalariga nisbatan oshishi
3	Devalvatsiya	Milliy pul birligi kursining chet el valyutalariga nisbatan rasmiy tartibda davlat tomonidan pasaytirilishi
4	Savdo balansi	Muayyan bir davlatning ma’lum vaqt mobaynidagi eksporti va o’sha davlatning importi orasidagi nisbati
5	Eksport	Tovarlar, xizmatlar va kapitalni mamlakat tashqarisiga chiqarish
6	Bojxona	Chegara orqali o’tadigan jami yuklarni nazorat qiladigan davlat muassasasidir
7	Kredit	Pul mablag’lari, tovarlar va xizmatlarni kelishilgan ustama to’lab, qaytib berish sharti bilan ma’lum muddatga qarz berish
8	Kreditor	Qarzga mablag’ bergan tomon
9	Debitor	Qarz oluvchi tomon
10	Erkin iqtisodiy hududlar	Qo’shma sohibkorlik hududlari, xorij kapitalining erkin amal qilishi uchun ajratilgan maxsus hudud

Xulosa o’rnida shuni ta’kidlash joizki, o’qituvchi o’quvchilarning mavzular yuzasidan bilim, ko’nikma va malakalarini egallash ko’rsatkichlarini, monitoringini doimiy olib borish, tahlil etish, o’z-o’zini baholash metodlari, o’quvchini darsni qay darajada o’zlashtirganligini turli testlar yordamida aniqlab borishi hamda uning natijalari asosida o’z ish tajribalarini boyitib borishning, turli samarali uslublarini ishlab chiqishi kerak bo’ladi. Bu esa, yuqoridagi aytib o’tilgan o’quvchilardagi mavjud bo’shliqlarni yuzaga kelishining oldini oladi hamda innovatsion ta’lim mazmunini to’g’ri tushunib, anglagan holda texnologik jihatdan ijobiy yondashish orqali pedagogik jarayonlarni samarali tashkil etilishiga olib keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni // Barkamol avlod – O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori. – T.: “Sharq”, 1997. – 20-29 b.
2. O‘zbekiston Respublikasining Kadrlar tayyorlash milliy dasturi // Barkamol avlod – O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori. – T.: “Sharq”, 1997. – 31-67 b.
3. Ishmuhamedov R.J, Abduqodirov A., Pardayev A. Tarbiyada innovatsion texnologiyalar (ta’lim muassasalari o’qituvchilari, tarbiyachilari, guruh rahbarlari uchun amaliy tavsiyalar). – T.: “Iste’dod”, 2010. –140 b.
4. Nigmatov A.N. Tabiiy geografik fanlarning nazariy muammolari. – T., 2010. 202 b.

Shaxodat RAHIMOVA,

Toshkent Davlat Iqtisodiyot universiteti o'qituvchisi

O'QUVCHILARNING O'QIMISHLILIK DARAJALARINI TASHXISLASH VA NAZORAT QILISHNING DIDAKTIK XUSUSIYATLARI

Annotatsiya

Maqolada o'quvchilarning o'qimishlilik darajalarini tashxislash va nazorat qilishning didaktik xususiyatlari, usullari, tarkibiy qismlari to'g'risida fikr yuritilgan. Shuningdek, muallif tashxislash va nazorat qilish orqali o'quv jarayonining samaradorligini ta'minlash imkoniyatlari bo'yicha o'z tavsiyalarini berib o'tgan.

Kalit so'zlar. Tashxislash, nazorat, o'quvchi, o'qituvchi, didaktik jarayon, tekshirish, baholash prinsiplari, tashxislash metodlari, nazorat vositalari.

В данной статье освещены дидактические особенности, методы принципы, компоненты прогностики и контроля степени обученности учащихся, определена роль учителя в этом процессе. Раскрыты возможности прогностики и контроля в обеспечении развития учащихся, повышении эффективности учебного процесса.

Ключевые слова. Диагностика, контроль, ученик, учитель, дидактический процесс, проверка, обобщения, принципы оценивания, методы диагностики, средства контроля.

This article highlights didactic features, methods, principles, components of prognosing and control the degree of student learning, defines the role of the teacher in this process. Disclosed possible prognostics and control to ensure the development of pupils, improving the efficiency of the learning process.

Key words. Diagnosis, assessment, control, student, teacher, openness, didactic process, inspection, consolidation, compare, assessment principles, methods of diagnosis, controls.

Insonparvarlikka asoslangan yo'nalish ta'lim jarayonida samaradorlikning rivojlanishiga ko'maklashadi. Chunki u insonning o'z tabiatiga asoslangan bo'lib, o'qituvchining pedagogik faoliyatga bo'lgan ichki quvvatlarini qo'zg'atadi.

Insonparvarlikka asoslangan ta'lim jarayonida pedagoglar ta'limni kishilik jamiyatiga aloqador bo'lgan jarayon sifatida baholaydilar. Bu jarayonda inson ongli tarzda o'z-o'zini rivojlantirishga layoqatli bo'ladi. Bunda u nafaqat o'z manfaatlari, balki millat va millatlararo munosabatlar taraqqiyotiga ham xizmat qilishga intiladi. Chunki bu jarayonda o'qituvchi, o'quvchi mazkur millat o'z taraqqiyoti davomida to'plagan bilimlar va madaniy qadriyatlarni o'zlashtiradi.

Insonparvar psixologiya doirasida shaxsni ko'pfaoliyatlilikka yo'naltirish muammolari har tomonlama tadqiq etilmoqda. Bu jarayonda shaxs o'z faoliyatini dolzarblashtirishga intiladi. Pedagogik yo'nalganlik o'qituvchi faoliyatining integrallashgan tavsifidir. Bunda o'qituvchining o'z faoliyatini amalga oshirishga bo'lgan intilishlari, pedagogik faoliyatining o'sishi va rivojlanishi o'z ifodasini topadi. Bu ma'lum ma'noda o'qituvchining

o'quvchilar o'qimishlilik darajalarini baholash va tashxislashga yo'naltirilgan faoliyati samaradorligini ta'minlovchi omil bo'la oladi.

O'qituvchining insonparvarlikka yo'naltirilgan faoliyatining muhim qismi sifatida quyidagilarni ko'rsatish mumkin:

- ijtimoiy hayotning turli yo'nalishlari bo'yicha to'liq axborot olish imkoniyati;
- yosh o'qituvchilarni tayyorlash va malakasini uzluksiz oshirish kafolati;
- o'qituvchilarni qayta tayyorlash imkoniyati;
- uzluksiz ta'lim jarayonida insonparvarlikka asoslangan bilimlarning ko'lamini kengaytirish imkoniyatlari;
- uzluksiz ta'lim olish shakli, mazmuni, tashkiliy jihatlarini kengaytirish imkoniyati;
- innovatsion faoliyat metodlari va vositalarini o'rganish;
- ta'limning shakllari va turlarini rivojlantirish imkoniyati sifatida.

Bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlashda shaxsiy-faoliyatli yondashuv pedagogik faoliyatning mazmuni va tarkibiga oid bilimlarni o'zlashtirishni taqozo qiladi.

Bugungi kunga kelib maktabda olib borilayotgan amaliyot o'qituvchi faoliyatining sifatiga bir qator talablar qo'yimoqda. Jumladan, uning kasbiy bilimlari, ko'nikmalari va layoqatlariga.

Bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlashda ehtiyojlarni qondirish va yangi bilimlarni o'zlashtirishga nisbatan moyillikning hosil bo'lishida muammolar vujudga keladi. Shuningdek, yangi g'oyalarni o'zlashtirish bo'lajak o'qituvchilarning shaxsiy darajasi doirasida dolzarblashadi. Shunisi muhimki, talabalarning axborotlarni bilish ehtiyojlari ularning kasbiy-shaxsiy qiziqishlari va muammolariga mos kelishi kerak.

O'qituvchining kasbiy-shaxsiy rivojlanishida mavjud bo'lgan siljishlar uning kasbiy-shaxsiy rivojlanishi shaxsiy-faoliyatli yondashuv asosida amalga oshirilganda muvaffaqiyatli kechadi. Umumiy g'oya shundan iboratki, shaxsning shakllanishi va takomillashuvida muhim vosita uning shaxsiy ahamiyatli bo'lgan faoliyatining tashkil etilishidir. Mazkur metodik tamoyilning tanlanishi faol hamkorlik yo'lining izlanishida namoyon bo'ladi. O'qituvchi o'z faoliyatining subyektiga aylanganda ta'lim jarayonida u o'z-o'zini tuzatadi, shakllantiradi va rivojlantiradi. O'quv jarayonining barcha subyektlari nuqtayi nazaridan bunday yondashuv shakllanadigan faoliyatni tahlil qilishni taqozo etadi.

Ta'lim jarayoni subyektlari muloqoti orqali o'quvchilarning shaxsiy-kasbiy quvvatlarini tashxislash imkoniyati vujudga keladi. Agar o'qituvchi o'z quvvatlarini ijodiy tarzda namoyon qilsa, shu orqali o'zining kasbiy rivojlanishidagi muammolarini yechsa, u o'z faoliyatini muntazam tahlil qilishiga ega bo'ladi. O'qituvchi o'zining kasbiy muammolarini yechishga befarq munosabatda bo'lsa, u uzluksiz ta'lim jarayonida muhim muammolarni muhokama qilish orqali faol faoliyatga jalb etilishi kerak. Shaxsiy-kasbiy tajribaning rivojlanishi o'quvchilar guruhining o'ziga xos xususiyatlari bilan bog'liq holda amalga oshadi. Bunda me'yordan tashqari berilgan topshiriqlarni e'tibor bilan qabul qilish hamda o'z kasbiy faoliyatining nazariy-amaliy asoslarini faol tarzda ishlab chiqish muhim ahamiyatga ega.

Uzluksiz ta'limning shaxsiy mazmun-mohiyatini ifodalovchi yetakchi holat ta'lim muassasalarida faoliyat ko'rsatayotgan mutaxassislarning rivojlanishiga bo'lgan ehtiyojlaridir. Rivojlanish shaxsning asosiy imkoniyatidir. O'qituvchi o'z hayotining mazmunini o'quvchilar bilan o'zaro munosabatda ko'radi. Shu tariqa u o'zligini anglash darajasiga ko'tariladi. Bo'lajak o'qituvchi oliy ta'lim jarayonida kasbiy faoliyatning o'ziga xos jihatlarini o'zlashtiradi. Shaxs faoliyatini rivojlantirish nazariyasiga asoslangan

holda bo'lajak o'qituvchining shaxsiy-kasbiy taraqqiyotida mutaxassis mavqeining ortishi sifatida qarash lozim. O'qituvchilar kasbiy mavqeining har qanday bosqichida kasb egalari shaxsiy tajriba va kasbiy tafakkurga ega bo'lishlari zarur.

Bo'lajak o'qituvchi kasbiy faoliyatining tarkibiy qismini o'quvchilar bilimni baholash va ularning rivojlanish darajalarini tashxislash tashkil etadi. Tashxislash o'z ichiga didaktik jarayonning amalga oshirishini qamrab oladi, uning natijalarini oydinlashtirishga xizmat qiladi. O'quvchilarning o'qimishlilik darajalarini, ya'ni didaktik jarayon oqibatlarini tashxislash ularning o'qimishlilik darajasi va erishgan yutuqlarini oydinlashtirish imkonini beradi. O'qimishlilik tashxislash jarayonida maqsadni amalga oshirish natijasi sifatida ham baholanadi. Didaktik tashxislashning maqsadi o'quv jarayonining borishi, o'quvchilarning o'qimishlilik darajalarini o'z vaqtida aniqlashdan iborat. Nazorat qilish, bilimlarni baholash, o'qimishlilik ko'nikmalarining darajalarini aniqlash tashxislashning zaruriy tarkibiy qismlari sifatida namoyon bo'ladi. O'quvchilar o'zlashtirish darajalarini nazorat qilinishi hamda baholanishi didaktik jarayonning tarkibiy qismi sifatida ularni rivojlanish sari undaydi.

O'qituvchilar o'zlarining baholash faoliyatlariga ongli va obyektiv tarzda yondashishlari kerak. O'quvchilarning bilimlarini nazorat qilishda obyektiv yondashish o'qituvchining insonparvarlik talablariga amal qilishini taqozo etadi. Demokratiya prinsiplariga asoslangan holda tashkil etiladigan didaktik jarayonlarda nazoratni yuzaki tarzda amalga oshirish mumkin emas.

Didaktik nazorat o'qitishning o'ziga xos metodi sifatida o'quvchilarning o'qimishlilik darajasini aniq ifodalashga xizmat qilishi kerak. U, birinchi navbatda, o'quvchilarning o'zlari uchun zarur va foydali bo'lib, o'z-o'zini nazorat qilish bilan chambarchas bog'lanishi lozim. Nazorat o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini aniqlash maqsadida tekshirish imkonini beradi. Tekshirish nazoratning asosiy tarkibiy qismi hisoblanadi. Uning asosiy didaktik vazifasi o'qituvchi hamda o'quvchilar orasida teskari aloqani, o'qituvchining o'quv materialining o'zlashtirilganlik darajasi haqida obyektiv ma'lumot olishi, ular bilimidagi bo'shliqlar va yetishmovchiliklarni o'z vaqtida aniqlashni ta'minlashdan iborat. Tekshirish nafaqat o'quvchilarning o'qimishlilik darajasi va sifatini aniqlashdangina iborat emas, balki o'quv mehnatining ko'lamini ham ifodalashga xizmat qiladi.

O'quvchilarning o'zlashtirish darajalarini nazorat qilish ham mazkur jarayonning tarkibiy qismi hisoblanadi. Tekshirishdan tashqari nazorat o'z ichiga baholash va tekshirishning bahosini ham qamrab oladi.

O'quvchilarning o'zlashtirish darajalarini baholashda asosiy o'rinni nazoratning natijasi egallaydi. Bunda o'quvchilar ishining sifat va miqdor ko'rsatkichlari hisobga olinadi. Miqdoriy ko'rsatkichlar muayyan ballar yoki foizlar bilan ifodalanadi, sifat ko'rsatkichlar esa baholovchi hukmlarda aks ettiriladi. Har bir baholovchi hukmda aniq, oldindan kelishilgan ballar, ko'rsatkichlar yoziladi. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, o'lchash va hisoblash natijasida aniqlangan raqamli ko'rsatkich emas, balki baholash hukmlari va mohiyatini yozishdir.

O'quvchilar o'qimishlilik darajasining miqdoriy ko'rsatkichlari o'zlashtirishning bahosi, o'zlashtirilgan bilimlar, ko'nikmalarining ko'lamini, o'zlashtirish uchun taqdim etilgan bilim, ko'nikmalarining to'liq hajmi orasidagi aloqadorlikni ifodalaydi. Mazkur mezonlar asosida o'quvchilarning o'zlashtirish darajalarini baholash uchun taqdim etilgan hamda o'zlashtirilgan axborotlarning ko'lamini o'lchash lozim. Bu vazifani o'qituvchi eng qulay texnologiyalarni qo'llash orqali yechishi mumkin.

Bahoning vazifasi faqatgina o'zlashtirish darajasini qayd qilish bilan chegaralanmaydi. Baholash o'quvchilarni o'qishga yo'naltiruvchi, ularda ijobiy mayllarni hosil qiluvchi, shaxsiyatiga ta'sir ko'rsatuvchi o'qituvchi ixtiyoridagi yagona vositadir. Aynan o'quvchilarni obyektiv baholash orqali ularda mos tarzda o'z-o'zini baholash, muvaffaqiyatlariga nisbatan tanqidiy munosabat vujudga keltiriladi. Shuning uchun ham bahoning mohiyati, vazifalarining turli-tumanligi uning o'ziga xos ko'rsatkichlarini aniqlash zaruriyatini qo'ydi. Bu ko'rsatkichlar o'quvchilar o'quv faoliyatining barcha qirralari va ularni aniqlashni ta'minlaydi. Xuddi mana shu zaruriyatdan kelib chiqqan holda bugungi kunda mavjud bo'lgan baholash tizimini uning tashxislash imkoniyatlarini kengaytirish nuqtayi nazaridan qayta ko'rib chiqish va nazariy jihatdan asoslash taqozo etilmoqda.

O'quvchilarning o'qimishlilik darajalarini tashxislash va nazorat qilishning muhim prinsiplari sirasiga quyidagilarni kiritish mumkin:

1. O'quvchilarning o'qimishlilik darajalarini tashxislash va nazorat qilishning obyektivligi – tashxislash testlari va jarayonlarining mazmun-mohiyatini ilmiy jihatdan asoslash, o'qituvchining barcha ta'lim oluvchilarga teng, do'stona munosabatda bo'lishiga erishish, o'quvchilarning bilim, ko'nikmalarining aniq va mos ravishda o'rnatilgan mezonlar asosida baholanishini ta'minlash.

Amaliy jihatdan shu narsa aniqki, qo'yilgan baho uni qaysi o'qituvchi qanday metodlar yordamida tashxislash va nazorat qilish asosida qo'yganligidan qat'i nazar, obyektiv xarakterga ega bo'lishi kerak. O'quvchilar tomonidan o'zlashtirilgan bilim, ko'nikma, malakalar hamda o'quvchilarga taqdim etilgan o'quv materiallarining hajmi orasidagi mutanosiblikni aniqlash bahoning obyektivligini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega. O'zlashtirish ko'rsatkichlari, ya'ni ta'lim jarayonining mahsuldorligi ularning o'zaro munosabatidan kelib chiqqan holda namoyon bo'ladi.

2. O'quvchilarning o'qimishlilik darajalarini tashxislash va nazorat qilishning tizimliliigi – didaktik jarayonning barcha bosqichlarida tashxislashga asoslangan nazoratning amalga oshirilishida ko'rinadi. Mazkur jarayon bilimlarni idrok etishdan boshlab, uni amalda qo'llashgacha bo'lgan didaktik harakatlarni qamrab oladi. O'quvchilarning o'qimishlilik darajalarini tashxislash va nazorat qilishning tizimliliigi ularning butun ta'lim jarayonidagi uzluksiz harakatlarini tashxislash va nazorat qilishni nazarda tutadi.

Ta'lim jarayonidagi nazorat quyidagi tarkibiy qismlarga bo'lingan holda amalga oshirilishi kerak. Shundagina ta'lim oluvchilar bilishlari va bajara olishlari zarur bo'lgan barcha ko'rsatkichlarni ishonchli tarzda aniqlash imkoniyati yaratiladi. O'quvchilarning o'qimishlilik darajalarini tashxislash va nazorat qilishning tizimliliigi prinsipi tashxislash jarayoniga yaxlit tarzda yondashish imkonini beradi. Bu jarayonda nazorat qilish metodlari, vositalari, shakllarining turli ko'rinishlari, tekshirishlar, baholash harakatlari o'zaro chambarchas aloqadorlikda amalga oshiriladi. Bunday yondashuv tashxislashning ayrim usullari va vositalari umumiylikni inkor qiladi.

3. O'quvchilarning o'qimishlilik darajalarini tashxislash va nazorat qilishning ko'rgazmalligi – barcha ta'lim oluvchilarning yagona mezon asosida ochiq tarzda sinovdan o'tkazishni taqozo etadi. Har bir o'quvchining tashxislash jarayonida o'rnatilgan reytingi ko'rgazmallik, ochiqlik xarakteriga ega bo'lib, ta'lim oluvchilarning o'zlashtirish darajalarini o'zaro qiyoslash imkonini beradi.

4. O'quvchilarning o'qimishlilik darajalarini tashxislash va nazorat qilish prinsipi bahoning dalillar yordamida asoslanishini ta'minlashga xizmat qiladi. Baho o'qituvchining obyektivligi va o'quvchilar oldiga qo'yilgan talablarni ular tomonidan anglanishiga ko'maklashadi.

Tekshirish tizimi quyidagi tarkibiy qismlardan tashkil topadi:

– o‘quvchilarning bilim darajalarini oldindan aniqlash; bu jarayon o‘quv yili boshida amalga oshiriladi. O‘quvchilarning bilim darajalari aniqlanib, o‘quv yili davomida ularga singdiriladigan ta‘lim mazmunining elementlari oydinlashtiriladi. Oldindan amalga oshirilgan tekshirishlar o‘quvchilarning bilimlaridagi bo‘shliqni aniqlab, ularni kompensatsiyalash imkoniyatlarini izlashga ko‘maklashadi. Bunday tekshirishni nafaqat o‘quv yili boshida, balki o‘quvchilarning aqliy jihatdan rivojlanish darajalarini aniqlash maqsadida o‘quv dasturining yangi bo‘limini boshlashdan oldin ham o‘tkazish mumkin;

– o‘quvchilar bilimini joriy tekshirish har bir mavzusi o‘rganilgandan so‘ng amalga oshiriladi. Joriy tekshirish, asosan, ta‘limiy vazifani bajarishga yo‘naltirilgandir. Mazkur tekshirishning usullari va shakllari har xil bo‘lishi mumkin. Ular o‘quv materiallarining mazmuni, murakkabligi, o‘quvchilarning yoshi, tayyorgarlik darajalari, o‘qitishning maqsadi va darajasi pedagogik omillarga bog‘liq holda tanlanadi;

– o‘quvchilar bilimi va ko‘nikmalarini takroriy tekshirish joriy nazorat kabi mavzuviy xarakterga ega bo‘lishi kerak. Takroriy tekshirishlar o‘quvchilarning bilimlarini mustahkamlaydi, biroq o‘quv faoliyati dinamikasini tavsiflash imkonini bermaydi. Bunday tekshirishning afzalligi shundaki, tashxislashning boshqa ko‘rinishlari va metodlari bilan uyg‘unlashtirilishida namoyon bo‘ladi;

– o‘quvchilarning o‘zlashtirgan bilim, ko‘nikmalarini davriy tekshirish o‘quv kursi bo‘limlari yoki undagi alohida ahamiyatga ega bo‘lgan mavzularning maqsadidan kelib chiqqan holda amalga oshiriladi. Bunday tekshirishning maqsadi:

– o‘quvchilar o‘zlashtirish darajalarini tashxislash, o‘quv materiallari tarkibiy qismlari orasidagi uyg‘unlikni ta‘minlash, o‘quv kursining turli bo‘limlarida o‘rganilayotgan bilimlarning o‘zlashtirish maromini oydinlashtirish va jadallashtirishdan iborat. Davriy tekshirishning asosiy vazifasi – tizimlashtirish va umumlashtirishdan iborat;

– yakuniy nazoratning maqsadi o‘quvchilarning didaktik jarayonning barcha bosqichlarida o‘zlashtirgan bilim, ko‘nikmalarini hisobga olishdan iborat. O‘quvchilarning o‘zlashtirish darajalarini yakuniy hisobga olish har bir chorak va o‘quv yili yakunida amalga oshiriladi.

Tashxislashning maxsus turi majmua (yaxlit tarzda) tekshirish hisoblanadi. Bunday nazorat yordamida o‘quvchilarning layoqatlari, turli o‘quv predmetlari doirasida o‘zlashtirgan bilimlari, ko‘nikmalarini amaliyotda qo‘llashlari, amaliy vazifalarni yecha olish darajalari tashxislanadi. O‘qituvchi o‘quvchilar tomonidan bajarilgan ishlarni obyektiv, aniq baholash tajribasiga ega bo‘lishi kerak. Shu bilan bir qatorda u har doim o‘quvchilarga nima uchun, qanday baho qo‘yilishini tushuntirishi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Hasanova G. *Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida o‘z faoliyatlarini baholashda tashxislash ko‘nikmalarini shakllantirishning didaktik imkoniyatlari.* – T.: “Fan”, 2007, 104 b.

2. Ксенцова Г.Ю. *Оценочная деятельность учителя.* // Учебно-методическое пособие. – М. “Педагогическое общество Россия”, 2001. – С. 128.

3. Полуянов Ю.А., Матис Т.А. *Формирование оценки на начальном этапе учебной деятельности* // “Психологическая наука и образование”. – М., 1996. №4. – С. 38-44.

4. Беспалько В.П. *Параметры и критерии диагностической цели.* // Школьные технологии, 2006. №1. – С. 118-128.

Shahlo USMANOVA,

Abror XAITOV,

O'zbekiston Davlat jismoniy tarbiya instituti
katta o'qituvchilari

INDIVID XULQI SHAKLLANISHIDA IJTIMOY VA TABIIY OMILLARNING TA'SIRI

Annotatsiya

Maqola ijtimoiy hayotda namoyon bo'luvchi individ xulqi shakllanishiga bag'ishlangan. Shuningdek, shaxs xulqining manbasi, ijtimoiy me'yorga mosligi va jamiyatga moslashish jarayoniga oid masalalar yoritilgan.

Kalit so'zlar. Xulq, id, ego, superego, kompensatsiya, norozilik, bezovtalik hissi, komform, egotsentrizm.

Статья посвящена формированию поведенческих норм индивида в социальной жизни. Обосновано, что поведение личности обусловлено социальными нормами и адаптацией к общественным процессом.

Ключевые слова. Поведение, ид, эго, суперэго, компенсация, несоответствие, чувство беспокойства, комформ, эгоцентризм.

This article is about human behavior that shows in the social life. Written source of human behavior, conformity to the social standard and process of adaptation to the society.

Key words. Behavior, Id, ego, superego, compensation, inferiority, conform, egocentrism.

Inson doimo ijtimoiy muhit bilan munosabatga kirishadi, jamiyat bilan hamohang faoliyat yuritadi va bu jarayonda uning xulqi namoyon bo'ladi. Xulq deganda, tashqi faollik ko'rinishiga ega bo'lgan, shaxsning ichki faolligi va individual xususiyatlari orqali tevarak-atrof bilan o'zaro munosabat qilish jarayoni tushuniladi.

Xulqni namoyon etuvchi shaxsning psixologik taraqqiyoti borasida ko'plab nazariyalar mavjud bo'lib, bu borada asosiy urg'u shaxs shakllanishida ijtimoiy va tabiiy omillarning ta'siri masalasiga qaratilgan. Masalan, psixoanalitik nazariyada shaxs taraqqiyotini individ biologik xususiyatining jamiyat hayotiga moslashishi, belgilangan himoya mexanizmlarini qo'llash hamda inson ehtiyojlarini amalga oshirish usul va vositalarini yaratish, deb tushunadi. Xususiyatlar nazariyasi individ taraqqiyoti borasidagi o'z qarashlarini inson xususiyatlari hayoti davomida shakllanadi, degan tushunchaga asoslaydi. Ijtimoiy ta'limot nazariyasi shaxs taraqqiyoti jarayonini insonlarda shaxslararo munosabatlarning belgilangan usullari shakllanishi sifatida qaraydi. Gumanistik va boshqa nazariyalarda taraqqiyotni “Men”ning shakllanish jarayoni sifatida talqin etiladi.

Psixoanaliz asoschisi Freyd xulq muammosini o'rganib, o'z davrida insonga nisbatan berilgan, ya'ni inson ongli va o'z xulqini anglaydi, degan qarashga teskari ravishda inson anglanmaydigan mayllar tufayli yuzaga keluvchi doimiy nizolar holatida bo'ladi, degan g'oyani ilgari surdi. U birinchi bo'lib psixikani instinkt, aql va ong o'rtasidagi murosasiz jang maydoni sifatida ta'rifladi. Psixoanalitik nazariyada instinkt, motiv va mayl-

larning o'zaro ta'siriga asosiy o'rin berilib, ular inson xulqini boshqarishda kurashadi va ustunlikka intiladi. Freyd insonning psixik faoliyatini belgilovchi ikki ehtiyojni ajratadi: libido va agressiya. U shaxs psixikasida quyidagi uch tuzilmani ko'rsatadi: *id*, *ego* va *superego*.

Id (lot. – "U") shaxsning sodda, instinktiv va tug'ma jihatlari anglatadi. Id xulqimizni energiya bilan to'ldiruvchi instinktiv biologik mayllar bilan bog'liq bo'lib, ongsiz ravishda faoliyat yuritadi. Freyd talqinicha, id tartib-qoidaga bo'ysunmaydi va biologik mayllar asosida yuzaga kelgan psixik energiyani tezda tarqatishni talab etadi. Id insonning to'liq hayoti davomida o'zining markaziy o'rnini saqlab qoladi.

Ego (lot. "Men") – psixikaning qaror qabul qilish uchun mas'ul qismi hisoblanadi. Ego tashqi olam tomonidan o'rnatilgan tartib-qoida va cheklavlarni inobatga olgan holda idning istagini ifoda etish va amalga oshirishga harakat qiladi. Shu asnoda ego organizmning xavfsizligi va bir butunligini saqlashga yordam beradi.

Superego (lot. "Yuqori men"). Inson jamiyatda samarali faoliyat yuritishi uchun o'zi yashayotgan ijtimoiy muhitda qabul qilingan qadriyatlar tizimi va tartib-qoidalarga ega bo'lishi lozim. Bu ijtimoiylashuv jarayonida yuzaga kelib, psixoanalizning tuzilma modelida – superegoning shakllanishi bilan amalga oshadi. Freyd talqinicha, organizm superego bilan tug'ilmaydi. Bolalar unga ota-onasi bilan o'zaro munosabati natijasida ega bo'lishadi. Bu jarayon bola "to'g'ri" va "noto'g'ri", "yaxshi" va "yomon" o'rtasidagi farqni anglay boshlagan davrda yuzaga keladi (taxminan uch yoshdan besh yoshgacha). Bola nizo va jazolanishdan qochish uchun o'zining har bir xatti-harakatini ushbu cheklovga muvofiq tarzda olib borishga o'rganadi. Bolaning ijtimoiy dunyosi kengayishi bilan (masalan, maktab, tengdoshlar, sport jamoasi) uning superego sohasi ham ushbu yangi guruhlarda muvofiq hisoblangan xulq chegarasiga qadar kengayadi.

Freyd superegoni ikki tizimga ajratadi: *vijdon* va *ego-ideal*. *Vijdon* ota-ona tomonidan jazolanish orqali yuzaga keladi. *Vijdon* o'zida bolaning o'zini tanqidiy baholashi, axloqiy taqiqlarning mavjudligi va aybdorlik hissi paydo bo'lishini qamrab oladi. Superegoning rag'batlantiruvchi jabhasi – *ego-ideal* ota-onaning farzandiga nisbatan maqtovi va uni yuqori darajada baholashi natijasida shakllanadi. Bunday jarayon bolani o'zi uchun yuqori mezonlarni qo'yishiga olib boradi. Agar maqsadga erishilsa, bu bolada o'ziga hurmat va g'urur hissini uyg'otadi. Masalan, o'quvchini maktabdagi muvaffaqiyatlari uchun rag'batlantirilsa, u doimo o'zining yutuqlaridan g'ururlanadi.

Analitik psixologiya asoschisi, Freyding shogirdi K.Yung fikricha, inson psixikasi uch darajadan iborat: ong, shaxsiy ongsizlik, jamoaviy ongsizlik. Shaxs tuzilmasida o'tmishdagi barcha insoniyatdan qolgan xotira izlaridan hosil bo'luvchi jamoaviy ongsizlik asosiy rolni bajaradi. U shaxsiga ta'sir etadi va uning xatti-harakatini tug'ilgan ondan boshlab belgilab beradi. Jamoaviy ongsizlik ayni bir insonda arxetiplar ko'rinishida namoyon bo'ladi. O'z navbatida, jamoaviy ongsizlik ham turli darajalardan tashkil topadi. U milliy, irqiy va umuminsoniy meroslar bilan belgilanadi. Jamoaviy ongsizlik – bu ajdodlarning idroki, o'ylash va his etish, hayotni va dunyoni, insonni anglash usulidir.

Jamoaviy ongsizlikdan tashqari shaxsiy ongsizlik ham bo'lib, u inson ongida alohida kechmaydi. Shaxsiy ongsizlik qachondir anglangan, keyinchalik unutib yuborilgan yoki ongdan siqib chiqarilgan kechinmalardan iborat. Ular ma'lum sharoitlarda qayta anglanadi.

Bundan tashqari, Yung fanga "Men" tushunchasini kiritdi. Bu tushunchaning ortida insonning bir butunlik va hamjihatlikka yo'nalganligi yotadi. Buning asosida onglik va anglanmaganlik o'rtasida muvozanatga erishiladi. "Men" turli ko'rinishda namoyon bo'ladi. Uning namoyon bo'lishiga bog'liq ravishda odamlarni belgilangan tiplarga

ajratish mumkin. Yung shaxsiy tiplar klassifikatsiyasi asosiga insonning o'ziga yoki tashqi obyektga yo'nalganligini qo'yadi. Mos ravishda barcha odamlarni introvertlar va ekstrovertlarga ajratish mumkin. Yung bu asosiy tiplardan tashqari qo'shimcha – intuitiv, fikrlovchi va emotsional tiplar mavjudligini aytib o'tadi.

Freydning boshqa bir shogirdi A.Adlerning fikricha, insonning ijtimoiy hayotdagi faoliyati yuzaga kelishida asosiy o'rinni tabiiy instinktlar emas, balki jamiyat hissi egalaydi va bu his “umumiylilik hissi”, deb nomlandi. Bu his tug'ma bo'ladi, lekin jamiyatda rivojlanadi. Shaxs taraqqiyotida tana organlari rivojida kamchilik mavjud bo'lsa, inson o'zining norozilik hissini kechirishni boshlaydi. Bu holat bolaga nisbatan nomuvofiq munosabat tufayli yoshlikda paydo bo'lishi ham mumkin. Inson norozilik hissini yengish uchun har xil usullarni topishga harakat qiladi va turli ko'rinishdagi kompensatsiyalarga murojaat qiladi.

Adler giperkompensatsiyani yaratish imkoniyati haqida aytadi va kompensatsiya namoyon etilishining quyidagi uch asosiy shaklini ajratadi:

1. Ijtimoiy qiziqishlar bilan taraqqiyotga intilishning muvofiqligi natijasida norozilik hissini muvaffaqiyatli kompensatsiya qilish.

2. Yuqorikompensatsiya – qaysidir bir xususiyat yoki qobiliyatning kuchli rivojlanishi natijasida hayotga bir tomonlama moslashishni anglatadi.

3. Kasallikka ketish – bunday holatda inson norozilik hissidan qutila olmaydi; o'zini kompensatsiya qilolmaydi va o'z muvaffaqiyatsizligini oqlash uchun kasallik simptomlarini yaratishi mumkin.

Tana organlari rivojida kamchilik mavjud bo'lgan insonlar uchun yuqorikompensatsiyani qo'llash ijobiy samara beradi. Yuqorikompensatsiyani yaratish natijasida imkoniyati cheklangan yoki jismonan zaif va irodasiz kishilar qat'iy xatti-harakatlar qilishni boshlaydi, ijtimoiy hayotda yuqori darajali yutuqlarga erishadi.

Bu borada imkoniyati cheklangan sportchilarimizning yurtimiz bayrog'ini jahon sport arenalarida yuqori ko'tarilishini, mamlakatimiz obro'sining xalqaro maydonda yanada oshishiga o'zlarining munosib hissalarini qo'shishni oliy maqsad qilgan holda Paraosiy o'yinlarida yutuqlarini alohida aytib o'tish joiz. Jumladan, Janubiy Koreyaning Incheon shahrida bo'lib o'tgan XVII yozgi Osiyo o'yinlari va II Paraosiy o'yinlarida yurtimiz sportchilari Vatanimiz sharafini munosib himoya qildilar. Osiyo o'yinlarida 61 nafar sportchimiz sovrindorlar safidan o'rin egallagan bo'lsa, Paraosiy o'yinlarida yurtdoshlarimiz 22 bor shohsupaning eng yuqori pog'onasiga ko'tarildilar. Bundan tashqari, 15 nafar paralimpiyachilarimiz 2016-yil Braziliyaning Rio-de-Janeyro shahrida o'tkaziladigan XV Paralimpiya o'yinlarining yo'llanmalariga ega bo'ldilar.

Shaxs taraqqiyoti borasida ko'plab izlanishlar olib borgan psixolog K.Xorni inson mohiyatining asosini tug'ma bezovtalik hissida ko'radi. Go'dak ushbu his bilan tug'iladi va o'z hayotining birinchi kunlaridan o'zini bezovta his qila boshlaydi. Ushbu his uning oldindagi hayotiga tus beradi va psixik faoliyatning ichki xususiyatiga aylanadi. Bu his nima uchun paydo bo'ladi? Xornining fikricha, inson doimo dunyoning dushmanligini his etadi va undan xalos bo'lish hissi bezovtalikni keltirib chiqaradi. Insonning barcha urinishlari – bu bezovtalik hissini ko'chirishdir. Bu jarayon inson harakatining asosiy motivatsiyasi hisoblanadi. Xorni bu jarayonni inson harakatini belgilovchi asosiy xavotir hissi deb nomlagan. Asosiy xavotir xavfsizlikka intilishga majbur qiladi.

Xornining ta'kidlashicha, insonni ikki tendentsiya boshqaradi: xavfsizlikka va o'z istaklarini amalga oshirishga intilish. Bu ikki intilish ko'p hollarda bir-biriga qarshi bo'lishi kuzatiladi. Buning oqibatida nevrotik nizo paydo bo'ladi. Individ xulqning belgilangan

usullarini yaratish orqali ushbu nizoni so'ndirishga harakat qiladi. Xorni xulqning to'rt tipini ajratdi. Birinchisi, hayotda xavfsizlikni ta'minlash vositasi sifatida "sevgiga nevroitik intilish"da namoyon bo'ladi; ikkinchisi, odamlarga nisbatan qo'rquv va dushmanlik bilan belgilanuvchi "hukmronlikka nevroitik intilish"da ko'rinadi; uchinchi tip insonlardan yakkalanishga intilish; to'rtinchi tip o'zining ko'maksizligini tan olishda namoyon bo'ladi (nevroitik bo'ysunuvchanlik).

Shaxs taraqqiyoti borasidagi qarashlarini E.Erikson ijtimoiy hayot bilan bog'laydi. Bu borada u shaxs rivojining sakkiz bosqichini ajratadi va har bir inson o'z hayoti davomida ushbu bosqichlarni bosib o'tadi. Ular ikki yo'nalishda kechadi, me'yoriy va me'yordan og'ish. Me'yoriy yo'nalishda bosib o'tilgan bosqichlar individning har tomonlama yetuk inson bo'lib yetishishini ta'minlaydi.

Rivojlanish bosqichi	Me'yoriy rivojlanish yo'nalishi	Me'yordan og'ish rivojlanish yo'nalishi
1. Erta go'daklik (tug'ilgandan 1 yoshgacha)	Insonlarga ishonch. O'zaro muhabbat, yaqinlik, ota-ona va bola o'rtasida o'zaro hurmat, bolaning muloqotga va boshqa hayotiy muhim ehtiyojlarini amalga oshirish.	Onaning bolaga yomon munosabati tufayli insonlarga ishonchsizlik, ularga nisbatan rad etish, beparvolik, muhabbatdan mahrumlik. Bolani erda ko'krakdan ayirish, uning hissiy yakkalanishi.
2. Kech go'daklik (1 yoshdan 3 yoshgacha)	Mustaqillik, o'ziga ishonch. Bola o'ziga erkin, alohida, lekin hali ota-onasiga bog'liq inson sifatida qaraydi.	O'zidan shubhalanish, yuqori uyat hissi. Bola o'zini layoqatsiz his qiladi, o'zining layoqatlariga shubha bilan qaraydi. Oddiy harakat malakalari, masalan, yurish rivojlanishiga nisbatan kamchiliklarni his etadi. Unda nutq kuchsiz rivojlangan bo'lib, o'zining zaifligini atrofdagi odamlardan kuchli darajada bekish hissi bo'ladi.
3. Erta bolalik (3-5 yosh atrofi)	Qiziquvchanlik va faollik. Tashqi olamni yorqin tasavvur etish va qiziqish bilan o'rganish, kattalarga taqlid qilish.	Passivlik va insonlarga befarqlik. Sustlik, tashabbusning yo'qligi, boshqa bolalarga nisbatan bolalarga xos hasad hissi, tushkunlik, xatti-harakatlarda noaniqlik.
4. O'rta bolalik (5 yoshdan 11 yoshgacha)	Mehnatsevarlik. Burch hissini ifoda etish va muvaffaqiyatga erishish uchun harakat qilish. Bilish va muloqot malakalarining rivojlanganligi. O'z oldiga aniq vazifa qo'yish va hal etish.	O'ziga nisbatan qadrsizlik hissi. Kam rivojlangan mehnat malakalari. Qiyin vazifalardan, boshqa odamlar bilan bellashuvdan qochish. Komformlik. Turli vazifalarni hal etishda qilinayotgan xatti-harakatlarning behudaligi hissi.
5. Jinsiy yetuklik, o'smirlik yoshi va o'spirinlik (11 dan 20 yoshgacha)	Hayotda o'z o'rnini belgilab olish. Kelajakka nisbatan rejalarini tuzish. Kim bo'lish? va qanday bo'lish kabi savollarga javob topish, o'z yo'lini belgilash.	Kelajak, hozir va o'tgan zamon haqida fikrlarning paydo bo'lishi va aralash ekanligi. Mehnat faolligining pasayishi, rejalarining yo'qligi.
6. Erta katta yoshlilik (20 dan 45 yoshgacha)	Odamlarga yaqinlik, munosabatga intilish, o'zini ularga bag'ishlash xohishi. Farzand tarbiyalash, muhabbat, kasb. O'z hayotidan rozilik.	Odamlardan yakkalanish. Yaqinlaridan qochish. Xarakterning qiyinligi, tushunarsiz munosabat, baholab bo'lmas xatti-harakat. Psixikada og'ishning birinchi simptomlari, tasavvurdagi tahdid soluvchi kuchlar ta'sirida paydo bo'luvchi ruhiy tushkunlik.

<p>7. O'рта katta yoshlilik kattalik (40-45 dan 60 yoshgacha)</p>	<p>Ijodkorlik. O'z ustida va boshqalar bilan unumli va ijodiy mehnat. Barkamol, qadrlil va rang-barang ko'rinishdagi hayot. Oilaviy munosabatlardan rozilik va o'z farzandlaridan mag'rurlik hissi.</p>	<p>Harakatsizlik. Egoizm va egotsentrizm. Unumsiz mehnat. Erta nogironlik. Faqat o'zi haqida qayg'urish.</p>
<p>8. Kech katta yoshlilik (60 dan katta yosh)</p>	<p>Hayotning to'laligi. Doimo o'tgan hayotni o'ylash va undan rozi bo'lish. Yashagan hayotini qanday bo'lsa, shunday qabul qilish. O'limni yengil qabul qilish.</p>	<p>Achinish. Hayoti zoye ketganini, vaqt kam qolganligi va tez o'tayotganligini his qilish. O'zining mavjudligini ma'nosiz deb hisoblash, o'ziga va boshqalarga ishonchini yo'qotish. Qayta yashashni, hayotda erishganlaridan boshqa ortiqroq narsalarga erishishni xohlash. O'limdan qo'rqish.</p>

Insonning ijtimoiy hayotdagi o'rni va jamiyat a'zosi sifatida faoliyat yuritishining psixologik mexanizmlari muhim bo'lib, bu jarayon *ijtimoiylashuv* deb yuritiladi. Individ ijtimoiylashuv jarayonida jamiyat tomonidan ma'qullangan ijtimoiy xulqni shakllantiradi.

Xulq bajariladigan harakatlarda, organizmning tashqi muhit bilan o'zaro aloqa o'rnatishida, o'z hayotini saqlash va rivojlantirishga bog'liq bo'lgan tashqi muhit xususiyatlari bilan munosabat olib borishda, organizm ehtiyojini ta'minlashda, belgilangan maqsadni amalga oshirishda rejali tizimni o'zida namoyon etadi. Xulqning manbasi tirik organizmning ehtiyoji hisoblanadi. Bu ehtiyojning ta'minlanishi maqsadida ijro etuvchi harakatlar yuzaga keladi va xulqni namoyon etadi.

Barcha odamlar xulqi doimo turli ijtimoiy me'yorlar yordamida baholanadi va tartibga solinadi. Ijtimoiy me'yor – ijtimoiy jamoa o'z a'zolariga ular faoliyatini va munosabatini boshqarish maqsadida taqdim etuvchi talab va istaklar majmui hisoblanadi. Xulq ijtimoiy-me'yoriy mezonlar bilan mos ravishda ma'lum vaqtda jamiyat talabiga muvofiqligi me'yoriy xulq sifatida qabul qilinadi va ma'qullanadi. Og'ish xulqi esa teskari ravishda asosiy jamiyat tartib-qoidasiga zid keladi. K.Yung me'yoriy xulqli shaxsni yaxlit, bir butun shaxs nuqtai nazaridan qaragan. Yaxlit shaxs onglilik va anglanmaganlik o'rtasidagi muvozanat, hayotning ob'ektiv shartiga shaxs qadriyatlarining mosligi, o'z-o'zi bilan rozilik, o'zini shakllantira olishi bilan ajralib turadi.

Shaxs xulqi o'zida ijtimoiylashishni, jamiyatga qo'shilishni aks ettiradi. Ijtimoiylashish individual xususiyatlarni hisobga olgan holda ijtimoiy muhitga moslashishni belgilaydi. Inson xulqi doimo jamiyat tartibiga mos va ongli, ijtimoiy, maqsadga asoslangan, erkin va bunyodkor faoliyat tavsifini namoyon etmogi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karimova V.M. *Psixologiya. O'quv qo'llanma.* – T.: A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, “O'AJBNT” markazi, 2002.
2. Маклаков А.Г. *Общая психология: Учебник для вузов.* – СПб.: Питер, 2008.
3. Змановская Е.В. *Девиантология: (Психология отклоняющегося поведения):* - М.: Издательский центр “Академия”, 2003.
4. Ларри Х., Дэниел З. *Теория личности.* 1992.

O'ktam SHAMSIYEV,

O'zbekiston Milliy universiteti dotsenti, p.f.n.

OILAVIY XOLDING – BOLA IJTIMOIYLASHUVINING PSIXOLOGIK MEXANIZMI

Annotatsiya

Maqolada sog'lom bolaning dunyoga kelishi va shakllanishi jarayonida ona hamda oilaviy muhitning ahamiyati yoritilgan. Shunindek, muallif mavzuga doir adabiyotlar tahlili va shaxsiy ilmiy tadqiqotlarining xulosalarini asoslab o'tgan.

Kalit so'zlar. Dastlabki muloqot, ota-ona, ruhiy holat, munosabat, psixologik erkinlik, muhitga moslashish.

В данной статье освещена роль матери и семейных условий в рождении здорового ребенка и в процессе дальнейшего развития. Автором сделаны научные выводы на основе анализа источников и собственного исследования.

Ключевые слова. Первичное общение, родители, душевное состояние, отношение, психологическая свобода, адаптация к окружающей среде.

In this article highlights the role of mother to and family conditions in the birth of a healthy baby in the development process. This in it's opinion and arguments grounded in literary analysis as well as scientific conclusions personal research.

Key words. Primary communication, caring attitude, physical, biological and psychological freedom during infancy and childhood.

Prezident Islom Karimov O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilganining 23 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimida nutq so'zlab, jamoatchilik fikrini yana bir marotaba mehribon va munis onalarimizga, ularning tarbiyachi sifatida hamda jamiyat taraqqiyotiga qo'shadigan hissalariga qaratdilar: "... Sog'lom bola sog'lom va ahil oilaning mevasi bo'lib, faqatgina sog'lom onadan sog'lom bola tug'iladi", deya ta'kidladi.

Darhaqiqat, go'dakning ijtimoiy muhitga moslashishi, shaxslararo munosabatlar-da o'z o'rnini topishida oila, oilaviy munosabatlar, ona-bola-ota uchligi o'rtasidagi mu-loqotning ahamiyati qanchalik katta ekanligi ma'lum. Biroq bu masalaning bir tomoni, boshqa tomoni esa go'dakning qanchalik fiziologik jihatdan sog'lomligiga ham bog'liq.

Shu o'rinda ta'kidlash joizki, davlatimiz tomonidan sog'lom ona va bolalarga qaratilayotgan e'tibor yuqorida ta'kidlangan ularning fiziologik, biologik, ham psixologik jihatdan sog'lom dunyoga kelishlari va ijtimoiy muhitga jadal kirishishlariga zamin yaratmoqda.

Ma'lumki, bolaning shaxs sifatida shakllanishiga, uning ijtimoiylashuvi, ya'ni katta hayotga kirib borishi, inson orasida o'z o'rnini topishiga xizmat qiladigan asosiy omil oila va oiladagi shaxslararo munosabatlar ekanligi juda ko'p tadqiqotlarda o'rganilganligi manbalarda keltirilgan. Biroq oiladagi ota-ona, er-xotin, opa-singil, aka-uka munosa-

batlari hamda ona, ota, opa, aka, ukalarning bola shaxsi shakllanishi va ijtimoiylashuvdagi roli alohida tadqiqot doirasida kam o'rganilgan. Shu munosabat bilan bola ijtimoiylashuvda ona shaxsining ahamiyati haqida o'zimizning ayrim mulohazalarimizni bildirishni lozim topdik.

Bola tug'ilguniga qadar va ontogenez davrida uning shakllanishi hamda rivojlani-shida onaning roli beqiyos ekanligi ma'lum. Bola dunyoga kelishi jarayonida oiladagi shaxslararo munosabatlar, ya'ni ota-ona munosabatlari, ayniqsa, onaning psixologik holati, uning homiladorlikka nisbatan munosabati muhim hisoblanadi. Onaning homiladorlik vaqtidagi ruhiy holati bola shakllanishi va rivojlanishiga ta'sir ko'rsatishi ham ko'p tadqiqotlar natijasida isbotlangan. Biroq ayolning ruhiy holati homilaning jinsiga nisbatan ham turlicha ta'sir ko'rsatishi, ya'ni o'g'il bolaga nisbatan boshqacha ta'sir ko'rsatsa, qiz bolaga nisbatan esa mutlaqo boshqacha ta'sir ko'rsatishi bugungi kunga kelib ma'lum bo'lmoqda. Yana shuni aytish mumkinki, onaning ruhiy holati qiz bolaga nisbatan o'g'il bolaga ko'proq ta'sir qiladi va bu bola tug'ilganidan keyingi davrlarda ham e'tiborga ko'proq moyil hisoblanadi. Shuningdek, bolaning embrionlik va tug'ilganidan keyingi rivojlanishida ona-bola va kattalar aloqasining mustahkamligi hamda ona samimiyligining bolaga ta'siri masalasi tadqiqotchilar diqqat markazida turgan masalalardan biridir.

Shu o'rinda XXI asr ilm-fanining diqqat markazida bo'lgan onaning ruhiy holati tug'ilajak bolaning hayot faoliyatiga ta'sir etishi masalasini o'zbek xalqining birgina “ALP – ONADAN” degan naqli bilan izohlash mumkin. Bu ham bizning yuqoridagi fik-rimizni isbotlaydiki, yigitlik fazilatlarida ham alp-onaning bevosita ta'siri bo'ladi. Zero, asrlar davomida shakllanib, qadrlanib kelayotgan urf-odatlarimiz, an'analarimiz, qad-riyatlarimiz, xalqimizning ko'p yillik kuzatishlari asosida shakllanib kelgan bu naqlda onaning ruhiy holati, xotirjamligi uning farzandiga mehri natijasida tom ma'nodagi, ya'ni biologik, ham fiziologik va ayniqsa, psixologik sog'lom farzandni dunyoga keltirish va voyaga yetkazishdek mas'uliyatli mehnat yashirganligini ko'rishimiz mumkin.

Sharq va G'arbiy Yevropaning bir qator mamlakatlarida faoliyat olib borayotgan mutaxassislar bola rivojlanishi jarayonidagi dastlabki muloqot bir kishi bilan – odatda onasi bilan bo'ladigan muloqotni go'dakning to'laqonli rivojlanishi uchun ideal deb hisoblashadi. Bunday muloqot mehrga to'laligi, o'yinlar va interaktiv dialoglarga boyligi bilan ajralib turadi. Ushbu muammo doirasida olib borilgan tadqiqot va izlanishlar natijalari go'daklik va bolalik davridagi jismoniy, biologik hamda psixologik erkinlik bolaning shaxs sifatida to'g'ri shakllanishiga xizmat qiladigan asosiy omillar ekanligini ko'rsatmoqda. Bundan tashqari, go'dakning onasi bilan kechadigan dastlabki muloqoti buvisi, buvasi, opa-singil kabi keng doiradagi muloqotlarning ham shakllanishi va rivojlanishiga asos bo'lib xizmat qiladi. Bola rivojlanishining dastlabki davrlarida unga atrof-dagilarning g'amxo'rli-gi zarur. Ushbu munosabatlar qanchalik muloqotga boy bo'lsa, bola shunchalik sog'lom va o'ziga ishonch bilan voyaga yetadi. Bola bir yoshga to'lgunga qadar bo'lgan davr noverbal (so'zsiz) muloqot davri bo'lib, undagi barcha o'zgarishlar yaqinlari, ayniqsa, onasi bilan emotsional, bevosita munosabat-larning natijasi sifatida bora-bora muomalaga til hamda tovushlar bilan bog'liq belgilar kirib kela boshlaydi. Agar ota va ona tomonidan ko'rsatilayotgan g'amxo'rlik doimiy va samimiy bo'lsa, ya'ni haqiqiy, g'amxo'r ona bolasining ayni paytdagi barcha ehtiyojlarini qalban his qilib, o'sha zahoti qondirishga harakat qiladi. Bu jarayonda tan – vujud bilan ona-bolaning yaxlitligi o'ziga xos hissiyot bo'lib, u ko'pincha fanda “XOLDING”

(inglizcha “tutish”, “ushlash” soʻzidan olingan) tajribasidan kelib chiqadi. Yaʼni ona oʻz farzandini qoʻlidan ushlab, tanasi tanasiga tekkanda his qiladigan kechinmalari orqali boladagi oʻzgarishlarni tuyadi, his qiladi. Goʻdak ham onasini shu qadar yaqin hissiy-emotsional tarzda his qiladiki, u hatto maʼlum masofadayoq onaning kelayotganligini, yaqinlashgani va “hozir qoʻliga olishini” bilar ekan. Aynan shu holatni psixologlar goʻdakdagi yetakchi faoliyat deb atab, unga juda katta ahamiyat beradilar.

Xorijlik mutaxassislarning fikricha, “xolding” tajribasi kam boʻlgan onalarning shaxsiy muammolari koʻp boʻlib, ular bolani qoʻlida ushlaganda ham deyarli hech nimani his etmaydilar. Ana shunday chaqaloqlarda keyinchalik beixtiyor tarzda roʻy beradigan psixik funksiyalar rivojida muayyan muammolarni vujudga keltirishi mumkin, masalan, ixtiyoriy ravishda diqqatni bir narsaga toʻplash, ixtiyoriy ravishda u yoki bu narsani eslab qolish, gapirish, mantiqiy fikrlash kabilar.

Gapirish, nutq faoliyati bilan bogʻliq psixik funksiyalar koʻpincha sinxronizatsiya jarayonida shakllanadi. Bolasini suyib, uning his-kechinmalarini bilish qobiliyatiga ega boʻlgan ona odatda bolasining psixik rivojlanishida barcha qiliqlarini, ulardan qanday foydalanish malakalarini orttirib boradi.

Bolaning kognitiv rivojlanishi, yaʼni fikrlar tarbiyasi, dunyoqarashlarning shakllanishiga ham onaning xulq-atvori katta taʼsir qiladi. Yevropalik mutaxassislarning kuzatishlarida onaning har bir harakati, mimikalari, erkalash, bolaning tepasida turib, unga qiladigan muomalasi bora-bora bola oʻzlashtiradigan alohida iboralar, soʻzlarda namoyon boʻladi. Shaxsiy kuzatishlarimiz asosida shu narsa maʼlum boʻldiki, onaning qiliqlari tobora bolaning nutqli-nutqsiz, mantiqiy-mantiqsiz harakatlariga, ishoralariga aylanib boradi, keyinchalik bola alohida soʻzlarni talaffuz qila boshlaganda ham beixtiyor onaning mimikalari, talaffuz uslublarini qaytaradi. Shu tariqa onaning bevosita ishtiroki va yordamida bola dunyoni taniydi, oʻrganadi, oʻzi haqidagi tasavvurlari koʻlami ham borgan sari ortib boradi.

Aynan yuqorida taʼkidlagan fan tilidagi “xolding” tajribasini tushunish uchun tipik oʻzbek oilalaridagi shaxslararo munosabatlarni koʻz oldimizga keltiraylik. Buvilarimiz nabiralarini kuzatar ekan, koʻpincha bola yigʻlamasdan turib uning chanqaganligi yoki och qolganligini oldindan his qiladi. Buni ham oʻziga xos sogʻlom oilaviy muhitda shakllangan koʻnikma, xolding tajribaning bir koʻrinishi deyish mumkin.

XX asr oʻrtalaridan boshlab psixologlar goʻdakning unga gʻamxoʻrlik qilayotgan odamlar bilan dastlabki munosabatlarini tadqiq etib, bu jarayonga nisbatan “mehribonlik” atamasini qoʻllay boshladi. Bu tushunchani kuchli oʻzaro yaqinlik, ikki tomonlama intensiv hissiyotlar va emotsional aloqalar bilan izohlash mumkin.

Bolaga gʻamxoʻrlik qilayotgan kishilarga ularga qanchalik mehribonlikni namoyon etishini oʻz tadqiqotlarimizda kuzatganmiz va bir qancha izlanishlarda qoʻllanilgan “Notanish vaziyat” testidan foydalandik. Testdan koʻzlangan asosiy maqsad ona, bola mehribonligini baholash boʻlib, bu testni kichik spektakl deyish mumkin. Ushbu testni oʻtkazishda oʻyinchoqlar bilan jihozlangan notanish xona, unda ona, bir yoshli bolasi va bir notanish kishi ishtirok etadi. Eksperiment vaqtida ona xonani bir-ikki marta tark etadi. Birinchi marotaba ona farzandini uch daqiqaga notanish kishi bilan, keyin esa bir oʻzini yolgʻiz qoldiradi. Bunda bolaning yolgʻiz qolgandagi va ona xonaga qaytgandagi oʻzini tutishi tahlil qilinib, xulosa chiqariladi.

Onaga juda mehribon boʻlgan bolalar onalari bilan doim birga boʻlishgan. Bunday bolalar 2, 3, 4 va 5 yoshli tengqurlariga qaraganda qiziquvchan, kirishuvchan, mustaqil va oʻzini-oʻzi anglash darajasi moʻtadil rivojlangan boʻladi. Tadqiqotlarda 32 foiz bolalar

onasiga mehribon emasligi aniqlanib, ular tortinchoq va qaysar guruhlarga ajratilgan. Bunday bolalarda vaqt o'tishi bilan mustaqillikka intilish hissi kuchli bo'ladi.

Xorijlik psixologlar ham uch toifali – mehribon, tortinchoq, qaysar bolalarni kuzatar ekanlar, ularning o'zlarini tutishlarida, psixik rivojlanishida va tengqurlari bilan muloqotda bir-birlaridan tubdan farq qilishini aniqlashdi.

Mehribon bolalar 18 oyligidayoq hamkorlikdagi faoliyatga tayyor ekanliklari, ularning ishtiyoqlari baland ekanligi va qat'iyatliliklari namoyon bo'ladi. Ikki yoshda esa tengqurlari bilan faol muloqotga kirisha oladi, o'yinchoqlarni tartib bilan o'ynaydi va turli o'yinlarda o'z fantaziyalaridan foydalana oladi. Besh yoshli bolalarda ham bunday farqlar saqlanadi. Keyinroq boshlang'ich sinflarda esa juda mehribon bo'lgan bolalar o'qishda ham yaxshi yutuqlarga erishib, tengqurlari va kattalar bilan faol muloqotga kirisha oladilar.

Ko'plab tadqiqotlar tahlili bolaning ijtimoiy-psixologik rivojlanishini onasining rahmdilligi va ziyrakligi bilan bog'laydilar. O'tkazilgan tadqiqotlar vaqtida juda mehribon bo'lgan bolalarning onalari o'ta topqir ekanliklari va bolasining savollariga hushyorlik bilan javob qaytarishlarini aniqladi. Bundan tashqari, bir yoshli juda mehribon bolalarning onalari ularning har bir harakatiga ziyraklik bilan javob qaytarib, bolaning ovqatlanish va o'yin vaqtlarini bir-biriga moslay olishadi.

Shuningdek, boshqa tadqiqotchilar ham bunday bolalarning onalari farzandining ehtiyojlarini ziyraklik bilan aniqlay olishini hamda unga qachon, nima kerakligini uning yuz harakatlari va ovoizdan bilib olishlarini ta'kidlashgan.

Tadqiqotlar yana shuni ko'rsatadiki, endi yurishni boshlayotgan bolalar, ya'ni jismoniy zo'riqishni boshdan kechirayotgan bolalarga mehribonlik ko'rsatilmasa, ularda o'z “Men”ini anglashi va nutqining shakllanishida buzilishlar yuzaga kelishi mumkin. Agar bolalar hayotining birinchi yilida kimgadir juda mehr bilan bog'lanib qolsa, ikki yoshligida unga qilingan noto'g'ri munosabatlarning noxush ta'siri ham kamroq bo'ladi.

Oilaviy shaxslararo munosabatlarda ona roli va timsolining ahamiyati yana shundan iboratki, bola bir yoshga to'lgunga qadar ota va ona shaxsini bir obyekt ona sifatida ko'radi va bir yoshdan boshlabgina otani alohida shaxs sifatida anglay boshlaydi.

Yuqoridagilardan xulosa qilish mumkinki, bola onaning mehrini his qiladi va unga ham shu tarzda javob qaytaradi. Modomiki, shaxs shakllanishi bola qalbidagi mehr-muruvvat, mehribonlik, hamdardlik, oqibat kabi sharqona qadriyatlarimizdan boshlanar ekan, farzandlarimiz kamoloti poydevorlari har birimizning xonadonimizdan, xonadonlarimiz fayzi bo'lmish onalardan boshlanishiga shubha yo'q. Bu psixologiya tili bilan aytganda, sog'lom oilaviy muhit, undagi insonlarning o'zaro mehr-muruvvatli munosabatlaridan boshlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimova V.M. *Ijtimoiy psixologiya*. – T.: “Fan va texnologiya”, 2012. – 172 b.
2. Shamsiyev O'.B. *Oilaviy munosabatlar tizimida bolaning o'zini-o'zi anglash jarayoni // O'quv-uslubiy qo'llanma. “Mumtoz so'z”, 2012. – 52 b.*
3. Винникотт Д.В. *Разговор с родителями*. – М.: “Класс”, 1995. – С. 92

Jahongir G'ANIYEV,
Oybek ARTIKBAYEV,

O'zbekiston Davlat jismoniy tarbiya instituti
o'qituvchilari

GLOBALLASHUV DAVRIDA MILLIY QADRIYATLARNING TA'LIM-TARBIYADAGI O'RNI

Annotatsiya

Maqolada yosh avlod ta'lim va tarbiyasining milliy-ma'naviy asoslari hamda o'zbek xalqining boy ma'naviy merosi asosida tarbiyalashning muhim ahamiyati tahlil etilgan. Shuningdek, mualliflar zamonaviy ta'limning muhim vazifalari va masalalarini keng yoritib o'tgan.

Kalit so'zlar. Ma'naviyat, madaniyat, ta'lim, tarbiya, odob, axloq, taraqqiyparvarlar, tarixiy meros, vatanparvarlik, intellektual salohiyat, umumbashariy qadriyatlar, milliy qadriyatlar, ommaviy madaniyat, globallashuv, shaxs.

В статье рассмотрены национально-духовные основы образования и воспитания молодого поколения путём использования богатого духовного наследия узбекского народа. Также освещены важные вопросы и задачи современного воспитания.

Ключевые слова. Духовность, культура, обучение, воспитание, этика, нравственность, историческое наследие, патриотизм, интеллектуальный потенциал, национальные ценности, глобализация, личность.

This article describes the national and spiritual foundations of education and upbringing of the younger generation. Today is very important to nurture the younger generation on the basis of the rich spiritual heritage of the Uzbek people. It is a priority of the modern national education system.

Key words. Spirituality, culture, training, education, ethics, moral, historical heritage, universal values, mass culture, personality.

Bugungi kunda dunyoda keskin ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlar yuz berayotgan vaqtda ta'lim-tarbiyaning milliy-ma'naviy negizlariga e'tibor muhim ahamiyat kasb etayotganini ko'rish mumkin. Shu o'rinda sharqda azaldan ta'lim-tarbiya va milliy ma'naviyatning doimo uzviy aloqada bo'lganligini e'tiborga olish va umumbashariy qadriyatlar bilan birgalikda rivojlanish sari qadam tashlash lozimligini unutmashlik darkor.

Arxeologik tadqiqotlar va tarixiy izlanishlar shundan dalolat beradiki, ushbu zaminda istiqomat qilgan ajdodlarimiz uzoq o'tmishda ham hunarmandchilik, san'at, quruvchilik, ilm-fan, ta'lim-tarbiya sohalarida ulkan natijalarni qo'lga kiritgan. Bugungi yosh avlod haqli ravishda buyuk bobokalonlarimiz Mahmud Koshg'ariy, Burhoniddin Rabg'uziy, al-Xorazmiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Ahmad Farg'oniy, Hakim at-Termiziy, Imom Buxoriy, Alisher Navoiy, Mirzo Ulug'bek, Zahiriddin Muhammad

Bobur kabi tabarruk nomlarni faxr bilan tilga oladilar. Ularning insoniyat ilmi fani, axloqiy tarbiyasiga qo'shgan hissalarini bebahodir. Qolaversa, diyorimizda minglab muhandislar, quruvchilarning mashaqqatli mehnatlari evaziga barpo etilgan hali-hamon dunyo ahlini hayratga solib kelayotgan me'moriy obidalar ham yuksak bilimni, mahoratni talab qilgani sir emas.

O'zbek xalqining boy o'tmishi va unda ta'lim-tarbiyaning o'rni to'g'risida Prezidentimizning quyidagi fikrlari diqqatga sazovordir: “O'zlikni anglash tarixni bilishdan boshlanadi. Isbottalab bo'lmagan ushbu haqiqat davlat siyosati darajasiga ko'tarilishi zarur. Jamiyat taraqqiyotining asosi, uni muqarrar halokatdan qutqarib qoladigan yagona kuch ma'rifatdir. Aql-zakovatli, yuksak ma'naviyatli kishilarni tarbiyalay olsak, oldimizga qo'ygan maqsadlarga erisha olamiz, yurtimizda farovonlik va taraqqiyot qaror topadi”.

Yurtimiz hududida azaldan ta'lim va tarbiyaga bir-biridan ajralmas uzviy bog'liq tushunchalar sifatida qaralgan. Bunga, albatta, o'ziga xos ijtimoiy, siyosiy va tarixiy shart-sharoitlar sabab bo'lgan. Asrlar mobaynida shakllangan “ustoz-shogird” tizimi, ta'lim-tarbiya ishlari milliy ma'naviyatimiz bilan hamohang holda olib borilishi natijasida, u axloq-odob normalari bilan boyitildi va o'zini oqladi.

Jamiyatda kechayotgan ijtimoiy, xususan, ta'lim sohasidagi islohotlarning samaradorligi fuqarolar ma'naviyatiga bog'liq. Shu bois mustaqillikning dastlabki yillarida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti jamiyat rivojlanishining ma'naviy-axloqiy negizlarini aniq belgilab berdi. Bular:

- umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik;
- xalqimizning ma'naviy merosini mustahkamlash va rivojlantirish;
- insonning o'z imkoniyatlarini erkin namoyon qilishi;
- vatanparvarlik.

Zero, jamiyat rivojlanishi faqat uning iqtisodiy taraqqiyotinigina emas, balki ma'naviy yuksalishini ham taqozo etadi.

Har qanday mafkura kabi O'zbekiston Respublikasi milliy istiqloq mafkurasining asosiy g'oyalardan biri ham jamiyatda ma'naviy-axloqiy qarashlarning ustuvorligiga erishish sanaladi.

Ijtimoiy tarbiyaning boshqa turlari kabi ma'naviy-axloqiy tarbiya asosini ham ilg'or milliy, ma'naviy-axloqiy qadriyatlar, xalq pedagogikasi g'oyalari tashkil etadi.

Ma'naviyat shaxs, xalq, davlat va jamiyatning kuch-qudrati, taraqqiyoti, imkoniyatlari va istiqbollari belgilab beruvchi ichki ijobiy, ruhiy omildir.

Ta'lim-tarbiyaning milliy ma'naviy negizlari to'g'risida gapirganda ma'naviy-axloqiy tarbiya uning asosiy tarkibiy qismi ekanligini ta'kidlab o'tish lozim. Ma'naviy-axloqiy tarbiya va unga qo'yiladigan talablar bu jamiyatda ma'lum ijtimoiy-axloqiy talablarga mos axloqiy xislatlarni shakllantirish maqsadida o'quvchilar ongi, hissiyotlari hamda xulqiga muvofiq va tizimli ta'sir etishdir.

Ma'naviy tarbiya vazifalari quyidagilardan iborat:

1. Yoshlarda ma'naviy-axloqiy ongni shakllantirish.
2. Ularda ma'naviy-axloqiy his-tuyg'ularni tarbiyalash va rivojlantirish.
3. Yoshlarda ma'naviy-axloqiy xulq-atvor ko'nikma va odatlarini tarkib toptirish.

Ta'lim-tarbiyaning ma'naviy negizlari mohiyatiga ko'ra, inson ongining jamiyat bilan aloqadorligi, jamiyat oldida burchli ekanligi, o'z xulq-atvorini jamiyat taraqqiyoti darajasiga bog'liqligini tushunishi, jamiyat tomonidan tan olingan axloqiy me'yor, ideal hamda talablarni bajarishda mas'uliyatni his etishi, ma'naviy-axloqiy bilimlarning

e'tiqodga aylanishi va bu e'tiqodlarning tizimliliği, mustahkam ma'naviy-axloqiy his-tuyg'u va xislatlarni shakllantirish, o'quvchilar tomonidan ma'naviy-axloqiy xulq-atvor jamiyat a'zolariga bo'lgan hurmat-e'tiborni namoyon etuvchi mezonlardan ekanligining anglab yetilishi, ma'naviy-axloqiy odatlarning shakllanishi va boshqalardan iborat.

Ma'naviy-axloqiy tarbiya mazmunida milliy va umuminsoniy qadriyatlarni tiklash masalasining kun tartibiga qo'yish zaruriyatining yuzaga kelganligi munosabati bilan tub o'zgarishlar yuz berdi.

Ta'lim-tarbiyaning milliy-ma'naviy negizlari to'g'risida gapirilganda oilaning roli nihoyatda muhim ekanligini unutmaslik lozim. Sababi, inson dastlabki tarbiyani oilada oladi. Asrlar mobaynida shakllanib kelgan urf-odatlarimiz, qadriyatlarimizdan xabar topadi.

Ta'lim muassasasida o'quvchilarga qadriyat sifatida munosabatda bo'lish ham dolzarb ahamiyatga ega. Zero, ta'lim tizimida eng muhim, asosiy tamoyillardan biri ta'limni insonparvarlashtirish va demokratlashtirish bo'lib, uning asosiy mohiyati o'quvchi shaxsiga insoniy munosabatda bo'lishni, ta'lim jarayonini erkinlashtirishni talab etadi.

Ma'naviy-axloqiy tarbiyada yana bir eng qimmatli qadriyat erkinlikdir. Ta'limni demokratlashtirish bilan birga shaxs erki va huquqini hurmat qilish rivojlanadi. Bu esa, o'z navbatida, o'quvchi shaxsida mas'uliyatni his etish, ongli intizomga rioya etish ko'nikmalarini tarbiyalaydi. Shuningdek, vatanparvarlik, xalqlar o'rtasida do'stlik va hamkorlik, mas'uliyatni his etish, burch, or-nomus, vijdonlilik, tartiblilik, adolatlilik va boshqa hislatlar tarbiyasi katta ahamiyatga ega.

Bugungi kunda jismoniy tarbiya, mehnat tarbiyasi yanada muhim ahamiyat kasb etmoqda. Sog'lom turmush tarzini tarkib toptirish, ayniqsa, zarurligini kundalik hayot tarzi yanada yaqqol namoyon etmoqda.

Tekinxo'rlik, narkomaniya, tamaki mahsulotlari va spirtli ichimliklarni iste'mol qilish, fahsh, johillik kabi illatlar ham hayotda uchrab turadi. Bu illatlar insonning axloqiy qiyofasinigina emas, balki o'zini ham yemirib boradi. Inson ham ma'naviy, ham jisman halok bo'ladi. Shu bois insonning ma'naviy-axloqiy tarbiyasini tashkil etish ijtimoiy tarbiyaning boshqa yo'nalishlaridan ustun qo'yilishi zarur. Binobarin, ma'naviy-axloqiy tarbiya yosh avlod tarbiyasi bilan bog'liqdir. Agar tarbiyaning boshqa yo'nalishlarida muayyan tarbiya (masalan, jismoniy, huquqiy va boshqalar) u yoki bu tarbiyaviy tadbirlar tizimiga asoslansa, ma'naviy-axloqiy tarbiyada esa har bir tarbiyalanuvchining o'ziga xos xususiyatlarini, tarbiyaviy vaziyatni inobatga olgan holda, yaxlit tarbiyaviy ishlar rejalashtiriladi va unga mos metod hamda usullar tanlanadi.

Ta'lim-tarbiyaning milliy-ma'naviy negizlari orasida ma'naviy-axloqiy his-tuyg'ular inson tomonidan, uning voqea-hodisalar, kishilar hamda o'z xulqiga nisbatan his-tuyg'ularni uyg'otishga rag'bat paydo qiluvchi tarbiyaviy ishlar tizimli tashkil etilgandagina samarali kechadi. Mazkur tizimda xulq-atvorni shakllantirishga oid tarbiyaviy ishlar aks etadi. Shunga ko'ra, ma'naviy-axloqiy xulq-odobga doir xislatlarni shakllantirishga undovchi rag'bat bilan hosil bo'ladigan faoliyat eng asosiy bo'lib hisoblanadi.

Shu o'rinda ma'naviy-axloqiy tarbiya to'g'risida ham fikr bildirish maqsadga muvofiqdir. Buyuk ma'rifatparvar olim Abdulla Avloniy "Turkiy guliston yoxud axloq" asarida axloq "insonlarni yaxshilikka chaqiruvchi, yomonlikdan qaytaruvchi bir ilmdu'r", deydi. Aynan axloq, uning ijtimoiy ahamiyati haqida ma'lumot beruvchi mazkur manbada alloma yaxshi va yomon xulqlarga to'xtalib o'tadi. Allomaning nuqtayi nazaricha, yaxshi xulqlar quyidagilardan iborat: fatonat (aql), diyonat (e'tiqod), nazofat (poklik va toza-

lik), g'ayrat, riyozat (savob ishlar), qanoat, shifoat, ilm, sabr, hilm (yumshoq tabiat), intizom, nafs me'yori, vijdon, vatanni suymak, haqqoniyat, naza-ri ibrat, iffat, hayo, idrok va zako, hizfi lison (til va adabiyot), iqtisod, viqor (g'urur), muhabbat, afv (kechirimli bo'lish). Bu xislatlar ma'naviy-axloqlilikning asosiy sifatleri sanaladi. Ular asosida Vatanga muhabbat va sadoqat, mehnatga axloqiy munosabat, o'z atrofdagilarga axloqiy yondashuv, har bir o'quvchining o'zi va shaxsiy xulq-atvoriga munosabatni qaror toptiriladi.

Taraqqiyparvarlarimizdan Mahmudxo'ja Behbudiy yangi usul maktablarini tashkil qilish bilan birgalikda tarbiya ishlarini ham samarali tarzda rivojlantirib borgan. O'zining ta'lim-tarbiya, ma'naviyatga oid fikrlarini “Oyna” jurnalida berib borgan. Behbudiy o'z hayoti davomida 200 dan ortiq ilm-ma'rifat, ma'naviyat, tarbiya va axloq masalalariga doir maqolalar yozib, matbuotda e'lon qilgan.

Yuzaga kelgan muammolarni hal qilish uchun yuksak ma'naviy e'tiqod va sabr-toqat bilan odamlarni uyushtirish, ular dunyoqarashida yangi jamiyat tafakkurini shakllantirish muhim vazifa darajasiga ko'tarildi. Shu o'rinda ta'lim tizimida ham yangicha yondashuvni davrning o'zi taqozo etdi. Kadrlar tayyorlash milliy dasturining maqsad va vazifalari, deb nomlangan qismida mazkur masalaga oydinlik kiritildi: “Mazkur dasturning maqsadi ta'lim sohasini tubdan isloh qilish, uni o'tmishdan qolgan mafkuraviy qarashlar va sarqitlardan to'la xalos etish, rivojlangan demokratik davlatlar darajasida, yuksak ma'naviy va axloqiy talablarga javob beruvchi yuqori malakali kadrlar tayyorlash Milliy tizimini yaratishdir”.

Mamlakatimizda ana shu muammolarni hal etish jarayonlari ketmoqda. Shuning uchun ham Prezidentimiz og'ir iqtisodiy muammolarni hal etish jarayonlari murakkab holatda kechayotganligiga qaramasdan kadrlar tayyorlash dasturini ishlab chiqish, uni qabul qilish va hayotga tatbiq etish masalasini asosiy vazifa sifatida belgilab berdi hamda uni amalga oshirishda rahbarlik qilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Oliy Majlisning IX sessiyasidagi ma'ruzasida bu dasturning ahamiyatini shunday ta'kidladi: “Lo'nda qilib aytganda, bugungi kunda oldimizga qo'ygan buyuk maqsadlarimizga, ezgu niyatlarimizga erishishimiz, jamiyatimizning yangilanishi, hayotimizning taraqqiyoti va istiqboli amalga oshirilayotgan islohotlarimiz, rejalarimizning samarali taqdiri – bularning barchasi, avvalambor, zamon talablariga javob beradigan yuqori malakali, ongli, mutaxassis kadrlar tayyorlash muammosi bilan chambarchas bog'liqligini barchamiz anglab yetmoqdamiz”.

Milliy-ma'naviy tiklanishimizda yoshlarimiz ma'naviyatini yuksak darajaga ko'tarish, ularning hozirgi zamon fan, texnika va texnologiya yutuqlarini chuqur o'zlashtirishlari katta omil ekanligi Davlatimiz rahbari tomonidan ilmiy asoslangan. Haqiqatan ham, jahonning rivojlangan mamlakatlari tajribalari ko'rsatib turibdiki, qaysi mamlakat yoshlari zamonaviy fan, texnika va texnologiya yutuqlarini qanchalik mukammal egallasa, mamlakat taraqqiyotiga qo'shadigan hissalar shunchalik samarali bo'ladi, ma'naviyat yuksaladi va mamlakatning hozirgi zamon jahon sivilizatsiya tizimiga kirib borishi tezlashadi.

Fikrimiz so'ngida yuqoridagi mulohazalar asosida quyidagi xulosalarni keltirish mumkin:

1. O'zbekistonda ta'lim-tarbiyaning milliy-ma'naviy negizlari murakkab, o'ziga xos tushuncha bo'lib, asrlar mobaynida ajdodlarimiz tomonidan ushbu sohada shakllangan tajribalari asnosida yuzaga kelgan va eng asosiysi ushbu tajriba vaqt sinovlaridan muvaffaqiyatli o'ta olgan.

2. Ta'lim-tarbiya va milliy ma'naviyat bo'yicha ajdodlarimiz bizga ulkan meros qoldirishgan. Ana shu tajribadan to'g'ri foydalanish va shu bilan birga, ta'lim va tarbiya inson omilini birinchi o'ringa qo'yishimiz lozim.

Bugungi kunda ta'lim va tarbiya tizimini to'xtovsiz rivojlanishi, ilmiy yangiliklar bilan boyib borishi zarurligini tushunishimiz va bu yo'nalishda umumbashariy tamoyillarga murojaat qilishimiz, xorijiy mamlakatlar fan-texnika yutuqlaridan samarali foydalanishimiz muhim ahamiyat kasb etadi.

Umumbashariy qadriyatlar va tamoyillarga mos ravishda yoshlarimiz mehnat bozorida raqobatbardosh bo'lishlari, xorijiy tillarni yaxshi o'zlashtirishlari, axborot texnologiyalaridan, zamonaviy bilimlardan xabardor bo'lishlari, mutaxassisliklari bo'yicha chuqur nazariy va amaliy bilimlarga ega bo'lishlari talab qilinadi.

Yuksak intellektual salohiyatli yoshlarimiz o'zligini anglagan, milliy-ma'naviy qadriyatlarimizdan xabardor bo'lgan va eng asosiysi, Vatanimiz taraqqiyoti uchun bor bilim-salohiyatini ishga soladigan bo'lishlari, hech shubhasiz, yangi mazmundagi ta'lim-tarbiya tizimining pirovard maqsadi bo'lishi kerak.

Ta'lim-tarbiyaning milliy ma'naviy negizlari globallashtirish va "ommaviy madaniyat"ning zararli ta'sirlaridan yoshlarimizni saqlab turuvchi, ularni ma'naviy qadriyatlarimiz negizida tarbiyalovchi o'ziga xos bir asos bo'lib xizmat qilmoqda.

Milliy-ma'naviy qadriyatlarimiz umumbashariy qadriyatlarni o'ziga qabul qilib, ta'lim-tarbiyaning samaradorligini oshishiga, rivojlanishga ta'sir ko'rsatmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov I.A. *"Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q"*. *"Muloqot" jurnali, № 5, 1998-yil.*
2. Karimov I.A. *"O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li"*. – T.: *"O'zbekiston"*, 1992. – 65 b.
3. Abdulla Avloniy. *Turkiy guliston yohud axloq*. – T.: *"O'qituvchi"*, 1992.
4. *O'zbekiston Respublikasi Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi. 1997-yil 29-avgust // lex.uz*
5. Karimov I.A. *"Barkamol avlod orzusi"*. – T.: *O'zbekiston Milliy ensiklopediya davlat ilmiy nashriyoti, 2000.* – 9 b.
6. I.A. Karimovning *O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi kuniga bag'ishlangan tantanali marosimidagi nutqi // Xalq so'zi, 1999-yil 8-dekabr.*

Замира САФАРОВА,
старший преподаватель
Сурхандарьинского ОИП и ПКРНО

ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ПОДХОДЫ К РАЗВИТИЮ ТВОРЧЕСКИХ СПОСОБНОСТЕЙ УЧАЩИХСЯ

Аннотация

Ushbu maqola zamonaviy maktabning asosiy maqsadlaridan biri – o'quv va tarbiya jarayonida ijodkor shaxsni shakllantirish, maktabda ijodkorlikni tarbiyalash kabi masalalarga qaratilgan.

Kalit so'zlar. Zamonaviy maktablar, ijodkorlik, ijodkorlik (kreativ) qobiliyatlari, suhbat, fikr, bajarmoq.

Данная статья посвящена одной из социально значимых целей современной школы - формированию творческой личности в процессе обучения и воспитания, вопросам обучения творчеству в школе.

Ключевые слова. Творчество, творческие (креативные) способности, беседа, замысел, исполнение.

This article is devoted to one of the socially important objectives of modern school - the formation of a creative personality in the process of training and education, issues of teaching to creativity in school.

Key words. Creative work, creative abilities, conversation, plan, education, execution.

В современном мире человеку просто необходимо уметь творчески мыслить, принимать нестандартные решения. Но в школе часто обучение сводится к запоминанию и воспроизведению стандартных приёмов действия, типовых способов решения заданий. Это снижает интерес к обучению.

Задача учителя состоит не только в том, чтобы дать учащимся как можно более глубокие знания по предмету, но и развить творческие способности каждого ребёнка. То есть раскрыть в детях качества, лежащие в основе творческого мышления, сформировать умение управлять процессами творчества: фантазированием, пониманием закономерностей, решением сложных проблемных ситуаций.

В настоящее время внимание к проблеме развития творческих способностей школьников усиливается во многих странах мира. Задатки творческих способностей присущи любому ребенку. Нужно суметь раскрыть и развить их. Выпускники средних школ должны не только овладевать материалом школьных программ, но и уметь творчески применять его, находить решение любой

проблемы. Это возможно только в результате педагогической деятельности, создающей условия для творческого развития учащихся.

Мы живем в век научно-технической революции, и жизнь во всех ее проявлениях становится разнообразнее и сложнее; она требует от человека не шаблонных, привычных действий, а подвижности мышления, быстрой ориентировки, творческого подхода к решению больших и малых задач. Человеку с творческим складом ума легче не только сменить профессию, но и найти творческую “изюминку” в любом деле, увлечься любой работой и достичь высокой производительности труда.

Именно в школе начинается процесс становления качеств творческой личности. И очень важно правильно организовать этот процесс.

Творчество – это процесс человеческой деятельности, создающий новые материальные и духовные ценности или итог создания субъективно нового.

Единство развития и обучения является основополагающим принципом современного школьного образования, а изучение русского языка - процессом и результатом познавательной деятельности, направленной на усвоение основ теории языка в целях коммуникации, на речевое, умственное и эстетическое развитие, на овладение культурой народа как носителя языка.

При современном развитии науки и техники, увеличивающемся объеме информации, которую необходимо довести до сведения учащихся, недостаточно использовать традиционные способы обучения, необходимо их совершенствование на основе новейших технологий. Одним из путей такого совершенствования является разработка концепций развития творческих способностей школьников на уроках русского языка с начальной ступени обучения ребенка в школе.

Для более активной мыслительной деятельности учащихся применяется один из методов обучения – беседа. При беседе ставятся вопросы для обсуждения предстоящей работы, уточняются и дополняются ответы учащихся. Беседа может носить характер свободной дискуссии, развивает самостоятельность суждения творческого замысла.

Замысел является основой творчества, высшим уровнем человеческого сознания, преобразующего мир, условием стимулирования и формирования творческих способностей у школьников, свободой сознательной деятельности.

Замысел наполняет всю работу в целом, так как продумывается весь путь к получению результата труда, цели труда: использование материалов, средств труда, последовательность операций и подготовка к работе. Она включает в себя заготовку и подбор сырья, наладку инструментов, раскладку их на рабочем месте (если речь идет о создании каких – либо изделий).

Исполнение – венец, высшая форма работы – представляет собой непосредственное изготовление изделия, завершает подготовку, реализует замысел. Исключительную роль в достижении успеха при исполнении играет владение школьниками необходимыми умениями, навыками, привычными действиями, которые они получают в процессе практической или теоретической деятельности.

Для того, чтобы учащиеся сознательно усваивали знание и трудовые навыки, творчески, с полной отдачей сил использовали их в труде, чтобы у них

формировались творческие способности, чтобы развивалась творческая личность, в процессе беседы для воплощения замысла в реальность следует применять различные группы приемов: мотивационные, оказания помощи, стимулирующие.

Следующая группа приемов связана с выполнением учебного задания.

Иногда на занятиях встречаются ситуации, когда учащиеся по различным причинам затрудняются выполнить ту или иную работу. С этой целью используются приёмы оказания помощи.

К приёмам оказания помощи относятся: напоминание, конкретизация, постановка наводящих вопросов.

Приём напоминания применяется, если необходимые знания или способы действия не удерживаются в памяти учеников к моменту их использования, и допущенная в самом начале ошибка может повлиять на дальнейший ход работы.

Конкретизация обеспечивает правильное осознание учащимися задания. Она позволяет использовать примеры, представление о которых уже сформировалось у школьников.

Наводящие вопросы — вопросы, сформулированные так, чтобы подсказать ученику ожидаемый от него ответ.

Задания творческого характера на уроке русского языка предполагают вариативность решения задания. Они должны быть направлены на развитие интеллекта, психических функций, приемов и операций умственной деятельности. Для развития творческих способностей необходимо развить у учащихся следующие умения:

- классифицировать объекты, ситуации и явления по различным основаниям;
- устанавливать причинно-следственные связи;
- видеть взаимосвязи и выявлять новые связи между системами;
- рассматривать систему в развитии (динамике);
- выявлять и формулировать противоречия;
- представлять пространственные объекты;
- использовать разные системы ориентации в воображаемом пространстве;
- представлять объект на основании выделенных признаков, что предполагает преодоление психологической инерции мышления, оценивание оригинальности решения, сужение поля поиска решения, мысленное преобразование объектов в соответствии с заданной темой.

Развитие творческих способностей ученика во время урока возможно при наличии следующих условий:

- свободная атмосфера в школе и в классе (без авторитарности);
- доверие и уважение к ученикам со стороны учителя (наводящая помощь);
- высокий уровень познавательных интересов среди учащихся, игровые методики учителя, решение субъективно-творческих задач;
- внимание к интересам каждого ученика, к его склонностям, здоровью и способностям;

- атмосфера общей культуры в школе, так как педагог может достичь желаемого результата, если сам имеет склонности к творчеству и созиданию[□].

Творческие задания по русскому языку учитель должен давать систематически, начиная с наиболее легких. Но и перегружать заданиями нельзя, так как интерес к их выполнению в таком случае пропадет.

Творческие упражнения организуются и проводятся по-разному, поскольку различен характер усваиваемых школьниками занятий, умений и навыков творческой, практической деятельности. Однако всем видам творческих упражнений присущи общие этапы работы и дидактические приёмы их подготовки и проведения.

При обучении русскому языку школьников значительное место занимают различные методы обработки и усвоение материала учебника.

В процессе работы с учебником используются и виды работ частично творческого характера: составить предложение по опорным словам, на заданную тему, разных конструкций, дописать предложения, восстановить текст, составить ответы на вопросы, озаглавить рассказ, составить элементарное описание, провести элементарный анализ композиции текста, сопоставительный анализ художественных и научных текстов и т.д.

Например, частично творческий характер носит работа по завершению предложений по догадке:

Ташкент – столица (Республики Узбекистан).

В центре городского сквера ... (стоит) памятник... (Амиру Тимуру). Рядом ... (находится) ... (музей) тимуридов... т.д.

Виды работ с творческой основой: составь устный рассказ на тему, из данных предложений, по картине, рассказ в связи с прочитанным, по впечатлениям или наблюдениям, с использованием языкового материала, развёрнутый рассказ, связанный рассказ по плану, рассказ о герое, изложение по тексту, рассказ сжатый, подробный с элементами описания, с заменой лица, с элементами рассуждения, изложение по началу и концу.

Основной задачей учителя на уроках русского языка является обучение школьника умению целесообразно и правильно пользоваться языковыми средствами для выражения своих мыслей. К основным приемам развития творческих способностей относятся следующие:

- написание сочинений и изложений;
- игры “Экзамен”, “Лингвистические угадки” и иные;
- творческие словари, ребусы, шарады, кроссворды;
- творческие задания на дом;

В каждом ребенке нужно развить способность владеть словом, понимать слово, анализировать его употребление в контексте. Детей необходимо как можно чаще ставить в позицию автора, давать возможность, раскрыть свою личность, выявить отношение к происходящему, выразить свои чувства, эмоции.

Активность и самостоятельность учащихся - один из основных принципов дидактической системы. Задача учителя состоит не в том, чтобы давать детям готовые знания, а в том, чтобы направлять их умственную деятельность. Уча-

щиеся должны по возможности трудиться самостоятельно, а учитель - руководить этим самостоятельным трудом и давать для него материал. При этом важно, чтобы практические задания выполнялись школьниками не механически, а сознательно, нужно добиваться, чтобы в практическую работу дети вносили элементы творчества.

Для повышения активности и самостоятельности учащихся используются интерактивные методы обучения, игровые технологии.

Например, метод “Синквейн” – является средством творческого самовыражения. Воспитание всесторонней, гармоничной и творческой личности - главная задача учителя. Наличие творческих интересов у школьников способствует росту их активности на уроках, качества знаний, формированию положительных мотивов учения, активной жизненной позиции, что в совокупности и вызывает повышение эффективности процесса обучения.

Использованная литература:

1. Львов М. Р. и др. *Методика преподавания русского языка в начальных классах.* – М.: Академия, 2009. – С. 28.

2. Кислов А. В. *Диагностика творческих способностей ребенка: практич. пособ.* – М.: Речь, 2011. – С. 64.

3. Гасилова Г.Т. *Русский язык. – Учебник для 6-го класса школ общего среднего образования с узбекским и другими языками обучения.* – Т., 2013.

4. Рожнова М.Э., Яминова У.Т. *Русский язык. – Учебник для 8-го класса школ общего среднего образования с узбекским и другими языками обучения.* – Т., 2014.

5. Иванова О. Л., Васильева И. Н. *Как понять детский рисунок и развить творческие способности ребенка.* – М.: Речь, 2009. – С. 92.

6. Ильин Е. П. *Психология творчества, креативности, одаренности: моногр.* – СПб., Питер, 2008. – С. 800 .

7. Литневская Е. И., Багрянцева В. А. *Методика преподавания русского языка в средней школе.* – М.: Академия, 2009. – С. 572.

Альбина САДЫКОВА,
кандидат педагогических наук, доцент
ТГПУ имени Низами

ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ КОНЦЕПЦИЯ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ИНФОРМАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В НАЧАЛЬНОМ ОБРАЗОВАНИИ

Аннотация

Mazkur maqolada ta'limni axborotlashtirish bo'yicha ishlab chiqilgan konsepsiya asosida boshlang'ich ta'lim jarayonida olib borilayotgan tadqiqotlar natijasi tahlil qilingan. Shuningdek, muallif boshlang'ich sinflarda axborot texnologiyalarini qo'llashning psixologik-pedagogik va nazariy asoslari, boshlang'ich sinflarda asosiy fanlarni o'rgatishda axborot texnologiyalari qo'llash metodikasi bo'yicha qator tavsiyalar berib o'tgan.

Kalit so'zlar. Pedagogik konsepsiya, axborot texnologiyalar, boshlang'ich ta'lim, informatika asoslari, kompyuter savodxonligi, metodika.

В данной статье изложена сущность педагогической концепции использования информационных технологий в начальном образовании. Также автором раскрыты психолого-педагогические и теоретические основы использования информационных технологий в начальных классах и подготовка будущих учителей начальных классов к преподаванию основ информатики и компьютерной грамотности.

Ключевые слова. Педагогическая концепция, информационные технологии, начальное образование, основы информатики, компьютерная грамотность, методика.

In this article the essence of the pedagogical concept of use of information technologies in primary education is stated. Also the author opened psychology and pedagogical and theoretical bases of use of information technologies in initial classes, and training of future elementary school teachers for teaching fundamentals of informatics and computer literacy.

Key words. Pedagogical conception, information technology, primary education, the foundations of computer science, computer literacy, methods.

В настоящее время происходят широкомасштабные реформы в сфере образования. В последние годы образование рассматривается как главный фактор и неперемнное условие устойчивого социально-экономического прогресса, движущей силой которого является личность, способная к поиску, самостоятельному, творческому мышлению, освоению новых знаний, социально-профессиональной деятельности и творчеству.

Ведущая задача школы, предоставляющей учащимся возможность реализовать свое право на получение образования и личностное развитие, заключается в создании соответствующей педагогической среды. Одно из важнейших мест в создании такой среды, занимает технология организации учебного процесса,

от которой зависит, в какую деятельность будет включаться ученик в процессе овладения содержанием образования, а, следовательно, и какие личностные качества будут проявляться и закрепляться в процессе такой деятельности.

Большое значение в Республике Узбекистан с первых шагов ее независимости придается вопросам обеспечения конституционных прав граждан на образование, в том числе и информационного обеспечения учебного процесса, в связи с чем возникла потребность в создании новой системы информационного обслуживания, основанной на современной технической базе и современных информационно-коммуникационных технологиях, охватывающих все аспекты деятельности образовательного учреждения.

Образование как важнейшая сфера человеческой деятельности, обеспечивающая формирование интеллектуального потенциала общества, находится ныне во всем мире в весьма сложном положении, так как объем знаний, необходимых человеку, интенсивно возрастает, а период времени на обучение человека (от начального до высшего) сохраняется практически неизменным. С появлением глобальной сети Интернет скорость обмена информацией, доступ к ней возросли на несколько порядков. На сегодня Интернет - мощная информационно-коммуникационная технология (ИКТ) по влиянию на развитие мирового общества, и в эту сферу включается все большее число пользователей. Создание и совершенствование компьютеров привело и продолжает приводить к созданию новых технологий в различных сферах научной и практической деятельности.

В связи с этим в Республике Узбекистан в 2004 г. было принято решение о разработке новой единой Концепции информатизации образования. В данной концепции рассмотрены:

- нормативно-правовая база реализации концепции;
- основные понятия цели, задачи и основные направления информатизации образования;
- обеспечение работ по информатизации образования;
- информатизация учебного и научного процессов;
- система открытого и дистанционного образования;
- учебно-методическая база информатизации образования;
- обеспечение безопасности информатизации образования;
- подготовка, переподготовка и повышение квалификации преподавателей в области информационно-коммуникационных технологий;
- формирование национальной школы программистов;
- научные исследования в области информатизации образования;
- формирование корпоративной сети передачи данных министерства высшего и среднего специального образования;
- эффективность использования информационно-коммуникационных технологий в образовании;
- этапы развития и стратегические направления информатизации образования;
- международное сотрудничество в области информатизации.

Компьютерная технология повышает интерес к обучению. В настоящее время существует огромное множество обучающих программ по самым разным

предметам, ориентированных на самые различные категории учащихся, начиная с детских садов и заканчивая слушателями курсов повышения квалификации.

В этой связи, основываясь на единой Концепции информатизации образования, мы сформулировали основные направления Концепции использования информационных технологий в начальных классах:

- обосновать психолого-педагогические и теоретические основы использования информационных технологий в начальных классах.

- определить методику применения информационных технологий в начальных классах при изучении основных предметов.

- подготовить будущих учителей начальных классов к преподаванию основ информатики и компьютерной грамотности в начальных классах.

Охарактеризуем сущность и возможности реализации выдвинутых задач.

1. Психолого-педагогические и теоретические основы использования информационных технологий в начальных классах.

“Для воспитания способности самостоятельного мышления учащихся архиважным является вопрос коренного изменения взаимоотношений учителя и ученика, выражаясь иначе, речь идёт о гуманизации учебного процесса... Такая сфера требует применения новых педагогических технологий” (И.Каримов).

Меняется школьник - меняется и учитель. В XXI веке педагог должен применять инновационные методы в своей работе, быть творчески ищущим человеком.

Задачи, которые ставят перед нами современные реалии, направлены на существенное преобразование процесса обучения. Традиционная школа решала проблему: “Как обращаться с ребенком, чтобы он более охотно и успешно усваивал содержание образования?” Однако сейчас вопрос должен стоять принципиально иначе: “Каким должно быть содержание образования, чтобы ребенок плодотворно развивался?”

Иными словами, не ребенок должен подстраиваться под содержание образования, а, напротив, содержание образования должно подстраиваться под ребенка. При этом, имеется в виду не просто адаптация содержания школьного предмета к индивидуальным и возрастным особенностям школьников, а именно кардинальная его перестройка в направлении учета реальных психологических механизмов интеллектуального развития личности.

В процессе обучения, развития ребёнка мы, прежде всего, обращаемся к его органам чувств. “В интеллекте нет ничего, что бы не прошло предварительно через органы чувств”. Слушает ли ученик или читает, наблюдает ли за действиями экспериментатора во время практических занятий – прежде всего, включаются в работу его ощущения и восприятие, и только затем – запоминание, установление ассоциаций, осмысление и т.д.

ИК-технологии повысят продуктивность учебно-воспитательного процесса только в том случае, если учитель хорошо себе представляет и понимает психологические основы их применения. При обучении необходимо воздействовать на все органы чувств обучаемого.

Существует три вида приема информации:

- визуальный (где задействованы зрительные анализаторы);

- аудиальный (где задействовано слуховое восприятие информации);

– кинестетический (основанный на ощущениях, чувствах).

Как известно из психологии, зрительные анализаторы обладают более высокой пропускной способностью, чем слуховые. Глаз способен воспринимать миллионы бит в секунду, ухо – только десятки тысяч.

Если человек только слышит информацию, то запоминает около 20% её объема, если видит – запоминает около 30%, если и слышит и видит – запоминает около 50%, если человек вовлекается в активные действия в процессе изучения, то усвояемость материала повышается до 75%.

